**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**U.FAYZIYEVA, N.JUMAYEV**

# UMUMIY PSIXOLOGIYA

*Oliy va o’rta maxsus vazirligi tomonidan oliy o’quv yurtlarining 5210200 – Psixologiya (sport psixologiyasi) ta’lim yo’nalishi talabalariga mo’ljallangan*

Buxoro - 2021

**U.Fayziyeva, N.Jumayev**

# UMUMIY PSIXOLOGIYA

Mazkur o’quv qo’llanma 5210200 – Psixologiya (sport psixologiyasi) ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo`lib, “Umumiy psixologiya” fan dasturi asosida yaratilgan.

O’quv qo’llanmada umumiy psixologiya fanining mohiyati, psixikani rivojlanishi, bilish jarayonlari, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi, individual-psixologik xususiyatlar, psixologik holatlarlarining psixologik mexanizmlarni o’z ichiga qamrab olgan. O’quv qo’llanmada shaxs to’g’risida umumumiy tushuncha, uning tuzilmasi, nazariyalari, asosiy metodlari, shaxs ehtiyojlari, motivatsiya, shaxsning individual psixologik xususiyatlar qiziqishi, emotsiya (hissiyot), iroda, xarakter, qobiliyat, temperamenti haqida ma’lumotlarni o’z ichiga olgan.

Учебное пособие рассчитан для студентов специальности 5210200 - Психология (спортивная психология) и основан предмета «Общая психология».

Учебник освещает сущность общей психологии, развития психики, познавательных процессов, эмоционально-волевой сферы личности, индивидуально-психологических особенностей, психологических механизмов психологических состояний. Учебное пособие содержит информацию об общем представлении о человеке, его строении, теориях, основных методах, личностных потребностях, мотивации, интерес к индивидуально-психологическим характеристикам человека, эмоциям, воле, характеру, способностям, темпераменту.

The textbook is designed for students of the specialty 5210200 - Psychology (sports psychology) and is based on the subject "General psychology".

The textbook illuminates the essence of general psychology, the development of the psyche, cognitive processes, the emotional-volitional sphere of the personality, individual psychological characteristics, psychological mechanisms of psychological states. The textbook contains information about the general idea of a person, his structure, theories, basic methods, personal needs, motivation, interest in the individual psychological characteristics of a person, emotions, will, character, abilities, temperament.

**Taqrizchilar:**

**Sh.R. Barotov -** Psixologiya fanlari doktori, professor, Xalqaro psixologiya fanlari Akademiyasi haqiqiy a’zosi (akademigi).

**E.Z. Halimov -** Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

# KIRISH

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari aniqlash maqsadi izlanishlar olib borilgan. Psixologik bilimlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tatbiq etish ko‘lami kengayib borishi uning mas’uliyati va nufuzi ortayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatdagi iqtisodiy-iijtimoiy islohotlarning samarali bo‘lishini taminlash, ishlab-chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlarida inson omilidan samarali foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi O‘zbekiston psixologlari oldiga umumiy psixologiya bilan bog‘liq bir qancha vazifalarni amalga oshirishda mas’uliyatni yuklaydi.

Inson tom ma’noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois uning shakllanishi va shaxs sifatida taraqqiyoti eng avvalo unga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv olamning o‘ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu imkoniyatlar tizimini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu o’quv qo’llanmada umumiy psixologiyaga kirish, shaxs va uning individual-tipologik xususiyatlari, bilish jarayonlari yuzasidan nazariy va amaliy tahlillar keltirilgan. Aynan mazkur masalalarni keng doirada tadbiq qilish zamon talablariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Albatta buning uchun insonlar psixologiyasini bilish, ularda kechadigan psixologik o‘zgarishlarni anglagan holda yondashishni talab qilmoqda. Bu jarayonda o‘z navbatida psixologik bilimlarga bo‘lgan yehtiyojni ortib borishini ko‘rishimiz mumkin. Chunki insonlar haqidagi bilmlarni qo‘lga kiritish uchun avvalo psixologik bilimlardan xabardor bo‘lishi lozim. O’quv qo’llanma dastur tarkibiga kiruvchi mavzular “Umumiy psixologiya” fanini to‘liq va batafsil ochib beruvchi tushunchalar, ko‘nikmalar hamda ilmiy mushohadalarni o‘z ichiga oladi. Mazkur o’quv qo’llanma hozirgi zamon psixologiyasining eng yangi yutuqlari, ilmiy mushohadalariga tayanuvchi nazariy va amaliy bilimlar, tamoyillar asosida yaratilgan.

# 1-MAVZU. YANGI DAVR VA PSIXOLOGIYA.

***Tayanch tushunchalar:*** *yangi davr va psixologiya, sinergetik yondoshuv, akmeologik yondoshuv, psixologiya fanining dolzarbligi, psixikaning zamonaviy va klassik ta'riflari, psixik jarayonlar, psixologiyaning tarmoqlari, psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi.*

## 1.1. Psixologiya sohasida XX asrda erishilgan yutuqlar.

Boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotiga qiziqish ortib borgan sari sekin-asta psixik jarayonlarning ham yaxlit bir tizimi bo'lishi va uni ham fanning yutuqlaridan foydalangan holda o'rganish mumkinligi g'oyasi paydo bo'ldi. Qolaversa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik hamda falsafiy qarashlar bilan tabiiy-ilmiy (anatomik, fiziologik, biologik, bioximik va boshqalar) qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanishi zarurati ortib bordi. Olimlar orasida aynan inson ruhiy olamini izchil va tizimli o'rganishga extiyoj paydo bo'ldi.

XIX asr oxirlarida, aniqrog'i, 1879 yilda nemis olimi Vilgelm Vundt Leybnis universitetida dunyoda birinchi ekmperimental psixologik laboratoriyaga asos soldiki, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o'zini ko'rsatishga haqli ekanligini isbotladi. Aynan shu insonning, Vundtning, psixologiya ilmi maktabini yaratganligida ham ma'no bor. Chunki Vundt tibbiyot fani bo'yicha ham mukammal bilimlarga ega bo'ldi, keyin fiziologiya sohasida muvaffaqiyatli ishladi, so'ngra falsafaga berilib ketdi. Balki, aynan bir qator fanlarni – ham gumanitar, ham tabiiy fanlar asoslarini yaxshi bilganligi obyektiv sabab bo'lgandirki, olim odam psixologiyasi, unda ro'y beradigan jarayonlar – oddiy sezishdan tortib, mavhum tafakkurgacha bo'lgan jarayonlarni, hissiy holatlarni amaliy tarzda eksperimentlarda o'rgana boshladi. Uning maqsadi – eng avvalo inson ongini tashkil etuvchi sof elementlarni ajratib olishdan iborat edi. Shuning uchun ham psixologiyada u asos solgan yo'nalish strukturalizm deb nomlandi. Vundtning ta'siri shu qadar bo'ldiki, yer

kurrasining boshqa bir tomonida – Amerika qo’shma Shtatlarida funksionalizm deb nomlangan yana bir yo’nalish paydo bo’ldi. E. Titchener asos solgan bu yo’nalish vakillari nafaqat ko’zga ko’rinmas ong tizimi elementlari, balki ko’z bilan ko’rish mumkin bo’lgan va faoliyat natijalariga asoslangan belgilar asosida ham inson xulqi-atvoriga baho berish mumkinligini isbotladilar. Boshqa bir yirik amerikalik psixolog V. Jeymsning tadqiqotlari amaliy ahamiyatga molik bo’ldiki, endi u dadil psixologiyani ong elementlari emas, balki ong faoliyatini o’rganuvchi fan deb ta’riflay boshladi. Ong dinamik, harakatdagi, o’zgaruvchan yaxlit tuzilma bo’lib, uning namoyon bo’lishida tananing shart-sharoitlari, uning faolligi muhim rol o’ynaydi. Shuning uchun ham bu ikki tuzilmalar odamning yangi sharoiitlarga moslashuvi, va umuman tashqi muhitda o’z o’rnini topishga imkon beradi. Yuqoridagi fikrlar ta’sirida XIX asrning oxirlarida bugun ham o’z aamiyatini yo’qotmagan bixeviorizm oqimi paydo bo’ldi. E.Torndayk va D.Uotsonlar asos solgan ushbu yo’nalish vakillarining asosiy g’oyalari shundan iborat bo’ldiki, ular psixologiyaning predmeti nafaqat ong, yoki nafaqat faoliyat, balki xulqdir, deb asoslashdi. Xulq u yoki bu xatti-harakatlar, amallar, reaksiyalarda ifodalanib, tashqi ta’sirot – stimulga bog’liqdir. Shuning uchun ham odam va uning psixologiyasini bilish uchun o’sha ta’sir ko’rsatuvchi va ta’sirlangan xulq o’rganilishi kerak. Bu narsalar bizning hozirgi sharoitimizda ham ishlab chiqarishni tashkil etishda, ta’lim berishda va psixoterapiyada inobatda olinadi, ular o’tkazgan mashhur “S→R” formulasi bizning sharoitlarda ham ta’sir ko’rsatish texnikasida inobatga olinadi, ular o’z dolzarbligini yo’qotgani yo’q.

## 1.2. Fanda yuzaga kelgan yangi yo‘nalishlar va yangicha yondoshuvlar.

Psixologiya fan sifatida shakllanib, unda olimlar qarashlari shakllanib borgan sari, ruhiy kechinmalar tabiyatini negizidan, ich-ichidan o’rganishga ehtiyoj paydo bo’ldi. XX asrning boshlarida paydo bo’lgan psixoanaliz yo’nalishi fandagi aynan shu kamchilikni bartaraf etish maqsadida paydo bo’ldi. Klassik psixoanalizning asoschilaridan bo’lgan avstriyalik olim Zigmund Freyd psixologiya nafaqat ong

sohasini, ya'ni bevosita odam tomonidan anglanadigan xulq-atvor shakllarini, balki ongsizlikka aloqador hodisalarni, ya'ni real sharoitda inson o'zi anglab yetolmaydigan hodisalar tabiatini ham o'rganishi lozim degan g'oyani ilgari surdi.

Freyd ikkita asosiy narsaga e'tiborni qaratdi:

Birinchi. Har qanday psixik jarayon yoki holat ongli, ongoldi va ongsiz bosqichlarda yoki holatlarda ro'y beradi. Shaxs tizimida ham bu uchchala bosqichning o'rni bo'lib, ular "Id (U) → Ego (Men) → Superego (Mendan oliy)" bo'laklarda ifodalanadi.

Id – psixik energiyaning o'ziga xos zahira joyi bo'lib, undagi jarayonlar inson tomonidan anglanmasa-da ongli hayotga ularning ta'siri katta.

Ego – tashqi olam bilan bog'langan, uning ta'sirlariga beriluvchan shaxs xususiyatlarini o'zida mujassam etadi va doimo "Id"ni siqib chiqarishga harakat qiladi. Shaxs kamol topib, jamiyat normalarini o'zlashtirib borgani sari "Id"ga tobelikdan qutulib borsa-da oxirigacha buning uddasidan chiqa olmaydi.

Superego – o'z navbatida "Ego"dagi mavjud ijtimoiy tasavvurlar va xulqiy odatlar ta'sirida rivojlanadi. Ya'ni, odam kishilik jamiyatida yashagan sari undagi e'tiqod, ideallar, individual "vijdoniga havola" xislatlardir. Insonda yuqoridagilarning qay biri kundalik xulq normalarida ustivor bo'lishiga qarab, uning jamiyatdagi mavqyei belgilanadi.

Ikkinchi. Inson xulq-atvorini va uning amallarini boshqarib turadigan psixik energiya ham borki, oxir-oqibat u shaxsning qiyofasini belgilab beradi. Boshqacha qilib aytganda, ehtiyojlarni qondirishga undovchi kuchlar – "libido" hamda "agressiv" energiyalar ham mavjuddir. Bu kuchlar shaxsning ma'naviy va aqliy salohiyatini ta'minlash maqsadida psixik quvvatni taqsimlovchi mexanizmlar rolini o'ynaydi. Odatda hadiksirash, doimiy xavotirlanish, psixoemosional qoniqmaslik kabi omillar ana shu taqsimotning nomuvofiqligidan kelib chiqadi.

Freydizmning jahon ilmi va malakiyoti uchun ta'siri shu qadar katta bo'ldi-ki, jamoadagi yoki guruhiy ongsizlik g'oyasini ilgarni surgan K.Yung hamda individual psixologiyani targ'ib etgan A.Adler va ularning izdoshlari bu konsepsiyani yanada rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu nazariya va

konsepsiya hanuzgacha shaxs psixologiyasini, psixoanaliz esa psixoterapiyani o’rganishda asosiy metodlardan biri sifatida qo’llanilib kelinmoqda.

Yuqorida ta’kidlangan strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm, freydizm oqimlari jahon psixologiya ilmining shakllanishiga asos bo’lgan bo’lsa, ular ta’sirida shaklangan boshqa o’nlab: assosiativ psixologiya, geshtaltpsixologiya, gumanistik psixologiya, ekzistensial psixologiya, kognitivizm, ramziy interaksionizm kabi yo’nalishlar uning qator masalalarini hal qilishga o’z hissasini qo’sha oldi. Eng muhimi – XX asrga kelib, psixologiyaning tadbiqiy sohalari paydo bo’ldi-ki, endi qo’lga kiritilgan yutuqlar bevosita ta’lim, tarbiya, sanoat, biznes, marketing xizmatlari, boshqaruv, sog’liqni saqlash, huquqbuzarlikni oldini olish sohalarga dadil joriy etila boshlandi. XXI asrning birinchi yiliga kelib, psixologiya nazariy, tahliliy fandan bevosita amaliyotning ehtiyojlarini qondiruvchi tadbiqiy fanga aylandi. Bugun bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o’tilayotgan O’zbekiston misolida ham psixologiya fanining jamiyatni erkinlashtirish va barqarorlashtirish borasida, inson omili imkoniyatlarini yanada yuksaltirish, uning tafakkur tarzini erkinlashtirish jarayonida roli ortib bormoqda. Lekin u bu yuksak vazifalarni bir o’zi, o’z tadqiqot metodlari yoki to’plagan empirik materallarigagina tayanib bajara olmaydi. Bu o’rindagi fanlar kooperasiyasi va boshqa turdosh fanlar bilan bevosita aloqasi amaliy ahamiyatga ega bo’ladi.

XX asr shu bilan xarakterli ediki, u turli fanlar oldiga konkret topshiriqlar qo’ya boshladi. Shuning uchun psixologiya fani oldida tadqiqotlar asosida psixologik qonuniyatlarni asoslash vazifasi turar edi. Ikkinchidan esa, Amerikada ko’pgina psixologlar o’z tadqiqot obyektlarini laboratoriyalarda ayrim psixik jarayonlarni o’rganishdan kichik guruhlarga ko’chira boshladilar. Bu davrda psixologiyada shakllanib bo’lgan uch asosiy oqim (psixoanaliz, bixeviorizm va geshtalt psixologiya) ichida ham ijtimoiy xulq-atvorni kichik guruhlar doirasida o’rganish tendensiyasi paydo bo’ldi. Bunda asosiy diqqat kichik guruhlarga va ularda turlicha eksperimentlar o’tkazishga qaratilgan edi. Bunday holatning paydo

bo’lganligi ijtimoiy psixologiyaning fan sifatida shakllanishida nihoyatda katta rol o’ynadi.

Geshtald psixologiya yo’nalishi negizida maxsus ijtimoiy-psixologik yo’nalishlarning - interaksionizm va kognitivizmning paydo bo’lganligi esa bu fanning eksperimental ekanligini yana bir bor isbot qildi.

Bixeviorizm yo’nalishlari doirasida o’tkazilgan ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar avvalo amerikalik olimlar K.Xall va V.Skinnerlar nomi bilan bog’liq. Ular va ularning izdoshlari hisoblangan K.Miller, D.Dollard, J.Tibo, G.Kelli va boshqalar diada - ikki kishi o’rtasidagi munosabatlarning xilma-xil eksperimental ko’rinishlarini tadqiq qilib, ularda matematik o’yin nazariyasi elementlarini kuzatdilar. Diada sharoitida tajribada o’tkazilgan tadqiqotlarda asosan mustahkamlash g’oyasini isbot qilishga urinildi. Klassik bixeviorizmdan farqli o’laroq ijtimoiy-psixologik bixevioristlar hayvonlar o’rniga laboratoriyaga naqd pulga odamlarni taklif eta boshladilar, shuning uchun ham ularning g’oyasida biologizm va mexanizm tarzda ilgarigi hayvonlarda to’plangan dalillar modelini insonlarda qo’llash hollari kuzatildi.

Psixoanaliz doirasida esa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar E.Fromm va J.Salliven ishlari bilan bog’liq bixevioristlardan farqli o’laroq bu yerda eksperimentlar ikki kishi emas, balki ko’pchilik ishtirokida o’tkazila boshladi. Ularning izdoshlari (V.Bayon, V.Bennis, G.Sheparde, V.Shutk) o’tkazgan tadqiqotlar tufayli hozirgi kunda ham katta qiziqish bilan o’rganilayotgan kichik “T” guruhlar psixologiyasi yaratildi. Unda guruh sharoitida bir odamning boshqalarga ta’siri, guruhning ayrim individlar fikrlariga ta’siri kabi masalalar ishlab chiqildi va ijtimoiy-psixologik treninglar o’tkazishga asos solindi.

Kognitivizm. K.Levin nazariyasi asosida paydo bo’lgan psixologik yo’nalish bo’lib, undagi o’rganish obyekti munosabatlar tizimidagi kishilar, ularning bilish jarayonlari, ong tizimiga taalluqli bo’lgan kognetiv holatlar bo’ldi. Kognitizm doirasida shunday mukammal, boshqalarga o’xshamas nazariyalar yaratildiki, ular hozirgi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Masalan, F.Xayderning balanslashtirilgan tizimlar nazariyasi, T.Nyukomning kommunikativ aktlar

nazariyasi, Festingerning kognitiv dissonanslar nazariyasi va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ulardagi asosiy g’oya shundan iboratki, shaxs o’ziga o’xshash shaxslar bilan muloqotga kirishar ekan, doimo munosabatlarda ruhiy mutanosiblik tenglik bo’lishiga, shu tufayli ziddiyatlardan chiqishga harakat qiladi. Maqsad - turli ijtimoiy sharoitlarda shaxs xulq-atvorining psixologik sabablarini tushuntirish va ziddiyatlarning oldini olish uchun yo’l-yo’riqlar ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi davrda ham taniqli ijtimoiy psixologlar Olport, Maslou, Rodjers va ularning safdoshlari gumanistik psixologiya doirasida bu ishlarni faol davom ettirmoqdalar.

Navbatdagi nazariya interaksionizm bo’lib, bu aslida sosiologik nazariya bo’lib hisoblanadi. Uning asoschisi Gerbart Mid bo’lib, uning qarashlari ta’sirida T.Sarbinning rollar nazariyasi, G.Xaymen va R.Mertonlarning referent guruhlar nazariyasi, F.Gofmanning ijtimoiy dramaturgiya nazariyalari shakllandi. Ular turli ijtimoiy sharoitlardagi xulq-atvorlarni tushuntirish orqali shaxs ijtimoiy-psixologik sifatlarining sabablarini topishga harakat qildilar. Har bir shaxs doimo ijtimoiy o’zaro ta’sir tizimida mavjud bo’ladiki, unda u to’g’ri harakat qilish uchun o’zgalarni tushunishga harakat qilishi, o’zgalar rolini qabul qilishga tayyor bo’lishi lozim. Lekin o’zgalar rolini to’g’ri qabul qilish uchun unda “umumlashtirilgan o’zga” obrazi bo’lishi lozimki, bu obraz shaxslararo muloqot jarayonida, har bir shaxs uchun ibratli bo’lgan kishilar guruhi bilan muloqotda bo’lish jarayonida shakllanadn.

### 1.3. Sinergetik va akmeologik yondashuvlar

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davr ichida juda ko’plab ilmiy tadqiqot natijalarini o’z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo’llanmalar yozildi. Lekin, bu bilan fan o’zining jamiyat oldidagi vazifalarini to’laqonli bajara oldi, degan xulosa chiqarib bo’lmadi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko’rsatgan barcha olimlar ko’proq diqqatlarini mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’siri masalasi o’tib borayotgan asrimizning oxiriga kelib,

o’ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda erishilgan yutuqlaridan eng muhimi shu bo’ldiki, inson o’z aqli-idroki, tafakkuri va ijodiy salohiyati bilan murakkab texnika, elektronika va boshqa shunga o’xshash global texnologiyalarni kashf etdi. Lekin shu bilan birga ana shunday murakkab texnologiyalarni yaratgan inson va uning hayoti bilan bog’liq muammolar kamaymadi. Vaqti kelganda, shunday faktga to’g’ri kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o’ta aqlli inson o’zi va o’z atrofidagilarning ruhiy kechinmalarini to’g’ri baholay olmasligi sababli, o’zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini  hayot isbotladi.

XXI asr bo’sag’asida juda ko’plab davlatlarda bo’lgani kabi dunyo xaritasida munosib o’rin olgan mustaqil O’zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko’tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma’naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizasiya bilan uzviy bog’ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o’z ustida ishlashi, o’z mukammalligi xususida qayg’urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Fanda yangi yo’nalishlar, yangicha yondoshuvlar paydo bo’ldi. Masalan, sinergetik yondoshuv barcha fanlarda bo’lgani kabi psixologiya, uning tarmoqlari hamda u bilan turdosh bo’lgan fanlar misolida yaqqol namoyon bo’la boshladi. Eslatib o’tamiz, “sinergetlar” so’zi grekcha “synergetes – xodimlar, sheriklar” so’zlaridan olingan bo’lib, sinergiya - hamkorlikdagi, hamjihatlikdagi harakat ma’nosini anglatadi. Ya’ni, inson va uning psixologiyasini o’rganish va unga ta’sir ko’rsatishda gumanitar fanlarning hamkorlikdagi rivojlanishi yoki boshqacha qilib aytganda, ushbu fanlar maqsadlarining mushtarak uyg’unlashuvi shaxs iqtidori va qobiliyatlarini rivojlantirishning ishonchli vositasi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, yangi davr fanlarini rivojlantirishga akmeologik yondoshuv ham mavjudki, unga ko’ra, har bir fanning inson uchun ahamiyati va o’rni o’sha fanlarning shaxs kamolotiga qo’shajak hissaning salmog’ini belgilash va baholashni taqozo etadi. (Akmeologiya grekcha “akme - cho’qqi, yuqori pog’ona, gurkiratuvchi kuch” ma’nolarini bildiradi va uning predmeti deganda insonning

o’z-o’zini rivojlantirish va o’zligini anglashini yuqori darajalariga yetishga o’rgatuvchi fanlar majmui tushuniladi). Shaxs psixologiyasini bilish, o’z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o’zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta’minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro’y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to’g’ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi. Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o’z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o’z davrida “O’z-o’zingni bil!” degan shiorni o’rtaga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga “O’z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil”, degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo’ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An’anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o’rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug’ullanadigan kimsalar o’rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo’lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o’zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

## Nazorat savollari:

1. Psixologiya sohasida XX asrda erishilgan yutuqlar haqida nimalarni bilasiz?

2. Psixologiya fanida yuzaga kelgan yangi yo‘nalishlar va yangicha yondoshuvlar sanab o`ting?

3. Sinergetik yondashuv haqida umumiy ma’lumot bering?

4. Akmeologik yondashuvlar haqida nimalarni bilasiz?

# 2- MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARBLIGI.

***Tayanch tushunchalar:*** *internetomaniya, shaxs, faoliyat, shaxsiyat, ongi, xulq-atvor, globalizasiya, jamiyat, obyektiv, subyektiv mafkura.*

## 2.1. Globalizasiya sharoitida psixologiya o‘rganadigan muammolarning dolzarbligi.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O’zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o’zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o’zini boshqa xalqlar oilasidagi to’la huquqli millat sifatida anglab yetishiga keng imkon yaratdi. Tobora kengayib borayotgan xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo’lish uchun qulay zamin yaratmoqdaki, bu o’z navbatida o’zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste’dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini tez o’rganib olish kabi iqtidorini ro’yobga chiqishiga, xorijiy mamlakatlarga borish, ular bilan aloqalar o’rnatish, dunyo standartlari bo’yicha oliy o’quv yurtlarida tahsil olish imkonini berdi. Ana shunday keng ko’lamli aloqalarga qaramay, xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparavarlik, saxovat an’analari yanada rivojlanib, iqtidorlari yuksaklarga ko’tarilmoqda. Bu insonga munosabatni, uni tarbiyalash ishining dolzarbligini yanada yaqqolroq tasavvur qilishga olib keldi.

Globalizatsiya sharoitida psixologiya o’rganadigan muammolarning dolzarbligi, avvalo, har bir shaxsning murakkab insoniy munosabatlar, axborot kommunikatsiyalari sharoitida yashayotganligi, inson xulqini boshqarish ayrim mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omili sifatida e’tirof etilishi bilan izohlanadi. O’z vaqtida Hindistonning taniqli siyosiy arbobi Maxatma Gandi shunday yozgan ekan: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o’tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo’lib, xonadonimni ag’dar-to’ntar qilib, o’zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman”. Bu so’zlarni

bugungi globalizasiya sharoitida insonning jamiyatda tutgan o’rni va zarur maqomni egallashiga, informatsion xurujlar va turli xil ma’lumotlarning turli yo’llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e’tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta’siri jarayonlari ma’nosida qo’llash shaxs ruhiyatiga aloqador sir-sinoatlarni bilishni, shaxsga o’z-o’zini himoya hilish, o’z ustida ishlash imkoniyatlarini bilishni dolzarb qilib qo’yadi. Zero, dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bemalol egallab, “***internetomaniya***” kasaliga chalinish arafasida turgan O’zbekistonga ham yaxshi, ham yomon ta’sirlar, xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsning o’zini-o’zi psixologik jihatdan salbiy ta’sirotlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Ya’ni, siyosat sohasimi, iqtisodiyotmi, mafkura yoki ma’naviyatmi, tarbiya yoki huquq masalalarimi, barchasida inson omili va uning manfaati talab va ehtiyojlarini o’rganish, undagi hayot jabhalariga ko’nikish va teran fikrlash qobiliyatlarini o’stirish fan oldida turgan eng muhim vazifadir. Yoshlarni milliy g’oya ruhida tarbiyalash inson aqli va shuuri uchun kurashning eng samarali usullaridan biridir. Shaxs ongi va xulqiga tajovuzlarning ortib borayotganligi, xulqni boshqarish barcha sohalarda ustivor bo’lgan bir sharoitda insonning ruhiyatini, unda sodir bo’ladigan murakkab jarayonlarni, holatlarni o’rganishning, yoshlarda mafkuraviy immmunitetning shakllanishining ahamiyati ham oshib boraveradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, odamni o’rganish qanchalik qadimiy va an’anaviy vazifa bo’lishidan qat’iy nazar, bugungi globalizasiya va bozor munosabatlariga o’tish davrida psixologiya fani uchun dolzarb bo’lmagan mavzu yoki jarayonning o’zi yo’qdir.

## 2.2. Insonni o‘rganishning ahamiyati.

XXI asrda inson omilining o‘rganilishi va tadqiq qilinishi bilan bog‘liq psixologik talablar bir muncha takomillashib bormoqda. Chunki, inson tom ma’noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi bois uning shakllanishi va shaxs sifatida

taraqqiyoti eng avvalo unga ta’sir etuvchi obyektiv va subyektiv olamning o‘ziga xos imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu imkoniyatlar tizimini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi psixologlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Psixologiya Inson aqliy faoliyatini o'rganish, kognitiv jarayonlar, xususiyatlar va psixikaning holatlarini shakllantirish bilan shug'ullanadigan fan. Psixologiya, shuningdek tashqi omillar psixikasiga va jismoniy shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Umumiy psixologiyaning ko'plab bo'limlari mavjud va ularning har birida psixogik psixologiya, yosh psixologiyasi o'rganilmoqda. Psixologiya insonni faoliyat mavzusi, shakllanishi va shaxsiy fazilatlari, dunyoni bilish va ular bilan aloqada deb hisoblaydigan ilm. Inson psixikasining paydo bo'lishining va rivojlanishining, aqliy holatlar va ularning voqelikka xos bo'lganligi, inson hayotidagi ijtimoiy va biologik omillarning birligi muhim jihatdir.

Insonning ilmiy bilimlari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

insonni o'rganayotgan individual intizomlarning tobora ortib borayotgan farqi;

bunday fanlarning tobora ortib borayotgan ixtisoslashuvi.

inson tadqiqotining turli fanlari va usullarini birlashtirish zarurati.

Zamonaviy odam bilan bog'liq turli xil muammolarga qiziqadi:

sog'lig'i; ijodi; mashg'uloti; fikrlari, hissiyotlari, motivlari; odamlarning ijtimoiy xulqi; xatti-harakatlari va boshqalar.

B.G.Ananev inson bilimlari tizimidagi to'rtta asosiy tushunchalarni ajratib ko'rsatdi:

shaxsiy;

faoliyat mavzusi;

shaxs;

shaxsiylik.

**Nazorat savollari:**

1. Psixologiya fanining bugungi kunda dolzarbligini izohlang?
2. Psixologiya fanining predmeti nimadan iboratligigni tushuntirib bering?

3. Psixikaning namoyon bo’lish shakllari qanday ko’rinishlari mavjud?

4. Psixologiyaning tarmoqlari va ularni boshqa fanlar bilan o’zaro bog’liqligini haqida fikrlarni sharhlang?

5. AQSH va RFdagi psixologiya maktablari haqida nimalarni bilasiz?

# 3- MAVZU. SPORT PSIXOLOGI FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

***Tayanch tushunchalar:*** *sport etikasi, psixolog faoliyati, muommala, professional faoliyat, amaliy psixolog, kasbiy mas'uliyat, psixodiagnostika, psixokorreksion ishlar.*

## 3.1. Sport psixologining statusi va etikasi.

Sport psixologiyasi - sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha XX asrning 60-70-yillarida jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi va uning ilk tadqiqotlari sportchilarning individual-psixologik farqlarini o'rganishga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib esa sport psixologiyasi o'rganayotgan muammolar ko'lami kengaydi, shu boisdan uning asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, erishgan yutuqlariga psixologik yordam ko'rsatish jabhalari bilan ham shug'ullanadi.

Jahon psixologiyasi fanining boy tajribasida amaliy psixologlar tayyorlash bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ijobiy, tatbiqiy ma'lumotlar muayyan darajada umumlashtirilgan. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab AQSh, Angliya va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda psixologik muammolarga juda katta e'tibor qaratila boshlandi. Hozirgi kunga kelib har bir sohada psixologlar jalb qilingan. Har bir sohada psixolog maslahatiga ehtiyoj sezilmoqda.

Inson qalbini qanday tushunmoq kerak? Nima uchun insonlar turli xil qobiliyatlarga egalar? Ruh nima va uning tabiati qanday? Bunday savollar insonlarni asrlar davomida qiynab kelgan, ular o'zlarining savollariga javob topa boshlashgan. Insonni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning yana bittasi B.G.Ananev tomonidan taklif qilingan bo'lib, u inson psixikasini o'rganishda yangi metodologik uslubni ishlab chiqqan. U insonga xos bo'lgan to'rtta asosiy sifatlarni ajratgan: individ, sub'ekt faoliyati, shaxs va individullik.

Umuman, bugungi kunda xalq orasida psixologlar haqida turli xil mulohazalar uchramoqda. Biz ularni ba'zilarini tahlil qilishga harakat qilamiz:

1. Psixologiya − bu insonning psixik jarayonlari kechishini biladigan fandir, psixologlar insonning ichki ruhiy holatini yaxshi biladi.

2. Psixolog − bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan mutaxassis  hisoblanadi.

3. Psixolog − bu insonlarning xatti-harakati, hissiyotlari, boshqalarning fikrini boshqara oladigan va shunga maxsus oʻrgatilgan insondir. U shunga xos boʻlgan texnikalardan foydalana oladi, masalan, gipnoz yoʻli bilan.

4. Psixolog − bu oʻzini yaxshi tushuna oladigan va har qanday vaziyatda ham oʻzini boshqara oladigan inson.

5. Psixolog − bu hayot haqidagi koʻproq tasavvurlarga ega boʻlgan donishmanddir, uning vazifasi qiynalgan insonlarga toʻgʻri yoʻl koʻrsatib, hayotda oʻz yoʻlini yoʻqotganlarga toʻgʻri maslahatlar berilishi bilan alohida ajaralib turadi.

Psixolog − bu insonlar bilan tez muloqotga kirisha oladigan va odamlarni tushuna oladigan inson hisoblanadi.

Kasb tushunchasi nima ekanligini aniqlab olishimiz zarur. Taniqli psixolog Y.A. Klimov kasbning turli xil holatlarini quyidagicha tahlil qilgan:

1. Kasb - bu insonlarni ma'lum bir holatlaridagi bir xilligidir. Toʻgʻri, turli xil kasb egalarining yashash sharoitlari turlicha boʻlishi mumkin. Hattoki bitta kasbda ham yashash darajasi turlicha boʻlishi mumkin. Bunda ularning oldiga qoʻygan maqsadlari ham muhim oʻrin tutadi, biroq kasblaridagi boshlangʻich qadriyatlar bir-biriga yaqin boʻladi.

2. Kasb insonlarning xatti-harakatlarini ajratadigan holatdir. Bunda psixolog mutaxassis sifatida oʻzini qanday namoyon qilishi koʻzda tutilgan. Ma'lumki psixologiya sohasi hali ham oʻrganilayotgan va qarimaydigan sohalardan biri hisoblanadi. Ularning usullari ham takomillashib bormoqda.

3. Shaxs xususiyatlari uning kasbiy faoliyatida yaqqol koʻrinadi. Bu esa kasb va shaxs uygʻunligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Kasb bu tarixiy rivojlanuvchi tizim hisoblanadi. “professiya” so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib "barchaning oldida gapirmoq" so‘zini beradi. Kasbning o‘zi insonlarning yashash sharoitlariga qarab o‘zgaradi. Asosan, psixologiya kasbi mashhur bo‘lgan shaxslarning hayoti bilan bog‘liq holda amalga oshirilgan.

5. Psixologiya kasbi reallikdir, bu sub’ektning o‘zini shakllanish imkoniyatini yaratadi. Demak, psixologiya kasbida insonlarning xatti-harakati orqali xulosaga kelishi mumkindir. Bunda yo‘riqnomalar ish bermasligi mumkin. Psixologiya sohasida insonlarga yordam berish holati eng ustun jihatlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Kasb tushunchasidan tashqari yana bir nom mavjud, bu mutaxassislik hisoblanadi. Masalan, psixologiya sohasi ijtimoiy psixologiya mutaxassisligi bo‘lishi mumkin. Umuman olganda kasb o‘z ichiga quyidagi tavsiflarni kiritadi:

1. Bu mehnatning chegaralangan ko‘rinishi bo‘lib, psixolog uchun boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqdir.

2. Bu kasb doimiy maxsus tayyorgarlikni talab qiladigan holat bo‘lib, bunda mutaxassislar doimiy tarzda malakalarini oshirishlari talab qilinadi.

3. Bu ma’lum bir maqtovlar, taqdirlash usullari kerak bo‘lgan kasblardan biri hisoblanadi.

4. Jamiyat uchun foydali bo‘lgan kasblardan biri hisoblanadi.

5. Bu kasb insonlarga ma’lum bir statusni berishi mumkin.

Hammaga ma’lumki, ko‘pgina insonlar o‘zlarini yaxshi psixolog deb hisoblashadi, ularning bu fikrga kelganliklariga sabab ular insonlar bilan muloqot qilishadi, boshqalarga hamdard bo‘la olishadi. Hayotiy psixologiya insonlarning hayotida kerak bo‘lgan sohalardan biri hisoblanadi, hattoki haqiqiy psixologlar ham bir necha bor hayotiy psixologiyaga murojaat qilishadi.

## 3.2. Bo‘lg‘usi psixologda muomala uslubini shakllantirish.

Hozirgi kunda shaxsga sub’ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun: odam-inson-shaxs-individuallik-subyekt-komillik ierarxiyasiga rioya qilish; shaxsga subyektiv munosabat, yani unda robot

sifatida barcha xususiyatlarini bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, "subyekt-subyekt" aloqasini vujudga keltirish;

- har qanday subyekt-shaxs, lekin har qaysi shaxs subyekt emasligi muammosini yechish;

- shaxs subyekt bo‘lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozisiya, dunyoqarash va ularni hayotga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligini tan olish" kabi muammolarning bartaraf etilishi shaxsning ijtimoiy munosabatlar majmuasini kamol toptirishga xizmat qilishi tayin.

Zero, inson munosabatlari uning xulq-atvorida ichki dunyosining shakllanishida, barcha psixologik jarayonlarida muhim boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Bunday boshqaruvchilikning yuksak ijtimoiy saviyada tarkib toptirilishi esa insonning hayotdagi ayrim muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan psixologik himoyalanish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Demak, munosabat psixologiyasi bo‘yicha qayd etilgan yuqoridagi mulohazalarning o‘ziga xos metodologik asoslari (tadqiqotlar). “Munosabatlar tizimini” psixologik xizmat jarayonida jiddiy o‘rganish va uni har bir shaxsda takomillashtirish lozim bo‘lgan ijtimoiy psixologik muxofaza omili (ko‘rsatkichlari) sifatida amaliy jihatdan tadqiq qilishga da’vat etadi. Psixologik xizmat jarayoni bilan bog‘liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining 2-yo‘nalishiga individual-tipologik xususiyatlarga asoslangan harakatlarning namoyon bo‘lishi kiradi.

Chunki, har bir inson u yoki bu ijtimoiy topshiriqni bajarar ekan, avvalo ushbu topshiriqni qanchalik tez, oson va sifatli qilib bajarish imkoniyatiga ega bo‘lsagina mazkur topshiriq shaxs kamolotiga xizmat qila olishi mumkin. Mazkur yo‘nalishdagi psixologik muhofazaning mohiyati shundaki, har bir shaxsning faoliyatga nisbatan keragidan bir necha barobar ortiq kuch sarflashga va osongina turli muvaffaqiyatsizliklarga uchramaslikka qarshi o‘laroq shaxs istiqbolini ko‘zlashga qaratilgan tadqiqotlar va tadbirlar ko‘lami oldindan belgilanadi. Amaliy jarayon bilan bog‘liq shaxs muvaffaqiyatli faoliyatining uchinchi yo‘nalishi esa faoliyatga nisbatan faol ijobiy munosabatning tarkib topishi va namoyon bo‘lishidir. Bunda shaxsning faoliyatdan qoniqishi, xulq-atvoridagi motivatsion

tizimning ijtimoiy qimmatga ega bo‘lgan boshqaruvchilikka taalluqli sifatlarini yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Zero, har jihatdan ijtimoiy faollikka xizmat qiluvchi sifatlar namoyon etilmagan joyda shaxs va jamiyat uyg‘unligining ta’minlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi barcha imkoniyatlar qo‘ldan boy beriladi. Vaholangki, bunday "imkoniyatlar"ni hamisha "muhofaza" qilish nafaqat ijtimoiy tashkilotlarning, balki har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Shunday qilib, psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan mazkur fikr-mulohazalar psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy yo‘nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi.

1. Amaliyotchi psixolog har bir shaxsning faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini tadqiq qilishga qaratilgan usullar va uslublar majmuasiga asoslanishi lozim.

2. Amaliyotchi psixolog shaxsning faoliyat jarayonidagi o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga va faoliyatga bo‘lgan munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog‘liq izlanishlar ko‘lamini o‘z ichiga oladi.

3. Amaliyotchi psixolog jarayoni bilan bog‘liq ijtimoiy muhim ko‘rsatkichlarning tahlili har bir shaxs faoliyati uchun xarakterli bo‘lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustanovkaning qaror toptirilishini o‘rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.

4. Amaliyotchi psixolog ijtimoiy jarayonini ijtimoiy psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilish muammosi bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va bu muammoni bartaraf etishda ma’lum psixologik tamoyillarga tayanish talab qilinadi.

## 3.3. Psixolog muomalasining tuzilishi va shakllari.

Amaliy psixolog statusiga ega bo‘lishni istagan insonna bir qator talablar qo‘yiladi ularning birinchisi u oliy ma’lumotli psixolog bo‘lishi zarur. Bunday diplom oliy o‘quv yurtini bitirganda yoki ikkinchi mutaxassislik orqali olinadi.

Bundan tashqari amaliy psixolog albatta psixoterapiya, psixokorreksiya, patopsixologiya, defektologiya, psixologik maslahat, tibbiyot, pedagogika, sotsiologiya, huquq fanlaridan habardor bo‘lishi talab qilinadi. U albatta bolalar bilan muloqot qila olishi talab qilinadi. amaliy psixolog albatta psixologik maslahat sirlaridan habardor bo‘lishi lozim. Amaliy psixolog albatta hamma sohalarda ishlaydi. Amaliy psixologning statusi rahbar kabi yuqori bo‘ladi va shu bilan birga u hammaga hamdard bo‘la oladigan inson bo‘lishi talab qilinadi. U mijoz bilan suhbatlashayotgan albatta mijozning psixologik xavfsizligini ta’minlashi zarur bo‘ladi. Psixolog uchun psixologik xizmat sohasida ishlash vaqtida albatta psixodiagnostika sohasini yaxshi bilishi, psixologik maslahat bera olishi talab qilinadi. Bundan tashqari amaliy psixolog EHM sohasini yaxshi bilishi talab qilinadi.

1. Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo`yicha ma’lumot almashishdan iborat bo`lgan o`zaro ta’sir etishdir. Muloqotning tizimida o`zaro bir-biriga bog`liq jihatlari ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va pertseptiv. 1. Muloqatning kommunikativ jihati bu muloqatdagi individlarni ozaro ma’lumot almashinishidir. 2. Muloqotning interaktiv jihati bu individlar muloqatda nafaqat bilim va g`oyalar balki harakatlar bo`yicha ham o`zaro ta’sirini tashkil etishdan iborat. 3. Muloqatning pertseptiv jihati muloqot jarayonida o`zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir.

Demak, muloqot birgalikdagi xarakat extiyojlaridan kelib chikadigan, aloqa almashish, bir - biriga ta’sir etish, boshqalarni tushinish, odamlar o`rtasida kontakt o`rnatish va rivojlantirish jarayonidir.

Muloqot hayot kechirishning bir shaklidir. Muloqotning o`zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatdan tashqarida uning pertseptiv jihati munosabat ishtirokchilarining uning jarayonida amalga oshiriladigan o`zaro idrok etish yuzaga keladi. Taniqli psixolog S.L.Gubinshteyn shunday deb yozgan edi: “Kundalik hayotga odamlar bilan muomalaga kirisharkanmiz, biz ularning xulq - atvoriga mo`ljal olamiz. Negaki biz ularning tanqidiy ma’lumotlariga ma’lumotlari mohiyatini go`yo o`qib ya’ni mag`zini chaqib chiqamiz va shu yo`sinda kontekstda

mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo`lgan mazmunini aniqlaymiz”.

Bunday o`qish naridan beri tez yuz beradi, chunki tevarak atrofdagilar bilan muomala jarayonida avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma’no hosil bo`ladi. Muomala prioretiv jihati bu kishining kishi tomonidan idrok etilishi, tushunilishi va baholanishi demakdir. Identifikatsiyalash - bir kishi ikkinchi kishini uning ta’rifini o`z ta’rifiga anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda o`xshatilishi orqali tushinish usulidir.

Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa, xabar beruvchi funktsiyani va o`zini - o`zi boshqarish funktsiyasini bajaradi. Steriotiplashtirish – xulq -atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma’lum va mashhur deb sanalgan ya’ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo`li bilan ularning sabablarini o`zgartirishdan iboratdir. Ko`p hollarda insonlarning bir-birlarini idrok etishlari «ijtimoiy pertseptsiya» sifatida namoyon bo`ladi. Muloqotning bu jihati ijtimoiy pertseptsiya haqidagina emas, balki shaxslar aro pertseptsiya haqida hamdir. Inson jamiyatda shaxs sifatida qabul qilingani sari. Muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo`ladi. S.L.Rubenshteyn aytganidek: «Biz insonni tashqi xulq - atvoriga qarab o`qiymiz». «Boshqa odamni bila turib, o`rganayotgan individning o`zi ham shakllanadi» deb yozgan edi L.S.Egodskiy. Insonni inson tomonidan idrok etilishida kamida 2 kishi jalb qilingan bo`lishi lozim bo`lib, ularning ikkalovi ham faol sub’ektdir. O`zini boshqa inson tahlil qilishini o`z ichiga identifikatsiya va reflektsiyani kiritadi.

### 3.4. Psixolog ixtisosning asosiy qurollari va psixotexnikasi.

Amaliy psixologning kasbiy mahorati uning bilimlari texnikasi va inson muomalasining psixoterapevtik texnologiyasini yaxshi bilishida deb hisoblaniladi, u suhbatga kirisha olishi va insonlarni o‘ziga jalb qila olishi, ularni ishontira olishi zarur bo‘ladi. U o‘zida ishonch uyg‘ota olishi talab qilinadi va insonlarga psixologik ta’sir o‘tkaza olishi zarur bo‘ladi. Demak bo‘lajak amaliy psixologlar uchun birinchi talab ularning muloqot qila olish qobiliyatini mavjudligi

hisoblanadi. Etika jihatidan psixolog o‘z ma’naviy qadriyatlariga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bunda u mijozning shaxsiyatiga tegmasligi kerak. Mijoz bilan albatta shirin momalada bo‘lishi talab qilinadi. Ularning axloqiy jihatlari quydagilarni hisobga olishi kerak:

1. Professional faoliyatda amaliy psixolog albatta hamma uchun mas’uliyatli bo‘lishi zarur.

2. Amaliy psixolog o‘z vazifasini sidqidildan bajarishi lozim, u atrofdagilarning so‘zlariga qarab o‘zgarmasligi zarur.

3. Psixologning vazifasi mustaqil va avtonom tarkibga ega, u hech kimga bo‘ysunmaydi. Uning psixologik nuqtai nazardagi qarori yakuniy natijaga ega bo‘lishi zarur.

4. Psixologning qarorini inkor qilish huquqiga faqat maxsus komissiya ega ular yuqori malakali mutaxassislar hisoblanib ularga bunday huquqlar berilgan.

5. Psixolog haqqoniy va samimiy bo‘lishi zarur.

6. Unda kasbiy mas’uliyat hissi bo‘lishi lozim.

7. Psixolog himoyachi sifatida ham ishtirok etishi mumkin, u o‘z mijozlarining psixologik holatlarini himoya qiladi.

8. U psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarni amalga oshirayotgan vaqtida ehtiyotkor bo‘lishi zarur.

9. Agar psixolog mijozining haq- huquqlar poymol qilinayotgan bo‘lsa, u buni yuqori tashkilotlarga yetkazish imkoniyatiga egadir.

10. U siyosiy g‘oyalardan, ijtimoiy g‘oyalardan, falsafiy fikrlardan xoli bo‘lishi zarur.

11. Amaliy psixolog psixodiagnostik, psixokorreksion, psixterapevtik natijalarni mutaxassis bo‘lmaganlarga ko‘rsatish huquqiga ega emas.

12. U insonlarga zarar ko‘rsatadigan holatlardan uzoqroq bo‘lishi talab qilinadi.

13. Psixolog o‘zining qila olmaydigan ishlari haqida mijozga va’da bermasligi kerak.

14. Psixolog ota-onaga, yoki yuqori mansabdagi insonlarga mijozi haqida tafsilotlarni bermasligi zarur.

15. U o‘rganilmagan metodikalarni mijozlarida qo‘llash huquqidan mahrumdir.

16. Psixolog albatta sir saqlashni bilishi zarur, u mijozining sirini xech kimga aytmasligi zarur.

17. Psixologik maslahatda albatta o‘z me’yorlariga amal qilishi talab qilinadi.

18. Agar psixolog shu me’yorlarni buzsa albatta uning hatti-harakatlari amaliy psixologlar jamoasida ko‘rib chiqiladi va tegishli jazo qo‘llaniladi.

## Nazorat savollari:

1. Sport psixologining statusi va etikasi deganda nimani tushunasiz?

2. Bo‘lg‘usi psixologda muomala uslubini shakllantirish qay tarzda amalga oshiriladi?

3. Psixologiyada muomalaning tuzilishi va shakllari haqida nimalarni bilasiz?

4. Psixolog ixtisosliginining asosiya psixotexnikasi haqida umumiy ma`lumot bering?

## 4-MAVZU. SPORT PSIXOLOGI TADQIQOTCHISINING FAOLIYATI OLDIGA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALABLAR.

***Tayanch tushunchalar:*** *psixolog ixtisosligi, o‘zini-o‘zi tayyorlash**,** psixik jarayonlar, irodaviy jarayonlar, hissiy jarayonlar, psixologiya institutlari, amaliyotchi psixolog vazifalari.*

### 4.1. Psixologning ixtisoslikka o‘z o‘zini-o‘zi tayyorlashning mazmuni va shakli.

Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo‘lishda aniq, yaqqol faoliyatining psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiya sohalarining tavsifiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog‘lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filo va ontogenetik o‘zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiy psixologiya boshqa sohalar kabi shartli ravishda qabul qilingan nomdan iboratdir. Psixologiya fanining ilmiy tushunchalarini, kategoriyalari (shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ong)ni, tadqiqot metodlarini umumiy psixologiyada umumlashtirish uchun uning boshqa sohalaridagi tekshirish natijalarini mavhumlashtirish maqsadga muvofiq. Shuning bilan birgalikda umumiy psixologiyaning tadqiqot natijalari psixologiyaning boshqa sohalari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar.

2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilar.

3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg‘ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress, affekt singarilar. Psixik holatlarga psixik jarayonlarning ma’lum bir sifatlarining ko‘rinishlari kiradi. Masalan, hissiy jarayonlardan psixik holat sifatida kayfiyat, psixik xususiyatlarga qobiliyatlar va boshqalar kiradi.

Umumiy psixologiyadagi bu bo‘linish shartli ravishda amalga oshirilgan bo‘lib, unda jarayon tushunchasi umumiy tadqiq qilinayotgan hodisaning jarayoniy xususiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, xolos. Psixik holat tushunchasi psixik holatlarga nisbatan nisbiy statikligini anglatadi. Psixik xususiyat tushunchasi esa tadqiq qilinayotgan hodisaning mustahkamligini, qaytaruvchanligini aks ettiradi va bu narsa shaxs tuzilishida o‘z ifodasini topadi. Umumiy psixologiyadan boshqa sohalar, bilimlar asos sifatida foydalaniladi, xuddi shu boisdan u universal xususiyat kasb etadi.

## 4.2. Psixologiya institutlari ilmiy faoliyatining xarakteristikasi (Sport federatsiyalari, olimpiya zahiralar kolejjlari, ilmiy muammoli laboratoriyalari).

Mamlakatdagi iqtisodiy-iijtimoiy islohotlarning samarali bo‘lishini taminlash, ishlab-chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi O‘zbekiston psixologlari oldiga amaliy psixologiya bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni amalga oshirish mas’uliyatini yukladi:

– aholi o‘rtasida psixologik savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish;

– har bir shaxs imkoniyatini jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnopsixologik tamoyillariga moslashtirilgan eng ilg‘or testlar, metodikalar, asosida o‘rganish, tahlil qilish va bu borada tegishli xulosalar chiqarish;

– xodimlarni tanlash va psixologik imkoniyatlari asosida turli sohalarga yo‘naltirishda ma’muriy tashkilotlarga ko‘maklashish, shuningdek barcha bo‘limdagi rahbar xodimlarning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot

talabiga mos psixologik savodxonligini oshirish maqsadida qisqa muddatli "ijtimoiy psixologiya" kurslarini tashkil etish;

– fuqarolarning kasbiy yo'nalishlarini aniqlash va mehnat birjalari faoliyatini rejalashtirishda faol yordam ko'rsatish.

Amaliyotchi psixologning faoliyatidagi vazifalar quydagilarni o'z ichiga oladi:

1. Psixolog o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hukumatining xalq ta'limi sohasi bo'yicha qabul qilingan normativ va instruktiv hujjatlariga amal qilgan holda amalga oshirishi shart.

2. Oliy o'quv yurtining psixologiya sohasini bitirganligini yoki amaliyotchi psixologlar tayyorlovchi qisqa muddatli (qo'shimcha mutaxasislik beruvchi) maxsus kurslarni (kamida 1000 soatlik) bitirib, psixolog mutaxassisligini olganligini tasdiqlovchi maxsus hujjatga ega bo'lishi kerak.

3. Psixologiya fanining eng so'nggi yutuqlardan xabardor bo'lishi, bolalar psixologiyasi, pedogogik psixologiyani, amaliy psixologiyani chuqur bilish shart. Diagnostik, psixoprofilaktik, rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlarining hozirgi zamon ilmiy asoslangan metodlari bilan qurollanishi, xalq ta'lim tizimida doimo o'z malakasini oshirib borishi kerak.

4. Muomolarni muhokama qilishda va qaror chiqarishdan kasbiy vakolat chegarasidan aslo chiqmaslik kerak.

5. Shu sohaning mas'ul mutaxasislari tomonidan ishlab chiqarilgan qoidalarga rioya qilgan holda ko'rsatmalar va tavsiyalarni qat'iy bajarish shart.

6. Barcha psixologik masalalarni hal qilishda o'quvchi manfaatidan, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.

7. Olingan ma'lumotlar sinaluvchining shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit a'zolari tahlikaga tushmasliklari uchun diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash.

8. Ma'muriyat o'qituvchilar ota-onalar bilan uzviy aloqada faoliyat ko'rsatish.

9. Bog‘chada, maktabda o‘tkaziladigan tadqiqot maqsadi mohiyati, vazifasi va natijalari yuzasidan pedogogik kengash, ma’muriyatga ma’lumot berish maqsadga muvofiq.

10. Ma’muriyatga, pedogogik kengashga o‘quvchilarga individual yondashishni ta’minlovchi imkoniyat, ularni hal qilishning psixologik shartlari, ta’lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olishning omillari, yo‘llari yuzasidan zarur yordam ko‘rsatish.

11. Bolalar va o‘quvchilarning alohida muamolarini hal qilishda yordam berish.

12. Ota-onalarni tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishda maslahatlar berish, muayyan holatlarini birgalikda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berish.

13. Ota-onalarga farzandlarining tibbiy yordamga muhtojligi yoki boshqa muassasalarga murojat qilish lozim ekanligini yuksak pedogogik odob bilan tushuntirish, berilayotgan ko‘rsatmalarga ularni ishontirish.

14. Barcha qoidalarga va tasdiqlangan hujjatlarga rioya qilgan holda o‘tkaziladigan barcha ishlarni qayd qilish va belgilash.

15. O‘z faoliyatini natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o‘z muddatida axbarot berish, qabul qilingan hisobot shakllariga hech og‘ishmasdan rioya qilish.

16. Barcha maktablarda maxsus talablarga javob beradigan darajada jihozlangan psixologik xizmat xonasi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir .

17. Amaliy psixologlar seminarlari, anjumanlarida faol ishtirok etish.

18. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ijtimoiy psixologik axloq-odob qoidalariga zid bo‘lgan tekshirishlar o‘tkazmaslik.

19. Bolalar, o‘quvchilarni tanlash komissiyasida ishtirok etish.

20. Ijtimoiy psixologik holatlarni o‘rganishda mahalliy hokimiyatga yordam berish va ommaviy barqarorlashtirishda oldingi safda bo‘lish.

## Nazorat savollari:

1. Psixologning ixtisoslikka o‘z o‘zini-o‘zi tayyorlashning mazmuni va shakli nimalardan iborat?

2. Psixologiya institutlari ilmiy faoliyatining xarakteristikasi haqida tushuncha bering?

3. Psixik jarayonlar, irodaviy jarayonlar, hissiy jarayonlar deganda nimani tushunasiz?

4. Amaliyotchi psixolog vazifalari nimalardan iborat?

## 5-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI.

**Tayanch tushunchalar:** *shaxsning individual psixologik xususiyatlari, temperament, xarakter, qobiliyat, psixika, psixik hayot, psixik mahsullar*.

### 5.1. Psixologiya fanining predmeti va uning fanda asoslanishi.

Jahon fanlarining ma’lum qonuniyatlariga asoslangan holda psixologiya fani muayyan turkumga kiritilgan. Chunki, psixologiya fani bu tizimda nufuzli o‘rin egallashiga barcha ob’ektiv shart-sharoitlar yetarli. Bunday qat’iy ishonch bilan aytilgan fikr zamirida bir qator muhim ham tabiiy, ham ijtimoiy omillar mavjud.

Zero, psixologiya fani insoniyat tomonidan kashf qilingan fanlarning ichida eng murakkabligi bois, biosferik ta’limotdan kelib chiqqan holda, psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyatini aks ettiruvchi kategoriya sifatida o'rganilib kelindi. Lekin bugungi kunda neosferik ta’limotga binoan fazoviy munosabatlar, sayyoralararo aloqalar, o'zaro ta’sirlar, moddalar, zarrachalar, nurlar harakati, almashinishi, qo‘shilishi to‘g’risida faraziy asosda bo’lsa ham mulohazalar yuritilmoqda. Psixologiya inson shaxsidagi psixologik xolatlar, xususiyatlar, jarayonlar haqidagi dastlabki bilimlar majmuasini berishga qaratilgan bo’lib, bunda muloqot, faoliyat, shaxs, bilish jarayonlari shaxsning hissiy-irodaviy motivatsion sohasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlari kabi sohalardan iborat.

Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko’ra pedagogika shaxsni ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan

ruhiy jarayonlarni o’rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, psixologiya fanining predmetini - shaxsning psixikasi va uning psixologik xususiyatlari tashkil qiladi. Psixologiya so’zining lug’aviy ma'nosi grekcha psyuxe - jon, ruh, logos - fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o’rganadi. Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko’ra psixikaning yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko’rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o’z ichiga oladi:

- bilish jarayonlari: diqqat, sezgi, idrok, xotira, xayol, nutq, tafakkur;
- shaxsning, hissiy, irodaviy sohasi: - hissiyot, iroda;
- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixik hayot hodisalari juda xilma-xil, ammo bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Psixologiyaning vazifasi ana shu bog‘lanish va munosabatlarning qonuniyatlarini ochib berishdir. Psixik hodisalar va butun psixika rivojlanib kelgan va xozirda ham rivojlanmoqda. Psixologiya fanining ma’lumotlaridan amaliy maqsadda va avvalo ta’lim-tarbiya ishida, shuningdek, ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda tibbiyotda, san’at va shunga o‘xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini bilish kerak. Shunday qilib psixologiya psixik hayot sohalari yoki, qisqacha qilib aytganda, psixikadan bahs yuritadi.

## 5.2. Psixikaning zamonaviy va klassik ta’riflari.

Psixika to‘g‘risida dastlabki tasavvurga ega bo‘lish uchun dastavval psixik hodisalar mohiyati bilan tanishamiz. Odatda, psixik hodisalar deganda ichki, subyektiv tajriba faktlarning (voqelikning) namoyon bo‘lishi tushuniladi, boshqacha so‘z bilan aytganda, psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Ichki, subyektiv tajribaning o‘zi nimani anglatadi? Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg‘ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari,

xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxsning ichki dunyosini tarkibiy qismlaridir, ya'ni bularning hammasi subyektiv psixik hodisalar sanaladi.

“Psixologiya” (yunoncha) so‘z bo‘lib, “jon”, “ruh” haqidagi “fan, ta’limot” degan ma’no anglatadi. Biroq hozirgi davrda “jon” tushunchasi o‘rniga “psixika”ni qo‘llashda davom etmoqda. Psixologiyada “jon”, “psixika” tushunchalari aynan bir xil ma’noni bildiradi. Lekin “psixika” tushunchasi bugungi kunda “jon”dan kengroq ko‘lamga ega bo‘lib, ham ko‘zga ko‘rinuvchi, ham ko‘zga ko‘rinmovchi tomonlarini o‘zida aks ettiradi. Psixikaning tarkibiy qismlari faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar miyada mujassamlashgani uchun ular ko‘zga ko‘rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular o‘rtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi. Subyektiv hodisalarning asosiy xususiyati - ularning bevosita subyektga taalluqliligidir. Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o‘zida tushunib turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo‘layotganligini anglab turamiz ham. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo‘lishidan tashqari, ular bevosita ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘lib turadi. Obrazli qilib aytganda, odamning ichki dunyosida turli hodisalar vujudga keladi, kechadi, odatda, shaxs bunday hodisalarni harakatlantiruvchi kuchi hamda ularning tomoshabini hisoblanadi.

Psixikaning turli shakllarda ko‘rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglashilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (yunoncha psyche – “jon”, somoto – “tana” ma’nosini anglatadi) hodisalar, inson aql-zakovati va qo‘lining mo’jizakorligi moddiy va ma’naviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda (voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo‘ladi, o‘zining xususiyatlarini ajratadi, faqat ular orqaligina psixikani o‘rganish mumkin. Psixologik voqelikfakt - deganda subyektning ichki kechinmalarining tarkibiy qismlari bilan bir qatorda ularning obyektiv shakllari (xulq-atvor, tana harakati,

jarayoni, faoliyat mahsuli, ijtimoiy-madaniy hodisalar) orqali psixikaning xususiyatlari, holatlari, qonuniyatlarini o‘rganish tushuniladi.

Psixologiya tarixi boshqa fanlar singari qiziqarli va mazmundor bilimlar sohasidan iborat. Psixologiya tarixi insoniyat tomonidan hayvonlarga va insonlarga xos bo`lgan psixik hayot hodisalari haqidagi bilimlarning asta-sekin to`planib borishi tarixidir. Insonning o`zi haqidagi bilimlarni to`plab hamda chuqurlashtirib borishidir. Biz psixologiya tarixi bilan tanishar ekanmiz, inson va hayvonlar psixik hayotini o`rganishga bo`lgan intilish kishilar hayotini har xil tarixiy bosqichlarda ularning qanday nazariy va amaliy ehtiyojlar bilan taqozo qilinganligini, ba`zi qonuniyatlari qanday ochilganligini bilib olamiz. Psixologiya tarixi tarixiy hayotning bosqichlarida, fan va madaniyatning umumiy taraqqiyoti munosabati bilan psixologik bilimlar sohasi qanday kengayib borganligi hamda dastlabki yakkayu-yagona bo`lgan psixologiya qay tarzda taraqqiy etib, butun bir psixologiya fanlar sistemasi darajasiga ko`tarilganligi haqida ham ma`lumot beriladi.

Psixologiya tarixi psixikaning yanada chuqur va aniq bilish imkoniyatini beradi. Psixologiya fani taraqqiyotga ko`maklashadigan foydali ilmiy tekshirish metodlarini izlanish va yaratishda katta o`rin tutadi.Psixologiyaning butun tarixi davomida idealizm va materializm o`rtasida kurash kechgan. Bu kurash psixologiya mohiyatini turlicha tushunadi, insondagi psixik va fiziologik hodisalarni o`zaro munosabatlarini tushunishda hamda psixologiya predmetini tushunishda ifodalangan. Albatta psixologiya tarixida turlicha qarashlar va yo`nalishlar bo`lishiga qaramasdan bu fanning predmeti, ya`ni inson va hayvonga xos bo`lgan psixika, psixik hayot bir xilligicha qolaveradi. Psixologik bilimlar taraqqiyotining butun tarixida psixologiya predmetining uchta ta`rifi mavjud; ruh (jon) haqidagi fan, ong haqidagi fan va xulq haqidagi fan. Psixologiyani ruh haqidagi fan sifatida talqin qilish, ruhni izohiy printsip deb uning faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qo`ygan. Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin qilish va psixikaning ongli qismini tadqiqot obyektiga aylantirib, bir vaqtning o`zida ong, ong ham predmet, ham izohiy printsip bo`lib xizmat qilgan. Psixologiya predmeti

sifatida xulqning tanlanishi ong psixologiyasi subyekt tizimini yengib, psixologiyani obyektiv tadqiqot yo`liga olib chiqdi. Lekin ayni paytda psixologiya psixika va ongni o`z tadqiqot predmeti sifatida yo`qotdi. Keyingi taraqqiyot ong va xulq (faoliyat) birligi printsipi asosida ong va faoliyatning tarixiy buzilgan aloqasi tiklanmoqda.

### 5.3. Psixik jarayonlarning namoyon bo‘lish shakllari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.

Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo‘ladi. Psixik hayot hodisalarida psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlar ajratiladi.

Psixik jarayon – psixik hodisaning qonuniy, ketma-ket o‘zgarishi, uning bir stadiya yoki fazodan ikkinchi stadiya yoki fazoga o‘tishdir.

Psixik mahsullar – psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar shaklidagi subyektiv psixik masullar kiradi.

Yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ular, tinchlik-farosat, hayajonlanish va ma’yuslanish, uyg‘oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlarini boshdan kechirish holatlarga kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni bilish, emotsional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo‘lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo‘ladigan ana shu turlar psixik funksiyalar deb ataladi.

Bilish hodisalari boshqacha aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq – bilish jarayonlaridir.

**Sezgilar –** muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko‘ruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta’sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, og‘ir, yengilni sezamiz.

**Idrok -** tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, musiqa va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar

asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok – tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil xossalarning miyamizdagi obrazlaridir.

**Xotira -** narsa va hodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo‘lgan obrazlari nom - ular miyamizda o‘rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi ko‘nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o‘rnashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. Idrok etilgan va ko‘ngildan kechgan narsalarning miyamizga o‘rnashib (esimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo‘lgan ana shu psixik faoliyatga aytiladi.

**Xayol -** narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo‘ladigan obrazlardan tashqari, o‘zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizdan katta joy oladi. Masalan, ibtidoiy odamning hayot sharoiti haqidagi tasavvurlarimiz, Marsdagi hayot haqidagi tasavvurimiz va shunga o‘xshashlarga aytiladi. Bu tasavvurlar xotiramizda bor ma’lumotlar asosida xayolda (fantaziyada) hosil bo‘ladi.

**Tafakkur -** idrok va tasavvurlarimizda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanadi, tahlil qilinadi va umumiylashtiriladi. Tafakkur - voqeylikning umumiylashtirilgan bevosita va eng to‘liq hamda eng aniq intiqosidir. Tafakkur jarayonlaridagi fikrlar – muhokama va tushunchalar tushuniladi va vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqe’likning idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda aniqroq, to‘laroq va chuqurroq bilib oladi.

**Nutq -** tafakkur nutqqa chambarchas bog‘liq. Fikrlarimiz – nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutq vositasida aloqa qilar ekanlar, fikrlarini bir-birlari bilan o‘rtoqlashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham nutqda o‘z ifodasini topadi. Nutq – kishilarning til vositasi bilan aloqa qilish usulidir.

**Diqqat -** yuqorida ko‘rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo‘lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat – ongimizning o‘zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga

qaratish, bir nuqtaga to‘plash demakdir. Diqqat o‘ziga alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarning aktiv borishi va sifatli bo‘lishi uchun zarur shartdir, xolos. Ba’zi psixologlar (masalan G.A.Fortunatov) diqqatni psixik holatlarga qo‘shadilar. Ammo, diqqat ong faolligining o‘ziga alohida bir ko‘rinishi ekanligini keyinroq yaqqol anglashiladi. Shu sababli diqqatni iroda sohasiga ham qo‘shish mumkin. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan, fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga nisbatan ko‘nglidan kechayotgan har xil yoqimli va yoqimsiz, xush yoki noxush tuyg‘ular emotsional sohaga (yoki hissiyot sohasiga) kiradi.

Biz dilimizda xush yoki noxush tuyg‘u his qilamiz, do‘stlik, vatanga muhabbat his qilamiz, urush olovini yoquvchilarga qarshi g‘azab xis qilamiz. Odamning emotsional tuyg‘ulari doimo uning ehtiyoj va manfaatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Odamning idrok qilayotgan, tasavvur etayotgan va fikr yuritayotgan narsasiga va qilayotgan ishiga ijobiy yoki salbiy munosabati hissiyotda o‘z ifodasini topadi.

## Nazorat savollari:

1. Psixologiya fanining predmeti haqida tushuncha bering?
2. Psixikaning zamonaviy va klassik ta’riflari nimalardan iborat?
3. Psixik jarayonlarning namoyon bo‘lish shakllari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nimalardan iborat?
4. Psixik mahsullar umumiy ma`lumot bering?

## 6- MAVZU. PSIXOLOGIYANING TARMOQLARI.

***Tayanch tushunchalar:*** *psixologik bilimlar, psixologiya tarixi, antik dunyo, empirik psixologiya, ekmperimental psixologik laboratoriya, strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm, psixoanaliz, kognitivizm, geshtald psixologiya, psixologiya va falsafa.*

### 6.1. AQSH va RFdagi mavjud ba'zi psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi.

Psixologiya fanini muayyan sohalarga bo'lishda aniq, yaqqol faoliyatining psixologik tomoni, insonning jamiyatga nisbatan psixologik munosabati, taraqqiyotining psixologik jabhasi asos qilib olingan. Psixologiya sohalarining tavsifiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filogenetik va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiy psixologiya boshqa sohalar kabi shartli ravishda qabul qilingan nomdan iboratdir. Psixologiya fanining ilmiy tushunchalarini, kategoriyalari (shaxs, motivatsiya, faoliyat, muomala, ong)ni, tadqiqot metodlarini umumiy psixologiyada umumlashtirish uchun uning boshqa sohalaridagi tekshirish natijalarini mavhumlashtirish maqsadga muvofiq. Shuning bilan birgalikda umumiy psixologiyaning tadqiqot natijalari psixologiyaning boshqa sohalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. 1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar. 2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilar. 3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg'ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress, affekt singarilar. Psixik holatlarga psixik jarayonlarning ma'lum bir sifatlarining ko'rinishlari kiradi. Masalan, hissiy jarayonlardan psixik holat sifatida kayfiyat, psixik xususiyatlarga qobiliyatlar va boshqalar kiradi.

Umumiy psixologiyadagi bu bo‘linish shartli ravishda amalga oshirilgan bo‘lib, unda jarayon tushunchasi umumiy tadqiq qilinayotgan hodisaning jarayoniy xususiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi, xolos. Psixik holat tushunchasi psixik holatlarga nisbatan nisbiy statikligini anglatadi. Psixik xususiyat tushunchasi esa tadqiq qilinayotgan hodisaning mustahkamligini, qaytaruvchanligini aks ettiradi va bu narsa shaxs tuzilishida o‘z ifodasini topadi. Umumiy psixologiyadan boshqa sohalar, bilimlar asos sifatida foydalaniladi, xuddi shu boisdan u universal xususiyat kasb etadi.

Eksperimental psixologiya - eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qilishning umumiy sohasi. Psixologiya fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish asosiy rol o‘ynagan. XIX asrning o‘rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o‘tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funksiyalarni o‘rganish orqali, ya’ni ilk bor sezgi va idrokni o‘rganish bilan boshlangan. Bu tadqiqotlar eksperimental psixologiyaning falsafa va fiziologiyadan mustaqil, alohida fan sifatida vujudga kelishiga muhim asos va obyektiv shart-sharoit yaratib bergan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o‘zining katta hissasini qo‘shgan. Ilk eksperimental tadqiqotlar o‘zini o‘zi kuzatish metodi yordami bilan insonning ichki funksiyalarini o‘rganishga qaratilgan edi. Keyinchalik eksperimental ishlar turlicha hayvonlarda o‘tkazila boshlangan. Tadqiqotlarning ko‘pchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar tomonidan olib borilgan. Eksperimental tadqiqotlar orqali faqat psixik funksiyalargina emas, balki hissiyotlarning individual variantlari ham tekshirilgan. Eksperimental psixologiyaning tadqiqotlari psixologiya sohalarining nazariyasiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik psixologiya - tarbiya va ta’lim muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishi, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o‘rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi - o‘qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta’sirini, shart-sharoit va boshqa

psixologik faktorlardan kelib chiqqan holda kuchaytirishdir. Pedagogik psixologiya XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy taraqqiyotning ta’siri natijasida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari pedagogik psixologiya rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Bundan tashqari, pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o‘sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo‘nalishlar ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazgan. Bixevioristik psixologiya yo‘nalishi pedagogik psixologiya uchun asos qilib, tarbiyachi va o‘qituvchiga vosita qilib tashqi muhit ta’sirini oladi. Tashqi muhit qanchalik ijobiy ta’sir qiluvchi omil bo‘lsa, ya’ni qulay shart-sharoit vujudga kelsa, demak, shaxsning tarbiyalanishi shunchalik ijobiy kechadi.

Hozirgi zamon pedagogik psixologiya rivojlanishi natijasida insonning individual-psixologik farqlari, ijtimoiy-tarixiy tajribalar ta’siri hamda boshqa odamlar o‘rtasidagi muloqot, muomala ta’siri borligini, shuningdek, yana bir qancha faktorlarni hisobga olgan holda shaxsni rivojlantiruvchi ta’lim orqali o‘qitish va tarbiyalash yotadi. Pedagogik psixologiyani shartli ravishda bir necha turga ajratish mumkin: a) ta’lim psixologiyasi; b) tarbiya psixologiyasi; v) o‘qituvchi psixologiyasi; g) oliy maktab psixologiyasi kabilar.

Tibbiyot psixologiyasi - kasallarning davolanishi, gigiyena, profilaktika, diagnostika jabhalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta’siri qonuniyatlari, insonning kasallikdan sog‘ayishiga mikrosotsial guruh ta’siri o‘rganiladi. Tibbiyot psixologiyasi o‘z ichiga klinik psixologiya, patopsixologiya, neyropsixologiya kabi bo‘limlarni qamrab oladi.

Tibbiyot psixologiyasi tarkibiga psixoterapiya sohasini ham kiritadilar. Tibbiyot psixologiyasining asosiy muammosi kasallikni davolashning inson psixologiyasiga ta’sirini tadqiq qilishdir. Uning asosiy muammosi insonning psixologiyasiga ijobiy ta’sir qiluvchi va shu bilan davolanishni tezlashtiruvchi ijobiy davolash muhitini tashkil qilishdir. Psixik hodisalar bilan miyaga fiziologik tuzilishlar o‘rtasidagi nisbatni o‘rganadigan soha - neyropsixologiya. Dorivor moddalarning kishi psixik faoliyatiga ta’sirini tekshiradigan soha -

psixofarmokologiya. Bemorlarni davolash uchun psixik jihatdan salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha - psixoprofilaktika.

Yuridik psixologiya - huquq doirasidagi munosabatlar odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Eksperimental psixologiya ta'siri ostida XX asrning boshlarida yuridik psixologiya sohasida ilk laboratoriya tadqiqotlari o'tkazilgan. Bu tadqiqotchilar guvohlarning ko'rsatmalarini va so'roqolib borish asoslarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Yuridik psixolog sifatida yozuvchi A.K.Doylning qahramoni Sherlok Xolmsni atash mumkin. Yuridik psixologiya bo'yicha tadqiqot ishlari o'sha vaqtlarda G.Gross, K.Marbe, V.Shtern, K.Yung va boshqa psixologlar tomonidan olib borilgan. Keyinchalik yuridik psixologiyaning o'ziga xos tadqiqot yo'nalishlari vujudga keldi: jinoyatchilar shaxsini tadqiq qilish, guvohlik ko'rsatuvchilar ko'rsatmalarini tekshirish, sud psixologiyasi ekspertizasining nazariy va amaliy tomonlari ishlab chiqilgan. Yuridik psixologiya umumiy psixologiyaning metodlari va o'ziga xos ularning shakllarini qo'llaydi. Hozirgi zamonda uning bir qancha bilimlari mavjuddir: kriminal psixologiya, sud psixologiyasi, jinoyatchilarni qayta tarbiyalash psixologiyasi yoki axloq tuzatish mehnat psixologiyasi kabilar.

Harbiy psixologiya - harbiy faoliyatning inson psixikasiga ta'siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish harbiy psixologiyasining asosiy muammolaridan biridir. Harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlar, komandirlar bilan jangchilar muloqotining psixologik xususiyatlari, favquloddagi holatlarda harbiy xizmatdagi kishilar psixikasining o'zgarishi, bo'linmalarda psixologik muhit masalasi, harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish birlamchi muammo ekanligi va hokazo. Harbiy psixologiya negizida sotsial psixologiya, mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, pedagogik psixologiya sohalarining nazariy-amaliy materiallari, umumbashariy qonuniyatlar yotadi.

Sport psixologiyasi - sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha XX asrning 60-70-yillarida jadal sur’atlar bilan rivojlana boshladi va uning ilk tadqiqotlari sportchilarning individual-psixologik farqlarini o‘rganishga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib esa sport psixologiyasi o‘rganayotgan muammolar ko‘lami kengaydi, shu boisdan uning asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotiga ta’sir o‘tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir. Bundan tashqari sport psixologiyasi sportchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga, erishgan yutuqlariga psixologik yordam ko‘rsatish jabhalari bilan ham shug‘ullanadi.

Yosh psixologiyasi - shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug‘ilishidan to umrining oxirigacha bo‘lgan davrni, ya’ni ontogenezni o‘rganadigan psixologiya sohasi.

Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan bo‘lib, u fan va texnika taraqqiyoti, jamiyat talabiga binoan bolalar psixologiyasi taraqqiyotida qo‘llanilgan. Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o‘smirlik va o‘spirinlik psixologiyasi, yetuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. U insonning ontogenezda rivojlanish jarayonida psixik holatlarning kechishi, psixik funksiyalarning roli, ularning o‘zgarishi, harakatlantiruvchi kuchlar, mexanizmlar, ta’sir o‘tkazuvchi obyektiv va subyektiv faktorlar, taraqqiyot qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Yosh psixologiyasi umr o‘tishi bilan psixologik farq, individual-psixologik xususiyatlar o‘rganishini o‘rganadi, tadqiqotlarda madaniy, ijtimoiy-tarixiy, milliy ta’sirni hisobga oladi. Shuning uchun yosh psixologiyasining obyektlari o‘ta murakkab bo‘lib, taraqqiyotlar taraqqiyotini tekshirishni taqozo qiladi. Jahon psixologiyasida to‘plangan barcha nazariy materiallarga, shu jumladan, genetik modellashtirish (L.S.Vigotskiy) metodlariga, egizaklar metodiga va shunga o‘xshash o‘ta murakkab jarayonlarning longityud (uzluksiz) uslubi yordamida tekshirishga asoslanadi. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri - bolani psixik rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida

psixologik yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir. Yosh psixologiyasi pedagogik psixologiyaning ilmiy, amaliy, tajribaviy asosi bo‘lib hisoblanadi, lekin boshqa sohalari bilan ham uzviy alohida faoliyat ko‘rsatadi, inson kamolotining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ijtimoiy ahamiyatga molik materiallar to‘playdi.

Maxsus psixologiya - normal psixik rivojlanmagan tug‘ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta’siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiqot qilish sohasi. Uning bir necha bo‘limlari mavjud: patopsixologiya - rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o‘rganuvchi soha; oligofrenopsixologiya - psixik rivojlanishning miyadagi tug‘ma asoratlar bilan bog‘liq patologiyasi to‘g‘risida tadqiqot ishlarini olib boruvchi soha; surdopsixologiya - quloq eshitishining butunlay kar bo‘lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug‘ullanuvchi, bolani voyaga yetkazishning omilkor yo‘l-yo‘riqlarini topuvchi, korreksion-tuzatish ishlarini olib boruvchi soha; tiflopsixologiya - chala ko‘ruvchi va mutlaqo ko‘zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi soha. Maxsus psixologiyaning yana o‘ziga xos tor bo‘limlari ham mavjud bo‘lib, insonlarning kasalligi, nuqsoni, aql-idrok darajasi, nutq faoliyati patologiyasiga binoan tadqiqot ishlari olib boriladi.

Qiyosiy psixologiya - psixologiyaning murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, psixikaning filogenetik holatlari va ularning shakllarini tadqiq qiladigan soha. Qiyosiy psixologiyada hayvonlar psixologiyasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ularning xulq-atvoridagi o‘xshashliklar va tafovutlar sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta’sir o‘tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi.

Zoopsixologiya qiyosiy psixologiyaning bo‘limidan iborat bo‘lib, u turli guruhlarga, turlarga mansub hayvonlar, jonivorlar psixikasini, ularning xatti-harakatlarini o‘rganadi. Etologiya - biologik va psixologik jabhalar qorishmasidan iborat bo‘lib, hayvonlarning xatti-harakatidagi tug‘ma alomatlar, mexanizmlar insonniki bilan umumiy negizga ega ekanligini o‘rganuvchi soha.

Differensial psixologiya - shaxslar o‘rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a’zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya’ni psixologik farqlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Differensial psixologiyaga F.Galton asos solgan bo‘lib, u individual farqlarni statistik analiz qilish uchun bir qancha usullar va asboblar yaratgan. Differensial psixologiya terminini nemis psixologi V. Shtern o‘zining “Individual farqlar psixologiyasi” (1900 yil) asarida ishlatgan. Differensial psixologiyaning asosiy metodlaridan biri - testdir. Avval individual testlar, keyinchalik esa guruhiy testlar qo‘llanila boshlangan, ular asosan aqliy rivojlanishdagi farqlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, muayyan vaqt o‘tgandan so‘ng proyektiv testlar ishlab chiqilgan. Mazkur testlar qiziqishdagi, intilishdagi, hissiyotdagi tafovutlarni tekshirishga qaratilgandir. Testlarning faktor analizi yoki intellektga oid ma’lumot beruvchi omillari o‘rganilgan. Jahon psixologiyasida eng keng yoyilgan nazariyadan biri - bu N.Spirmenning ikki faktorli konsepsiyasidir. Bu nazariyaga binoan, har bir faoliyat uchun umumiy bitta faktor mavjuddir, bundan tashqari, o‘sha faoliyatga qaratilgan xususiy faktor ham mavjud. Shu sohaga oid yana bir nazariya L.Tyorston, Dj.Gilford va boshqalarning multifaktorlik yondashuvidir. Mazkur nazariya umumiy faktor borligini inkor qiladi, unda boshlang‘ich aqliy qobiliyatlar asosiy o‘ringa qo‘yiladi. Psixologiya inson qobiliyatlari genetik, biologik omillarga asoslangan, degan g‘oya mavjud bo‘lib, ta’kidlanishicha, ular go‘yoki nasldan naslga o‘tadi. Hozirgi zamon differensial psixologiya diagnostika, prognostika metodlari yordami bilan shaxslarni qobiliyati bo‘yicha tanlashda ilmiy prinsip va qonuniyatlarga asoslanadi.

Psixofiziologiya - odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o‘rganuvchi psixologiya sohasi. Hatto differensial psixofiziologiya termini mavjud bo‘lib, uni 1963-yilda V.D.Nebilitsin tomonidan fanga kiritilgan. Psixofiziologiyaning ikkita asosiy tadqiqot yondashuvi mavjud: a) mustaqil amaliy tadqiqotlarda olingan fiziologik va psixologik natijalarni o‘zaro solishtirish, qiyoslash; b) biron-bir faoliyatda fiziologik funksiyalar o‘zgarishini o‘rganish.

Ijtimoiy (sotsial) psixologiya - odamlarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini, bu guruhiy tavsifni, shaxsning guruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi. Qadim zamondan ijtimoiy-psixologik voqelik falsafiy nuqtai nazardan oʻrganilib kelingan, lekin shaxs, guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Ijtimoiy psixologiya faniga asos boʻlib psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, etnografiya, kriminologiya, falsafa kabi fanlar xizmat qilib kelgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida sotsial psixologiyani fan sifatida rivojlantirishga ilk urinishlar boshlangan. Jahon jamoatchiligi tomonidan sotsial psixologiya 1908-yildan e'tiboran alohida fan sifatida tan olingan. Bunga asos boʻlib bir vaqtning oʻzida angliyalik psixolog U.V.Makdugall va amerikalik sotsiolog E.Rosslarning tadqiqot natijalari xizmat qildi. Chunki bu ishlarda "sotsial psixologiya" termini qoʻllanilgan edi. Urushdan keyingi yillarda AQShda va boshqa mamlakatlarda sotsial psixologiya muammolari yuzasidan tadqiqotlar oʻtkazish jarayoni keng yoyildi. Ayniqsa, AQShda oʻtkazilgan Kotornning tajribasi, E.Meyoning izlanishlari sotsial psixologiya tarixida asosiy rol oʻynaydi. Bu tadqiqotchilarning asosiy obyekti boʻlib kichik guruhlar xizmat qilgan, tajribalar laboratoriya sharoitida oʻtkazilgan. Sotsial psixologiya fan sifatida muloqot, muomala qonuniyatlari, shaxslararo munosabat, individual va guruhiy oʻzaro ta'sir, guruhlarning ichki va tashqi tuzilishi, ularning turlari, tasnifi, ommaviy holatlar va boshqalarni tekshiradi. Sotsial psixologiya bir necha sohalarni oʻz ichiga qamrab oladi: din psixologiyasi, oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.

Din psixologiyasi - psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini oʻrganuvchi psixologiya sohasi. Din psixologiyasi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan boʻlib, insonni ibodat qilishdagi, diniy an'analarni, rasm-rusumlarni bajarishdagi hissiyot

holatlarini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Diniy psixologiyani o‘rganish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda: a) umumiy nazariya: diniy ong, uning tuzilishi, diniy hissiyot, dinning shaxs shakllanishidagi ahamiyati; b) din psixologiyasi differensiatsiyasi: ijtimoiy muhit va tarixiy davrdan shakllangan ong va hissiyot tadqiqoti; v) diniy guruh psixologiyasi; g) diniy rasm-rusumlar psixologiyasi; d) hurfikrlilik ta’limi psixologiyasi kabidir.

Oila psixologiyasi - oilaning psixologiyasini o‘rganuvchi fanlararo tadqiqot qilishga yo‘nalgan psixologiya sohasi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o‘rganadi, u oilaga ta’sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlari, jinsiy tafovutlarga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o‘rganadi. Oila psixologiyasi tomonidan to‘plangan materiallar oila mustahkamligini saqlash uchun maslahatlar berishda, sotsiologik va psixologik dasturlar tuzishda qo‘llaniladi. Shuningdek, oila tiplari, tuzilishi, ierarxiyasi, ularga ta’sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar ham mazkur sohaning tadqiqot predmetiga kiradi.

Boshqaruv psixologiyasi - jamiyatda faoliyat ko‘rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Parapsixologiya - hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo‘lgan psixik hodisalarni o‘rganadi. Ekstrasensorika - o‘ta sezuvchanlik, telepatiya - fikrni masofaga uzatish, kelajakka bashorat qilish va hokazo. Parapsixologiyaga nisbatan qiziqish qadimdan mavjud bo‘lib, unga nisbatan ishonch to hozirgi kungacha kamaygani yo‘q, goho uni psixotronika deb ham atashadi. Xiromantiya - qo‘l kaftiga qarab fol ochish, inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy soha.

Psixologik xizmat AQShda 1800-yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQShning birinchi amaliyotchi psixologlari o`z-o`zini tarbiyalash muammosini o`rgangan eksperimental psixologlar edilar. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot

koeffitsientini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik «Gaydens» xizmatining rivojlanishiga olib keldi.

Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Bine bo`lib, u bu sohada 1894-yildan ish boshlagan. 1905-yilda Fransiya ta’lim vazirligi Binega umumiy dastur bo`yicha o`qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qiladi va shu tariqa aqliy taraqqiyotda orqada qolgan bolalarni ajratadigan Bine-Simon testi yaratildi. 1909-yilda Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etiladi. 1970-yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etdi. Bunday guruhlar maktab psixologiyasi bo`yicha bir mutaxassis, ta’lim psixologiyasi bo`yicha bir mutaxassis, psixomotor rivojlanish bo`yicha bir 5 mutaxassisni o`z ichiga oladi. Bunday brigada 800-1000 o`quvchiga xizmat qiladi, bir maktabda joylashib, bir necha maktabga xizmat qilishi mumkin.

1985-yilda Fransiya pedagog-psixologlarining funktsiyalari aniqlab berildi. Pedagog-psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo`lidan kelgan barcha ishlarni qilishi kerak, bunda u bu ishlarga o`qituvchilarni va ota-onalarni ham jalb etishi mumkin. Pedagogik psixolog o`z ishida lozim topsa, maktab va oila tarbiyasiga qarshi chiqishi mumkin, deb maxsus ta’kidlangan.

Ko`pchilik Sharqiy Yevropa mamlakatlarida maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik markazlari shaklida tashkil etilgan. Masalan, 1980-yilda Chexoslavakiyada tarbiya masalalari bo`yicha modda maktab to`g`risidagi qonunga kiritildi. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog`lom shaxsning o`sishini ta’minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish, kasb tanlash muammolaridir. Chexoslavakiyadagi psixolog maslahatchining asosiy funktsiyasi psixodiagnostik faoliyatdan iboratdir.

Sobiq sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta’limida psixologiyadan foydalanish borasida urinishlar pedologiya doirasida vujudga keldi. Pedologiya rivojlanayotgan va o`sayotgan shaxsning barcha biologik va ijtimoiy xususiyatlarini qamrab oluvchi fandir. 1936-yilda pedologik qarashlarni to`xtatish haqida qaror qabul qilindi, shu bilan birga rus psixologlari amalga oshirayotgan

bola psixologiyasidagi ijobiy izlanishlar ham to`xtab qoldi. Faqat 60 yillarning oxiriga kelib, psixologlarning maktab ishida amaliy ishtirok etishi qayta tiklandi.

Sobiq Sovet Ittifoqida birinchi bo`lib Estoniyada 1975-yilda maktabda psixologik xizmat tashkil etildi (rahbari X.I.Liymets, Yu.L.Sierd bo`lib, tarbiyasi qiyin o`smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib bordilar). Rossiyada 1982-yilda maktablarda psixolog shtati ochildi. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga ulkan ulush qo`shgan, u ushbu mavzuda doktorlik dissertasiyasini yoqlagan va bir qancha asarlar muallifidir. 1984-yilda Moskvada sobiq sovet ittifoqida psixologiya institutida «SSSRda psixologik xizmat muammolari bo`yicha umumittifoq anjumani bo`lib o`tdi. Anjumanda maktabda psixologik xizmat sektsiyasi ham ish olib bordi.

## 6.2. Bizning sharoitimizda rivoj topayotgan va amaliy tus kasb etayotgan psixologiya tarmoqlarining qisqacha tavsiflari.

Psixologik xizmat-ijtimoiy psixologik muammo sifatida talqin qilinar ekan, barcha rivojlangan mamlakatlardagi kabi, O`zbekistonda ham mazkur psixologik xizmat muammosining qay tariqa va qanday ilmiy-tashkiliy asoslarda bartaraf etilayotganligini o`rganish, tahlil qilish va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, Respublikada psixologik xizmatga oid olib borilayotgan nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy tadqiqotlar ko`lamiga ma’lum tartibda baho bermay turib, O`zbekistonda psixologik xizmatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalasi haqida fikr mulohaza yuritib bo`lmaydi.

O`zbekistonda psixologik xizmat tarkib topishining dastlabki ildizlari va intihosi asrimizning 30-yillaridagi pedologiya fani va pedologik xizmat faoliyatlariga borib taqaladi. Mazkur yillarda ta’lim jarayonini tashkil etish va rivojlantirish o`quvchi va o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq psixologik omillarga asoslangan va bu talaygina yaxshi natijalar ham bergan. Biroq, afsuski, o`sha davrda sobiq ittifoq mafkurasi va xalq ta’limi o`rtasida paydo bo`lgan ayrim obyektiv va subyektiv ziddiyatlar oqimi umumta’lim maktablari uchun muhim ahamiyat kasb etgan pedologik xizmat ildiziga bolta urdi va uni rasmiy tarzda

yo`qqa chiqardi. Natijada, pedagogik psixologiya yo`li bilan bajariladigan barcha ishlar maktabda faqat pedagogik yondashuvlar asosidagina amalga oshirildi. Shunday bo`lsa-da, O`zbekistondagi umumta'lim tizimi bilan bog`liq izlanishlar va tadqiqotlar to`xtab qolgani yo`q. Ayniqsa, P.I.Ivanov, V.E. Chudnovskiy, M.G.Davletshin, M.Vohidovlar tomonidan ishlab chiqilgan qator ilmiy va metodik tavsiyalar maktabda psixologik xizmat tatbiqini yaratish uchun ma'lum darajada asos bo`lib keldi. Binobarin, 70-80-yillarda Toshkent Davlat Universiteti psixologiya kafedrasi olimlari tomonidan ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning hayotga tatbiqini amalga oshirish maqsadida talaygina mehnat jamoalarida psixologik xizmat tizimi joriy qilindi va Respublikamizda ilk bor qator mehnat va ishlab chiqarish jamoalarida inson va mehnat faoliyati, shaxs va shaxslararo munosabatlar, ishchi va rahbar, ruhiyat va rentabellik, rahbar va jamoa psixologiyasi bilan bog`liq ilmiy-amaliy ishlar olib borildi.

Shuningdek, 60-70 yillarda O`zbekiston Pedagogik Fanlar Ilmiy Tekshirish instituti xodimlari P.P.Zimin, V.A.Tokareva, M.Sh.Rasuleva, M.Dadajonovlar tomonidan maktabda psixologik xizmat tatbiqini o`rganishga oid qator izlanishlar, amaliy tadbirlar olib borildi. Ayniqsa, 1966-yilda Chirchiq shahrida axloqiy tarbiyaga oid, 1973-yilda Andijonda oilaviy tarbiyaga oid, Samarqandda taniqli psixolog N.A.Menchinskaya ishtirokida aqliy taraqqiyot muammolariga oid olib borilgan izlanishlarni alohida qayd etish mumkin. 1989-yilda O`zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomli TDPIda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O`zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G.Davletshin, E.G`.G`oziev, B.R.Qodirov, G`.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov, E.N.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nishanova, N.S.Safaev, F.I.Haydarov, S.X.Jalilova va boshqalar hissa qo`shganlar. 1998-yilda Sh.R.Baratov «Ta'lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari» mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

## Nazorat savollari:

1. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi haqida nimalarni bilasiz?
2. AQSH va RFdagi mavjud psixologik xizmat yo`nalishlarini izohlang?
3. Psixologiya tarmoqlarining qisqacha tavsiflari nimalardan iborat?

# 7- MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING METODLARI.

***Tayanch tushunchalar:*** *psixologiya fanining metodlari, kuzatish metodi, so'rov metodi, psixologik testlar, psixologik eksperiment, modellashtirish.*

## 7.1. Psixologiya fanining asosiy metodlari.

An'anaviy ravishda tadqiqot metodlari asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi. Asosiy metodlar - kuzatish va eksperiment – bola taraqqiyoti haqida ishonchli ma'lumot bera oladi. Yordamchi metodlar - test, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish - tasvirlovchi ma'lumot berib, bu ma'lumot asosida faqatgina taxminlarni ilgari surish mumkinbo'ladi.

Umuman, psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Shular to'g'risida umumiy psixologiya kursida keng ma'lumotlar berilgan. Bolalar psixologiya fani ham psixologiyaning boshqa sohalari singari o'ziga xos ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Quyida rus psixologi B.G.Ananevni tavsiya qilgan klassifikatsiyasiga asoslangan holda mazkur metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan.

**Psixologiyaning asosiy metodlari**.

| Asosiy metodlar | Asosiy metodlarning turlari |
|---|---|
| **Kuzatish metodi** | Tashqi (obyektiv kuzatish)<br>Ichki (o'z-o'zini kuzatish)<br>Erkin kuzatish<br>Standartlashtirilgan kuzatish |

| | |
|---|---|
| | Guruh ichida kuzatish<br>Guruh tashqarisida kuzatish |
| **So'rov metodlari** | Og'zaki so'rov<br>Yozma so'rov<br>Erkin so'rov (suhbat)<br>Standartlashtirilgan so'rov |
| **Testlar metodi** | Test-so'rov<br>Test-topshiriq<br>Proyektiv test<br>Intellekt testlari<br>Klinik test<br>Sotsiometrik test |
| **Eksperiment** | Tabiiy eksperiment<br>Laboratoriya eksperimenti<br>Shakllantiruvchi eksperimenti |
| **Modellashtirish** | Matematik modellashtirish<br>Mantiqiy modellashtirish<br>Texnik modellashtirish<br>Kibernetik modellashtirish |
| **Faoliyat natijalarini o'rganish** | Grafologiya<br>Rasmlarni o'rganish |

B.G.Ananev psixikani o‘rganish metodlarini to‘rt guruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik natijalarni sharhlash metodlari deb nomlagan. Bu guruhlar o‘zining maqsad va vazifasi bo‘yicha yana bir nechta toifa hamda turlarga bo‘linadi. Quyida mazkur metodlarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari hamda qiyosiy tavsifi berildi.

Tadqiqot metodlarining birinchisi, ya’ni tashkiliy guruhi o‘z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko‘pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o‘zaro taqqoslash), tibbiyot psixologiyasi (sog‘lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash), sport psixologiyasi (sportchilarning holati, uquvliligi va ishchanligini o‘zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalaniladi.

Ontogenez psixologiyasida esa qiyoslash metodi turli yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o‘zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o‘ziga xosligi kabilarni o‘rganishda qo‘llanadi. Psixologlardan L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, A.A.Smirnov, B.G.Ananev, D.B.Elkonin, P.Y.Galperin va ularning shogirdlari olib borgan tadqiqotlar (chaqaloqlik, go‘daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o‘smirlik, o‘spirinlik yosh davrlarini o‘zaro solishtirish) shu metoddan foydalanib amalga oshirilgan. Keyingi yillarda xalq ta’limi tizimi va ishlab chiqarishda “inson omili” muammosining ko‘tarilishi, vaqt taqchilligi, ishchanlik imkoniyati, psixologik moslik masalalarining alohida ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng qo‘llashni taqozo etmoqda. Bundan tashqari, tajribada olingan ma’lumotlarning ishonchliligini oshirishda ham qiyoslash metodi qo‘llanadi. Ayniqsa, sinaluvchilardagi o‘zgarishlarni ajratib olib qarash, tadqiqotning bosqichlarini alohida-alohida tahlil qilish, masalan, tajribaning birinchi bosqichi turli yoshdagi va jinsdagi odamlarga qanday ta’sir etganini aniqlash va hokazolar bu metodga diqqat-e’tibor ortib borayotganidan dalolatdir.

Umumiy psixologiyada qiyoslash metodi bilan bir davrda longityud (uzluksiz) metodi ham qo‘llanadi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto, o‘n yillab tekshirilishidir. Longityud metodidan psixologlardan nemis V.Shtern, fransuz R.Zazzo, rus psixologlari N.A.Menchinskaya, A.N.Gvozdev, N.S.Leytis, V.S.Muxina va boshqalar ko‘p yillardan beri foydalanmoqdalar.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Hasan-Husan, Fotima-Zuhra) yoki aralash jinsli (Hasan-Zuhra, Fotima-Husan) egizaklar kuzatilgan. Shuning uchun qator tadqiqotlarning “ona kundaligi” (N.A.Menchinskaya, V.S.Muxina) deb nomlanishi bejiz emas. Uzoq vaqt bir shaxsni (kichik guruhni) kuzatish unda paydo bo‘layotgan yangi fazilatlarning rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni (xatti-harakat) va ularning oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlari, ichki bog‘lanish qonuniyati, mexanizmi to‘g‘risida mukammal, ishonchli, barqaror ma’lumotlar to‘plash imkonini yaratadi.

Longityud metodi yordamida subyektiv omillarning o‘ziga xosligini, obyektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta’siri o‘rganiladi. Chunonchi, egizaklarning o‘xshashligi va tafovuti, ta’sirlanishi, his-tuyg‘usining o‘zgarishi, kishilar o‘rtasidagi individual farqlar (ishchanligi, temperamenti, oliy nerv faoliyati tizimi va hokazolar) bo‘yicha ma’lumotlar olish longityud metodi bilan amalga oshadi. Hozirgi davrda fan va texnika taraqqiyoti psixologik tekshirishlarning ilmiyligini yanada oshirish uchun (subyektiv omillarning ta’sirini kamaytirish maqsadida) yaxlit dastur asosida boshqa fanlar (tibbiyot, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, falsafa, mantiq va hokazolar) bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Amaliy yo‘sindagi ilmiy-tadqiqot ana shu ko‘p qirrali (kompleks) yondashishni talab qiladi.

Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos, tibbiyot psixologiyasi, muhandislik yoki aviatsiya psixologiyasida tadqiqot obyektiga tizimli yondashish tamoyili amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o‘rganilayotgan obyektdagi o‘zgarishlar turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o‘zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo‘lsa, kompleks yondashish ta’sirida ana shu o‘zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o‘rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ilmiy ahamiyatga molik bo‘lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi. Ilmiy tadqiqot metodlarining ikkinchi guruhi empirik metodlardan iborat bo‘lib, bu guruhga kuzatish (o‘zini o‘zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, so‘rov, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning mahsulini tahlil qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnoma, hujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz (aniqlash) va prognoz (oldindan belgilash) vazifalarini bajaradi. Insonda tug‘ilganidan umrining oxirigacha sodir bo‘ladigan psixologik o‘zgarishlarni chuqurroq va obyektivroq tadqiq etish uchun empirik metodlardan navbati bilan

foydalanish yaxshi natija beradi. Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo‘linadi.

To‘plangan materiallarni psixologik tahlil qilish metodi mazkur fan uchun alohida ahamiyatga ega. Unda aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi), tekshiruvchi tajribalarda olingan har xil shakldagi ma’lumotlar turli printsip, pozitsiya, ko‘p qirrali (kompleks) va yaxlit (sistemali) yondashishga asoslanib mantiq yordamida psixologik tahlil qilinadi. Barcha fikr va mulohazalar ishonchli omillar orqali isbotlab beriladi, psixologik qonuniyat, qonun, xususiyat, xossa, holat va kamolotning o‘ziga xosligi asoslanadi. Material alohida guruhlar va sinflarga ajratiladi, psixologik voqelikning boshqa jihatlari bilan uzviy sababiy bog‘liqligi, ichki murakkab munosabati bayon qilinadi, sinaluvchilar muayyan toifalarga kiritiladi va tadqiqotdan yakuniy xulosa chiqariladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining to‘rtinchisi - sharhlash guruhi genetik va donalash metodlaridan iboratdir. Genetik metod bilan tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar yaxlit holda maqsadga muvofiq yo‘sinda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi - sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonlarining o‘zgarishiga tajriba natijasiga suyangan holda ta’rif hamda tavsif berishdir. Shuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo‘lish davri, bosqichi hamda ba’zi mashaqqatli daqiqalarga, paytlarga qo‘shimcha sharhlar berish imkoniyati tug‘iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o‘zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog‘liqligining ildizi aniqlanadi. Tanlash metodi bilan tadqiqot obyektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o‘zgarishlar, o‘ziga xoslik, o‘zaro aloqa, o‘zaro ta’sir va uyg‘unlikning o‘zaro bog‘lanishlari o‘rganiladi. Jumladan, inson nutqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda birgalikda qatnashishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining ulushi ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta’kidlanadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi asoslab beriladi. Lekin tajribada

to‘plangan ma’lumotlarni sharhlash uchun yuqoridagi metodlarning o‘zi yetarli emas. Buning uchun uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun yig‘ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharhlanadi.

Tadqiqotning birinchi – tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun yoki qonuniyat to‘g‘risidagi taxmin, faraz tahlil qilinadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida tajriba o‘tkazish prinsipi, sharoiti, obyektiv va subyektiv omillar bo‘yicha mulohaza yuritiladi. Uchinchi bosqichda esa olingan miqdoriy natijalar qayta ishlanadi va bu ham o‘z navbatida to‘rt pog‘onaga bo‘linadi: a) empirik materialni birlamchi tahlil qilish: alohida olingan yoki topilgan omil, alomat, ko‘rsatkich, mexanizm, xususiyat sharhlanadi; b) tahlil qilingan miqdoriy materiallar bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharhlanadi; v) ikkilamchi tahlil; barqaror, ustun dalillar ajratiladi; g) ikkilamchi sintez: psixologik qonun, qonuniyat, topilgan dalil omil bilan tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosa chiqariladi.

To‘rtinchi bosqich - sharhlashda har bir fakt, alomat, ko‘rsatkich, mexanizm, xossa, psixologik jihatdan so‘z-mantiq orqali tahlil qilinadi. Barcha ilmiy-amaliy mulohazalar isbotlanadi, buning natijasida hech bir shubhaga, e’tirozlarga o‘rin qolmaydi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi, o‘rganilishi zarur muammoning ahamiyati va istiqboli to‘g‘risida mulohaza qilinadi.

## 7.2. Kuzatish metodi va uning qisqacha tasnifi.

Kuzatish metodi. Umumiy psixologiyada bu metodning obyektiv (tashqi) va subyektiv (o‘zini o‘zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasidagi o‘zgarishlarni har xil vaziyatlarda kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatiladigan obyekt tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi; 4) tadqiqot o‘tkazish vaqti rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha vaqt davom etishi qat’iylashtiriladi; 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o‘yin, o‘qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o‘tkazilishi) tayinlanadi; 8)

kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon, kinokamera, mobil telefon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, his-tuyg‘ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o‘rganiladi. Ammo o‘ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan, go‘dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o‘yinchoqlarga munosabati, his-tuyg‘usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O‘quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatining xususiyati, tashqi qo‘zg‘atuvchi bilan ta’sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur’ati, emotsional kechinmasining o‘zgarishi to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plashga imkoniyati tug‘iladi. O‘spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg‘usining o‘zgarish xususiyatlari, g‘alabaga intilishi, o‘zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig‘ish mumkin. Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o‘z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o‘zini tutishi, imo-ishoralari, tashqi qo‘zg‘atuvchidan ta’sirlanish darajasi haqida keng ma’lumotlar yig‘iladi. Keksalarning muloqot jarayonini kuzatish ularning xarakteri, nutq faoliyati, his-tuyg‘usi, ekstrovertivligi yoki introvertivligi, qiziquvchanligi va ruhiyatining boshqa xususiyatlarini aniqlash demakdir.

Tashqi kuzatishda ba’zan tafakkur bo‘yicha ham ma’lumotlar olish: ish ustidagi kayfiyatini, fikrning muayyan obyektga yo‘naltirilganini, tashqi qo‘zg‘atuvchilar ta’siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko‘zdagi g‘ayritabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o‘zgarishni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo‘lning titrashi, asabiylashish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o‘zgarishlar bo‘yicha ma’lumot beradi.

Psixologiya fanida o‘zini o‘zi kuzatishdan (introspeksiyadan) ham foydalaniladi. Ko‘pincha tajribali psixolog yoki o‘rta, maxsus o‘rta va oliy ta’lim

tizimidagi yuqori malakali mohir o‘qituvchi o‘zini o‘zi kuzatish orqali ilmiy xulosa chiqara biladi. Masalan, o‘z tafakkurini kuzatib o‘zidagi emotsional o‘zgarish haqida, shuningdek, tafakkurning ichki mexanizmlari vujudga kelishi, kechishi haqida ma’lumot oladi. Fikrlash faoliyati zaiflashganini sezadi. Natijada tafakkurning sifati, mazmuni, mohiyati va qay tarzda, qanday tezlikda, qay shaklda ro‘y berishini kuzatadi. Uzoq va yaqin chet el psixologiyasida o‘zini o‘zi kuzatishning inson ruhiyatini o‘rganishdagi rolini ifodalovchi ilmiy-amaliy materiallar to‘plangan. Introspeksiya yo‘nalishining yirik namoyandalari o‘zlarini o‘zlari kuzatganlar va to‘plagan materiallarini tahlil qilib umumiy psixologik qonuniyatlarni yaratishga harakat qilganlar. Lekin inson turli vaziyatlarda o‘zini bir xil boshqara olmaydi va shuning uchun bu metodning ilmiy ahamiyati unchali katta emas, lekin hozirgi zamon elektron apparatlari bu jarayonni kuchaytirish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, kuzatish metodining qulay va samarali jihatlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud. Shu sababli insonning murakkab psixikasi boshqa metodlardan foydalanib tadqiq qilinadi.

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o‘rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning obyekti va subyekti tanlanadi, mavzusi, o‘tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o‘tkazish rejalashtiriladi, o‘rganilayotgai narsa bilan uzviy bog‘liq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o‘zgarishlarni o‘rganishdir. Suhbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e’tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to‘g‘risida ma’lumotlar olinadi,

Suhbat chog‘ida o‘zaro izchil bog‘langan savollar beriladi:

– Xotira deb nimani aytiladi?

– Xotira idrok qilingan narsa va hodisalarni esda qoldirish, mustahkamlash hamda zarur vaqtda esga tushirishdan iborat psixik jarayondir.

– Xotiraning nerv-fiziologik asoslari nimalardan iborat?

– Xotiraning nerv fiziogik asoslari bosh miya katta yarim sharlari qobig‘ida muvaqqat nerv bog‘lanishlarining hosil bo‘lishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvidir.

– Xotiraning samaradorligi nimalarga bog‘liq?

– Esda olib qolishda harakatning tugallanmaganligiga, shaxsning qiziqishi va mayllariga, faoliyatga munosabati, kayfiyati va irodaviy zo‘r berishiga, xarakterologik sifatlariga bog‘liq.

– Xotiraning qanday turlari mavjud?

– Harakat, obrazli, so‘z-mantiq, emotsional, qisqa va uzoq muddatli, operativ, ixtiyorsiz, ixtiyoriy, produktiv, reproduktiv, faol va sust xotira turlari bor.

Suhbat paytida fikrlar mantiqiy izchillikka ega bo‘lishi shart. Biroq mashg‘ulot sinaluvchilarni toliqtirib qo‘ymasligi, ularning yoshiga, saviyasiga, mutaxassisligiga mutlaqo mos bo‘lishi zarur.

Dialog shaklidagi suhbatlar ham o‘z ko‘lami, mohiyati, mazmuni, shakli, xususiyati, sur’ati, mavzusi, obyektga yo‘nalganligi bilan bir-biridan farqlanadi. Suhbatning yana bir turiga misol:

– Opajon, eson-omon yuribsizmi? Uydagilaringiz yaxshimi?

– Opang qoqindiq, ming qatla shukur, tinch yuribmiz.

– Nechuk, qanday shamol uchirdi?

– Ko‘zimdan o‘taverding, o‘taverding, keyin yo‘lga otlandim.

– Qiynalmasdan yetib keldingizmi?

– Aytarli qiynalmadim. Avval avtobusga, so‘ng tramvayga o‘tirdim, lekin metroga tushgim kelmadi.

Suhbat metodining yuqorida ta’kidlangan ijobiy jihatlari bilan birga ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Qaytariq so‘zlar, “g‘aliz” iboralar, nutqning tezligi, fikrning mavhumligi, zerikarligi muvaffaqiyatsizlikka sabab bo‘ladi. Shuningdek, savol-javobning bir xil shaklda emasligi, sinaluvchida o‘ziga xos ishlash uslubi, oshkoralik yetishmasligi, iymanish, uyalish atroflicha ma’lumotlar olishni qiyinlashtiradi va shu sababli boshqa metodlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod ontogenez psixologiyasida keng qo‘llanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o‘yinchoqlar, modellar, yozgan she’rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to‘plash mumkin.

Mazkur metoddan foydalanishda mahsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Obyekt bilan subyekt o‘rtasida muloqot o‘rnatish uchun shaxsning psixikasi to‘g‘risida sirtdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy kashtachilik, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, ilmiy ma’ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko‘rsatmali qurollar, loyiha, magistrlik, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari va hokazolar kiradi. Bular turli yoshdagi va jinsdagi odamlar, har xil kasb egalari tomonidan yaratilgan bo‘lishi va shunga ko‘ra shakli, mazmuni, sifati, orginalligi, katta-kichikligi, xususiyati, mazmun-mohiyati bilan bir-biridan keskin farq qilishi mumkin.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o‘quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar, keksa yoshdagi qariyalar psixik xususiyatlari, mahorati, salohiyati, ijodiyoti to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash mumkin. Lekin insondagi psixik o‘zgarishlar, kamol topish va bularning kechishini ifodalovchi materiallar yig‘ish uchun bu metodning o‘zi yetmaydi. Shuning uchun inson psixikasini o‘rganish maqsadida boshqa metodlardan ham foydalanish ma’qul.

Tajriba (eksperiment) metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o‘spirin, balog‘atga yetgan va qarilar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq, qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun’iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o‘sishi, favquloddagi holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg‘ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o‘rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog‘lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari,

murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, obyektiv tarzda har xil holat va vaziyatlarni yaratishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, xarakter, xususiyati, his-tuyg‘usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko‘nikma va malakalariga e’tibor berishi lozim.

Tajriba metodi o‘z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo‘llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910-yilda A.F.Lazurskiy ta’riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a’zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o‘qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o‘zgarishlari, o‘zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o‘rganishda sinaluvchilar (bog‘cha bolalari, maktab o‘quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va hokazolar)ning o‘zlari bexabar bo‘lishi, ta’lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Laboratoriya (klinika) metodi ko‘pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo‘l-yo‘riqlar, tavsiyalar, ko‘rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o‘zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama va jihozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o‘lchashda qo‘llanadi. Ko‘pincha detektorlar, elektron va radio o‘lchagichlar, sekundomer, refloksometr, xronorefleksometr, lyuksmetr, anomaloskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma, elektroensefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Test metodi. Test - inglizcha so‘z bo‘lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o‘sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo‘llanadigan qisqa standart masala, topshiriq, misol,

jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste’dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo‘llanadi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig‘ilgan psixologik ma’lumotlarning obyektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog‘liqdir. 1905-yildan, ya’ni fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi T.Simon insonning aqliy o‘sish va iste’dod darajalarini o‘lchash imkoniyati borligi g‘oyasini olg‘a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo‘llana boshlandi.

Chet el psixologlari testlarni shaxsning iste’dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar. Biroq test tekshirilayotgan hodisalarning psixologik mezoni hisoblanmaydi. Malumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilan amalga oshiriladi. Chet el testologlari tadqiqot obyektlarini o‘zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni aralash holda o‘rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog‘liq ruhiy kechinmalarni inobatga olmaydilar. Psixologlar K.M.Gurevich, V.A.Kruteskiy va boshqalar qo‘llaydigan testlar tubdan boshqacha prinsip asosida tuzilgan. Ular testlarning tafakkur ko‘rsatkichi (indikatori) bo‘lishi uchun harakat qildilar va muayyan yutuqlarga erishdilar. Shuningdek, tafakkur jarayonining sifat xususiyatlarini bilmay turib, qobiliyatning mohiyatini yoritib bo‘lmaydi, degan qoidaga amal qilgan holda testlardan foydalanmoqdalar.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan G.Rorshax, S.Rozensveyg, R.Kettel, D.Veksler, G.Meyli, G.Ayzenk, A.Anastazi, Dj.Raven, G.Myurrey, R.Amtxaer, M.Rokich, Dj.Rotter, M.Lyusher, Dj.Gilford va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish (maqsadga yetish) testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o‘lchashga mo‘ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishi, motivatsiyasi va xulqini baholashga yo‘naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs “loyihasi” (proyektiv) testlari (savollarga bitta aniq javob berish

talab qilinadi, javoblarni tahlil qilib shaxs xususiyatining “loyihasi” ishlab chiqiladi) kiradi.

## 7.3. So‘rov metodi va uning klassifikasiyasi.

Odamlarni so’roq qilish, u yoki bu bilmagan yoki qiziqtirgan narsalarni so’rab o’rganish insonga xos xislat. Ko’cha-kuyda ketayotganimizda ham vaqtni yoki ko’chalar nomini so’rovchilar bo’ladi. Katta tadbirlar arafasida, mustaqillik, “Navro’z” bayramlari arafasida odamlar kayfiyatlarini bilish uchun ham oddiy odatiy so’roqlar o’tkazilishi rasm bo’lgan. Lekin bu hayotiy usul psixologiyada ham fikr-o’ylarni o’rganish orqali qimmatli ilmiy ma’lumotlar to’plash vositasi sifatida qadrlanadi. Shuning uchun so’roq metodlari psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma’lumotlar to’plashning an’anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo’yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo’ladi.

Og’zaki so’roqni yoki ba’zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ataladi, o’tkazadigan shaxs unga ma’lum darajada tayyorgarlik ko’rgach so’roq o’tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo’lmasa, so’rov o’z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so’rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo’lgan noyob ma’lumotlarni to’plash imkoniga ega bo’ladi.

Yozma so’roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o’zida ko’pgina odamlar fikrini o’rganish mumkin bo’ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o’z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so’rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo’lsa, shubxasiz, qimmatli birlamchi materiallar to’planadi.

So’roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo’lib, birinchisida oldindan nimalar so’ralishi qat’iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki, komp’yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so’roq o’tkazilishi nazarda tutiladi. So’rovlar o’tkazilishida

hal qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masalalardan biri so'raluvchilarni tanlashdir. Chunki agar saylovoldi kompaniyalarida yoki talaba-yoshlarning o'z ijtimoiy harakatini tuzish borasidagi fikrlari o'rganilganda, tabiiy bir muammo paydo bo'ladi: necha kishini va qayerlardan so'rash lozim, degan. Tanlov obyektini tanlashda uning tarkibiga kiruvchilarning u yoki bu ijtimoiy qatlamga mansubligi muim rol o'ynaydi. Masalan, talaba yoshlarning fikrini o'rganish uchun barcha talabalar fikrini mutloq o'rganish shart emas. Tanlov agar 10% deb belgilansa, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan barcha talabalar sonidan kelib chiqib, o'shaning 10% i o'rtasida, bir necha oliygohlarda so'roq o'tkazilishi kifoya qiladi. Barcha nafaqaho'rlarning ijtimoiy himoya borasidagi fikrlarini o'rganish kerak bo'lganda ham shu tamoyil nazarda tutiladi. Demak, tarkiban monand guruhlar ajratib olingach, tadqiqotchi o'sha guruhning tushunish darajasi va ehtiyojlaridan kelib chiqib, so'roq o'tkazadi yoki intervyular uyushtiriladi.

Savolnomalarda savol berish tartibi va mazmuni ham katta ahamiyatga ega. Yoshlarga "Siz vatanparvarmisiz?" yoki jamoatchilikka "Siz tinchlik tarafdorimizsiz?" kabi savollar oldindan javobi aniq bo'lgani uchun ham odatda respondentlarga havola etilmaydi. Psixologik nuqtai nazardan o'sha vatanparvarlik belgilarining namoyon bo'lishini savollarda mujassam etish yoki dunyoda tinchlik bo'lishi uchun har bir insondan nimalar talab qilinishini o'rganish birinchidan, turli xil fikrlarni to'plashga yordam beradi, ikkinchidan, ijtimoiy xulqning turli qirralarini aniqlashga imkon beradi. Yanada sodda qilib aytilsa, odamga "Siz aqllimisiz?" degan savolni intellektual darajani aniqlashga imkon beruvchi savollar, topshiriqlar yoki testlar bilan almashtirishni nazarda tutadi.

Ko'pincha psixologik so'rovlarda odam o'z fikrini ochiq va erkin bayon etishi uchun ismi-sharifini aytmasligi tavsiya etiladi, bu anonim so'rov deyiladi. Ba'zi bir so'rovnomalarda esa "Ismingiz" deyish o'rniga "O'zingiz o'ylab topgan ism-sharifingiz?" deb ham qator ajratiladi. Bu ham anonim so'rov o'tkazish usuli sifatida oxirgi yillarda qo'llanib kelinmoqda. Xulosa qilinadigan bo'lsa, shuni aytish kerakki, so'rov metodlari inson psixologiyasini o'rganish, uning

dunyoqarashi, saviyasini aniqlashning qimmatli usulidir. Lekin uni professional tarzda to'g'ri ishlatish va natijalarni to'g'ri tahlil qilish juda katta amaliy ahamiyatga egadir.

### 7.4. Psixologik testlar va ularning turlari.

Hozir butun dunyoda "test" so'zi jamiyatda va kishilar orasida keng qo'llaniladigan so'zlardan bo'lib qoldi. Chunki biror kasb-hunar orttirish uchun ham odam test sinovidan o'tadi, ya'ni testning "sinov uslubi" ekanligi ko'pchilikka ayon bo'lib qoldi. Psixologik testlarning har qanday boshqa testlardan farqi shundaki, ular yordamida shaxs va jamiyatga aloqador bo'lgan o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, xattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir. Ularning ham turlari mavjud.

Test – so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya-ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga "ha" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi. Test – topshiriq odam xulqi va xolatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreaktivlilikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreaktivligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi.

Bu kabi metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi –

ba’zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun’iy tarzda uning kechishiga ta’sir ko’rsatishi, faktlarni falsifikasiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida **proyektiv** testlar deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo’ladi. Ya’ni, tekshiriluvchiga shunday topshiriq beriladiki, u topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashayotganligini, natijasi qanday bo’lishini oldindan bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning “Siyoh dog’lari” testi, yoki TAT (tematik appersepsion test), tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proyeksiyasidan go’yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. 1921-yilda kashf etilgan “Siyoh dog’lari” va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog’lar nimalarga o’xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo’nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emosional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo’llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

### 7.5. Psixologik eksperiment va uni tashkil etish.

Eksperimentning mohiyati shundaki, aynan shu yo’l bilan bir omilning ta’siri ikkinchi bir omil ta’sirini ta’minlashi yoki hodisaning ro’y berishiga olib kelganligi isbotlanadi. Ya’ni, eksperiment psixik hodisalarning sabablarini aniqlash va ilmiy farazlarni isbot qilishga yordam beradi. Masalan, o’quvchilarning o’zlashtirish darajalari qanday omillarga bog’liq, degan savol paydo bo’lsa va bunday olmillardan biri o’quv jarayonida tarqatma materiallardan keng foydalanish lozimligi fikri taxmin qilinsa, o’sha eksperiment sinfida tarqatma materaillar ishlatiladi, ikkinchi sinov sinfda esa eskicha o’qitilaveradi. Natija ma’lum muddatdan keyin bolalarning o’zlashtirish darajasi, darsga munosabatlari, xotiralari kuchi orqali tahlil qilinadi. Mana shunga o’xshash jarayonlar va sinovlar eksperiment deyiladi va hayotda va psixologik amaliyotda ko’plab murakkab eksperimentlar aniq dasturlar asosida o’tkaziladi, yangiliklar ochiladi.

Har qanday eksperiment uchun odatda ataylab shunday sun’iy bir vaziyat

shakllantiriladiki, aynan shu vaziyatda tadqiqotchini qiziqtirayotgan psixik jarayon yoki hodisa ajratiladi, o'rganiladi, ta'sir ko'rsatiladi va baholanadi. Agar tabiiy eksperiment o'sha qiziqtirayotgan fenomen tekshiriluvchi uchun tabiiy hisoblangan sharoitlarda (masalan, mehnat jarayonida, kanikulda yozgi lagerda, litsey auditoriyasida va shunga o'xshash) maqsadli tashkil etilib, o'rganilsa, laboratoriya eksperimenti maxsus joylarda, maxsus asbob-uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi. Masalan, diqqatingizning xususiyatlarini bilish kerak bo'lsa, psixologiya laboratoriyasida maxsus taxistoskop deb atalgan moslama yordamida yoki "Landolt xalqachalari" deb nomlangan jadvallar yordamida o'rganish mumkin bo'ladi. Hattoki, ijtimoiy munosabatlar borasida ham o'zaro hamjihatlik, liderlik va konformlilik hodisalarini tekshirish uchun gruppaviy integratorlar va gomeostat deb nomlanuvchi moslamalar yaratilgan va ular yordamida guruhdagi turli xil hodisalar o'lchangan.

Eksperiment o'tkazishning asosiy shartlaridan biri tekshirilayotgan obyektda eksperiment hamda nazorat guruhlarining bo'lishidir. Tadqiqotchining taxmini asosida birinchi guruhda u yoki bu o'lchovlar, tekshirishlar, shart-sharoitlar kiritilsa, nazorat guruhi o'sha yangiliklar va sun'iy kiritilgan omillar ta'siridan xoli qilinadi. Eksperiment so'ngida natijalar ikkala guruh misolida taqqoslanib, kerakli xulosalar chiqariladi. Oddiy qilib aytilsa, agar maosh mehnat motivatsiyalaridan biri deb, uning ta'sirini o'rganish kerak bo'lsa, eksperimental guruh a'zolariga maoshlar ko'paytirib beriladi, nazorat guruhi esa eski maoshda qoldiriladi. Ikkala guruh a'zolarining esa kundalik ish samaralari, ishga munosabati, ishlab chiqarishdagi mahsuldorlik maxsus mezonlar asosida taqqoslab chiqiladi. Demak, eksperiment uchun maxsus sharoitlar va natijalarni to'g'ri tahlil qilish uchun professional psixologlar kerak.

### 7.6. Modellashtirishlarning psixologiyalashtirilishi.

Kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda modellashtirish usuli qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib,

o’sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o’rganiladi va xulosalar chiqariladi. Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo’lishi mumkin.

Matematik model asosida o’rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber-Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi hamda shu asosda to’plangan ma’lumotlar tahlilini misol qilish mumkin. Mantiqiy modellar yordamida ko’pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g’oyalar va simvollar ishlatiladi. Kibernetik modellashtirishda esa g’oyalar psixologiyasini EHM dagi matematik programmalashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. Hozir ko’pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmalashtirilgan bo’lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko’pgina sifatlarni ko’plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab, natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko’pincha matematik o’yinlar g’oyasi odamlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar sohasini o’rganishda ham qo’llanilmoqda. Ma’lum bo’lishicha, odamning fikrlash operasiyalari bilan EHM larning ishlash prinsiplari o’rtasida ma’lum uyg’unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu-zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

Umuman psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o’ziga xos metodlari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzda o’rganish imkonini beradi. Gap shundaki, ularni o’z vaqtida va professional tarzda qo’llay bilish va olingan natijalardan to’g’ri xulosalar chiqara olishdir.

## Nazorat savollari:

1. Psixologiya fanining asosiy metodlari haqida ma’lumot bering?
2. Kuzatish metodi va uning qisqacha tasnifi keltiring?
3. So‘rov metodi va uning klassifikatsiyasini tushuntirib bering?
4. Psixologik testlar va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?
5. Psixologik eksperiment va uni tashkil etish bosqichlarini izohlang?

## 8-MAVZU. NERV SISTEMASINING TUZILISHI.

***Tayanch tushunchalar:*** *nerv hujayrasi, neyron, qo'zg'aluvchanlik, o'tkazuvchanlik, diffuz nerv sistemasi, bosh miya, orqa miya, ketingi miya, o'rta miya, oraliq miya, oldingi miya, uzunchoq miya, varoliy ko'prigi va miyacha, to'rt tepalik, vegetativ markazlar, miya dastasi, oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari, bosh miya yarim sharlari po'stining yuza qismlari, bosh miya po'stining qismlari.*

### 8.1. Nerv hujayrasi, uning o'simtalari va ularni qoplovchi pardalar.

Psixikaning moddiy asosi nerv sistemasi va bosh miya hisoblanadi. Shu sababli nerv sistemasining tuzilishini va qanday ishlashini bilmasdan turib, psixik hayot hodisalarini tushunib bo'lmaydi. Nerv siyetemasi nerv to'qimasidan iborat, bu to'qima esa nerv hujayralaridan tashkil topgan. Nerv hujayrasi protoplazmadan tuzilgan tana bo'lib, ikki turli o'simtalari bor, bu o'simtalarning bir xillari kalta, boshqa bir xillari uzun bo'ladi. Kalta o'simtalari sertarmoq bo'lib, dendritlar deb ataladi. Uzun o'simtalari aksonlar yoki neyritlar deb ataladi. Har bir hujayrada bu o'simtalar ikkitadan ortiq bo'lmaydi. Neyrit ikkita parda bilan o'ralgan. Neyritga yopishib turadigan birinchi pardasi yog'simon parda bo'lib, uni et parda yoki mielin pardasi deb ataladi. Ikkinchi tashqi pardasini shvann pardasi deyiladi. Bu pardalar toladan o'tuvchi nerv qo'zg'alishini ajratib turuvchi izolyasiyadek bir vazifani o'taydi. Neyrit, odatda, nerv tolasi, deb ataladi.

Nerv hujayrasi, uning o'simtalari va ularni qoplovchi pardalar birgalikda neyron deb ataladi Nerv sistemasi juda ko'p neyronlardan tuzilgan. Nerv tolalari miyadan tutam-tutam bo'lib chiqib nerv stvolini yoki, oddiy so'z bilan aytganda, nervni hosil qiladi. Nerv hujayralari va miyelinsiz tolalar to'plami miyaning kulrang moddasini, miyelinli nerv tolalarining to'plami esa miyaning oq moddasini tashkil etadi. Hujayralar – ularning yadrolari va tolalari sinapslar degan maxsus mayda tolachalar yordami bilan bevosita bog'lanadi (sinaps grekcha so'z bo'lib, "ilgak" degan ma'noni bildiradi).

Analizatorlar - bu nerv fiziologik apparat bo'lib, periferiyadagi nerv uchidan

(reseptor) sezuvchi nervdan( o'tkazish yo'li) va miya qobiqining tegishli qo'zg'atuvchini qabul qiluvchi sohasidan iboratdir.

I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal tizimlari to'g'risidagi ta'limoti ilmiy psixologiya uchun katta ahamiyatga egadir.

Hayvonlar uchun borliq katta yarim sharlaridagi ta'sirlagichlar va ularning izlari bilan signallashib ular organizmning ko'rish, eshitish reseptorlariga bevosita kelib turadi. Bu birinchi signallar tizimi bo'lib, odam va hayvonlarda umumiydir. So'zlar ikkinchi, maxsus insoniy signal tizimini tashkil etadi. So'zlar narsa va hodisalardan kelayotgan signallarning o'rnini egallagani uchun I.P.Pavlov tomonidan "signallar signali" deb nomlangan. Ikkinchi signal tizimining faoliyati birinchi signal tizimidan ajralmagan holda bevosita bog'liq tarzda boradi. Ikkinchi signallar tizimi tafakkur va nutqning fiziologik asosi hisoblanadi.

Refleksning klassik tushunchasi yordamida psixik faoliyat asoslarini tushuntirishdagi muhim kamchilik shundan iboratki, refleks tizimi inson psixikasining idora etuvchi va o'zgartiruvchi rolini tushuntirib bermaydi. I.P.Pavlovning shogirdlari va izdoshlari bu kamchilikni reflektor organik tizimi tushunchasini reflektor halqasi tizimi tushunchasiga o'zgartirish yo'li bilan yechishga intildilar.

Har bir nerv hujayrasi, ya'ni neyron yadrosi bo'lgan juda ko'p tarmoqlangan kalta o'simtalar - dendritlar va bitta uzun o'simta - aksondan iborat hujayradan tashkil topgan. Turli nerv hujayralarining tutashgan joyi sinaps deyiladi va u bir neyrondan boshqasiga impulslarni o'tkazish (to'xtatish yoki ushlab qolish)ni ta'minlaydi. Nerv hujayralari to'plami miyaning kulrang moddasini, nerv tolalarining to'plami esa miyaning oq moddasini tashkil etadi. Nerv to'qimasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

Markaziy nerv tizimi bosh va orqa miyadan iborat. Orqa miya umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan bo'lib, nerv to'qimasidan iborat. Orqa miya ikkita yarim, ya'ni o'ng va chap qismlardan iborat bo'lib, ularni uzunasiga ketgan oldingi va orqa kesiklar ajratib turadi.

Nerv sistemasining maxsus xossalari bor, bu xossalardan asosiylari qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlikdir. Bu xossalar shundan iborat.

## 8.2. Diffuz nerv sistemasi.

Agar nerv tolasining biron joyiga tegilsa, issiq; sovuq, elektr toki, kimyoviy moddalar va boshqa shu kabilar bilan ta'sir etilsa, yoki qo'zg'atilsa, nerv tolasining qo'zg'atilgan joyida maxsus fiziologik jarayonlar ro'y beradi, buni *qo'zg'alshi* deyiladi.

Agar nerv tolasi yetarli darajada qo'zg'atilsa, bu qo'zg'alish sodir bo'lgan joyidagina qolmay, balki nerv tolasi bo'ylab tarqaladi va bir nerv hujayrasidan ikkinchi nerv hujayrasiga o'tadi, nihoyat, qo'zg'atish kuchi muayyan darajaga yetganda qo'zg'alish butun nerv sistemasiga yoyilishi mumkin.

Nerv to'qimasida qo'zg'alish jarayoni yuz berganda bir qancha hodisalar: elektr, ximik, issiqlik hodisalari paydo bo'ladi. Yonma-yon turgan bir nerv hujayrasining aksoni bilan ikkinchi nerv hujayrasining tutashadigan joyi – sinapslar borligi tufayli, qo'zg'alish nerv tolalarida bir tomonga tarqaladi. Miyelin pardasi borligidan, qo'zg'alish nerv tolasida ayrim-ayrim tarqaladi.






Odamning nerv sistemasi hayvonot olamining uzoq evolyutsiyasi jarayonida va odamning tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelgan. Nerv sistemasi birinchi marta kovak ichli hayvonlarda ro'yi rost ko'rinadi. Bu nerv sistemasi butun organizmga yoyilgan ayrim hujayralardan tuzilgan. Masalan, gidroid

poliplarning nerv sistemasi shunday bo’ladi. Bu – diffuz tipda tuzilgan nerv sistemasidir. Umurtqali hayvonlar bilan odamda nerv sistemasi murakkab tuzilgan bo’lib, uch qismga – markaziy, periferiyadagi va vegetativ qismlarga bo’linadi.

**Nazorat savollari:**

1. Nerv hujayrasi, uning o‘simtalari va ularni qoplovchi pardalaridan qaysilarni bilasiz?
2. Diffuz nerv sistemasini izohlab bering?
3. Vegetativ nerv markazlari haqida so’zlab bering?

# 9- MAVZU. MARKAZIY NERV SISTEMASI.

***Tayanch tushunchalar:*** *bosh miya, orqa miya, ketingi miya, o'rta miya, oraliq miya, oldingi miya, uzunchoq miya, varoliy ko'prigi va miyacha, vegetativ markazlar, miya dastasi, oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlar.*

## 9.1. Bosh miya. Orqa miya. Ketingi miya. O'rta miya. Oraliq miya. Oldingi miya. Uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi va miyacha. To'rt tepalik, qizil yadro va miyaning boshqa ba'zi bir uchastkalari.

Markaziy nerv sistemasi bosh miya bilan orqa miyadan tarkib topgan.

Orqa miya umurtqa pog'onasining kanalida joylashgan bo'lib, nerv to'qimasidan tuzilgan va shaklan go'yo yo'g'on chilvirga o'xshaydi. Orqa miya uzunasiga ketgan ikkita egat bilan ikki qismga: o'ng va chap qismlarga bo'linadi. Orqa miyaning atrof-chekkasida oq modda (nerv tolalarining to'plami), o'rtasida esa kul rang modda (nerv hujayralarining to'plami) joylashganligini orqa miyaning ko'ndalang kesigidan ko'rish mumkin. Kulrang modda kesigi shaklan kapalakka o'xshaydi. Orqa miya oldingi qismlari oldingi ildizchalar, orqadagi qismlari orqadagi ildizchalar, deb ataladi. Orqa miyada nerv tutam bo'lib joylashgan, qo'zg'alish periferiyadagi nerv uchlaridan, skelet muskullari, teri, shiliq pardalardagi nerv uchlaridan shu nerv tolalarning tutamlari orqali nerv impulslari shaklida bosh miyaga yetib boradi va bosh miyadan periferiyaga keladi. Nerv tolalarining ana shu tutamlari o'tkazuvchi yo'llar deb ataladi.

Orqa miya ongli psixik jarayonlarning bevosita markazi bo'lmay, balki ongsiz reflektor harakatlarni idora etadigan markazdir. U tana va qo'l-oyoq muskullarini, ko'z muskullarini idora qiladi, shuningdek, organizmda bo'ladigan bir qancha fiziologik jarayonlarni, ya'ni tomir harakatlari, ter chiqarish va boshqa shu kabi fiziologik jarayonlarni ham idora etadigan markazdir. Ana shu markazlardan bir qismi vegetativ nerv sistemasiga taalluqlidir.

Bosh miya kalla qutisida joylashgan bo'lib, go'yo orqa miya tepasidagi ustki qavat hisoblanadi.

Mutaxassislar tomonidan bosh miya quyidagi qismlarga ajratiladi.

- *ketingi miya;*
- *o'rta miya;*
- *oraliq miya;*
- *oldingi miya.*

*Ketingi miya*ga uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi va miyacha kiradi. Uzunchoq miya bilan Varoliy ko'prigi orqa miyaning go'yo bevosita davomidir. Lekin shu bilan birga, uzunchoq miya orqa miyaga qaraganda xiyla murakkab vazifani o'taydi. Uzunchoq miya orqali orqa miyadan bosh miyaning yuqoriroqdagi bo'limlariga va, aksincha, bosh miyaning yuqoriroqdagi bo'limlaridan orqa miyaga impulslar o'tib turadi. Uzunchoq miya yadrolari emish, chaynash, yutish, so'lak ajratish, me'da va me'da osti bezidan shira ajratish, qusish va shunga o'xshash bir qancha murakkab reflektor jarayonlarda qatnashadi. Nafas olishni, yurakning ishla shini idora etadigan, qon tomirlar tonusini saqlaydigan markazlar uzunchoq miyadadir. Miyacha markaziy nerv sistemasining pastdagi hamma bo'limlariga, shuningdek, yuqoriroqdagi qismlariga ko'p yo'llar bilan mahkam bog'langandir. Miyachaning juda qatta ahamiyatga ega eqanligi loaqal shundan ham ko'rinadiki, miyacha olib tashlangandan keyin tananing muvozanat va harakat funksiyalari juda ham buziladi; harakatlar tartibsiz, chalkash, poyma-poy bo'lib qoladi. Miyachasi olib tashlangan hayvon qaddini ko'tarib va boshini tutib turolmaydi; boshi va tanasi doim tebranib turadi; omonat, poyma-poy, haddan tashqari keskin harakatlar qiladi.

*O'rta miya*. Muskul tonusining normal taqsimlanishini va gavdaning tovush hamda yorug'lik singari qo'zg'ovchilarga, shuningdek og'irlik kuchiga nisbatan to'g'ri turishini idora etadigan to'rt tepalik, qizil yadro va miyaning boshqa ba'zi bir uchastkalari o'rta miya tarkibiga kiradi. O'rta miyasi olib tashlangan mushuk, it va maymunlar normal harakat qila olmaydigan bo'lib qoladi. *Oraliq miya* muhim funksiyalarni o'taydigan bir qancha nerv uchastkalaridan iborat. Gavdaning umumiy sezuvchanligini ham o'rta miya idora etadi. Pastroqdagi vegetativ markazlarning ishlarini birlashtiradigan va

muvofiqlashtiradigan oliy vegetativ markazlar ham o'rta miyada deb taxmin qilinadi.

Uzunchoq miya, Varoliy ko'prigi, o'rta miya va oraliq miya hammasi birgalikda **miya dastasi** yoki **miya stvoli** deb ataladi.




**Bosh miya va uning tuzilmasi**

*Oldingi miya* va uning po'sti bosh miyaning oliy qismlaridir. Hayvon biologik taraqqiyot bosqichining qancha yuqorisida tursa, oldingi miyasi bosh miyaning boshqa qismlariga nisbatan o'shancha ko'prok joy egallaydi. Oldingi miya ikkita yarim shardan – o'ng va chap yarim sharlardan iborat. Bosh miyaning peshana bo'ladigan ensa bo'lagiga qarab boradigan katta egat bu yarim sharlarni bir-biridan ajratib turadi. Oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari **qadoq modda** deb ataluvchi jism yordami bilan o'zaro birlashadi.

Yarim sharlarning miya po'sti deb ataladigan butun yuzasi tekis bo'lmay, balki g'ijim-g'ijim, burmachalar bilan qoplangandir, bular go'yo egat va pushtalarga o'xshaydi. Shu bilan birga, hayvon biologik taraqqiyotning qancha yuqori bosqichida tursa, yarim sharlar yuzasidagi bu egatlar shuncha

chuqurroq va pushtalari ko'proq bo'ladi. Odam miyasining yarim sharlaridagi pushtalar juda ko'p va egatlari ko'p darajada chuqurdir.

*Bosh miya po'sti* miyaning kulrang moddasidan iborat 9-rasm. Miyaning turli qismlarida po'stning qalinligi 1 *mm* dan. 4-5 *mm* gacha boradi. Odamning bosh miya po'stining butun yuzasi o'rta hisob bilan 2000 *kv.sm* keladi. Bosh miya yarim sharlari po'stining yuzasi odatda to'rtta katta qismga – peshona qismi (eng kattasi), tepa qismi, ensa qismi va chakka qismiga bo'linadi.

## 9.2. Vegetativ markazlar. Miya dastasi. Oldingi miyaning o'ng va chap yarim sharlari. Bosh miya yarim sharlari po'stining yuza qismlari.

Vegetativ nerv tizimi - orqa miya bo'ylab va undan chetda joylashgan nerv tizimlari alohida tutamlar va nerv tugunlarining chigallaridan iboratdir. Vegetativ nerv tizimining alohida tutamlari ovqat hazm qilish, qon aylanish, nafas olish va boshqa organlarida joylashgan bo'lib, ichki organlarning faoliyatini idora qiladi.

Vegetativ nerv tizimidan (uning markazlari gipotalamusda orqa miyaning kurak va yuqori bel segmentlarida joylashgan) va parasimpatik nerv tizimidan (uning markazlari o'rta miyadagi turli tepalikda Varoliy ko'prigida, uzunchoq miyada va orqa miyaning dumg'aza qismida joylashgan) iborat.

Simpatik va parasimpatik nerv tizimi ichki a'zolar faoliyatini idora qilishda o'ziga xos "antagonistlar" qarama-qarshi bo'lib, bir organ faoliyatini qarama-qarshi holatga keltiradi. Masalan, simpatik tizim yurak faoliyatini tezlashtirsa, parasimpatik tizim esa bu faoliyatni susaytiradi. Organizmning me'yordagi faoliyati simpatik va parasimpatik vegetativ nerv tizimining ma'lum bir "muvozanatida" saqlanadi. Vegetativ nerv tizimi emotsional kechinmalarda katta rol o'ynaydi. Odamning ko'pincha psixik jarayonlarini, xususiyatlarini va holatlarini idora etishda retikulyar formasiya alohida rol o'ynaydi. Retikulyar formasiya orqali miyada uzunchoq va keyingi miyada joylashgan nerv tolalari tarmoqi bilan o'zaro birikkan to'rsimon tuzilmadir. U bosh miyaning elektrik faoliyatiga, bosh miya qobig'ining funksional holatiga, qobiqosti markazlariga, miyachaga va orqa miyaga ta'sir qiladi.

Ilmiy psixologiyada miya psixikaning organi sifatidagi o'rganish tarixi ikkita yo'nalishda borgan organizm va muhit munosabatlarini idrok etish asoslarini o'rganish va miyaning alohida tuzilmalarini morfologiyasi va funksiyasini ochishdan iborat. Po'st ostidagi soha va po'st ostidagi tugunlar differensiallashmagan va umumiy sezuvchanlik markazidir. Emosiya va instinktlarimiz shu soha bilan chambarchas bog'liqdir. Harakatlarimizni idora etish uchun po'st ostidagi tugunlardan targ'il jismning ahamiyati ayniqsa kattadir. Targ'il jism zararlanganda, odatda, harakat kuchayadi, ammo poyma-poy bo'ladi. Yuksak darajada tashkil topgan hayvonlarda psixik jarayonlarning va odamda ongli jarayonlarning bevosita moddiy asosi bosh miya po'stidir. Bosh miyaning pastroqdagi boshqa hamma qismlari, shuningdek, orqa miya ongsiz reflektor harakatlarning markazlari bo'lib, xilma-xil fiziologik jarayonlarni idora etadi. Bosh miyaning yuqorida aytilgan hamma qismlari va orqa miya markaziy nerv sistemasi bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining bosqichlaridir. Bosh miyaning taraqqiyotidagi har bir qismi (pastdan yuqoriga qarab hisob qilganda) o'zidan avvalgi qismning ustiga qatlangan. Orqa miya, undan keyin esa uzunchoq miya markaziy nerv sistemasining eng qadimgi qismlaridir. Oldingi miya va po'st genetik jihatdan miyaning eng yosh qismlaridir. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari taraqqiy qilgunicha pastdagi (qadimgi) qismlari murakkabroq psixik funksiyalarni ham bajargan deb o'ylash mumkin. Markaziy nerv sistemasining yuqorigi qismlari tarkib topib taraqqiy qilishi bilan, murakkabroq psixik funksiyalar miyaning yuksak taraqqiy qilgan qismlariga o'tdi. Shu bilan birga psixik funksiyalar tobora murakkablashib va takomillashib bordi.

Psixik funksiyalar miyaning yuksak taraqqiy qilgan qismlariga o'tishi bilan miyaning pastdagi qismlari muayyan refleks va instinktiv harakatlarnigina idora etadigan bo'lib qoldi. Buning haqiqatan ham shunday ekanligini quyidagi hollar ko'rsatib turibdi. Biologik taraqqiyotning ancha past bosqichlarida turgan hayvonlarning miya po'sti va oldingi miyasi olib tashlanganda, bu qismlarning funksiyasini pastroqdagi qismlar o'tay boshlaydi. Masalan, oldingi miyasi olib tashlangan baqa tamomila normal baqaga o'xshaydi. Bunday baqa odatdagicha

o'tiradi; baqa turgan taxta ag'darila boshlasa, u ag'anab tushmaslikka harakat qiladi; agar baqa chalqancha ag'nab tushsa, o'nglanib oladi. Shunday qilib, baqa miya yarim sharlaridan mahrum bo'lsa ham harakat qilish va o'z harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyatini saqlab qoladi.

Yarim sharlari olib tashlangan kaptar og'ziga solingan ovqatni yeydi, turtib yuborilsa yuradi; bunday kaptar turtinmasdan ucha oladi. Ammo kaptar turtib yuborilmasa, odatda, qimirlamay turaveradi. Agar it miyasining ikkala yarim shari olib tashlansa, sun'iy suratda boqilib borilsagina bir necha yil yashay oladi. Bunday it og'ziga solingan ovqatni yeydi, yura oladi. It urilsa vangillaydi qattiq tovush eshitganda sapchib tushadi. Ammo bunday it o'zicha ovqat qidirib topolmaydi va hatto yaqinidagi ovqatni ham topib yeya olmaydi. Bu it uni boquvchi kishilarni tanimaydi. Avval hosil qilgan malakalari shu bilan birga, yangi malakalar hosil qilish qobiliyati ham yo'qoladi. Ba'zi fiziologlar maymunlarning yarim sharlarini olib tashlab tajribalar qilganlar. Maymunlar operasiya qilingandan keyin psixik funksiyalari yo'qolishi bilan birga, harakatni muvofiqlashtirish tizimi ham buzilgan. O'lar to'ppa-to'g'ri o'tirib tura olgan, shuningdek, narsalarni changallay olgan, ammo murakkabroq harakatlar, ayniqsa yurish qobiliyati buzilgan.

I.P.Pavlov yuksak nerv faoliyatiga doir tekshirishlarida shunday hodisalarni ilmiy asosda tushuntirib berdi.

Hayvonlar bosh miyasining ayrim qismlarini olib tashlash ustidagi tajribalar shuni ko'rsatdiki, hayvon biologik taraqqiyotning qancha yuqori bosqichida tursa, quyi qismlarining yuksak psixik funksiyalarni bajara olish imkoniyati o'shancha kam bo'ladi. Odamda miyaning quyi qismlari yuksak psixik funksiyalarni bajarishga mutlaqo qobil emas. Odam miyasining po'sti ostidagi qismlari po'st funksiyasini loaqal qisman ham bajara olmasa kerak. Yarim sharlarsiz tug'ilgan bolalar (*anensefallar*)ni kuzatish bu holatni juda ravshan tasdiqlaydi. Odatda bunday bolalar uzoq yashamaydi. Shunday bolalardan birining faqat uch yil-u to'qqiz oy yashagani ma'lum. Bu bola doim yotgan, turishga biron marta ham harakat qilib ko'rmagan. U narsalarni ushlashga hech urinmagan, hatto narsalarni

qo’lda ushlab turishni ham bilmagan. Faqat yuzida ba’zi bir harakatlar ko’rilgan; u ba’zan ijirg’angan; emganda va qoshiqlab ovqat berilganda lablari va tili harakatga kelgan. Bola tagi bulg’anganda ham hech bir parvo qilmagan. Bu bola bilan gaplashish yoki unga biron narsa o’rgatish aslo mumkin bo’lmagan. Unda hatto eng oddiy ko’nikmalar ham hosil bo’lmagan.

Yuqorida aytilganlardan, miyaning po’st ostidagi qismlarining psixik hayotga hech qanday aloqasi yo’q, degan ma’no chiqmaydi. Yarim sharlar po’sti o’z tolalari bilan bosh miyaning hamma qismlariga va orqa miyaga bog’langan. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, orqa miyadagi nerv hujayralarining tolalari va po’st ostidagi sohalarning tolalari yarim sharlar po’stining qismlariga bog’langandir. Shu sababli butun markaziy nerv sistemasi va uning faoliyati bo’lmasa, psixik hayot ham bo’lmas edi.

Shu bilan birga, butun nerv sistemasining va butun organizmning faoliyatida bosh miya po’sti asosiy rol o’ynaydi I.P.Pavlov ta’limotiga ko’ra, yarim sharlar po’sti organizmdagi hamma funksiyalarni idora etadi.

Pavlov ta’limotiga ko’ra, katta yarim sharlar po’sti organizmning barcha funksiyalarini boshqaradi.

## Nazorat savollari:

1. Bosh miya. Orqa miya. Ketingi miya. O‘rta miya  haqida umumiy tushuncha bering?

2. Oraliq miya. Oldingi miya. Uzunchoq miya, Varoliy ko‘prigi va miyacha. To‘rt tepalik haqida nimalarni bilasiz?

3. Vegetativ markazlar. Miya dastasi. Oldingi miyaning o‘ng va chap yarim sharlari. Bosh miya yarim sharlari po‘stining yuza qismlari ma`lumot bering?

4. Bosh miya po‘stining qismlarining funksiyalari nimadan iborat?

## 10- MAVZU. PSIXIKA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

***Tayanch tushuncha:*** *ong, psixika, ongsizlik, ongninh xossalari, “Men”, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot “men emas” tushunchasi.*

### 10.1. Psixologiya predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Psixologiyani o`rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o`stirishga yordam beradi. Odam aqlini o`stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko`nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to`g`ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o`z fikrlarini nutqda to`g`ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to`g`ri tushuna bilishda ham o`z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug`ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o`rin tutadi.

Shaxs psixologiyani o`rganar ekan, avvalo o`z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e`tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o`z aql-idrokining ko`proq o`sishiga yordam beradi. Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashini shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Tushunish kishilar ongidagi eski qarashlarga qarshi kurashda, jumladan, har xil diniy qarash va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo`lib xizmat qiladi. Odam psixologiyani o`rganar ekan, o`zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo`lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o`zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Psixologiyaning bilish, ma`lumot olish uchun ahamiyati shulardan iboratdir. Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta`lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, meditsina, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san`at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir. Pedagogika ishida, ya`ni yosh avlodni o`qitish va tarbiyalashda psixologiyaning ahamiyati ayniqsa katta. Psixologiyaning san`atdagi ahamiyatini ham ko`rsatib o`tmoq kerak. Har bir san`atkor (artist,

muzikant, rassom va shunga o`xshashlar) kishilarga – tomoshabinlarga, tinglovchilarga o`z ijodi bilan ta`sir ko`rsatishni maqsad qilib qo`yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmoq kerak. San`at arbobi obraz yaratish ustida ishlaydi, shu obrazning biror badiiy vosita bilan gavdalantiradi. Buning uchun san`atkor obrazni qanday elementlardan qay tariqa yaratilishini bilishi kerak. U ijodiy faoliyat psixologiyasini bilishi shart.

Psixik hayot hodisalarning ularning taraqqiyot jarayonidan o`rganganda miqdor o`zgarishlarining sifat o`zgarishlariga o`tishini va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o`tishini ko`zdan kechirmoq kerak. Masalan, odam psixikasining taraqqiy etishini o`rgana turib, bilim olish va to`plash jarayonida odamning bilish qobiliyatlari: xotirasi, tafakkuri va nutqi, mushohadakorligi sifat jihatidan o`zgarishni ko`rsatib bersa bo`ladi. Odam ongi uning tarixiy taraqqiyotida shakllanadi. Hozirgi mustaqillik sharoitida milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlash, yangicha tafakkur qilish va dunyoqarashni shakllantirish milliy mafkura va milliy g`oyani shakllanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Odamning tevarak atrofdagi voqelikni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham o`z mavzusini o`rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan boshlashi lozim. So`ngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi lozim.

## 10.2. Psixologiyaning falsafa doirasida rivojlanishi.

Psixologiya ko‘plab fanlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanib bormoqda. Fanlar orasidagi bog‘liqliklar psixologiyaning fanlar tizimidagi o‘rnini belgilab beradi. Bizga ma’lumki, mavjud fanlar gumanitar, tabiiy va falsafiy turlarga bo‘linadi. Bir qator bir-biri bilan yondosh bo‘lgan fanlar mazkur tasniflashga kiritiladi, lekin psixologiya mustaqil fan sifatida namoyon bo‘ladi. U inson ruhiy faoliyatining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy tomonini o‘rganadi. Psixologiya barcha turdagi fanlar orasida muhim o‘rinni egallaydi. Psixologiya falsafa, tarix,

san’atshunoslik, texnika, pedagogika fanlari bilan uzviy bog‘liq. Shunga muvofiq psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog‘liqligini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologiya falsafa fani bilan chambarchas bog‘langan. Bu bog‘liqlik ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to‘la anglash va rivojlantirish an’analarini belgilashdagi o‘rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurini rivojlanishiga oid bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o‘zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlar bilan falsafani boy ma’lumotlarga ega bo‘lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongni shakllanishiga taaluqli, umumiy, ilmiy qonuniyatlarni tizimlashda bu ikkala fan − falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog‘liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko‘ndalang turgan tarixiy davrda milliy istiqlol g‘oyalarini yurtdoshlarimiz ongi va tafakkurida shakllantirish kabi dolzarb vazifalarni bajarishga xizmat qilmoqda.

### 10.3. Jonli va jonsiz tabiatda aks ettirish shakllari.

Psixika - bu yuksak darajada tashkil topgan materiyaning sistemali xossasi (xususiyati), subyekt tomonidan ob’ektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzaralarni subyekt o‘zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o‘z xulqini va faoliyatini shaxsan boshqarishdir. Psixikada o‘tmishning, hozirgi davr va kelasi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingandir. O‘tmish hodisalari inson xotirasida mujassamlashib, shaxsiy tajribalarda namoyon bo‘ladi. Hozirgi zamon aqliy jarayonlar, hissiy kechinmalar, obrazlar va tasavvurlar majmuasida ifodalanadi. Kelajak esa turtkilarda, maqsad, ezgu niyatlarda, shuningdek, fantaziya, vijdon azobi, armon va tushlarda aks etadi. Inson psixikasi ham anglanilmagan, ham anglanilgan xususiyatga ega bo‘lib, anglanilmagan psixika o‘z navbatida hayvon psixikasidan sifat jihatidan keskin tafovutga va ustuvorlikka ega. Tashqi obyektlarning psixika shaklida maxsus tana a’zolari qurilmasining faol va ilgarilab in’ikos etishi sharofati bilan mazkur obyektlarning xususiyatiga mutlaqo mutanosib harakatlarni amalga oshirish imkoniyati yuzaga

keladi. Shu bilan birga psixikaning vaziyat ustuvorligi va qidiruv faolligi tufayli organizmning tarkiblari o‘rtasida yashash uchun kurash ro‘yobga chiqadi.

## 10.4. Onglilik va ongsizlik.

Psixika voqelikning kishi miyasidagi aksi sifatida har xil darajalari bilan farqlanadi. Ong-psixikaning eng yuksak darajasi bo’lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo’lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o’tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.

Ongning birinchi xossasi - bu anglash demakdir. Inson ongi tevarak atrofdagi tashqi olamga doir bilimlar yig’indisidan iboratdir. Anglash tashqi olamdagi narsalarni tushunish bo’lib, uning tarkibiga muhim bilish jarayonlari kiradi.

Ongning ikkinchi xossasiga binoan, ongda obyekt bilan subyekt o’rtasidagi aniq farq o’z ifodasini topadi, ya'ni odam "men" degan tushunchani "men emas" tushunchasidan farqini ajratadi. Odam o’zini bilish qobiliyatiga ega bo’lgan, ya'ni psixik faoliyatda o’z-o’zini tekshira oladigan yagona mavjudotdir.

Ongning uchinchi xossasiga asosan ong yordami bilan odamning maqsadni ko’zlash faoliyati ta'minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish ongning vazifasiga kiradi. Bunday faoliyat motivlari yuzaga keladi va chamalab ko’riladi, irodaviy qarorlar qabul qilinadi, harakatlarni bajarish yo’llari hisobga olinadi.

Ongning to’rtinchi xossasiga asosan turli munosabatlardan ongli ravishda turli his-tuyg’ular yuzaga keladi. Ong kishilar munosabatlarining yig’indisidir.

Ongning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha o‘ziga xos xususiyatlari shakllanishi va namoyon bo‘lishining muqarrar sharti til hisoblanadi. Nutq faoliyati jarayonida odam bilimlar hosil qiladi, kishi dunyoga kelgunga qadar uning uchun insoniyat yaratib bergan, tilda mustahkamlab, unga yetkazgan inson tafakkuri boyliklari bilan o‘z hayotini boyitadi. A.I.Gersen shunday deb yozgan edi: «Har bir kishi ildizlari sal bo‘lmasa Odam ato zamonlariga borib yetadigan dahshatli shajaraga tayanadi; sohil bo‘yidagi to‘lqin kabi orqamizda butun boshli okean − butun bir dunyo tarixining shiddati his etiladi; shu daqiqada bizning

miyamizda barcha asrlarning g‘oyalari...». Til alohida ob’ektiv tizimki, unda ijtimoiy-tarixiy tajriba yoki ijtimoiy ong aks etgandir. Konkert odam tomonidan o‘zlashtirilar ekan, til ma’lum bir ma’noda uning real ongi bo‘lib qoladi.

«Ong» tushunchasi psixologiyada, psixiatriyada va boshqa fanlarda uning yuqorida keltirilgan asosiy ta’riflariga mos keladigan ma’noda ishlatiladi. Psixiatrlarni bemorda ong bor yoki yo‘qligi, yo bo‘lmasa buzilganligi masalalari doim qiziqtiradi, shu tufayli ular ong deganda bemorning o‘z-o‘ziga qaerdaligi, vaqt qachonligi, tevarak-atrofdagi vaziyat qandayligi to‘g‘risida o‘z shaxsiy holati harakatlari haqida hisob bera olish imkoniyatlarini tushunadilar. Ongi yaxshi saqlanib shaxsiy holati hamda harakatlari haqida hisob bera olgan odam miyaga kelayotgan yangi axborotga o‘zidagi mavjud bilimlarni hisobga olgan holda baho beradi va o‘zini tevarak-atrofdagi muhitdan alohida ajratib, boshqa odamlarga va faoliyat vaziyatiga nisbatan tarkib topgan munosabatlar tizimini saqlab qoladi hamda ana shu barcha ma’lumotlar asosida o‘z hatti-harakatini idora qiladi.

Ong ijtimoiy mahsul bo‘lib, faqat insonlarga xosdir. Hayvonlarda esa ong bo‘lmaydi.

**Nazorat savollari:**

1. Psixologiya haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari haqida ma’lumot bering?

2. Psixologiyaning falsafa doirasida rivojlanishi haqida qanday ma`lumotlarni bilasiz?

3. Jonli va jonsiz tabiatda aks ettirishga misollar keltiring?

4. Psixik aks ettirish haqida to`liqroq ma’lumot bering?

5. Onglilik va ongsizlik haqida nimalarni bilasiz?

# 11-MAVZU. INSON PSIXIKASINING IJTIMOIY-TARIXIY TABIATI

***Tayanch tushunchalar:*** *ehtiyoj, individ, sub'ekt, shaxs, individuallik, shaxs individual-psixologik xususiyatlari, inson va texnika munosabatlar, mehnat psixologiyasi.*

## 11.1. Mehnat faoliyat xususiyati: jamoviy va boshqalar.

Mehnat psixologiyasi – kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan sifatida, bugun tom ma'noda, mehnat faoliyatining psixologik qonuniyatlarini bilish, mehnat vazifalarini ro'yobga chiqarishda inson shaxsi imkoniyatlarini va chegarasini aniqlash, inson va mehnat shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri hamda moslashuvining qonunlarini o'rganish eng muhim hisoblanadi.

Mehnat faoliyati psixologiyasi – bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsini mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalariga quyidagi muammolar bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'rganish va ishlab chiqish kiradi:

- Kasbiy faoliyat muayyan turlarining psixologik xususiyatlari (uning vositalari, mazmuni, tashkil etish va shart-sharoitlar, xatolar tahlili, kasblar klassifikatsiyasi va boshqalar);
- Shaxs individual-psixologik xususiyatlarini mehnat samarasi, muvaffaqiyati va xavfsizligiga ta'siri;
- Shaxs kasbiy layoqati shakllanishining psixologik qonuniyatlari (kasbga yo'naltirish, kasbiy tanlov, kasbiy tayyorgarlik, mehnatga moslashuv);
- Mehnat kishisining funksional holati (toliqish, emotsional zo'riqish, stress, monotoniya va boshqalar) va ularni diagnostika, profilaktika va korreksiya qilish usullari;
- Inson va texnika munosabatlarining psixologik qonuniyatlari;
- Yangi texnikani yaratish va qo'llash jarayonining injener-psixologik ta'minoti (loyihalash, baholash).

Mehnat faoliyati psixologiyasi faoliyatni takomilashtirish yo'llari, usullari va vositalarini o'rganishdan tashqari, inson psixikasining fundamental hodisalarini tadqiq etish (mehnat subyektining shakllanishi, holat regulyatsiyasi mexanizmlari, mehnat sharoitida shaxs xususiyatlarining roli, kasbiy qobiliyatlarni shakllanishi va boshqalar)ni ham o'rganadi.

Atrof-muhitni o'zgartiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida mehnat va psixologiyaning o'zaro munosabatlari mehnat faoliyati psixologiyasi mohiyatining bir qator jiddiy holatlariga tayanadi:

- U nafaqat inson mehnatini yengillashtirishga, balki mehnatni yanada mahsuldor, jozibali, xavfsiz etib, zavq va iqtisodiy jihatdan naf berishiga qaratilgan;
- U mehnatni insonga va insonni mehnatga moslashtirishga qaratilgan (insonning tabiat, texnika, boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilishi g'oyasini munozarali, gohida mavhum etadi);
- U mehnat faoliyatida psixikaning shaxsga bog'liq va o'zgaruvchan xususiyatlarini turli toifadagi odamlarga xos ekanligini aks ettiruvchidir.

## 11.2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi.

Har qanday individual faoliyatga nisbatan ehtiyojning tug'ilishi ijtimoiy alomat, umumiylik, hamkorlik xususiyatini kasb etib, faoliyatga yondashuvda yaqqahollik umumiylikni, umumiylik esa alohidalikni uzluksiz ravishda beto'xtov aks ettirib turadi. Tabiiy ehtiyojlarda inson faoliyatining faolligi, o'z shaxsiy hayotini himoya qilish, o'z avlodi hayotini saqlash, uni qo'llab-quvvatlash uchun zaruriy shart-sharoitlarga tortilganlik, tobelik aks etadi. Tabiiy ehtiyojlar tarkibiga odamlarni ovqatlanish, tashnalikni qondirish, jinsiy moyillik, uxlash, issiq va sovuqdan asranish, musaffo havoga intilish, tana a'zolariga dam berish kabilar kiradi. Tabiiy ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmasa, uning oqibatida inson halokatga mahkum bo'ladi, o'z sulolasi hayoti va faoliyatini xavf ostiga qoldiradi.

Tabiiy ehtiyojlar insonda hayvonot ajdodlarnikiga va ibtidoiy jamoa a'zolarinikiga o'xshash bo'lsa-da, lekin ular o'zining psixologik mohiyatiga ko'ra

mavjudodlarnikidan ham sifat, ham miqdor jihatdan tafovutlanadi. Ehtiyojlarni qondirilish usullari, shakli, quroli tobora takomillashib borishdan tashqari, ularning mohiyati, mazmuni ham o'zgarib bormoqda, misol uchun hozirgi zamon kishisi eramizdan oldingi ajdodlarimizga nisbatan boshqacha tarzda o'z ehtiyojlarini ro'yobga chiqaradi va ularni qondirishga intiladi. Uy ro'zg'or buyumlarining




o'zgarishi ehtiyojlarini qondirish yo'llari takomillashuvidan darak beradi.

Shuning uchun insonlarning tabiiy ehtiyojlari ijtimoiy-tarixiy xususiyatga ega, chunki ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsulidan iboratdir. Inson faoliyatining faolligi insoniyat madaniyatini mahsuli bilan bog'liqligini ifodalab, madaniy ehtiyojlarni yuzaga keltiradi. Madaniy ehtiyojlar, madaniyat to'g'risida mulohaza yuritilganda uning ijtimoiy ildizlari kishilik tarixining dastlabki manbalari bilan uzviy bog'lanib ketishini ta'kidlab o'tish lozim. Lekin tabiiy ehtiyojlar madaniy ehtiyojlar bilan o'zaro uyg'unlashgan bo'lib, birinchisi ikkinchisini taqozo etadi, chunki ular biri-birining negizidan kelib chiqadi. Psixologiya fanida ehtiyojlarni tasniflash ularni kelib chiqishi va o'z predmetining xususiyatiga binoan amalga oshiriladi. Odatda, o'zlarining kelib chiqishiga binoan ehtiyojlar tabiiy va madaniy turga ajratiladi. Xuddi shu boisdan madaniy ehtiyojlar obyektiga tabiiy ehtiyojlarini qondiruvchi uy-ro'zg'or buyumlar, mehnat faoliyati orqali boshqa kishilar bilan bog'lanish vositalari, madaniy aloqalar o'rnatish usullari, shaxslararo

muomalaga kirishish uslublari, ijtimoiy turmush zaruriyatiga aylangan narsalar, o’qish va tajriba orttirish yo’llari kiradi. Odatda, jamiyat ta’lim va tarbiya tizimini egallash, xalq an’analari, marosimlari, bayramlari, odatlari, rasm-rusumlari, xulq-atvor ko’nikmalarini o’zlashtirish jarayonida rang-barang madaniy ehtiyojlar vujudga keladi, yangicha ma’no kasb eta boshlaydi. Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, tabiiy ehtiyojlar qondirilmasa, ular insonni halokat yoqasiga yetaklaydi, biroq madaniy ehtiyojlarning qondirilmasligi unday oqibatlarga olib kelmaydi, ammo odamda madaniy fazilatlarning shakllanishiga putur yetkazadi, uning kamolotini sekinlashtiradi. Shu narsani ta’kidlab o’tish joizki, madaniy ehtiyojlar o’zining darajasiga ko’ra, jamiyat tomonidan o’z a’zolari oldiga qo’yilayotgan talablar bilan bog’liqligiga binoan, ular o’zaro bir-birlaridan keskin tafovut qiladi. Masalan, hozirgi zamon yoshlarining bilim olishga nisbatan tinimsiz izlanishini, ya’ni bilim olish ehtiyojining mohiyatini eng so’nggi moda bo’yicha kiyinishga odatlangan xuddi shu yoshdagi tengdoshining ehtiyojlarini bir xil mezon bilan o’lchash va baholash adolatdan emas. Chunki ehtiyojlarning mohiyatiga, ularni qondirish uchun amalga oshirish ko’zda tutilgan faoliyat natijasiga, ularning xususiyatiga ijtimoiy yoki individual yo’nalganligiga binoan, har qaysisi alohida-alohida baholanadi. Ijtimoiy jamiyat tomonidan o’z fuqarolari oldiga qo’yilayotgan talablariga, jamiyatning huquq asoslariga, xalq an’analariga, yurish-turish qoidalariga, ma’naviyat va qadriyat tizimiga, maslak va dunyoqarash mohiyatiga mos tushadigan ehtiyojlar yuksak onglilik, ijtimoiy faollik, ma’naviy kamolot uchun xizmat qiladi, jamiyat taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri bo’lib madaniy ehtiyojlarni tug’ilish va ularni qondirilish darajasi va ma’naviyatni egallashdagi roli hisoblanadi.

Psixologiya fanida ehtiyojlar o’z predmetining xususiyatiga ko’ra moddiy va ma’naviy turlarga ajratiladi, ularni keltirib chiqaruvchi mexanizmlar manbai turlicha ekanligi e’tirof etiladi. Insonning ovqatlanish, kiyinish, uy-joyiga ega bo’lish, maishiy turmush ashyolariga intilish, komfort hissini qondirish bilan bog’liq madaniyat predmetlariga nisbatan ehtiyoj sezish moddiy ehtiyojlar majmuasini yuzaga keltiradi. Ma’naviy madaniyatni yaratish va o’zlashtirish,

shaxsning o’z fikr mulohazalari va his-tuyg’ulari bo’yicha boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish hamda axborat almashtirish, badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan tanishish, mahalliy matbuotni o’qish, kino va teatr ko’rish, musiqa tinglash kabilarga ehtiyoj sezish, ya’ni ijtimoiy ong mahsuliga tobelik ma’naviy ehtiyojlar tizimini vujudga keltiradi.

## 11.3. Individ, subekt, shaxs, individuallik tushunchasi.

Inson tabiataining o‘ziga xos tomonlaridan biri uning jamiyat hayoti bilan bog‘langan tomoni bo‘lib, bu shaxs muammosini o‘rganishni taqozo etuvchi jihati hisoblanadi. Inson mavjudligining turli jabhalardan o‘rganish uzoq tarixiy davrli an’analarga ega. Bu esa insonning shaxslilik aspektidagi ko‘p o‘lchamlilik, ko‘pqirralilik va xilma xillik uning o‘ziga xosligini belgilaydi. Ular quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

– shaxs fenomenining tushunish asosida qarashlar, e’tiqod, tafakkurlash uslublari bilan bog‘liqligi.

– shaxs tushunchasining fanlararo statusga egaligi.

– shaxsning tavsiflashning imkoniyatlari keng va boy ekanligi.

– individ, individuallik, faoliyat subyekti va shaxs tushunchalarining o‘zaro o‘xshashligi va o‘zaro aloqadorligi.

– shaxs tushunchasi etimologiyasining xilma xilligi.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma’no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog‘lom (es-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo‘q, oddiy malakalarni o‘zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an’ana tusiga kirib qolgan, chunki o‘sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo‘la oladi. Individ sifatida yorug‘ dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta’sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog‘idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga

tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo‘lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a’zolari, mahalla ahli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og‘ushida, ularning qalb to‘risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Bir xil turmush sharoitlari shaxs faolligining turli shakllarini yaratish hamda har xil hayotiy vaziyatni vujudga keltirish imkoniyatiga ega. Hayotda biron bir tanbeh berishning o‘zi kimgadir ruhiy hisni uyg‘otsa, boshqa birining sirtiga ham yuqmasligi uchraydi. Shunday qilib, odamga ta’sir qiluvchi barcha tashqi qo‘zg‘atuvchilar ijtimoiy shart-sharoitlarga, faoliyatning ichki tarbiyaviy qismlari (tomonlari, jihatlari, jabhalari, tarkiblari) tuzilishi yig‘indisi bilan boyitilishi evaziga shaxs degan tushuncha hosil bo‘ladi.

Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya’ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig‘indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaksiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o‘xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg‘u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo‘lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning mangulikka yo‘nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o‘zining qadr-qimmati va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta’lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o‘zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Shaxsning tarkib topishi bir qator omillarga bog‘liq degan nazariyaning namoyandalari bo‘lmish hozirgi zamon uzoq chet el (AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Shvesariya va boshqalar) psixologlari oqibat natijasida shaxsning

tuzilishini o‘sha ikkita asosiy omillarga, ya’ni biologik va ijtimoiy (sotsial) voqeliklarning ta’siriga bog‘liq bo‘lgan tuzilishining mavjudligidan manfaatdordirlar. Har bir shaxsning hayotda erishgan yutuqlari, baxtini xarakterlovchi ma’lum mezonlar borki, uni o‘rganishda alohida fan yo‘nalishiga zarurat tug‘iladi. Bu esa insonning ijtimoiy faolligini ta’minlovchi shaxs tushunchasi bilan xarakterlanadi. Shaxs faol faoliyat subyekti bo‘lib, u hayotining barcha bosqichlarida shakllanib, rivojlanib boradi. Shaxsning qanday tarkib topishi uning yaxshi oila a’zosi yoki ota-ona bo‘lishi, uning salomatligi ham hayotda egallaydigan karerasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

**Nazorat savollari:**

1. Mehnat faoliyat haqida umumiy tasnif keltiring?
2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi haqida ma`lumot bering?
3. Individ, sub‘ekt, shaxs, individuallik tushunchalarini izohlang?

# 12- MAVZU. PSIXIK JARAYONLARNING VUJUDGA KELISHIDA NUTQNING AHAMIYATI

***Tayanch tushunchalar:*** *muloqot, kommunikatsiya, axborot almashinuvi, kommunikativ funksiya, verbal, noverbal, nutq, muommala tuzilishi, faoliyat ehtiyoj.*

## 12.1. Mehnat faoliyatida nutqning vujudga kelishi va rivojlanishi.

Psixologiya lug'atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta'rif beriladi:

1. Muloqot - hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o'rnatish va uni rivojlantirish jarayoni.

2. Muloqot - belgilar tizimi orqali subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi.

Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o'zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak.

Kommunikatsiya - tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi - bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda va munosabatda bo'lish jarayonida shaxsga aylanib boradi, ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallab boradi. Muloqot ijtimoiy faollikning ontogenezda (individual rivojlanish yo'li) paydo bo'ladigan birinchi turidir. Faoliyat davomida insonlar o'rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, faoliyat va muloqot o'zaro chambarchas bog'liqdir. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni

hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi. Muloqot psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi: 1) hamkorlikdagi faoliyat jarayonida shaxslararo o'zaro ta'sir va muloqot qonuniyatlarini o'rganish; 2) sharq allomalarining muloqot haqidagi qarashlarini tahlil qilish; 3) o'quvchini faollikka undovchi muomalaviy imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tish; 4) o'quvchilarda kasbiy layoqatni faollashtirishga qaratilgan muloqotni shakllantirish; 5) shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirishda muloqotning rolini orttirish; 6) o'zaro ta'sir etishning ayrim oqibatlarini hisobga olish. Bundan tashqari muloqotning inson ijtimoiy hayotida bajaradigan vazifalari (funksiya) ham mavjud.

Muloqot funksiyalari xilma-xil bo'lib, eng keng tarqalgan tasnifga ko'ra ular quyidagilardan iborat: (B.F.Lomov tasnifi): l. Informatsion - kommunikativ funksiya - axborot almashinuvini ta'minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar, tizimlar orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal (unda belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi) va noverbal (unda belgilar tizimi ishlatiladi) kommunikatsiya farqlanadi. Noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat: kinetika (imo-ishora, mimika, pantomimika); paralingvistika (ovoz lokalizatsiyalari, pauzalar); proksemika (masofa va vaqt me'yorlari); vizual aloqa (ko'zlar orqali aloqa); takesika (jismoniy aloqa). Ba'zida muloqotdagi individlarning hidlari ham o'ziga xos belgilar tizimi sifatida baholanadi. Regulatsion-kommunikativ funksiya - suhbatdoshlar xulq-atvorining regulyatsiya qilinishi (boshqarilishi)ni ta'minlash vazifasi. Kishilar muloqot jarayonida verbal, jismoniy, noverbal yo'llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullashtiruvchi va korreksiyalovchi tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Affektiv-kommunikativ funksiya - inson emotsional sohasining regulyatsiya (boshqarish) qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional

holatlarining eng muhim determinantasiyasidir. Chunki turli tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va o'zgaradi.

L.A.Karpenko taklif etgan tasnifga ko'ra muloqotning quyidagi vazifalari ajratiladi: aloqa o'rnatish vazifasi - suhbatdoshni aloqaga kirishish uchun tayyorlash; informatsion vazifa - suhbatdosh bilan muayyan ma'lumotlar, fikrlar va rejalarni almashish; faoliyatga undash - suhbatdoshni biror harakatni bajarishga stimullashtirish (rag'batlantirish); koordinatsion vazifa - suhbatdosh bilan hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish va uni amalga oshirishdagi harakatlarni muvofiqlashtirish; tushunishni ta'minlash vazifasi - suhbatdoshning fikrlari va hissiyotlarini tushunish; amotiv vazifa - suhbatdoshda muayyan hissiyotlarni uyg'otish hamda ularni o'zgartirish; munosabat o'rnatish vazifasi - munosabatlar tizimidagi shaxsiy o'rni, mavqeni aniqlash; ta'sir ko'rsatish vazifasi - suhbatdoshning xulq-atvori, shaxsiy xususiyatlari, maqsadlarini o'zgartirish.

Demak, muloqot murakkab polifunksional ya'ni ko'p vazifali hodisadir. Biz bo'lajak mutaxassislarda quyidagi muomala xususiyatlarini shakllantirishimiz zarur: muomala madaniyatining nazariy asoslari; shaxslararo munosabatlar qonuniyatlari; pedagogik muloqotning qonuniyatlari; oilada, guruh va jamoalarda muloqotga qo'yiladigan asosiy talablar haqida tasavvurga ega bo'lish; shaxsda muloqot shakllanishini o'rganish; muomala madaniyatini barcha guruh va jamoalarda shakllantirish; shaxslararo munosabatlarda muloqotning ahamiyatini kuzatish; muloqot xossalarini bilish va qo'llay olish; guruhlarda muloqotni shakllantirish metodikalarini o'tkazish; oilada muloqot madaniyati, muloqot xossalaridan boxabar bo'lish; muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik maslahatlar tashkil etish yuzasidan ko'nikmalar hosil qilish.

Muloqot psixologiyasi fani psixologiyaning barcha tarmoqlari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Jumladan, pedagogik psixologiya bilan uzviy bog'liq. Pedagogik muloqotda ta'lim psixologiyasi, tarbiyaning psixologik asoslari, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, o'qituvchi psixologiyasi, maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonlarini boshqarish muhim o'rinni egallaydi. Ijtimoiy psixologiya fanida muloqot tarkibi (struktura) muammosi muhim o'rin tutadi. Chunki muloqot

tuzilishini aniqlab olish uning tarkibidagi har bir elementni alohida tahlil qilish imkonini beradi. Muloqotning asosiy tarkibi quyidagi elementlardan tashkil topgan, deb hisoblanadi.

Muloqotning kommunikativ tomoni muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi axborot almashinuvidan, interaktiv jihati muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'sirlashuvidan, perseptiv tomoni esa muloqot ishtirokchilarining muloqot jarayonida bir-birini idrok etishi va bilishidan iborat. Ijtimoiy psixologiya turli ijtimoiy guruhlar, jamoaning psixik namoyon bo'lishi, katta guruhlar - jamoalarning kayfiyati, tafakkuri, raqobati kabilarni o'rganadi. Boshqaruvda rahbarlarda nutq qobiliyatining rivojlanishi, shuningdek, xodimlar bilan til topa olish uchun muloqot psixologiyasini bilish zarur. Muloqot din psixologiyasi uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Din psixologiyasi diniy ong xususiyatlari, uning psixologik va ijtimoiy asoslari, vazifalari, tizimi, diniy his-tuyg'ular, diniy guruhlar psixologiyasini o'rganishda albatta muloqot xususiyatlari, muloqot madaniyatini bilishga asoslanadi. Demak, muloqot psixologiyasi psixologiyaning barcha tarmoqlari bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Transakt tahlil amerikalik psixolog va psixiatr Erik Bern tomonidan ishlab chiqilgan. U psixoanaliz (tahlil) g'oyalarini rivojlantirib, nazariy psixologiya va psixoterapevtik amaliyotdagi original yo'nalishlardan biri – "transakt tahlil" yo'nalishiga asos soldi. Bu tahlilga ko'ra, shaxs uch EGO holatini o'z ichiga oladi: bolalik, ota-onalik, katta odam. Boshqalar bilan bo'lgan munosabatning har bir daqiqasida individ shunday holatlardan birida bo'ladi. Transaksiya nima? Insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida turli signallar almashinadi. Ushbu signallar transaksiya deyiladi. Transaksiya bu - muloqotga kirishayotgan individlar EGO holatlarining o'zaro ta'siridir. Har biri stimul va javob transaksiyalardan iborat. Transaksiya muloqot ishtirokchilaridan birini EGO holatidan olib chiqadi, birini bu holatga yo'naltiradi.

E.Bernning transakt tahliliga ko'ra insonda uchta "Men" mavjud: bolalik (B) - bo'ysunuvchi, mas'uliyatsiz, spontan reaksiyalarni namoyon etuvchi, nazoratsiz faolligi yuqori bo'lgan holat. Ushbu holatda bola o'z kechinmalarini so'zlar bilan

emas, balki hissiyotlar bilan namoyish etadi. Bu holatning jismoniy belgilari: yig'lash, qaysarlik, ming'irlash, qo'rquvdan cho'chib tushish, yelka qisish, masxara qilish, kulish, biror narsa deb aytish uchun qo'l ko'tarish, uyalish, burun tortish. Bolalik holatida inson quyidagi: "xohlamayman", "qilmayman", "oyi, men ketdim", "men katta bo'lganimda...", "hammadan ko'p", "eng yaxshi" kabi iboralardan foydalanadi. Katta odam bu so'zni, ya'ni "men katta bo'lganimda" iborasini "men boyib ketganimda" degan shaklda ifodalaydi. Bolalar shu bilan birga "Nega? Qachon? Qayerda? Kim? Qanday?'' savollardan ham foydalanadi. Bu - bolada kattalik holati uyg'onayotganligini ko'rsatadi.

Bolalik holati quyidagilarga bo'linadi: tabiiy bolalik "men"i (xursandchilik, qayg'u kabi spontan namoyon etuvchi), moslashuvchi bolalik "men"i (moslashuvchi, quloq soluvchi, o'zini aybdor hisoblovchi, ikkilanuvchi), norozilik qiluvchi bolalik "men"i (qaysarlik, qarshilik qiluvchi). Ota-onalik holati (O) - butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oluvchi, talablar va shart qo'yadigan, nazorat o'rnatadigan holat. Bu holatning jismoniy belgilari: qoshlarni uyish, ko'rsatkich barmoqni yuqoriga ko'tarish, qo'llarni ko'krakda chalishtirish, "uf" tortish, suhbatdosh yelkasini qoqib qo'yish. Ota-onalik holatidagi kishi ko'pincha quyidagi so'zlardan foydalanadi: "yaxshilab miyanga quyib ol", "hech qachon...", "unutmagin", "qancha gapirish kerak", "qani qo'lingni tekkizib ko'rchi" (doim, hech qachon, mumkin, mumkin emas so'zlari ota-onalik holatidagi kishi tomonidan ko'p ishlatiladi). Baholovchi fikrlar - qoralash, maqtash ma'nosidagi fikrlar ("ahmoq", "jinnivoy", "erkatoyim", "bechoragina" kabi) ota-onalik holatidagi kishiga xos. Ota-onalik holati quyidagilarga bo'linadi: mehribon ota-onalik "MEN"i (yordam beruvchi, to'g'rilovchi, ovutuvchi), tanqidchilik "MEN"i (tanqid qiluvchi, buyruq beruvchi, qo'rqituvchi). Katta odam holati (K) - vaziyatni inobatga ola biladigan, boshqalarning manfaatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydigan, mas'uliyatni o'zgalarning va o'zining o'rtasida adolatli taqsimlay oladigan holat. Bu holatning jismoniy belgisi: tinglayotganda yuz, ko'z, tananing harakatlanishi (har 3-5 soniyada ko'zlar pirpirashi). Bolalik holatiga xos qiziquvchanlik va berilib ketish ham katta odam holatidagi inson yuzida aks ettishi

mumkin. Katta kishi holatidagi inson ko'pincha quyidagi so'zlardan foydalanadi: "nima uchun?", "kim?", "qanday qilib?", "qachon?", "balki", "menimcha", "mening tushunishimcha" (masalan: "mening fikrimcha, yoshlar kattalarni hurmat qilishlari kerak, shart"). E. Bern fikricha, shaxsning yetukligi insonda katta odam EGO holatining qanchalik shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Transakt tahlilga ko'ra, muloqot davomida ishtirokchilar har bir EGO holatga muvofiq keluvchi nuqtayi nazarda turib kontaktga kirishadilar. Ayrim transaksiyalar ijobiy munosabat shakllanishiga, ba'zilari nizoga olib keladi.

Transaktsiyalar quyidagi turlarga bo'linadi: parallel transaktsiyalar - stimul transaktsiya va javob transaksiya kesishmaydi (masalan, "katta odam" holatida turib "bolalik" holatiga murojaat qilish, "bolalik" holatida turib "kattalik"ka javob qaytarish); kesishuvchi transaktsiya - stimul transaksiya va javob transaktsiya kesishadi (masalan, "katta odam" holatining "katta odam" holatiga murojaat qilishi, "ota-onalik"ning "bolalik"ka javob qaytarishi); yashirin transaktsiya - bevosita kuzatilayotgan xulq-atvor bilan bog'liq bo'lmagan transaktsiyadir. Sirti "yaltiroq" bo'lgan jismoniy belgilar, so'zlar ostiga juda salbiy mazmun yashiringanda shunday transaktsiya ro'y beradi. Ushbu transaktsiyalar ikkidan ortiq EGO holat munosabatga kirishishi natijasida ro'y beradi.

Muloqot pozitiv (ijobiy) tugallanishi uchun transaktsiyalar parallel bo'lishi kerak. Kesishuvchi transaktsiya nizo va ziddiyatga olib keladi. Parallel transaktsiyaga misol: "oyijon, bu mening qo'limdan kelmaydi", "sen endi katta bola bo'lib qolding, albatta qo'lingdan keladi". Kesishuvchi transaktsiyaga misol: "Sardor, narsalaringni joy-joyiga qo'yib qo'ysang-chi", 'siz menga xo'jayin emassiz, bu yerda menga faqat onam buyruq bera oladi". Bolalik holati bolalik davrida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kattalarga taqlid qilish natijasida ota-onalik holati shakllanadi. Kattalik holati esa uzoq yillar davomida hayotiy tajriba orttirish bilan qaror topib boradi.

## 12.2. Nutq funksiyalari.

Nutq - tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda

uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng harakterli ko‘rinishlaridan bo‘lgan aniq, bir qadar umumiyroqtil tushunchasiga qaramaqarshi qo‘yiladi. Boshqa odamlar xulqatvori va faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl nutq (tashqi nutq), ya’ni gapirish, til belgilarining eshitish a’zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyatsiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi. Asl nutq ("tashqi nutq") bilan bir qatorda ichki nutq ham bor. U so‘zlovchi ongida bilishga yordam beradigan turli xil masalalarni muhokama qilish va hal etishga qaratiladi. Ichki nutq tashki nutq asosida, tovush yoki yozuv qo‘llanmagan holda, faqat ovozli nutqdagi so‘zlar haqidagi aniq tasavvurlar bilan kechadigan jarayonlar tarzida amalga oshadi. Yozma nutq og‘za-ki nutqdan bir qadar shakllanganligi, so‘zlarning o‘ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq, lekin murakkab shakllanganligi, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ohang, mimika va qo‘l harakatlarining bevosita qo‘llana olmasligi bilan farqlanadi. nutqning monologik (monolog) va dialogik (dialog) turlari mavjud.

Nutq aloqa - aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida ko‘rinishi o‘qishdir. Har bir kishining nutq individual, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi; vaholonki, asosiy til unsurlari - lug‘at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo‘lmay, umumnikidir, ya’ni muayyan til jamoasiga umuman taalluqyai bo‘ladi. Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog‘liqdir. Nutqda kishining o‘y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo‘ladi. Nutq tufayli va nutq asosida borliqni umumlashgan holda mavxumiy aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib, jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy

tushunchaviy fikrlash mumkin bo‘ladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilari, idroki, xotirasi, o‘yxayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo‘lishi va amal qilishida, kishi ongining rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega. Nutq qo‘llanish sohasiga qarab badiiy nutq, ilmiy nutq, rasmiy nutq kabi shakllarga ega bo‘ladi. Har qanday shaklda va har qanday holatda ham aniklik, ravonlik, soddalik, ta’sirchanlik nutqning eng muhim belgilari bo‘lib qolishi kerak.

## 12.3. Nutqli va nutqsiz muomala.

Kommunikativ jarayonda qo’llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Ular verbal kommunikasiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog’liq bo’lmaydigan belgilar orqali) kommunikasiyadir.

Verbal kommunikatsiya. Inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo’llaniladi. Nutq - inson tomonidan qo’llaniladigan tovush signallari yoki yozma belgilardan iborat bo’lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. U jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so’z belgilari tizimi bo’lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo’lib yuzaga keladi.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o’rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, uni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (resipient) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to’g’ri tushunolmaydi. Axborot almashish muomala qatnashuvchilariga tushunarli belgi va mazmunga ega bo’lishi kerak. Til so’z belgilari yig’indisidan iboratdir. So’zning ma'nosi uning mazmuniy tomonidir. Har bir aloqida odamning harakatlari va faoliyatlarini boshqa odamning harakati va faoliyatlarini 3 ta muhim omil belgilaydi.

**Birinchidan**, butun insoniyatning yoki bir muncha tor doiradagi kishilar jamoasining ijtimoiy-tarixiy tajribasini belgilaydi. Kichkina bola dunyoni mustaqil ravishda bilib olmaydi. U ota-onasiga savollar beradi va ular unga javob beradilar, bu javoblardan bola o’z faoliyatini keyinchalik foydalanadigan umumiy

bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu ozginagina qismini bola til shaklida, til yordamida so’z belgilari tizimida hosil qila oladi. Maktabda ham xuddi shunday bo’ladi, o’quvchi olam haqida barcha bilimlarni o’qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o’zlashtiradi. Bu yerda til o’zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi, ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o’zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo’ladi.

**Ikkinchidan,** har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko’pincha ijtimoiy qiymatga ega bo’lmagan o’zga kishilarning bevosita tajribalarini belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo’l olaman. Yo’lda o’rtog’im uchrab menga: "oshxona yopilgan", deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo’nayman. Bu yerda til o’zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikasiya usuli yoki olamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo’ladi. Natijada har qanday kommunikasiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

**Uchinchidan,** har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning "shaxsiy" o’z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o’ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o’laroq, o’z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirish va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Bu yerda biz tilning uchinchi vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasiga to’qnash keldik. So’z belgilari tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

## 12.4. Muomala tuzilishi.

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga o’z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo’yadi. Muloqotning maqsadi kishilarning birgalikdagi faoliyatiga ehtiyojini aks ettiradi. Bunda muloqot shaxslararo o’zaro

ta'siri sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir. Birgalikdagi faoliyat va muloqot ijtimoiy nazorat sharoitida ro'y beradi. Jamiyat ijtimoiy normalar sifatida maxsus xulq-atvor namunalari tuzilishini ishlab chiqqan. Ijtimoiy normalar ko'lami nihoyat keng - mehnat intizomi harbiy burch va vatanparvarlik, xushmuomalalik qoidalari ana shular jumlasidandir. Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan muloqotga kirishuvchilar bajaradigan rolning "repertuar"iga mos holda namoyon bo'ladi. Psixologiyada "rol" deganda ijtimoiy (sosial) mavqeni egallab turuvchi har bir kishidan atrofdagilardan kutadigan, normativ tomonidan ma'qullangan xulq-atvor namunasi tushuniladi. (Yosh, mansab, jins va oiladagi, o'qituvchi va o'quvchi shifokor va bemor, katta kishi yoki bola, boshliq yoki xodim, ona yoki buvi, erkak yoki ayol, mehmon yoki mezbon rolida namoyon bo'lishi mumkin). O'z navbatida har bir rol o'ziga mos talablarga javob berishi kerak.

Bir kishi turli muloqot vazifalarida turli rollarni bajarishi mumkin. Masalan, xizmat joyida direktor, kasal bo'lsa shifokor ko'rsatmalariga itoat etuvchi bemor, oilada keksa ota-onasining qobil farzandi, mehmondo'st oila boshliqi bo'ladi. Turli rollarni bajaruvchi kishilarning o'zaro munosabati rol kutishlari bilan boshqariladi. Xohlaydimi yoki yo'qmi atrofdagilar undan ma'lum namunaga mos keluvchi xulq-atvorni kutadilar. Agar rol yaxshi bajarilmasa, ijtimoiy nazorat tomonidan baholanadi, ozmi-ko'pmi cheklanishlar qilinadi. Muloqotning bevosita muvaffaqiyatining sharti o'zaro ta'sir etuvchi kishilarning har biridan kutilayotgan harakatlarga mos keluvchi xulq-atvor namunasini qo'llanishidadir. Kishining boshqalar undan nimani kutayotganini, nimani eshitishga va unda nimani ko'rishga tayyor ekanligini to'g'ri, aniq, xatosiz ko'chira olish qobiliyati **takt** deb ataladi.

Ma'lumki takt pedagogik faoliyatda muhim komponent hisoblanadi. Ayniqsa, pedagogik jarayon o'qituvchi va o'quvchilarning uyushgan faoliyatlari asosida tuzilgan. Shu bois o'qituvchi pedagogik jarayonni o'quvchilar jamoasidan tashkil topganligini unutmasligi har bir o'quvchi shaxsini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. O'quvchilar bilan psixologik aloqaning qisqa muddatga bo'lsada yo'qolishi, og'ir oqibatlarni vujudga keltiradi.

**Nazorat savollari:**

1. Mehnat faoliyatida nutqning vujudga kelishi va rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?

2. Nutq funksiyalarining shaxs hayotiy jarayonlardagi o`rni haqida ma`lumot bering?

3. Nutqli va nutqsiz muomala haqida tushuncha bering?

4. Muomala tuzilishi haqida umumiy ma`lumot bering?

# 13-MAVZU. ONTOGENEZDA INSON PSIXIKASINING RIVOJLANISHI

***Tayanch tushunchalar:*** *intereorizatsiya, ekstereorizatsiya, ontogenez, filogenez, yosh davrlari, obyekt va subyekt.*

## 13.1. Ijtimoiy-tarixiy tajribada shaxs va ongning vujudga kelishi.

Ontogenez (yun. ontos - borliq va genez) - organizmning individual rivojlanishi, uning shakllana boshlashidan hayotning oxirigacha sodir boʻladigan ketma-ket oʻzgarishlar majmui. Ontogenez terminini nemis olimi E. Gekkel (1866) fanga kiritgan. Ontogenez urugʻlangan tuxum hujayra, yaʼni zigotadan boshlanadi. Jinssiz koʻpayadigan organizmlarda yangi organizm ona hujayraning boʻlinishidan (bir hujayralilarda), kurtaklanishdan yoki tugunak, ildizpoya va boshqa vegetativ organlardan (vegetativ koʻpayishda) vujudga keladi. Ontogenez organizmning xususiy rivojlanishi davomida roʻy beradigan barcha morfologik, fiziologik va funksional jarayonlarni qamrab oladigan, oʻzaro uzviy bogʻlangan miqdor va sifat oʻzgarishlari orqali amalga oshadi. Ontogenez ketma-ket keladigan bosqichlar rivojlanish davrlaridan iborat. Jinsiy koʻpayadigan organizmlarda bu bosqichlar murtak (embrional), murtakdan keyingi, yaʼni postembrional va balogʻatga yetish davrlarini oʻz ichiga oladi. Ontogenez davomida rivojlanayotgan organizmning alohida qismlari oʻsadi, ixtisoslashadi va oʻzaro muvofiqlashadi. XVIII asrda ontogenezni tushuntirishda ikki konsepsiya kurash olib bordi. Ulardan biri - preformizm ontogenezni individual oʻsishdan iborat deb tushuntirsa, ikkinchisi - epigenez esa uni strukturasiz murtakdan boshlanadigan yangi hosilaning rivojlanish jarayoni sifatida tushuntiradi.

Zamonaviy tushunchalarga binoan, ontogenez boshlanayotgan hujayrada irsiy axborot kodi holatida organizmning bundan keyingi rivojlanishi programmasi joylashgan. Ontogenez davomida bu programma yadro bilan sitoplazmaning oʻzaro taʼsiri jarayonida murtakning har bir hujayrasida, uning har xil hujayralari va hujayra komplekslari oʻrtasida amalga oshadi. Irsiy apparat maxsus oqsil molekulalarining sintezini kodlash orqali morfogenetik jarayonlarning umumiy

yo‘nalishini belgilab beradi. Bu jarayonlarning amalga oshishi ozmi-ko‘pmi (irsiy belgilangan reaksiya normasi chegarasida) tashqi muhit ta’siri bilan bog‘liq.

Hayvonlarda ontogenez jarayonlarini boshqarishda nerv va endokrin sistemasi muhim ahamiyatga ega. Ontogenez jinsiy ko‘payadigan ko‘p hujayrali hayvonlarda, ayniqsa, murakkab sodir bo‘ladi. Ular ontogenezida ontogenezning murtakgacha (proembrional), murtak (embrional), murtakdan keyingi (postembrional), voyaga yetgan davrlari bo‘ladi. Proembrional davr jinsiy hujayralarning yetilishi (gametogenez) va urug‘lanish davrini; embrional davr embrionning tuxumdan yoki embrion pardadan chiqqungacha, postembrional davr jinsiy voyaga yetgunga o‘tgan davrni, voyaga yetgan davr esa organizmning yetuklik va keksaygan holatini o‘z ichiga oladi. Hayvonlarda ontogenezning 3 tipi ma’lum: 1) lichinkalik - tuxum po‘stidan ancha erta chiqqandan so‘ng organizm lichinka holida hayot kechiradi, lichinka davri oxirida esa metamorfoz yuz beradi; 2) tuxum qo‘yuvchi - murtak uzoq vaqt tuxum ichida rivojlanadi, lichinka davri bo‘lmaydi; 3) ona qornida urug‘langan tuxum, tuxum yo‘lida rivojlanadi, bunday holatda ba’zan murtak bilan ona organizm o‘rtasida yo‘ldosh orqali bog‘lanish yuz beradi. An’anaviy ravishda ontogenezni embriologiya o‘rganar edi. Embriologiyadan rivojlanish biologiyasi ajralib chiqqandan so‘ng embriologiyaning vazifasi murtakdan oldingi va murtak davrini o‘rganish bo‘lib qoldi. O‘simliklarda ontogenez urug‘langan tuxum hujayraning rivojlanishidan boshlanadi. O‘simliklarda ontogenezning o‘ziga xos xususiyatlari jinssiz (sporofit) va jinsiy (gametofit) naslning almashinishidan iborat. Sporofit zigotadan, gametofit - unib chiqayotgan sporadan hosil bo‘ladi. Gulli o‘simliklar hayotiy siklida sporofit ustunlik qiladi, erkak va urg‘ochi gametofit esa qisqarib ketadi. Vegetativ ko‘payishda ontogenez ona organizm, shu jumladan, ixtisoslashgan organlar (ildizmeva, tugunak, piyozboshi va boshqalar) hujayralarining bo‘linishidan boshlanadi. Odatda, o‘simliklar ontogenezi embrionlik, yuvenil (yoshlik), yetuk, ko‘payish va qarilik davrlariga bo‘linadi. Ontogenez davrida o‘simliklar hujayralari, to‘qimalari va organlarining strukturaviy va funksional ixtisoslashuvi yuz beradi; o‘simliklar turli qismlarining o‘zaro ta’siri murakkablashib boradi;

yaxlit sistema sifatida butun bir organizm yoshga oid qaytmas o‘zgarishlar paydo qiladi. Ontogenezda o‘simliklarning bir butunligi fitogormonlar, shuningdek, har xil organlar, fotosintez qiluvchi organ - barglar bilan suv va mineral moddalarni shimuvchi ildiz o‘rtasida metabolitlar almashinuvi orqali ta’minlanadi. Ontogenez davomida o‘simlik o‘sadi va rivojlanadi. O‘sish o‘simlikning bo‘yiga ortishi, ya’ni miqdoriy o‘zgarishi bo‘lsa, rivojlanish sifat o‘zgarishidan iborat. Ko‘pchilik o‘simliklar yopishib yashashi tufayli ular ontogenezi ko‘p jihatdan tashqi muhit sharoitiga bog‘liq. O‘simliklarda muhitning noqulay omillariga turli xil moslanishlar (tinim holati, fotoperiodizm va boshqalar) paydo bo‘lgan. Shu tufayli ular faoliyatining faol davri yilning eng qulay fasliga to‘g‘ri keladi.

## 13.2. Intereorizatsiya va ekstereorizatsiya tushunchalari

Tashqi olamda turli hodisalar ma'lum darajada o’zaro doimiy bog’liqlikka, ma'lum sharoitlarda namoyon bo’ladigan biror mustahkam xususiyatga va tuzilishga egadir. Obyektlar bilan hodisalar o’rtasidagi bunday barqaror (invariant) munosabatlarni obyektlarning muhim xususiyatlari deb yuritiladi. Bu ularning kelajakda qay darajada o’zgarishi va shu maqsadga muvofiq ish tutish, ya'ni obyekt va hodisalarning "xatti-harakatlari"ni oldindan ko’ra olish imkoniyatini beradi. Tashqi, ya'ni buyumlar bilan qilinadigan bunday holda guyo ichki, ya'ni ildam faoliyatni oldindan payqab olinadi. Obyekt (narsa) ustida qilinadigan konkret ishlar bu obyektlarning muhim xususiyatlari ustida qilinadigan operasiyalar bilan, ya'ni ideal (psixik) ishlar bilan almashinadi. Boshqacha qilib aytganda, narsalar bilan jismoniy tarzda qilinadigan ishlar shu narsalarning mazmuni bilan almashinadi.

Tashqi real ishdan ichki ideal ishga mana shunday o’tish jarayonini **interorizatsiya** deb yuritiladi (ichki ishga aylanadi). Inson psixikasi interiorizatsiyasi tufayli ayni chog’da ko’z o’ngida yo’q bo’lgan narsalarning obrazlari bilan ishlay bilish qobiliyatiga ega. Interiorizatsiya muammosi rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Y.Galperin va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiq qilingan. Interiorizatsiya orqali inson psixikasi muayyan vaqt oralig’ida uning idrok maydonida yo’q narsalarning timsoli (obrazi)

dan foydalanish qurbiga ega bo’ladi. Shu narsa ma'lumki bunday o’zgarishlarning muhim quroli bo’lib, so’z o’zgarishi vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so’zlarni to’g’ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlari haqida axborotdan foydalanishning usullarini o’zlashtirish demakdir. Inson aqliy taraqqiyotida interiorizatsiyaning ahamiyati kattadir.

Ma'lumki, odamning ichki dunyosi paydo bo’lgandan so’ng har bir narsani, har bir harakatni oldindan ichida o’ylab so’ngra amalga oshiradi. Oldin ichida o’ylab, so’ngra bevosita tashqi munosabatga o’tishi faoliyatning eksteriorizatsiyasi deb yuritiladi. Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) tuzilmalari bir-biri bilan uyg’unlashganligi ko’zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko’rsatishga mo’ljallangan sa'y - harakatlar ichki psixik jihatiga bog’liq bo’lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek tashqi jabha o’z navbatida a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatini o’zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o’zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o’xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko’rsatadi; g) ularni uzluksiz ravishda yo’naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi yaqqol faoliyatini ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizasiyalashuvga aylanishi deb baholash maqsadga muvofiq.

### 13.3. Subyekt ijodiy faoliyat natijalari.

Psixologiya fanida hayvonlarning xatti-harakati (taraqqiyot bosqichidan qat’iy nazar), xulq-atvorining yuzaga kelishi ko’p jihatdan ularni qurshab turgan makro, mikro muhitga bog’liq. Ularning namoyon bo’lishi biologik (tabiiy) shartlangan omillar, vositalar tomonidan belgilanadi va boshqarilib turiladi. Insonni hayvonot olamining xususiyatlari bilan qiyoslashga harakat qilsak, u holda mutlaqo boshqacha voqelikning shohidi bo’lishimiz mumkin. Shaxs o’zining faolligi bilan hayvonot olamidan farqli o’laroq ajralib turadi, mazkur harakatlantiruvchi kuch faollik ilk bolalik yoshidan e’tiboran ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida to’plangan insoniyatning tajribasiga va jamiyatning qonun-qoidalarini egallashga

yo'naltirilgan bo'ladi. Uzoq davrlar davom etgan maxsus jarayonning ta'sirida sodda tarzdagi xatti-harakatda faollik ustuvorlik qilganligi tufayli o'zining yuqori bosqichiga o'sib o'tib, yangicha mazmun, mohiyat, shakl va sifat kashf etgan. Faollik negizida paydo bo'luvchi o'zgacha sifatni, o'ziga xoslikni egallagan xatti-harakatning yuksak ko'rinishi, faqat insongagina taalluqliligi orqali u psixologiya fanida faoliyat deb nomlana boshlandi. Faoliyat faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlari bilan xatti-harakatdan tafovutlanadi. Uning farqli alomatlari tavsifi yuzasidan maqsadga muvofiq mulohazalar yuritish ayni muddaodir.

Birinchidan, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yuzaga keltirgan tabiiy, biologik va ma'naviy ehtiyoj bilan shartlanmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizga qurilishi mumkin. Mabodo ehtiyoj motiv (lotincha, turtki, harakatga keltiruvchi degan ma'noni anglatadi) sifatida faoliyatga ichki turtki berib, uni jadallashtirishga, faollashtirishga erishsa, u vaziyatda faoliyatning mazmuni, shakllari ijtimoiy: shart-sharoit, talablar, zaruriyat, tajriba kabilar bilan belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlash o'tish joizki, insonni mehnat qilishga undagan motiv moddiy ovqatga nisbatan ehtiyoj vujudga kelishi tufayli tug'ilishi hodisasi muayyan darajada uchrab turadi. Aksariyat hollarda ishchi dastgohni ochlikning oldini olish uchun emas, balki jamiyat tomonidan mas'ul ijtimoiy vazifa sifatida belgilanganligi sababli boshqarishga qaror qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ishchining mehnat faoliyati mazmuni moddiy ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan belgilanadi, bu o'z navbatida maqsadning ijtimoiy negizida yotuvchi tayyorlash mas'ulligi bilan uyg'unlashib ketadi. Modomiki shunday ekan, odam nima uchun bunday yo'sinda xatti-harakat amalga oshirgani, uning nimani ko'zlab ish qilayotgani mos kelmaydi, chunki uni faollikka undovchi turtki, xohish-istak bilan faoliyatni yo'naltiruvchi aniq maqsad o'zaro mutanosib emas. Binobarin, faoliyat faollik manbai hisoblanmish ehtiyoj sifatida yuzaga kelgan tarzda faollikning yo'naltiruvchisi tariqasidagi anglanilgan maqsad bilan idora qilinadi.

Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixika narsa va hodisalarning xususiy obyektiv xossalarini aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berishi joiz.

Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni va yordamga muhtojligi yo'q faollikning imkonini beradigan boshqarishni uddalashi lozim. Shuning uchun faoliyat bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshishi amri mahol, chunki u har ikkala omil bilan uzviy aloqaga kirishganidagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi, xolos. Odatda, faoliyatga ta'rif berilganda, birinchi galda anglashilgan maqsad bilan boshqarilishi, so'ngra psixik (ichki) va jismoniy (tashqi) faollikdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tiladi. Lekin ushbu belgilar faoliyat ta'rifini mukammal tarzda ochib berishga qurbi yetadi, degan gap emas, albatta. Inson faolligida anglanilgan maqsad mavjudligi to'g'risida mulohaza yuritish uchun har xil xususiyatli bir qancha omillarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Faoliyatning motivlari, ro'yobga chiqarish vositalari, axborot tanlash va uni qayta ishlash anglanilgan yoki anglanilmagan, ba'zan anglanilganlik noto'kis, hatto u noto'g'ri bo'lishi mumkin. Jumladan: a) maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatiga nisbatan ehtiyojini goho anglaydi, xolos; b) boshlang'ich sinf o'quvchisi o'quv motivlarini hamisha ham anglash qurbiga ega bo'lmaydi; v) o'smir ham xulq motivlarini noto'kis va noto'g'ri anglashi mumkin; g) hatto voyaga yetgan odam ba'zan xulq motivini noo'rin harakatga intiladi. Bundan tashqari, hatto faoliyatni amalga oshirishni rejalashtirish, uni ro'yobga chiqarish uchun qaror qabul qilish, mahsulani taxminlash, xulosa chiqarish ham anglanilganlik kafolatiga ega emasdir. Chunki faoliyatni ro'yobga chiqaruvchi harakatning aksariyati ong tomonidan boshqarilmaydi, jumladan, velosiped uchish, kuy chalish, kitob o'qish, telefon qilish odatiy hodisadir.

## Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy-tarixiy tajribada shaxs ongining rivojlanishi qanday bo`lgan?
2. Intereorizatsiya va ekstereorizatsiya tushunchalariga ta'rif bering?

3. Subyekt ijodiy faoliyat natijalari deganda nimani tushunasiz?

4. Intereorizatsiya, ekstereorizatsiya tushunchalarini izohlang?

5. Ontogenez va filogenez haqida ma`lumot bering?

## 14-MAVZU. FAOLIYAT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

***Tayanch tushunchalar:*** *faoliyat, faollik, motiv, predmetli faoliyat, tashqi faoliyat, ichki faoliyat, sezish, fahmlash, ehtiyoj, bilish.*

### 14.1. Faoliyat tuzilishi psixologik xususiyatlarini tadqiq etish.

Faoliyatning jabhalarini ongda aks darajasi va mukammalligi uning anglanilganligi ko'rsatkichi mezoni hisoblanadi. Lekin faoliyatning anglanganligi darajasi keng ko'lamli bo'lishiga qaramasdan, maqsadni ko'zlash (anglash) uning ustuvor belgisi vazifasini o'ynayveradi. Faoliyatda maqsadni anglash ishtirok etmasa, unda u ixtiyorsiz (impulsiv) xatti-harakatga aylanib qoladi va bunday holat ko'pincha hissiyot bilan boshqariladi. Jahl, g'azab (affekt), kuchli ehtiros holatlari yuz bergan odam ixtiyorsiz harakat qiladi. Biroq xatti-harakat ixtiyorsizligi uning anglanilmaganligini bildirmaydi, aksincha bunda inson motivining shaxsiy jabhasi anglanilgan bo'ladi, uning ijtimoiy mazmuni esa qamrab olinmaydi. Voqelikka nisbatan munosabatning muhim shakli sifatidagi faoliyat inson bilan uni qurshab turgan olam (borliq) orasida bevosita aloqa o'rnatadi. Tabiatga, narsalarga o'zga odamlar ta'sir ko'rsatishi ham faoliyatning qudrati bilan ro'yobga chiqadi. Inson faoliyatda narsalarga nisbatan subyekt sifatida, shaxslararo munosabatda esa shaxs tariqasida gavdalanadi hamda imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga musharraf bo'ladi. Uning natijasida ikkiyoqlama bog'lanish uzluksiz harakatga kirishi, to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishi tufayli inson narsalarning, odamlarning, tabiat va jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ma'lumot to'playdi. Har xil xususiyatli o'zaro munosabatlar negizida faoliyat subyekti uchun narsalar subyektlar sifatida, odamlar esa shaxs timsolida aks eta boshlaydi.

Inson faoliyatga yo'naltirilgan maqsadga erishish uchun shu yo'lda harakat qilishi tufayli xususiy vazifalarni bajarishga kirishadi. U o'z oldida turgan maqsadni amalga oshirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida u yoki bu amalni bajaradi. Biror matnni kompyuterda tayyorlash uchun inson oldin uni elektr tokiga ulaydi, ekranni ishga sozlaydi, uning tugmachalarini bosish orqali harf va so'zlarni teradi, so'ngra ma'lum ma'no anglatuvchi matn paydo bo'ladi.

Psixologiyada faoliyatning alohida bir xususiy vazifasini bajarishga mo'ljallangan, nisbatan tugallangan qismi (unsuri), tarkibi harakat deb nomlanadi. Masalan, kompyuter texnikasidan foydalanish harakatlari amalga oshiriladigan ishlardan tarkib topadi. Harakatlar natijasida odam borliqdagi narsalar xususiyati, holati, fazoviy joylashuvini o'zgartiradi. Mazkur jarayon nafaqat harakat yordami bilan, balki muayyan sa'y-harakatlar tufayli yuzaga keladi. Duradgor eshik yasamoqchi bo'lsa, avval munosib material tanlaydi, ularni o'lchaydi, unsurlarini sanaydi, randalaydi, qismlarni bir-biriga joylashtiradi, yopishtiradi, unga pardoz beradi, oshiq-moshiq qoqadi, kesaki o'rnatadi, ochib yopilishini tekshiradi va hokazo. Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, duradgorning gavdasi, oyoq-qo'llari, boshining tutishi sa'y-harakatlari bilan birga "tanlash", "ishlov berish", "o'rnatish" amal qismlari majmuasi faoliyatni tarkib toptiradi. Sa'y-harakatning harakatdan farqli tomonlari uning aniqligi, maqsadga yo'nalganligi, epchilligi, uyg'unligi singari belgilarida o'z ifodasini topadi.

Inson faoliyatida narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirlgan sa'y-harakatlardan tashqari: a) tananing fazoviy holati; b) qiyofaning saqlanishi (tik turish, o'tirish); v) joy almashish (yurish, yugurish); g) aloqa vositalari sa'y-harakatlari qatnashadi. Odatda, aloqa vositalari tarkibiga: a) ifodali sa'y-harakatlar (imo-ishora, pantomimika); b) ma'noli ishoralar; v) nutqiy sa'y-harakatlar kiritadi. Sa'y-harakatlarning ushbu turlarida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari mushaklar, hiqildoq, tovush paychalari, nafas olish a'zolari ishtirok etadi. Demak, narsalarni o'zlashtirishga qaratilgan harakatning ishga tushishi muayyan sa'y-harakatlar tizimining amalga oshirilishini anglatadi. Bu hodisa ko'p jihatdan harakatning maqsadiga, ta'sir o'tkaziladigan narsalarning xususiyatlariga va harakatning amalga oshishi shart-sharoitlariga bog'liq. Jumladan, a) kitobni olish qalamni olishdan boshqacharoq tarzdagi sa'y-harakatni taqozo etadi; b) avtomobilni haydash velosipedda uchishga qaraganda ayricha sa'y-harakat talab qiladi; v) 50 kg shtangani ko'tarishda 1 tonnaga qaraganda ko'proq quvvat sarflanadi; g) kartonga katta shaklni yopishtirishga qaraganda kichik shaklni joylashtirish qiyin kechadi. Yuqorida keltirilgan misollar turlicha obyektlarga taalluqli bo'lishiga

qaramay, ularda harakatning maqsadi yagonadir. Obyektlarning turlicha ekanligi sa'y-harakatlarning oldiga va mushak faoliyati tuzilishiga har xil talablarni, tizimni qo'yadi. Ushbu voqelik rus olimlari P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, A.Asratyanlarning tadqiqotlarida dalillab berilgan. Ularning umumiy mulohazalariga qaraganda, mushaklarning faoliyati sa'y-harakat vazifasi bilan emas, balki mazkur sa'y-harakat ro'y beradigan shart-sharoitlar bilan boshqarilishi mumkin. Mushaklar bu o'rinda sa'y-harakatlarning yo'nalishini va tezligini ta'minlash uchun xizmat qiladi, har xil qarshiliklarni (hajm, kuch, vazn ta'siri) muayyan darajada susaytiradi. Sa'y-harakatlarning amalga oshirilishi beto'xtov ravishda nazorat qilinadi, uning mahsulasi harakatning pirovard maqsadi bilan qiyoslanadi va unga ayrim tuzatishlar kiritiladi, xuddi shu tarzda boshqaruv betinim takrorlanaveradi, harakatni nazorat qilish jarayoni esa sezgi a'zolari yordami bilan vujudga keladi. Sa'y-harakatning sensor (sezgi a'zolari yordamida) nazorat qilishning isboti uning oynadagi o'z aksiga qarab chizishda o'z ifodasini topadi. Ma'lumki, oynada qalamning odam qo'li harakat yo'nalishi bo'yicha emas, balki qarama-qarshi tomonga harakatlanayotganday tuyuladi. Inson ko'rish orqali mashqlanishi tufayli ma'lumotlardan foydalanish bilan harakatni muvofiqlashtirishni uddalaydi. Sa'y-harakatlarning nazorat qilish jarayoni va ularni boshqarish teskari aloqa prinsipiga binoan ro'yobga chiqadi. Ushbu hodisani amalga oshish imkoniyati quyidagi omillarga bevosita bog'liq holda kechadi: a) sezgi a'zolari aloqa kanali vazifasini bajargan taqdirda; b) ular axborot manbai sifatida harakat rolini o'ynaganda; v) sa'y-harakatlarni aks ettiruvchi alomatlar bu jarayonda xabar yetkazuvchi sifatida qatnashganida va boshqalar.

Ta'kidlab o'tilgan omillar orqali amalga oshadigan teskari aloqaning bunday shaklini (ko'rinishini) rus tadqiqotchi P.K.Anoxin teskari afferentatsiya deb atagan. Afferentatsiya (lotincha gogepz keltiruvchi degan ma'no anglatadi) hamda tashqi qo'zg'atuvchilardan hamda ichki organlardan, axborotni qabul qiluvchi hissiy a'zolardan markaziy nerv sistemasiga kelib tushuvchi nerv impulslarining doimiy oqimini bildiradi. To'g'ri aloqa axborotlarining tashqaridan kirib borishini anglatib kelsa, teskari afferentatsiya uning aks holatini aks ettiradi. Sa'y-harakatlarning

hammasi ham organlarning faoliyatini tushuntirish uchun xizmat qiladi va nazorat (boshqaruv) jarayoni qanday kechishini tahlil etish imkoniyatiga ega. Narsaga yo'naltirilgan harakatning ishga tushishi muayyan bir tizimga taalluqli sa'y-haraktlarning natijaga (mahsulaga) erishishini ta'minlash bilan cheklanib qolmaydi. Balki u (harakat), birinchidan, sa'y-harakatlarning mahsulasiga mos ravishda, ikkinchidan, harakatlar obyektning xususiyatlariga mutanosiblikda, uchinchidan, sa'y-harakatlarni hissiy nazorat qilishni amalga oshirgan yo'sinda ularga ba'zi bir tuzatishlar kiritadi. Ushbu jarayonni osonroq tushunish uchun uning negizi: a) tashqi muhitning holati, b) muhitda harakatlarning vujudga kelishi, v) natijalar (mahsulalar) to'g'risida miyaga axborot beruvchi hissiy mo'ljallarni egallash mujassamlashtiradi. Masalan, haydovchi avtobusni to'xtatish tepkisini bosish kuchini, uning harakati tezligi, shoh ko'chaning holati, avtobusning vazni, harakat qatnovi, piyodalar gavjumligi bilan so'zsiz moslashtiradi.

Faoliyat tarkibiga kiruvchi sa'y-harakatlar tizimi oxir-oqibatda mazkur harakatning maqsadi bilan nazorat qilinadi, baholanadi va to'g'rilab turiladi. Maqsad miyada faoliyatning bo'lg'usi mahsulasining timsoli, o'zgaruvchan andazasi tarzida vujudga kelishi mumkin. Ezgu niyatga aylangan bo'lg'usi andoza bilan harakatning amaliy natijasi qiyoslanadi, o'z navbatida andoza sa'y-harakatni yo'naltirib turadi. Ana shu holatning turlicha psixofiziologik talqinlari mavjud bo'lib, ular "bo'lg'usi harakat modellari", "sa'y-harakat dasturi", "maqsadning dasturi", "miyada harakatning o'zi oldindan hosil qiladigan andozalari" singari tushunchalarda o'z ifodasini topadi. Jumladan, ularning eng muhimlari: "harakat aktseptori" va "ilgarilab aks ettirish" (P.K.Anoxin), "harakatlantiruvchi vazifa" va "bo'lg'usi ehtiyoj andozasi" (N.A.Bernshteyn), "zaruriy mohiyat" va "kelajak andozasi" (Mittelshtedt, U.Eshbi) va boshqalar. Sanab o'tilgan tadqiqotchilarning talqinlari ilmiy faraz (taxmin) tarzida berilganligi tufayli ular miyada qanday aks etilishi mumkinligini mukammal bilishga qodir emasmiz. Lekin ularning miyada ilgarilab aks ettirish to'g'risidagi mulohazalari, bu borada tasavvurlarning yaratilishi psixologiya fani uchun ijobiy ilmiy voqelik bo'lib hisoblanadi. Faoliyat jahon psixologiyasi fanining asosiy (fundamental) tushunchalaridan biri

hisoblanib, ko'pincha psixologik kategoriya sifatida olib qaraladi. Shuning bilan birga ushbu tushuncha haddan ziyod keng ma'noli va ko'p ahamiyatli tarzda foydalanilganligi tufayli uning mohiyati yoyiq bo'lib boradi, natijada qiymati asl mazmunini yo'qotadi. Xuddi shu boisdan psixologiyada faoliyat uchun umumiy qabul qilingan definitsiya mavjud emas, foydalanib kelinayotgan tuzilma, ta'rif esa ko'p hollarda tanqidga uchraydi. Holbuki shunday ekan, semantik tahlil o'tkazish orqali faoliyatga nisbatan turlicha qarashlarni umumlashtirish, o'zaro taqqoslash zaruriyati aniqlangan bo'lar edi, bu esa o'z navbatida uning (faoliyatning) ilmiy psixologik obyektiga aylantirishi unga aloqador tushunchalar tarkibini mukammallashtirish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ensiklopediya, izohli lug'at va lingvistik so'zliklardagi ma'lumotlar, ilmiy matnlar tahlilining ko'rsatishicha, faoliyat tushunchasi falsafa, fiziologiya, sotsiologiya, psixologiya fanlari predmetidan kelib chiqib, o'zaro qorishish oqibatida mehnat, ish, aktivlik, xulq singari to'rt xil tavsifga ega bo'lgan.

I.M.Sechenov fiziologik organlar va tizimlar faolligi yoki ishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan, shu sababdan uning asarlarida "tafakkurning faol shakli", "tafakkur faoliyati", "miya faoliyati", "muskul faoliyati" so'z birikmalari keng ko'lamda joy egallagan. I.P.Pavlov tomonidan "oliy nerv faoliyati", N.A.Bernshteyn esa "fiziologiya faolligi" atamasi fan olamiga olib kirgan. Lekin N.A.Bernshteyn faollik, faoliyat, ish, mehnat tushunchalarini ma'nosiga ko'ra farqlagan bo'lishiga qaramay, u aksariyat hollarda faollikni faoliyat ma'nosida qo'llagan.

## 14.2. Faoliyat predmetliligi.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikni fiziologik ma'nosi sifatida talqin qilingan bo'lsa, ish, mehnat faoliyati "mehnat faolligi" mazmunida qo'llanadi. Ijtimoiy psixologiyada "faoliyat-faollik-ish-mehnat", "faoliyat-xulq", "mehnat-xulq-faoliyat" ko'rinishlari juftligi uchrab turadi. S.L.Rubinshteyn ong va faoliyat birligi prinsipini ilgari surib va atroflicha asoslab berib, faoliyat psixologiyasini yaratish zaruriyatini tushuntira oldi. Uningcha, mehnat psixologik emas, balki "ijtimoiy kategoriya", psixologiya esa "mehnat faoliyatining psixologik jabhalarini" tadqiq

etadi. Psixiklilikning namoyon bo'lishi yoki hukm surishining obyektiv shakli xulqda, faoliyatda ifodalanadi (aks ettirish harakati ma'nosida).

A.N.Leontev faoliyatning psixologik nazariyasini yaratib, uning asosiy tushunchasi sifatida "predmetli faoliyat" so'z birikmasini fanga olib kirdi. Muallif tomonidan "odamning hissiy-amaliy faoliyati" so'z birikmasi "ijtimoiy inson" sifatida talqin etiladi. Uning asarlarida "faoliyat", "xulq" tushunchalari har xil mazmunda ishlatiladi, jumladan, "teskari aloqalar vositasida xulqni boshqarish", "faoliyatning halqali tuzilishi", "faoliyatni boshqarish", "qo'lning tuyush faoliyati", "perseptiv faoliyat", "retseptor va effektor apparatlarning hamkorlik faoliyati" kabilar.

B.G.Ananev faoliyat psixologiyasini faollik psixologiyasi ma'nosida tushunadi. Uning fikricha, bilish va muomala faoliyatning birlamchi ko'rinishidir. Tadqiqotchi "inson faoliyati", "tashkiliy ish", "tashkilotchilik faoliyati", "xulq jarayonining algoritmlari" atamalaridan har xil ma'noda foydalanadi. Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, miyani ilgarilab aks ettirish imkoniyati va hali amalga oshirilmagan harakatning natijasi inson psixikasida qay tarzda in'ikos etilishi kuchli qiziqish uyg'otadi. Bu hodisani izohlashning yagona yo'li - u ham bo'lsa borliqning muhim xususiyati hisoblanmish qonuniyatning mavjudligidir. Borliqdagi qariyb (neosfera hisobga olinmaganda) barcha narsalar, munosabatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar, tuzilmalar bir-biri bilan doimiy bog'liqlikka ega bo'lib, muayyan qonuniyat asosida harakatlanadi, bir holatdan ikkinchisiga o'tadi. Shuning uchun idishdagi suv qaynatilsa bug'ga aylanadi, harorat pasaysa, u muzlaydi, havo isiganida esa muz eriy boshlaydi, bahor ketidan yoz keladi, narsalar ishqalansa qiziydi va hokazo. Xuddi shu bois obyekt bilan hodisa o'rtasidagi o'zgarmas, barqaror munosabatlar, obyektning muhim xususiyatlari hodisaning qonuniyati deyiladi. Ularda o'zgarmas xususiyatlar va qonuniyatlarning mavjudligi o'zgarishlarni oldindan payqash, harakatlarni muvofiq yo'naltirish imkonini vujudga keltiradi. Tashqi, yaqqol faoliyat favquloddagi davrda ichki timsoliy (psixik) faoliyat tarzida his yetiladi. Obyektlarga yo'naltirilgan yaqqol harakatlar ularning muhim xususiyatlariga mo'ljallangan timsoliy jarayon bilan

almashtiriladi. Xuddi shu sababdan tashqi, yaqqol harakatdan, ichki, timsoliy harakatga mana shu tarzda o'tish jarayoni interiorizatsiya (ichki tarzga aylanish) deb ataladi. Interiorizatsiya muammosi rus olimlari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin va ularning shogirdlari tomonidan turli jabhalarda tadqiqot qilingan. Interiorizatsiya sharofati bilan inson psixikasi muayyan vaqt oralig'ida uning idrok maydonida yo'q narsalarning timsoli (obrazi)dan foydalanish qurbiga ega bo'ldi. Shu narsa ma'lumki, bunday o'zgarishlarning muhim quroli bo'lib so'z, o'zgarish vositasi sifatida nutqiy faoliyat xizmat qiladi. Shuning uchun so'zlarni to'g'ri ishlatishga odatlanish favqulodda buyumlarning muhim xususiyatlarini axborotidan foydalanishning usullarini o'zlashtirish demakdir.

Inson faoliyati murakkab va o'ziga xos jarayon bo'lib, shunchaki ehtiyojlarni qondirishdan iborat emas, balki ko'pincha jamiyatning maqsadi va talablari bilan belgilanadi. Xuddi shu boisdan qo'yilgan maqsadning anglanilganligi va unga erishish bo'yicha ish harakatlari tajribasi bilan bog'liq ekanligi inson faoliyatining o'ziga xos belgisi bo'lishini tasdiqlaydi. Shuning uchun shaxs faoliyatining jismoniy (tashqi) va psixik (ichki) tuzilmalari bir-biri bilan uyg'unlashganligi ko'zga tashlanadi. Inson faoliyatining tashqi jabhasi uning atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan sa'y-harakatlar ichki (psixik) jihatiga bog'liq bo'lib, ularni motivlashtiradi, bilishga undaydi va boshqaradi. Shuningdek, tashqi jabha o'z navbatida: a) psixik faoliyat buyumlar va jarayonlar xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi; b) ularning maqsadga muvofiq tarzda qayta o'zgartirilishini amalga oshiradi; v) psixik andozalar o'xshashligini, natijalar va harakatlarning kutilmalariga muvofiqligini ko'rsatadi; g) ularni uzluksiz ravishda yo'naltirib va nazorat qilib turadi. Shunga muvofiq ravishda tashqi, yaqqol faoliyatni ham ichki (psixik) faoliyatning eksteriorizatsiyalashuvi (tashqi tarzga aylanishi) deb baholash maqsadga muvofiq. Psixologiya fanida harakat tushunchasi tahlil qilinganida u motor (jismoniy) harakat, sensor (hissiy) harakat va markaziy qismga ajratiladi. Shunga muvofiq ravishda ajratilgan tarkiblar harakatni amalga oshirish jarayonida bajaradigan ishlarni ijro etish, nazorat qilish va boshqarish bilan shug'ullanadi. Faoliyat harakatlarining ijro etish, nazorat qilish va boshqarishda qo'llaniladigan

yo'l-yo'riqlar uning usullari deyiladi. Odatda, harakatlar anglanilgan yoki anglanilmagan tarzda amalga oshirilishi kuzatiladi. Harakatni bajarishda ong borgan sari kamroq ishtirok etishi tufayli ishni amalga oshirish avtomatlasha boshlaydi, ayrim mayda-chuyda qismlarga nisbatan e'tibor (nazorat) kamayadi.

Shuning uchun inson faoliyatida maqsadga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi. Xuddi shu boisdan harakatlarni boshqarish bilan sa'y-harakatlarni boshqarish aynan bir narsa emas, albatta. Chunki sa'y-harakatlarning yuksak darajada avtomatlashuvi uning o'z tarkibidagi harakatni ongli ravishda idora qilish bilan uyg'unlashib ketadi. Patologik holatlardan tashqari, barcha faoliyat turlari ong bilan boshqarilib turadi. Harakat tarkiblarining avtomatlashuvi: birinchidan, ongli ravishda yo'naltirilgan obyektni almashtiradi. Ikkinchidan, harakatning umumiy maqsadlarini, uning ijro etilishi shart-sharoitlarini, natijalarini nazorat qilishni, uchinchidan, ularni baholashni ong uning tasarrufi doirasiga kiritadi.

Malakaning tuzilishi. Harakatning qisman avtomatlashuvi tufayli uning tuzilishida ayrim sifat o'zgarishlari yuz beradi va ular quyidagilardan tashkil topgandir:

Birinchidan, sa'y-harakatlarning ijro etilishi usullari o'zgaradi. Bunda bir qator sodda sa'y-harakatlar yagona jarayonga (tarkibga) kiruvchi ba'zi sodda sa'y-harakatlar o'rtasida to'siq va uzilish ro'y bermagan murakkab sa'y-harakat o'zaro bir-biriga qo'shilib ketadi, ortiqchalari esa bartaraf etiladi. Masalan, bola velosipedni uchishga o'rganayotgan paytida bir qancha ortiqcha harakatlarni amalga oshiradi: o'zini bir tekis tuta olmaydi, pedalni birini bosib, ikkinchisini bosmaydi, rulni qattiq tutadi, yo'lga diqqatini taqsimlay olmaydi, o'rindiqqa noqulay o'tiradi, birovning yordamiga tayanadi. Malakali velosiped haydovchisi harakatni silliq bajaradi, ortiqcha urinishlarga yo'l qo'ymaydi. Harakatlarni o'zlashtirish jarayonida: a) sa'y-harakatlar tarkibi; b) sa'y-harakatlar izchilligi; v) sa'y-harakatlar uyg'unligi; g) ularning tezligi rejali kechishiga sharoit yuzaga keladi.

Ikkinchidan, harakatni sensor (hissiy) nazorat qilish usullari o’zgaradi. Dastavval, sa’y-harakatlar amalga oshishini ko’rish organi orqali nazorat qilish kinestetik (mushaklar yordamida harakat) nazorat bilan almashadi. Chunonchi, charxchi asbobning tezligiga emas, balki ko’proq pichoq tig’iga e’tibor qaratadi. Sa’y-harakatlarning xususiyatini aniqlovchi har xil o’lchamlarining nisbatini baholash imkonini vujudga keltiradigan sensor sintezlar (yunoncha - uyushma demakdir) hosil bo’ladi. Harakat mahsullarini nazorat qilishga alohida ahamiyat kasb etadigan mo’ljallarni farqlash va ajratish uquvchanligi insonda rivojlanadi.

Uchinchidan, harakatni markazdan turib boshqarish usullari o’zgarib boradi. Harakat usullarini idrok etishdan diqqat holi bo’lib, u uning vaziyati va mahsulasiga qaratilgandir. Topshiriq yechimlari, aqliy faoliyat jarayonlari tezkorlikda, hamkorlikda bajarila boshlaydi. Jumladan, uchuvchi samolyot dvigatelining ortiqcha kuch bilan ishlayotganini tovushidan fahmlaydi. Narsalarni aniqlashga sarflanadigan vaqt kamaya boradi. Qo’llanishga mo’ljallangan usullarning turkum tarzda ong yordamida oldindan payqash (sezish, fahmlash, bilish) jarayoni antitsipatsiya (lotincha, oldindan fahmlash, sezish ma’nosini anglatadi) deyiladi.

Shuning uchun, harakat usullaridagi mazkur o’zgarishning siri nimada va ular qanday psixologik mexanizmiga ega, degan savolning tug’ilishi tabiiydir. Psixologik mexanizm (ta’minlash) o’z ichiga izlanish urinishlarini va tanlashni oladi. Shaxs u yoki bu harakatni bajarishga urinib ko’radi, hatto ushbu jarayonni nazorat qilib ham turadi. Bu o’z navbatida muvaffaqiyatli urinishlar (sa’y-harakatlar), o’zini oqlagan chamalashlar, mo’ljallar inson tomonidan tanlanadi va asta-sekin mustahkamlanadi. Qo’llanganda foyda (naf) bermagan harakatlar samara beruvchilari bilan almashtiriladi. Bu holat muayyan davr davomida takrorlanadi yoki mashq qilinadi. Ana shundan kelib chiqqan holda muayyan harakatlarini o’zlashtirish maqsadida ularni ongli ravishda nazorat qilishga va o’zgartirishga harakat qilinadi. Amaliy ish harakatlarini takrorlamasdan turib, turli xususiyatli malakalarni shakllantirib bo’lmaydi. Malakani shakllantirishda bajarilayotgan harakatlarning nutq faoliyatida so’z bilan ifodalanishi va

harakatning timsolini xayolda mujassamlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu yo'sinda insonning malakasi anglashinilgan tarzda avtomatlashgan xatti-harakat sifatida shakllanadi. Malakalarni shakllantirish mexanizmiga, prinsipiga muayyan odatiy jabhalarga, usul va vositalar tanlash xususiyatiga alohida e'tibor qilish uning muvaffaqiyatli hosil bo'lishini ta'minlaydi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq: a) usullarni tanlash, b) harakatda ong nazorat funksiyasini kamaytirish, v) maqsadni oydinlashtirish, g) shart-sharoitni tasavvur etish, d) malakani shakllantirish modelini xayolda yaratish va hokazo.

Psixologiya fanida malakani shakllantirishning asosiy bosqichlari sxemasi ishlab chiqilgan, bunda asosiy e'tibor malakaning xususiyatiga, malakaning maqsadiga, harakatni bajarish usullariga qaratiladi. Shuningdek, malakalarning o'zaro ta'siri muammosiga alohida ahamiyat beriladi, chunki inson malakalar tizimiga amal qilgan holda yangi malakani o'zlashtiradi. Oldin egallangan malaka, keyingisini tarkib topishiga yordamlashadi, goho unga halaqit berishi ham mumkin. Harakatning avtomatlashuvi uning maqsadi, obyekti, vaziyati va shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Harakatning muvaffaqiyati, samaradorligi ko'p jihatdan sensor nazoratga hamda uning yangi sharoitiga ko'chishiga bog'liq.

Malakalarning noto'g'ri (teskari) ko'chirilishi interferentsiya hodisasini vujudga keltiradi. Faoliyat ko'nikma, malaka, usul, harakat, sa'y-harakat, operatsiya kabi tarkibiy qismlar tufayli muayyan mahsullarga erishadi, moddiy va ma'naviy natijalarni hamda bilimlarni vujudga keltiradi.

### 14.3. Oriyentirlangan va bajaruvchi faoliyat, individual va hamkor, ijodiy va ijodsiz faoliyat.

Odamlarning faoliyati ongli faollik sifatida inson ongining tarkib topishi va taraqqiyoti bilan bog'liq holda tarkib topadi va rivojlanadi. Inson faoliyatida taraqqiyotning asosi hamda ong mazmunining manbai bo'lib xizmat qiladi.

Faoliyatda insonning shaxsi ifodalanadi, shu bilan birga faoliyat odam shaxsini tarkib toptiradi. Odamlarda har xil turdagi faoliyatlarning paydo bo'lishi

va taraqqiyoti juda ham murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon. Bolaning faoliyati uning kamoloti davomida faqat asta-sekin ta'lim va tarbiyaning ta'siri ostida ongli maqsadga mos faoliyat shaklini egallab boradi. Inson faoliyati asosan uch turga bo'linadi: o'yin, mehnat, ta'lim faoliyati. Bu faoliyat turlari bola shaxsining tarkib topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

**O'yin.** Bola bir yoshga to'lgandan boshlaboq unda faoliyatning sodda shakllarini egallash uchun shart-sharoitlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday shart-sharoitlardan birinchisi o'yindir. O'yin faoliyatini hayvon bolalarida ham uchratish mumkin. Hayvonlarning yosh bolalarida kuzatiladigan o'yin faoliyatiga har xil narsalar bilan shug'ullanish, yolg'ondakam urishishlar, yugurishni va shu kabilarni kiritish mumkin. Bolalarda ham o'yin ularning faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shaklidir. Sof holdagi o'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab ehtiyoj bo'lsa, uning manbai tahlid va tajribadir. Bolalar narsalar bilan rolli qoidali, harakatli, didaktik mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar.

O'yin narsa va hodisalarning mazmunini bolaning o'z tajribasida bilib olishga, mazkur mazmunlarni ishlata bilishga mashq qildiradi. Bolaning shaxsiy sifatlari boshqalar bilan munosabatlarda tarkib topib boradi. O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid, rol orqali ijro etishga harakat qiladi va shu yo'sinda atrof-muhit to'g'risidagi, ijtimoiy turmushdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani rol orqali ijro qiladi. So'z bilan harakatning birikuvi natijasida o'yin faoliyati tusini oladi va muayyan ma'noda axborot berish, uzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatini takrorlash, ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. Syujetli o'yinlar borliqning goh anglangan, goho anglanmagan tarzda u yoki bu tomonlarini egallashga harakat qiladi. O'yin dastavval bola uchun vaqt o'tkazish, uni mashg'ul qilish funksiyasini bajarsa, keyinchalik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o'sib o'tadi. Rollar, ma'noli harakatlar, ibratli imo-ishoralar, tushunchalar bola shaxsini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Bola tug'ilgandan to maktab ta'limigacha uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat rolini bajaradi, shuningdek o'yin didaktik tus kasb etishi ham mumkin.

Ta'lim faoliyati o’yin faoliyatining pirovardida yuzaga keladi. Bu faoliyatning maqsadi ma'lum axborotlarni, bilimlarni, harakatlar va amallarni o’zlashtirishdan iboratdir. Odamning o’z maqsadiga ko’ra batamom o’rganish va o’zlashtirishdan iborat bo’lgan mana shunday maxsus faoliyati ta'lim faoliyati deyiladi. Psixologik jihatdan olganda, ta'lim faoliyati o’z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: ma'lum bir nazariya va amaliy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun obyektiv olamning eng muhim xususiyatlariga doir axborotlarni o’zlashtirish. Bu jarayonning mahsuloti bilimlardir. Mana shu faoliyatni, ya'ni bilimlarni o’zlashtirishda yuzaga keladigan usul va operasiyalarni egallash, bu jarayonlarning mahsuloti malaka va uquvlardan iboratdir. Ta'lim faoliyatining tarkibi juda ham murakkab bo’lib, bilimlar, tushunchalar, malakalar, odatlar, uquvlar kiradi.

**Ta'lim faoliyati** ma'lum ravishda tashkil etilgan sharoitda amalga oshiriladi. Katta yoshli kishilar bolalarning taraqqiyotiga faol ta'sir etib, ularning ta'lim faoliyatlarini hamda bu faoliyat bilan bog’liq bo’lgan xatti-harakatlarni tashkil qiladilar. Bu faoliyat va harakatlarni insoniyat ijtimoiy tajribasini o’rganish tomon yo’naltirishdir. Shunday qilib, ta'lim faoliyati katta kishilar tomonidan tashkil qilinib, boshqariladi va tizimli ravishda nazorat qilib boriladi. Ma'lumki, ta'lim faoliyati bilan tarbiya ishlari uzviy bog’liqdir. Bizning maktablarimizda har qanday ta'lim jarayoni hamma vaqt tarbiyaviy xarakterga ega, bolalarga u yoki bu fan bo’yicha ta'lim berar ekanmiz, shuning bilan birga ularni biz tarbiyalashimiz kerak. Maktabdagi tarbiyaviy ishlarni asosan tushuntirish, ishontirish, ko’rsatish, rag’batlantirish, talab qilish, vazifa berish va jazolash kabi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Maktabdagi barcha tarbiyaviy ishlarni asosiy maqsadi o’quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

**Mehnat faoliyati** - ma'lum ijtimoiy foydali, moddiy yoki madaniy, ma'naviy mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyatdan iborat. Kishilarning mehnati ma'lum maqsadga qaratilgan har doim ijtimoiy tabiatga ega bo’ladi. Mehnat faoliyatining maqsadi kishilarning iste'mol qilinadigan narsalarni, ya'ni non, mashinalar, turli ishlab chiqarish mahsulotlarini tayyorlash, ya'ni kiyim-kechak

oziq-ovqat va boshqa shu kabi narsalarni ishlab chiqarishga qaratilgan bo’lishi mumkin.

Mehnat faoliyati o’z mohiyati jihatdan ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti ham ijtimoiydir. Mehnat taqsimoti tufayli birorta kishi ham o’ziga kerak bo’ladigan narsalarni faqat ishlab chiqarishga qatnashmay, balki deyarli hech qachon hatto birgina narsani boshdan oxirigacha ishlab chiqarishda ham qatnashmaydi. Shuning uchun odam hayoti uchun zarur bo’lgan hamma narsalarni jamiyatdan oladi, o’z ehtiyojlarini qondiradi.

## Nazorat savollari.

1. Faoliyat va uning tuzilishi haqida umumiy tushuncha bering?
2. Faoliyat predmetliligi nimalar kiradi?
3. Oriyentirlangan va bajaruvchi faoliyat, individual va hamkor, ijodiy va ijodsiz faoliyat nima?
4. Faoliyatning samaradorligini ta`minlovchi omillarni sanab bering?

# 15-MAVZU. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI

***Tayanch tushunchalar:*** *shaxs tushunchasi, makro va mikro bosqichdagi ta'sirlar, nativizm, empirizm, e'tiqod; mafkuraviy tasavvur, shaxs ongiga singdirish, ijtimoiylashuv jarayoni, ijtimoiy institutlar, mas'uliyat, maqsad, ideallar, qiziqishlar, e'tiqod, iymon, dunyoqarash.*

## 15.1. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida. "Shaxs" tushunchasi. "Homo sapiens" – "aqlli zot" tushunchalari.

"Shaxs" tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Homo sapiens" – "aqlli zot" tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan. Ch.Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Ijtimoiy muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi.

Demak, har bir shaxsning fe'l-atvorida atrofdagi do'stu-yorlari, oilasi, tarixiy zamon, davr, davlat tuzumi va o'sha jamiyatdagi siyosat, iqtisodiyot va mafkuraning ta'siri bo'lib, bu ta'sir uning yaxlit dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o'z aksini topadi. Bunday ta'sirlarning ikki xili farqlanadi:

- makro bosqichdagi ta'sirlar, ya'ni keng ma'nodagi ijtimoiy-ma'naviy,

siyosiy hamda iqtisodiy muhit ta'sirlari;

- mikro bosqichdagi ta'sirlar, yoki odamni bevosita o'rab turgan muhitdagi ijtimoiy muloqot va muomaladan ta'sirlanishi. Boshqacha qilib aytganda, bunday ta'sirlarni shaxs bevosita oila muhiti, ta'lim muassasalari, mahalla-kuy, mehnat jaoasidagi hamda do'stlari davrasidagi mulolqotlardan oladi.

Bir qarashda ikkinchi bosqich ta'sirlarigina shaxsning insoniy qiyofasi hamda fe'l-atvorini belgilaydiganday tuyuladi. Chunki xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi", degan naql ham bor. Ayniqsa, bizning "o'zbekchiligimiz"da odamning tug'ilib o'sgan oilasi, mahallasi, kimning avlodi-yu, kimning zurriyodi ekanligi, ta'lim olgan dargohiga katta e'tibor beriladi. Ko'pincha xalqda: "Hovli olma, qo'shni ol", degan maqol ham ishlatiladiki, bu ham farzandlar kamoli va oilaning tinchligida yon-atrofning ahamiyatiga ishoradir. Lekin makro bosqichdagi ta'sirlarning ahamiyatini kamsitish ham to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, sho'rolar tuzumi jamiyat a'zolarini mute, manqurt, tobe, ma'lum bir ma'noda iymonsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi. Chunki bunga asosan o'sha muhitdagi nosog'lom e'tiqodlar, g'ayriinsoniy tashviqotlar, inson qadrini, uning mehnatini yerga uruvchi iqtisodiy siyosat (hamma bir xil turmush tarziga ega bo'lishi, "ishlamasa ham tishlayverish"), kommunistik mafkura sabab bo'ldi. Tarixdan shu narsa ma'lumki, qaysi davlat va jamiyat tarixida bosqinchilik siyosati yurgizilgan bo'lsa, o'sha jamiyat odamlari psixologiyasida tobelik, diyonatsizlik, ixlossizlik ustun bo'lavergan.

Mustaqillik psixologiyasi shundayki, unda har bir shaxs o'zining erkin mehnati bilan o'zi va o'zgalar manfaati haqida birday qayg'uradi, chunki har bir shaxs fidokorona mehnat qilmasa, tinimsiz izlanmasa, na o'zining, na yaqinlarining, boshqalarning "kosasi oqarmaydi", "biri ikki bo'lmaydi". Shuning uchun ham istiqlol yillarida O'zbekiston fuqarolarining psixologiyasida, ularning qadriyatlarni idrok qilishlari va kundalik amallarida o'z shaxsiy kamoloti, oilasi farovonligi, Vatan ravnaqi uchun nima qilish lozimligini ifodalovchi qarashlarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni o'rganuvchi psixologiya fani oldida ham qator dolzarb vazifalar turibdi.

Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida, makro hamda mikro bosqichlardagi ta'sirlarning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izladilar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqyeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak. Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasida birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar (Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top-toza taxta" (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri J.Lokk bo'lib (1632-1704), uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalar bo'lishi mumkin emas, ular xohish-tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assosiasiyasi ro'y beradi.

G.Leybnis (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladi-ki, ular odamning sezish va bilish organlari vositasida anglanishi mumkin. Xuddi shunday, inson bolasi ham tug'ilishdan muayyan belgilar, xususiyatlar bilan tug'iladi-ki, ularni biz layoqatlar, iqtidor, genetik xususiyatlar, deb ataymiz. Aynan shu tug'ma belgilar inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi, lekin yetakchi, sezilarli ta'sirlar hayotning keyingi bosqichlarida, turli faoliyatlarni (o'yin, o'qish, mehnat va b.q.) amalga

oshirish jarayonida bilinib, shaxs sifatlarini shaklantirishga xizmat qiladi.

Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F.Galton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differensial xususiyatlar mavjudligini "egizaklar metodi" yordamida asoslashga harakat qildi. 3-jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan musiqaga layoqatlilik misolida keltirilgan.

Egizaklardagi musiqaga moyillikning korrelyatsion ko'rsatgichi ham yuqori bo'lib (p=0,7), egizak bo'lmaganlardan ancha farq qiladi (p=0,3-0,4).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi yumshoq-tonal yoki keskir-tonal bo'lmagan tillar misolida aniqlandi. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vyetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

**Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar**

| Ota-onalar, bolalar | Musiqaga moyil | Musiqaga moyil emas |
|---|---|---|
| Musiqaga moyil | 85 % | 7 % |
| Musiqaga moyil emas | 25 % | 58 % |

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs – ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir.

Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishlikdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng

muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o’z ongi va idroki bilan qabul qilib (obyektni), so’ngra shu ta’sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko’rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq “mening hayotim”, “bizning dunyo” degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o’sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, ahloq olamidir. Bu muhit – kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo’lib, undagi ko’plab qoidalarga ko’pchilik mutloq qo’shiladi, ba’zilar qisman qo’shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo’ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta’qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo’lsa, jamiyat – ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko’rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar majmui ta’sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo’lmish shaxslar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarning ayrim alohida yo’nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta’sirida bo’ladi va ko’plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o’quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san’at, madaniyat va boshq.) bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, shaxsdagi turli g’oyalar, fikrlar va e’tiqodiy dunyoqarashlar mafkuraviy munosabatlar tizimi ta’sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog’cha, maktab va boshqa o’quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta’sir uning e’tiqodi darajasida ko’tarilsa, va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g’oyalarning paydo bo’lishi va o’sishiga olib kelsa, u shaxsning maslagiga aylanadi hamda u hayoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o’z qobiliyatlari, malaka va ko’nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o’qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bo’lib, el-yurtiga xizmat qiladi.

## 15.2. Shaxsdagi sog‘lom e‘tiqod va mafkuraviy tasavvurlarning shakllanishi.

Shaxsga jamiyatning ta’siri eng avvalo uning ma’naviy tasavvurlarida,

dunyoqarashida, hayotga bo'lgan munosabatlarida aks etadi. Shu ma'noda mafkuraviy ongning mazmuni va sog'lom e'tiqodlar ham ijtimoiy muhit va unda o'rnashib qolgan mezonlar asosida shakllanadi.

Mustaqil O'zbekistonda qisqa fursatlarda amalga oshirilgan jamiyat hayotidagi tub islohotlarni idrok qilishlari va ularga munosabatlar, shubhasiz, fuqarolarning yangicha qarashlarida, aniqrog'i, dunyoqarashlarida namoyon bo'ladi. Ushbu dunyoqarashlarning mazmunini tashkil etuvchi ilg'or g'oyalar yaxlit xalq manfaatlarini ifoda etgani sababli ham ular milliy mafkuraning mohiyatini tashkil etadi. Psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, bugun jamiyatimiz a'zolari ongida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalarining genezisi, ya'ni kelib chiqib, ongga o'rnashishi jarayoni bir qator ijtimoiy-psixologik holatlarni o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy g'oya yoki progressiv-ilg'or g'oya ma'lum tarixiy vaziyatlarda, ijtimoiy zaruratdan kelib chiqib paydo bo'ladi. Lekin uning o'zi genetik jihatdan o'zidan avval mavjud bo'lgan ilg'or, o'lmas g'oyalarga, milliy qadriyatlarga tayanadi. Masalan, o'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, xalq e'tiqodi va tafakkurining sayqallashuviga sabab bo'lgan o'lmas qadriyatlar, xalq ma'naviyatiga taalluqli nodir meros bo'lganki, ular bugungi istiqlol davrida davlat va jamiyat qurilishi uchun ma'naviy-mafkurviy omil rolini o'ynamoqda. Sharqning buyuk mutafakkirlari Axmad al-Farg'oniy, Maxmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Bakr Muxammad ibn Al-Abbos Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino kabilarning ilmiy merosi, Amir Temurning mustaqil davlatchiligiga oid qonuniyatlari, fikr ilmining asoschilaridan bo'lmish al-Marg'iloniy hidoyalari, Imom al-Buxoriyning hadisiy qarashlarida bayon etilgan o'lmas g'oyalar asrlar o'sha xalq e'tiqodining egilmasligining yorqin misolidir.

Bugungi mustaqillik va istiqlolning har bir kuni ham jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar ruhiyati uchun shunday tarixiy vaziyat va muhit rolini o'ynamoqdaki, buning ta'sirida yangi g'oyalar paydo bo'lishi uchun maqsad paydo bo'ldi. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, shaxsdagi har qanday maqsad ham yangi g'oyaga asos bo'lavermaydi. Teran maqsadga erishish uchun odamda qat'iy

ishonch bo'lishi kerak, va u oxir-oqibat maslakka aylanadi. Ana shunday maslakning inson qalbiga singib, uning yurish-turishi, fikrlashi-yu, tafakkur tarziga aylanishi e'tiqoddir. Bu o'rinda yana bir psixologik holatni yoritish lozim, bu ham bo'lsa, e'tiqodning bo'lishi yoki qat'iy ishonchning bo'lishini odamning o'zi astoydil xohlashi kerak.

Demak, oddiy odam, shaxs jamiyatdagi turli munosabatlar ta'sirida bo'lar ekan, u birinchi navbatda nimalarga ishonadi? Agar biz odamni biror narsaga astoydil ishontirmoqchi bo'lsak, uni mantiqan asoslangan fikrlar yordamida ishontirishimiz ancha mushkul bo'ladi. Xo'sh, u nimalarga ishonadi?

***Birinchidan***, o'zidagi qiziqishlar, shaxsiy manfaat va e'tiqodiga mos narsalarga juda tez ishonadi. Masalan, ishlab chiqarishda xodimni ishontirish uchun uning oilasi manfaatlari, kelajak istiqboli va professional o'sishiga aloqador gaplar orqali yangi fikrni bayon etish unda teran qiziqishni tug'diradi. Agar biz milliy g'oyaning mazmunini ifodalovchi ijtimoiy simvollar – so'zlar, obrazlar, narsalar, harakatlar mazmunini o'z o'rnida ishlatib, fikrimizni bayon etsak, shaxsga ma'qul va manzur bo'lishi, u bunga ishonishi mumkin.

***Ikkinchidan***, yangi g'oyalar nafaqat shaxs yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan u yoki bu tarzda idrok etilishi, ya'ni, eshitilishi, ko'rilishi, his qilinishi lozim, balki ular *xalqqa tushunarli* bo'lishi kerak. Demak, milliy istiqlol g'oyalarini ifodalovchi barcha tushunchalar oddiy, ixcham, konseptual hamda kategorial bo'lishi kerak. Masalan, "barkamol avlod" g'oyasi, "sog'lom avlod", "Vatan yagonadir", "O'zbekistonning kelajagi buyuk" kabi g'oyalar har bir inson uchun tushunarli va o'zini hurmat qilgan har bir shaxs uchun manfaatlidir.

***Uchinchidan***, ilg'or g'oyalar va yangicha dunyoqarashning birdaniga ko'pchilik onggiga, ayniqsa, yoshlar ongiga singmasligining ayrim sabablari ham bor. Psixologiyada bola taraqqiyotining ayni 17-18 yoshlarida kuzatiladigan "mafkuraviy inqiroz" bo'ladi. Buning mohiyati shundaki, ayni shu davrda o'spirinda turli shaxsiy muammolar birdan ko'payib ketadi: do'stga ega bo'lish, sevish-sevilish, kasb tanlash, o'qishga kirish, nikoh muammolari, kattalarning talablari va hokazo. Bu muammolar go'yoki yoshlarning jamiyatda ro'y

berayotgan ijtimoiy-siyosiy muammolardan ongini chalg'itayotganday bo'ladi. Lekin aslida aynan o'spirinlikka xos bo'lgan psixologiya mavjudki, ular o'z kelajagi to'g'risida ko'p qayg'uradi, ertaga kim bo'lishi, qanday sharoitda yashashi va ijod qilishi, yashayotgan hududi – Vatani taqdiri albatta qiziqtiradi. Shuning uchun ham yoshlarga xos bo'lgan maksimalizm va yuqorida sanab o'tilgan shaxsiy muammolar atrofida paydo bo'ladigan individualizm o'rtasida qarama-qarshilik paydo bo'ladi. Bu inqiroziy holat bizning sharoitimizda ko'proq yurt va jamiyat ravnaqidan manfaatdorlik hisobiga hal qilinmoqda. Shuning uchun ham yoshlar bilan bo'ladigan yuzma-yuz uchrashuvlar, muloqotlarda shaxsiy manfaatlarning jamiyat manfaatlariga bog'liqligi, Vatan ravnaqi va tinchlik-totuvlikdan nafaqat yoshlar manfaatdor, balki ular ana shu jarayonlarning faol ishtirokchisi ekanligi g'oyasi o'rtaga tashlanadi.

Ijtimoiy psixologiyada yana bir o'rganiladigan jarayon borki, bu – konformizm hodisasidir. Bu hodisa bevosita yoshlik davrida ko'proq namoyon bo'ladi. Konformizmning ma'nosi – o'zgalar borligidan, ularning xulq-atvoridan ta'sirlanish bo'lib, yoshlar qanchalik o'ziga xoslikka intilmasinlar, baribir bir yaxlit ijtimoiy qatlam sifatida bir-birlariga taqlid qiladilar. Bu ham sog'lom g'oyalarning o'zaro muloqotlar jarayonida tarqalishi va ongga singishi uchun zamin hisoblanadi. Hattoki, ayrim yoshlarda kuzatiladigan ijtimoiy raddiya, ya'ni, fikrlashlarda, harakatlarda ajralib turishga intilish – aslida o'sha taqlidchanlik, konformizmning bir ko'rinishidir. Shu bois ham mashhur olim Seneka konformizm va odamlardagi taqlidchanlikni: "juda osonlikcha ko'pchilikning amriga bo'ysunishdir", deb ta'riflagan edi. Bu jarayonning ro'y bo'lishiga sababchi asosiy omillar esa o'sha ijtimoiy muhit va undagi obro'li shaxsning insoniy xususiyatlaridir. Shuning uchun ham biz nimalarga ishonamiz va kimlarga ergashamiz, degan masala bugungi kunda amaliy ahamiyatga molikdir.

Umuman, shaxsning qarashlari, dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartirishda, bizning sharoitimizda ularni sog'lom g'oyalarga ergashtirishda mafkuraviy ishlarni kuchaytirishimiz yaxshi samaralar beradi, albatta. Faqat bunda o'sha oddiy inson psixologiyasiga oid ayrim qonuniyatlarni bilish va ularga amal qilish maqsad

muvofiqdir. Mafkuraviy targ'ibot-tashviqot haqida gap ketganda, uning inson ongi va psixologiyasiga ta'sir qilishiga umid qilib, ish yuritiladi. Erkinlikni juda yaxshi ko'rgan amerikalik va yevropaliklar ham haqiqatga ergashish, ezgu amallarga itoat qilishning hech qanday shaxs erkinligiga tahdidi yo'qligi, aksincha, uni jamiyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlashini targ'ibot qiladi.

Mutaxassislarni fikricha, e'tiqod asosan ikki yo'l bilan hosil qilinadi:

- agar auditoriya fikrlaydigan, ayni argumentlar ustida o'ylash qobiliyatiga ega bo'lsa, ular manfaatiga mos ma'lumotning berilishi ulardagi ishonchni mustahkamlaydi; bu bevosita ta'sir deb ataladi;
- agar tinglovchining manfaatiga bevosita aloqadorligi yo'q narsa to'g'risida gap ketayotgan bo'lsa, unda ishontirishning bilvosita usullaridan, ya'ni, voizning yoqimtoyligshi, kayfiyatning yaxshiligi, tasodifan yoqib qolishi mumkin bo'lgan boshqa jihatlarini asos qilinadi.

Mafkuraviy ishlarning serqirra va murakkabligi shundaki, bu jarayonni yaxlit sifatida tasavvur qilinsa, uning tarkibiga kiruvchi har bir elementning mafkuraviy targ'ibotning psixologik mexanizmlarini, ya'ni jarayonning o'ziga xos sir-asrori va xususiyatlarini inobatga olishga to'g'ri keladi.

Afsuski, e'tiqodni tarbiyalash muammosi ko'proq diniy qobiqda o'rganilgani uchun ham jahon ilmi tajribasida bu xususda xulosalar shu yo'nalishda mavjud.

Masalan, o'sha diniy sektalarning targ'ibot borasidagi yutuqlarini olimlar quyidagicha sharhlaydilar: avvalo insonni biror narsa orqali "qarzdor" qilib qo'yish kerak bo'ladi, so'ngra samarali ta'sir vositalaridan foydalaniladi, nihoyat, hamfikrlilar o'zlaricha boshqalardan ajralib, o'z e'tiqodlarini mustahkamlaydi. Natijada, o'ziga xos muomala va madaniyat shakllantiriladi.

- Biz avvalo o'zimizga *tanish narsalarga* ishonamiz. Ya'ni, odatga aylanib qolgan ishlar, samimiy tusda aytilgan gap va xolis amallarga nisbatan odamda ishonch bo'ladi. g'oyaviy tarbiyada bu narsa ko'proq qulog'imiz o'rganib qolgan murojaatlar va o'gitlarga tez ko'nikishimiz, ularga nisbatan tanqid hissining bo'lmasligida ifodalanadi. Masalan, nuroniy otaxonning hayotidan olingan o'gitlar taqlid uchun juda qulaydir.

- Qalbimizda bevosita *hissiyot uyg'otadigan voqea va hodisalar,* yaqin o'tmishimizda bo'lib o'tgan yoqimli hayot kechinmalariga bog'langan ma'lumotlar ham bizda yaxshi taassurot uyg'otadi. Agar o'sha xotiralar salbiy asorat qoldirgan bo'lsa, aksincha, ularga bog'liq ma'lumotlar odam tomonidan qabul qilinmaydi.
- *Ikkilanish* va *xavotirlik hissini uyg'otuvchi* ma'lumotlar domiga tushib qolgan insonning biror narsaga ishonishi juda qiyin bo'ladi. Masalan, agar biz o'zimizning jamiyatdagi o'rnimiz va mavqeyimizga ishonmasak, hayotda o'z o'rnimizni topolmaganligimizdan havotirlanib yashasak, turli xil o'zga ta'sirlar bizni o'z domiga tortishi mumkin. Shuning uchun ham *dadil aytilgan gap, o'zini erkin va tabiiy tutgan shaxs o'gitlari* bizda kuchliroq ishonch hosil qiladi. Mafkuraviy targ'ibot jarayonida ham voizning erkin va dadilligi tinglovchilar e'tibori va mehrini tortadi.
- Biz *obro'li – avtoritetli shaxslar* fikrlariga ishonamiz. Demak, xalq ichidan chiqib, o'z mehnati, fidoiyligi va dadilligi bilan obro' qozongan insonlarning ta'sir kuchi boshqalarnikidan ortiq bo'ladi. Mahalla oqsoqoli obro'li inson bo'lsa, uning nafaqat nutq vositasida aytgan o'gitlari, balki har bir xatti-harakati ham yoshlar uchun o'rnak bo'ladi.

Demak, mafkuraviy tarbiyada ishontirishning roli katta. O'zgalarni ishontira olish yoki sog'lom fikrlar bilan inson qalbida tashabbusni uyg'ota olish uning kuchini o'n chandon oshiradi. Ijtimoiy-psixologik ma'nodagi ishontirishning mohiyati shundaki, bunda bir shaxs yoki guruh ongiga boshqa tomondan ongli yoki ongsiz, maqsadli yoki maqsadsiz ta'sir ko'rsatiladi. Ta'sirni qabul qiluvchi shaxs bu ta'sirga "ishongani uchun" ham uning mazmunini tanqidsiz, tahlilsiz qabul qiladi. Bu jarayon *suggestiya*, deb atalib, bundagi ta'sirning samaradorligi ta'sir ko'rsatuvchi suggerentning tayyorgarlik darajasi, obro'si, shaxsiy xususiyatlari, ish uslubiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bois ham ta'lim muassasalarida ishlaydigan tarbiyachilar, o'qituvchilar, professorlar shaxsiga, ularning odamlar bilan ishlay olish qobiliyatlariga katta e'tibor qaratiladi.

Milliy istiqlol g'oyalarining mazmunini xalq ongiga yetkazishda ham maqsadli, ongli suggestiya jarayoni ro'y beradi. Chunki milliy istiqlol

g’oyalarining tom ma’nodagi mohiyatini tushunish – shaxsning o’z manfaatiga aloqador bo’lgan ijtimoiy obyektlar hamda jarayonlarni anglamog’i va shu yo’nalishda fidoiylarcha o’z imkoniyatlari va iqtidorini safarbar etmog’i lozimligi demakdir. Mamlakatimizdagi har bir yoshning jinsi, millati, elati va yoshidan qat’iy nazar, o’qishi, kasb-hunar egallashi va halol mehnat qilishi, o’z baxtli va farovon, mustahkam oilasiga ega bo’lishi uchun yaratilyotgan imkoniyatlar, ulardagi ongli safarbarlik, yurt, xalq uchun sadoqatli, oliyjanob insonlar bo’lib yetishishni ta’minlaydi. Milliy istiqlol g’oyalarining asosiy tushunchalaridan biri ham har tomonlama barkamol va sog’lom dunyoqarashli avlodni tarbiyalash g’oyasidir. Bundan ham jamiyat, ham uning har bir alohida fuqarosi teng manfaatdordir.

## 15.3. Shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mezonlari. Ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya jarayoni. Ijtimoiy institutlar.

Shaxs, uning dunyoni bilishi, o’zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni anglashi, tushunishi va o’zaro munosabatlar jarayonida o’zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog’liq ayrim jihatlarini tahlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs – jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi.

Ya’ni, u tug’ilgan onidan boshlab o’ziga o’xshash insonlar qurshovida bo’ladi va uning butun ruhiy imkoniyatlari ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo’ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti, ya’ni tug’ilgan onidan, to umrining oxirigacha bo’lgan taraqqiyoti davriga e’tibor beradigan bo’lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi hayotining ilk daqiqalaridayoq, o’ziga o’xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko’rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, har birimizning jamiyatdagi o’rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo’lgani, jamiyatga qo’shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sotsializatsiya yoki **ijtimoiylashuv** – inson tomonidan ijtimoiy

tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv – har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni namoyon etishi, kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha subyektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15 nafar kishidan iborat akademik lisey talabalarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 talabaning har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart-sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog'cha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda biz yuqorida ta'kidlagan "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi –

ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha – eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga maktab va boshqa ta'lim maskanlari kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan "Ma'naviyat darslari", "Etika va psixologiya" kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim-boshi, mavzuga subyektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi talabalarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtai nazardan talabalar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib

turadi. Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti – bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o’ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma’lum tajribaga ega bo’lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo’lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta’sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o’zaro munosabatlar muhiti ta’sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o’sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o’zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo’lib, ko’pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o’rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog’lom ma’naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o’ynaydi.

Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o’ziga xosligi shundaki, unda individualizasiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta’sirlarni o’zlashtiradi, balki o’zidagi iqtidor, malakalar, hayotiy tajribasi bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta’sir ko’rsatadi, ish-amalda yoshlarga shaxsiy o’rnak ko’rsatish imkoniyaga ega bo’ladi. Shu nuqtai nazardan, qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota-bobolarmiz, onaxonlarimiz asosan o’zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va hokazo) uzatish bilan shug’ullanadilar va bu narsa ayniqsa, Sharq xalqlarida juda e’zozlanadi. Xalqimizdagi “qari bilganni pari bilmas” degan naql ham bobolar va momolar o’gitlarining tarbiyalovchi mohiyatini aks ettiradi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e’zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila-tarbiyaning bosh o’chog’i sifatida davlat himoyasida bo’lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlikning rivojiga o’z hissasini qo’shadi.

### 15.4. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs hayotiy yo‘nalishining shakllanishi. Shaxs yo‘nalganligining eng muhim tarkibiy qismlari.

Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli – bu uning hayotda o’z o’rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, shaxsning yo’nalganligi masalasiga ham fanda katta e’tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs hayot-faoliyatini yo’naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg’un, barqaror motivlar majmuiga ega bo’lishlik shaxsning yo’nalganligi deb ataladi.

**Mas’uliyat.** Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko’rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda g’arb va rus psixologiyasida nazorat lokusi nazariyasi (teoriya lokusa kontrolya) keng tarqaldiki, unga ko’ra, har bir insonda ikki tipli mas’uliyat kuzatiladi.

Birinchi tipli mas’uliyat shundayki, shaxs o’zining hayotida ro’y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas’uli sifatida faqat o’zini tan oladi. (“Men o’zim barcha narsalarga mas’ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o’zimga bog’liq, shuning uchun o’zim uchun ham, oilam uchun ham o’zim javob beraman”). Mas’uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro’y bergan va beradigan voqyea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota-ona, o’qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshqalar).

Xorij mamlakatlarda o’tkazilgan tadqiqotlarning ko’rsatishicha, ikkinchi turli mas’uliyat ko’proq o’smirlarga xos bo’lib, ulardan 84% mas’uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma’lum ma’noda yoshlar o’rtasida mas’uliyatsizlikning avj olganligidandir. Shuning uchun ham “Nazorat lokusi” tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim *J.Rotter* (*J.Rotter*)ning fikricha, mas’uliyatni o’z bo’yniga olishga o’rgatilgan bolalarda xavotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan. Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir.

**Maqsadlar va ideallar.** Ijtimoiylashuvning mas’uliyat hissiga bog’liq

yo’nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq va yaqinga mo’ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta’minlaydi. Maqsad va rejasiz inson – ma’naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o’zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog’liqligi bilan xarakteralanadi. Ularning shakllanishi va ongda o’rnashishida ma’lum ma’noda ideallar ham rol o’ynaydi. Ideallar – shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari bo’lib, ongda mavjudligi va har doim ham amalga oshmasligi bilan xarakterlanadi. Chunki ularning paydo bo’lishiga sabab bevosita tashqi muhit bulib, o’sha ideallar obyekti bilan shaxs imkoniyatlari o’rtasida tafovut bo’lishi mumkin. Masalan, o’smirning ideali otasi, u otasiday mashhur va el suygan yozuvchi bo’lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo’lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo’yib, unga erishish yo’lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

**Qiziqishlar va e’tiqod.** Qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo’lib, ular shaxsni atrofida ro’y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o’zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to’plash, ularni o’rganishga imkon beruvchi omildir. qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo’lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo’lishi mumkin. qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini shakllantirishga asos bo’ladi. Chunki e’tiqod shaxsning shunday ongli yo’nalishiki, u insonga o’z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e’tiqodli insonlarni hurmat qiladi. E’tiqodning predmeti turlicha bo’lishi mumkin – Vatanga e’tiqod, dinga, fanga, kasbga, ahloqiy normalarga, oilaga, go’zallikka va shunga o’xshash. Insonning insonligi, uning jamiyatdagi mavqyei va nufuzi ma’lum ma’noda undagi e’tiqodlilik darajasi bilan belgilanadi. Ayrim insonlar butun umri mobaynida faqat bitta narsaga e’tiqod qiladilar. Masalan, Mir Alisher Navoiyning butun hayoti xalqqa va millatga fidoiylikning namunasi sifatida, turkiy xalqlar adabiyotiga asos solishga bag’ishlanganligi, Imom Buxoriy, Ibn Sino singari

buyuk allomalarning turli tayziqlarga qaramay ilm va ijod yo'lidagi qat'iyatlari, erishgan yutuqlari e'tiqodlilikning yorqin namunasidir. Bunday misollar Sharqning va g'arbning buyuk shaxslari misolida juda ko'p. Mansur Xalloj, Nasimiy, Boborahim Mashrab kabi hur fikrli zotlar esa qatl qilingan chog'larida ham o'z e'tiqodlari va tanlagan yo'llaridan qaytmaganlar.

E'tiqodlilik nuqtai nazardan ham odamlar bir-birlaridan farq qiladilar. Tarixda shunday shaxslar borki, ular butun ongi hayotini faqat bir narsaga bag'ishlab o'tib ketadilar, lekin ularga o'sha ixlos va kuchli e'tiqod xalq tomonidan e'tirof etilib, mehnatlari, ilmiy kashfiyotlari yoki o'sha kasbga sadoqatlari tufayli o'zlariga tiriklidayoq o'chmas haykal qoldirganlar. Ayrim odamlar esa o'zlaridagi qiziqishlar va e'tiqodni hayotlari mobaynida o'zgartirib boradilar. Masalan, yoshligida sportning biror turiga astoydil ihlos qilgan odam bu borada katta natijalarga erishadi, uni yurt taniydi. Umrining ma'lum bosqichida u shu erishgan yutuqlarini boshqa shaklda takomillashtirib, ustoz-murabbiy sifatida o'qitishga astoydil kirishadi. Umrining yana bir bo'lagida tashkilotchi-rahbar sifatida ana shu sohani yanada yuksaklikka ko'tarishga xizmat qiladi. Mukarrama Turg'unboyeva, Yunus Rajabiy, Komil Yashin, Rufat Risqiyev, Abror Hidoyatov, Abdulla Oripov, Ozod Sharofiddinov kabi yuzlab zamonamiz qahramonlarining hayot-faoliyatlari ana shunday e'tiqodlilikning yorqin misolidir.

Demak, agan insonda biror narsaga e'tiqod shakllangan bo'lsa, undan yaxshi inson bo'lib, odamlarga nafi tegishiga umil qilish mumkin. Lekin e'tiqodsizlikdan qo'rqish kerak. Agar atrofimizda biror bir narsaga aniq ishonmaydigan, maqsad-maslagi yo'q kishini ko'rsangiz, unga yordam berish yo'lini izlash kerak, chunki bu odamdagi e'tiqodsizlik nafaqat uning o'ziga, balki atrofdagilarga ham faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi. E'tiqodli inson avvalo o'zgalarga ziyon keltiruvchi amallardan o'zini tiyadi, yolg'on gapirmaydi. Unda har doimo lafz bo'ladi, ya'ni bir narsani qilaman, deb ahd qilsa, albatta, butun kuchi va iqtidorini safarbar qilib, ungi bajaradi, boshlagan ishini oxiriga yetkazadi. E'tiqodli inson nima qilayotganligini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganligini juda yaxshi anglaydi. Shu tufayli haqiqiy e'tiqodli inson ilmga intiladi, o'z hayotining mazmun-

mohiyatini tushunishga intiladi, go'zallik yaratish, har tomonlama barkamol bo'lishga tirishadi, yaxshilarga oshno bo'lish, buyuklikka havas uning hayotiy shioriga aylanadi. Haqiqiy e'tiqod sohibida sog'lom fikr bo'lib, bu fikr orqali u insoniyatning umrboqiyligini idrok etadi, o'zidan oilasiga, farzandlariga nimadir qoldirib ketishni istab yashaydi. Shuning uchun ham e'tiqodlilik – shaxsdagi jur'at, mardlik, fidoiylik, iroda, vijdon, qat'iyat, halollik, isnonparvarlik, vatanparvarlik kabi qator ijobiy sifatlar bilan bog'liqdir.

**Dunyoqarash.** E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. Shaxsning dunyoqarashi – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bulib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'liga – kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddir.

## Nazorat savollari:

1. Shaxsning yaxlit dunyoqarashiga ta'sir etadigan omillarni sanab bering?
2. Nativizm va empirizm yo'nalishlarining mazmun mohiyatini tushuntiring?
3. Zamonaviy psixologik adabiyotlarda shaxsga qanday ta'rif berilgan?
4. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan qanday ijtimoiy institutlardan xabardorsiz?

## 16-MAVZU. CHET EL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARIYALARI

***Tayanch tushunchalar:*** *shaxs, biogenetik nazariya, sotsiogenetik nazariya, shaxs shakllanishi va rivojlanishi, G.Ayzenkning shaxs tiplari nazariyasi. Shaxs nazariyasining asosiy konsepsiya va qonuniyatlari. Ekstravert va introvertlar o'rtasidagi farqlar.*

### 16.1. Shaxsni o'rganishga turlicha yondashuvlar.

Chet el psixologlarining shaxs tuzilishining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko'pgina yondashuvlari ham yuksak ko'rsatkichlarga erishmaganligi tufayli bu masalani yoritish uchun keskin o'zgarish kiritilmadi. G.Ollport, G.Myurrey, R.Linton, K.Rodjers, A.Maslou va boshqa olimlarning yaqqol shaxsning psixologik mohiyatini tushunchalar tizimi yordami bilan xaspo'shlashi ijobiy izlanish tarzida o'ziga tortadi, lekin unda shaxs "kundalik turmushimizda biz bilgan shaxsning aynan timsolidir", deb ta'riflanadi.

Mazkur ijobiy ezgu niyatlarni amaliyotda qaror toptirishga shaxsning tizimi tashkiliy tomonini baholay olmaslik va ichki omillar rolini bir tomonlama orttirish holati to'sqinlik qiladi. Jumladan, R.Linton shaxs tuzilishini "individumga aloqador psixik holatlar va hodisalar tashkiliy agregati", deb talqin qilishni taklif qiladi, buning natijasida ularning shunchaki yig'indisi yuzaga keladi, xolos.

Taniqli AQSH psixologi G.Ollportning fikricha, shaxs "ichki tizim", "dinamik qurilma", "Men", "qandaydir metapsixologik Men" o'zida oldindan maqsad va dispozitsiyani aks ettiruvchi, inson tafakkuri va xulq-atvorida mutanosib ravishda qaror toptiruvchi jonzotdir. Xuddi shu boisdan shaxsning sinfiy-tarixiy jihatdan yaqqol baholanishi ochilmay qoladi, ijtimoiy tahlil o'rnini psixologik talqin egallaydi. Psixologlardan T.Parsons, G.Mid va boshqalar "shaxsning rolli tuzilishi" nomli konsepsiyani ishlab chiqib, odamning yaxlit subyektiv dunyosini, uning psixologik qiyofasini diqqat markazidan, idrok maydonidan chetda qoldiradilar. Shunga qaramasdan, rus faylasuflari va psixologlari shaxsning strukturasiga biryoqlama yondashishga barham berishga intildilar, uning jamiyatda bajaradigan rolini adolatli baholab, ijtimoiy, ijtimoiy-

psixologik, psixologik tizimlarda rolning turli kontekstda maqsadga muvofiq bajarilishini ko'rsatib o'tdilar. Bu kontekstdagi asosiy yoki bosh muammo rollarni internalizatsiyalashning yaqqol psixologik mexanizmlari, ular bilan bog'liq bo'lgan normalari, rollar o'rtasidagi psixologik farqlar, shaxs tuzilishida mustahkam joy olgan, unga nisbatan tashqi omillar; qo'zg'atuvchilar tarzida saqlanuvchilar hisoblanadi.

## 16.2. Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari

Jahon psixologiya fanida shaxsning kamoloti uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozisiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashuvga egadirlar. Mazkur nazariyalar qatoriga biogenetik, sosiogenetik, psixogenetik, kognitiv, psixoanalitik, bixevioristik kabilarni kiritish mumkin.Ularni quyidagi tizimda yaqqol ko'rish imkoniyatini beradi.




Biogenetik nazariyaning negizida yetilish bosh omil sifatida qabul qilingan bo'lib, qolgan jarayonlarning taraqqiyotini ixtiyoriy xususiyat kasb etib, ular bilan o'zaro aloqa tan olinadi, xolos. Mazkur nazariyaga binoan, taraqqiyotning bosh omili biologik determinantlarga (aniqlov-chilarga) qaratiladi va ularning mohiyatida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar keltirib chiqariladi. Taraqqiyot

jarayonining o'zi biologik etilishning universal bosqichi sifatida sharhlanadi va talqin qilinadi. Biogenetik qonunni F.Myuller va Gekkellar kashf qilishgan, biogenetik qonuniyat fanning taraqqiyoti nazariyani tashkil qilganda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq fanning individual va tarixiy taraqqiyoti munosabatlarini tushuntirishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Jumladan, biologik qonunga ko'ra shaxs psixologiyasining individual taraqqiyoti (ontogenez) butun insoniyatni tarixiy taraqqiyotining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi, degan g'oya edi. Biogenetik nazariyaning yirik namoyondalaridan bo'lmish amerikalik psixolog S.Xoll psixologik taraqqiyotning bosh qonuni deb "rekapitulatsiya qonuni"ni (filogenezni qisqacha takrorlanishini) hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenezdagi individual taraqqiyot filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Biogenetik konsepsiyaning boshqa bir turi nemis "konstitutsion psixologiyasi" (inson tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs tipologiyasi negizida bir qancha biologik omillarni (masalan tana tuzilishining tipi va boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan psixologik xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta guruhga ajratadi va uning bir boshida sikloid toifasiga xos (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta barqaror), ikkinchi uchida shizoid toifasiga (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan) xos odamlar turishini aytadi. Bu taxminni u shaxs rivojlanishi davriga ko'chirishga harakat qiladi, natijada o'smirlarda sikloid xususiyatlari (o'ta qo'zg'aluvchanlik, tajovuzkorlik, affektiv tabiatlilik, ilk o'spirinlarda esa shizoidlik xususiyatlari) bo'ladi degan xulosa chiqaradi.

Biogenetik nazariyaning namoyondalari amerikalik psixologlar A.Gezell, S.Xoll taraqqiyotning biologik modeliga asoslanib ish ko'radilar va bu jarayonda muvozanat, integrasiya va yangilanish sikllari o'zaro o'rin almashinib turadi, degan xulosaga keladilar. Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydni shaxsning barcha xatti-harakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlar bilan shartlangan, ayniqsa, birinchi navbatda u jinsiy

maylga (libidoga) bog'liqdir. Biologik nazariyaga qarama-qarshi bo'lgan nazariya sosiogenetik nazariya hisoblanadi. Sotsiogenetik yondashuvga binoan shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlar jamiyatning tuzilishi ijtimoiylashish usullari va uni qurshab turgan odamlar bilan o'zaro munosabati vositalaridan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Ijtimoiylashuv nazariyasiga ko'ra inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotning ijtimoiy shart-sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi. G'arbiy Yevropaning eng muhim nufuzli nazariyalaridan biri bu rollar nazariyasidir. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-harakat (xulq)ning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatlarida o'zgalar bilan munosabat muloqot o'rnatishda sezilarli iz qoldiradi.

AQSHda keng tarqalgan nazariyalardan yana biri bu individual tajriba va bilimlarni egallash (mustaqil o'zlashtirish) nazariyasidir. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko'pincha ko'nikmalarni egallash, bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib, uning samarasi qo'zg'atuvchini uzluksiz ravishda mustahkamlab borilishining mahsulidir. Bu nazariyaning tarafdorlari E.Torndayk va B.Skinnerlar hisoblanadi.

K.Levin tomonidan tavsiya qilingan "fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi psixologiya fani uchun (o'z davrida) muhim ahamiyatni kasb etadi. K.Levinning nazariyasiga ko'ra, individning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish) maqsadlar bilan boshqarilib turiladi, va ular fazoviy zarurat maydonining ko'lami va tayanch nuqtasiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik, sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlar taraqqiyotini birinchi darajali ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Ushbu yondashuvni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin, chunki ularning har biri o'z mohiyati, mahsuli va jarayon sifatida kechishi bilan o'zaro tafovutlanadi.

Psixologiyaning irratsional (aqliy bilish jarayonlaridan tashqari) tarkibiy qismlari bo'lishi emotsiya, mayl va shu kabilar yordamida shaxs xulqini tahlil

qiluvchi nazariya psixodinamika deyiladi. Mazkur nazariyaning yirik namoyondalaridan biri amerikalik psixolog E.Eriksondir. U shaxs rivojini 8 ta davrga ajratadi va ularning har qaysisi o’ziga xos betakror xususiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Kognitiv yo’nalishning asoschilari qatoriga J.Piaje, J.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin. J.Piajening intellekt nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo’lib, u intellekt funksiyalari va intellekt davrlari ta'limotini o’z ichiga qamrab oladi. Intellektning asosiy funksiyalari uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashish, ko’nikish)dan iborat bo’lib, intellektning funksional invariantligi deb yuritiladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxsning rivojlanishi muammosi L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, B.G.Ananev, L.I.Bojovich singari yirik psixologlarning asarlarida o’z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu masala bilan shu?ullanuvchilar safi kengayib bordi. Xuddi shu boisdan shaxsning tuzilishi, ilmiy manbai, rivojlanishning o’ziga xosligi bo’yicha yondashuvda muayyan darajada tafovutga ega. Hozirgi davrda shaxsning rivojlanishi yuzasidan mulohaza yuritilganda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va undan so’ng ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiq. Ontogenezda shaxs taraqqiyotini bir necha bosqichlarga ajratish va ularning har biriga alohida ilmiy psixologik ta'rif berish nuqtai-nazaridan yondashishni quyidagi nazariya va yo’nalishlarini ko’rsatib berish mumkin. Jumladan, rivojlanishdagi inqirozga binoan (L.S.Vigotskiy); motivatsion yondashish (L.I.Bojovich); faoliyatga ko’ra munosabat (D.B.Elkonin); shaxsning ijtimoiylashuv xususiyatiga e'tiboran (A.V.Petrovskiy); shaxsning tutgan pozitsiyasini hisobga olib (D.I.Feldshteyn) va hokazo. Shunday qilib, jahon va hamdo’stlik mamlakatlari psixologlari tomonidan bir qator puxta ilmiy-metodologik asosga ega bo’lgan shaxsning rivojlanishi nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning aksariyati ontogenezda shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini ochishga muayyan hissa bo’lib, xizmat qiladi, amaliy va nazariy muammolarni yechishda keng ko’lamda qo’llaniladi.

## 16.3. Z.Freyd maktabi

Freydizm yo’nalishiga venalik psixiatr Z.Freyd asos solgan. Uning fikricha, odam mohiyatiga ko’ra hayvonga o’xshaydi. Odamning xulq-atvori va harakatlari ikkita tamoyilga: rohatlanish va reallik tamoyiliga bo’ysundirilgan bo’ladi. Bu oqim ham insonning ongiga ishonmaydi Z. Freyd o’zining psixologik nazariyasini odam haqidagi, jamiyat va madaniyat haqidagi umumiy ta'limotga aylantirib, g’arb mamlakatlarida katta e'tibor qozondi. Uning bu kashfiyoti XX asr psixologiyasi, tibbiyoti, sotsiologiyasi, antropologiyasi, adabiyoti va san’ati rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. U tadqiq etib erishgan muhim ilmiy yangiliklar, ya’ni:

– inson psixikasining “U”, “Men” va “Yuksak Men” bo‘limlardan iborat uch tarkibli tuzilmani ishlab chiqqani;

– shaxs psixoseksual takomilining alohida bosqichlarini tahlil etib bergani;

– inson g‘ayrishuurida makon topgan “Edip kompleksi” nazariyasini batafsil tahlil qilgani;

– inson psixikasidagi himoyaviy mexanizmlar muntazam ishlab turishini kashf etgani;

– “g‘ayrishuur” tushunchasini psixologik jihatdan talqin etgani;

– inson ruhiy kechinmalari transferi (bir odamdan boshqa odamga “ko‘chib o‘tishi”)ning muhim tibbiy ahamiyatini ko‘rsatib bergani, shuningdek, terapevtik davolashning erkin muloqot va tushlarga asoslangan usullarini joriy etgani, ayniqsa, mashhurdir. Aytilganidek, olimning ilmiy-falsafiy merosi ham hajman, ham mazmunan juda boy bo‘lishi barobarida, uning shaxsi, xarakteri, ilmiy g‘oya va qarashlari haqidagi kitoblar, tadqiqotlar, bahslar salmog‘i ham kam emas. Uning hayotligidayoq boshlangan bu munozaralar hozirga qadar ham qizg‘in davom etmoqda. Zero, bahslashuvchilarning bir qismi, Freyd – so‘nggi asrlar ilmining buyuk dahosi sifatida e’zozlanishi lozimligini ta’kidlashsa, boshqa bir qismi (ular orasida olim bilan birga ishlagan va, hatto, uning qo‘lida ta’lim olgan Vilgelm Fliss, Alfred Adler, Karl Gustav Yunglar ham bor) uni – XX asr fanining yetuk siymosi sifatida tan olishgan. Nima bo‘lganda ham bir narsa aniqki, Freyd davri va undan keyingi faylasuflarining aksariyati olim qarashlarini chetlab o‘tolmaydi,

uning kashfiyotlariga u yoxud bu sabab tayanishadi. Hatto Freydning ashaddiy tanqidchilaridan hisoblangan amerikalik faylasuf Erik Fromm ham uning ko‘plab fundamental g‘oyalaridan kelib chiqib, ayrim biryoqlamaliklar (jumladan, inson xatti-harakatlari markaziga seksual moyillikni qo‘yish)ni inkor etgani holda, ularni yangi nuqtai nazar bilan boyitish yo‘lidan boradiki, bu holni freydizmning inkori emas, balki ilmiy-tanqidiy, ijodiy takomili, deb atash to‘g‘riroq bo‘lar edi.

Freyd va u asos solgan freydizm ta’limoti inson ongini uch qismdan tarkib topgan nihoyatda murakkab qurilma sifatida tushuntiradi, bular: Ong, Ongosti, G‘ayrishuur. Bu tamoyil bo‘yicha, inson hayoti davomida duch keladigan jamiki voqelik mana shu uch “qavat”ning birida, albatta, makon topadi. Odamning ko‘rgani, eshitgani, kuzatgani, o‘ylagani, his qilgani – hech bir narsa izsiz yo‘q bo‘lib ketmaydi. Uning o‘zi “esimdan chiqardim”, “unutdim”, “xotiramdan ko‘tarilibdi”, deb o‘ylagani barcha narsalar uning yo ongi ostida yoxud g‘ayrishuurida albatta, saqlanadi.

Ma’lumki, Freyd uzoq yillar davomida ruhiy kasallarni kuzatish, davolash bilan shug‘ullangan. Bu kuzatishlar esa olimni juda qiziq, aksariyat holda asosli xulosalarga olib kelgan. Masalan, u tug‘ma bo‘lmagan, ya’ni keyinchalik turli jarohatlar natijasida orttirilgan emas, balki ruhiy qiynoqlar sabab paydo bo‘lgan asab kasalliklarining tub zamirida o‘z vaqtida izhor qilinmagan kayfiyat, nafrat, muhabbat, his-hayajon faktorlari, turfa tuyg‘ular, olinmagan o‘ch, qolib ketgan alam asoratlari yotishini aytadi. Darhaqiqat, “kechagina tuppa-tuzuk yurgan odam”ning bir kunda telba bo‘lib qolishiga dabdurustdan izoh topish oson emas. Freydizm esa buning o‘sha “tuppa-tuzuk yurgan odam” hayotida qachonlardir yuz bergan o‘ta muhim voqea-hodisa bilan bog‘liqligini, garchi o‘sha hodisani odamning o‘zi unutganman, deb hisoblasa-da, uning ongosti yoxud g‘ayrishuuri unutmaganini, unuta olmasligini isbotlaydi. Shu joyda olim biografiyasiga qaytib, u 1885-yildan boshlab Parijning mashhur psixiatri Jan Sharko klinikasida ishlaganini eslashimizga to‘g‘ri keladi. J.Sharko o‘zining ruhiy xasta bemorlarini, jumladan, gipnoz yordamida ham davolar edi. Avvaliga bu usulni qo‘llab-quvvatlagan Freyd, keyinchalik davolashni gipnozsiz ham undan-da samaraliroq

amalga oshirish mumkinligini aniqladi. Freyd bemorlar bilan erinmay, muntazam so‘zlashish, bunda ularni o‘z holiga to‘la qo‘yib berish, erkin muloqotga kirishish yo‘lini tanlaydi.

Bu borada olimning shogirdlaridan biri, keyinchalik fanda o‘z yo‘lini yaratishga muvaffaq bo‘lgan Fris Vittels o‘zining “Freyd. Uning shaxsi, ta’limoti va maktabi” kitobida qiziqarli epizodlarni keltiradi. Masalan, Freyd o‘z bemorlari bilan kerak bo‘lsa oylab va yillab suhbatlashishdan erinmas ekan. Avvaliga o‘zini bo‘lganidan ham battarroq jinni qilib ko‘rsatishga harakat qiladigan bemorlar kun o‘tgan sayin bundan ma’no yo‘qligini istar-istamas tan olar, bitta gapni uch kun, besh kun qaytaraverishdan charchab, boshqa tafsilotlarga o‘tar, nihoyat, ajoyib kunlarning birida hayotida qachondir yuz bergan qandaydir bir muhim hodisani eslashga yetib borar, mana shu kundan e’tiboran u ongi ostida yoki g‘ayrishuurida o‘rnashib olib uni qiynayotgan darddan forig‘ bo‘la boshlardi. Demak, yuqorida eslatilganidek, vaqtida, izhorini topmagan kuchli, emotsional tuyg‘ular, kun kelib o‘z egasining aqldan ozishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa, mohir psixiatr tomonidan o‘tkazilgan xolis, samimiy, erkin muloqot – darddoshlik seanslari uni bu og‘ir xastalikdan xalos qilishi mumkinligi o‘z isbotini topadi.

Z.Freyd g‘arb madaniyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. Agar ko‘chadagi 100 insondan so‘rasangiz taniqli psixologning nomini bilishlari haqidagi mulohazani Kit Stanovich (1996) ilgari suradi. Freydning klinik psixologiya va psixiatriyadagi ilmiy qarashlarini alohida o‘ringa ega. Z.Freyd nimani o‘rgandi? U she’riyat va falsafaga juda qiziqishi bo‘lganligi sababli, o‘z tadqiqotlari uchun vaqtni bekorga sarflamadi. U tibbiyot yo‘nalishida tahsil olgandan so‘ngra xususiy amaliyot bilan shug‘ullandi. U amaliyotda nevrologik sababga ega bo‘lmagan, balki, ruhiy o‘zgarishga ega bo‘lgan mijozlarga duch keldi. Masalan, baquvvat bo‘lsa-da, mijoz qo‘ldagi sezgilarni yo‘qolishining sababini Z.Freyd insonning aqliga bog‘liqligini aniqladi. Bunday holatda mijozni davolash yo‘li uning o‘z-o‘ziga munosabatini o‘zgartirishda degan xulosaga keldi.

Freydning kuzatishlari qator nevrologik buzilishlarning psixologik sabablari mavjudligi to‘g‘risidagi xulosaga olib keldi. Bu orqali Freyd ongsizlikni kashf

qildi. Uning fikricha ko‘zi ojizlik yoki karlik, beixtiyor ko‘rmaslik va eshitmaslik xohishi insonga keskin xavotirlikni uyg‘otar ekan. Freyd gipnoz ongsizlikka yo‘l deydi va mijozlarni davolashda undan foydalandi. Gipnoz mijozlari gipnoz tufayli o‘zlarining anglab bo‘lmas qobiliyatlarini ochdilar. So‘ngra u mijozlar o‘zlarini ruhiy yengillashishlariga imkon beruvchi erkin assotsiatsiya usulini olib kirdi. Ushbu usulga ko‘ra mijoz o‘zining dardlarini bayon etadi. Bu esa mijozlarga ruhiy yengillik olib keldi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi bezovtalanishlarning sababi mijozlarning o‘tmishi bilan bog‘liq, bolalikdagi tuyg‘ulariga borib bog‘lanishini ta’kidladi. Kasalliklarning ongsizlik sabablariga tayangan shaxs nazariyasini psixoanaliz davolash metodi bilan bog‘ladi.

## 16.4. Sobiq sovet psixologiyasida shaxs ta'rifi

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o’ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflar tomonidan keltirilgan ta'riflar tahlillarining keltirib o’tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham obyekti ham subyektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashadi va unga shunday ta'rif beradi: shaxs faoliyat subyektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan jamiyatda o’z rolini anglovchi, jamiyatning qishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo’nalishini o’zgartiruvchi, ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin o’zaro farqlanib turuvchi tushunchalar qo’llanib kelinadi, chunonchi odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish, har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1.Odam - sut emizuvchilar sinfiga dahldorligi biologik jonzot ekanligi odamning o’ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik qo’llarning mehnat faoliyatiga

moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi, uning o’ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o’z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o’zgartirish imkoniga ham egadir.

2.Shaxs - mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan. Jamiyatda rivojlanuvchi til yordami bilan boshqa kishilar bilan (muloqot) muomalaga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3.Individuallik - har qanday insonning betakror, o’ziga xos xususiyatlarga egadir. Shaxsning o’ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individuallik shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo’ladi.

Sobiq sovet psixologiyasida shaxs tuzilishiga doir qator manbalar keltirilgan.

Jumladan, S.L.Rubinshteyn bo’yicha shaxs tuzilishi quyidagi ko’rinishga ega:

1.Yo’nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2.Bilimlar, ko’nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3.Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.



K.K.Platonov ta'limotiga ko’ra shaxs tuzilishi quyidagicha shaklga ega:

1.Yo’nalganlik osttuzilishi - shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Unda harakatchanlik, barqarorlik jadallik ko’lami (hajmi) darajalarini farqlash lozim.

2.Ijtimoiy tajriba osttuzilishi - ta'lim natijasida shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko’nikmalar, malakalar va odatlarni qamrab oladi.

3.Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

4.Biologik shartlanganlik osttuzilishi - miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog’liq bo’lgan patologik o’zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik holatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalyov talqiniga binoan shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo’nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o’zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g’oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo’nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshirishini ta'minlovchi tizim, o’zaro ta'sir etuvchi va o’zaro bog’liq bo’lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter - ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo’ladi. Xarakter tizimi irodaviy va ma'naviy sharoitlarga ajraladi.

4. Mashqlar to’plami - hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o’zini-o’zi nazorat qilish, o’zini-o’zi boshqarishni ta'minlaydi.

## Nazorat savollari

1. Individ, shaxs, individuallik tushunchalarini izohlab bering?
2. Shaxsning turli fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilishi deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxs muammosi va uning metodologik asoslarini tushuntiring?
4. Shaxsga nisbatan evolyutsion tarixiy va tizimli yondashuv izohlang?

# 17-MAVZU. SHAXS RIVOJLANISHINING INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING ROLI

***Tayanch tushunchalar:*** *shaxs, yo'nalganligi, ijtimoiy tajriba ttuzilishi, individuallik, shaxs rivojlanishi, qobiliyatlar, temperament, xarakter, individuallik.*

## 17.1. Individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifatida.

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham obyekti, ham subyektidir. A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat subyektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

Individual tipologik xususiyatlar - temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo'nalganlik osttuzilishi - shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi - ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

Biologik shartlangan ost tuzilish - miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bogliq bo’lgan patologik o’zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xususiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega: Yo’nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o’zaro ta’sir etuvchi har xil xususiyatli g’oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo’nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlovchi tizim. O’zaro ta’sir etuvchi va o’zaro bog’liq bo’lgan turlicha qobiliyatlar. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo’ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma’naviy sifatlar ajratiladi. Hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korreksiyalash), o’zini o’zi nazorat qilish, o’zini o’zi boshqarishni ta’minlaydi.

Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo’yicha eng salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo’lib, xilma-xil shaxs strukturasining modeli yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada B.G.Ananevning fikricha, psixologik hodisalarni aql (intellekt), hissiyot (emotsiya) va irodaga ajratilishi inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko’rinishi bo’lib, uning haqchilligi ko’pgina psixologlar tomonidan tan olinishidir. B.G.Ananev strukturaviy yondashishning boshqa variantlari tariqasida turlicha psixik hodisalar bilan qarama-qarshi aloqalarning e’tirof etilishi - psixik aktlarning psixik funksiyalar, ongning ongsizlik, tendensiyalarning potensiyalar bilan uyg’unligini ta’kidlaydi.

L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko’ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish mumkin, chunki ularning negizida ta’lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o’zaro ta’sirining ifodalanishi yotadi.

Hozirgi davrda psixologiya fanida psixologik hodisalarni psixik jarayonlarga, holatlarga, shaxsning xususiyatlariga ajratish qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuvning mavjudligi B.G.Ananev tomonidan strukturaviy konsepsiyaning bir tajribasi sifatida qaraladi. Bu voqelik “hodisalarni bir qator jabhalari bilan to’ldirishga intilish psixofiziologik xususiyat kasb etib, psixik jarayonlar uchun dastlabki materiallarni to’plash imkoniyatini (idrok, tafakkur, emotsiya, iroda) beradi”. Uning fikricha, dastlabki materiallar, bir tomondan, psixik funksiyalar (sensor, mnemik), xulqning, ikkinchi tomondan, elementar motivlari (ehtiyoj, ustanovka) hisoblanadi. Olimning mulohazasicha, bu qo’shimchalar “genetik ma’no kasb etib, fiziologiyadan miya mexanizmlarini umumpsixologik va neyrogumoral regulyatorlarini qamrab olish psixologiyaga o’tishga imkon beradi”. Lekin ushbu strukturaviy yondashuvning maxsus psixologik deb qarashdan qat’iy nazar, hozirgi zamon sintetik insonshunosligi uchun umumiy ahamiyatli jihatni yuksaklikka ko’tarishga qodir emas.

## 17.2. Insonlar orasida individual farqlarni o‘rganishning evolutsion sohasi.

Odamlarning o’quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o’ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o’sha insonning o’zi ham qilgan har bir harakatidan o’zi uchun naf ko’radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko’nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog’liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo’lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo’lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko’proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog’lab o’rganiladi. Har bir normal odam o’zining aqlli bo’lishini xohlaydi, “Men aqlliman” demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. “Aqlsiz, nodon” degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham xafa

qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning Sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan "o'ta aqlli" yoki "o'ta nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: "Falonchining o'g'li anchagina aqlli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini kuydirayotgan emish" degan iboralar aslida "aqllilik" kategoriyasi insonning "yuragi"ga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Ch.Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim J.Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual salohiyat esa bir tomondan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan – shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Shu o'rinda "intellekt" so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt – lotincha so'z – intellectus – tushunish, bilish va intellectum – aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu – intellekt va u bilan

bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi.

- Intellekt – bu intellektual testlar orqali aniqlanadigan jarayon;
- Intellekt – bu umumlashtirilgan ta'lim olish qobiliyati.
- Intellekt – bu majoziy abstrakt fikrlash qobiliyati.
- Intellekt – bu murakkab muhitga moslashuv, unda o'zini tutish samaradorligini ta'minlaydigan jarayon.

Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. Yangi avlod vakillari – kelajagini XXI asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota-bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlari juda tez o'zlashtirib olmoqda, jahon tillaridan bir nechtasi bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xohlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Hattoki, bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni yechishni xohlaydi.

### 17.3. Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari.

Har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'yi-basti bilan boshqa biror kimsaga o'xshashi mumkin, lekin fe'li, mijozi va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko'p jihatdan aynan o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

Shaxs – qaytarilmas, u o'z sifatlari va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari

majmui yotadi. Shu o’rinda biz yuqorida ta’rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o’rinli deb hisoblaymiz. Bu – “individ” va “individuallik” tushunchalaridir. “Individ” tushunchasi umuman “odam” degan tushunchani to’ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi. Bu tushuncha uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o’z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o’ziga va o’ziga o’xshashlarga xos bo’lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ – insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

“Individuallik” – yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo’lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o’ziga xos xususiyatlar majmuini o’z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo’lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatlari, emotsiyalari, xulqiga xos motivasiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o’tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta’minlovchi kategoriyalardir. Uning ma’nosi shundaki, bo’yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko’z qarashlari, barmoq harakatlari va shunga o’xshash sifatlari bir xil bo’lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivasiyasi va boshqalarga aloqador sifatlari majmui bir xil bo’lgan odamni topib bo’lmaydi. Ular – individualdir. Demak, psixologiyada har bir insonning individualligini izohlovchi xususiyatlar borki, ularga birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

Qobiliyatlar – shaxsdagi shunday individual, turg’un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko’rsatgichlari, yutuqlarini ta’minlaydi va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Temperament – insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, holatlar va insonlarning xatti-harakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.

Xarakter – shaxsning boshqa odamlar yoki insonlar guruhi, o’z-o’ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan

sifatlarini o’z ichiga oladi.

Irodaviy sifatlar – har birimizning o’z oldimizga maqsad qo’yib, unga erishish yo’lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta’minlovchi ma’lum sifatlarimiz majmuini o’z ichiga oladi.

Emotsiya (hissiyot)lar va motivatsiya esa atrofimizda sodir bo’layotgan hodisalar, bizni o’rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo’lib, ular ayni vaziyatlardagi real holatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ustanovka – yuqoridagi barcha xususiyatlar kompleksiga ega insonning turli ijtimoiy vaziyatlardagi faoliyat va harakatlarga ruhan hozirligi va munosabat bildirish uslubidan kelib chiqadigan chuqur ichki holatidir.

Biz yuqorida sanab o’tgan individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o’rnimiz, obro’-e’tiborimiz, ishdagi va o’qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo’lsa, o’zligimizni belgilaydi. Kim bilan qayerda uchrashmaylik, o’sha insonning bugungi holati, kayfiyati, bizga va biz bildirayotgan fikrlarga munosabati, hamkorlikda ishlash tilak-istaklariga doimo e’tibor beramiz va bu masala biz uchun muhim bo’ladi. Xuddi shunday suhbatdosh ham suhbatning boshidanoq, bizni o’rgana boshlaydi. Chunki agar suhbatdoshlar bir-birlarini bilsalar birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish va undan foyda olish imkoniyati ko’proq bo’ladi. Shuning uchun ham ishda ham, dam olishga otlangan chog’da ham, qayerda bo’lsa ham o’zimizga “qo’shni” tanlaganda uning inson sifatida qanday ekanligiga qiziqamiz. Agar suhbatdosh yoki sherik bizga tanish bo’lmasa, uni taniganlardan oldindan so’rab ham olamiz va bunda aynan uning nimaga qobilligi, fe’li, ishga, odamlarga munosabatini so’raymiz va xohlaymizki, u to’g’risida “Juda xushfe’l, dilgir, odamgir...” kabi tasniflarni eshitgimiz keladi. Biror yerga ishga kirayotgan paytda ham rahbar albatta o’ziga yaqin odamlardan yangi xodimning xarakterini, qobiliyatini va muhim narsalarga munosabatini albatta so’raydi va shu asosda suhbatga tayyorlanadi.

Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimz yo’naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e’tiqodi bilan munosabatda bo’lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqotdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual-psixologik xususiyatlarni alohida o’rganamiz.

## 17.4. Hayot tarzi, inson individual xususiyatlari, hamkorlik faoliyati-shaxs rivojlanishining asoslari.

Jahon psixologiyasida xulq-atvor, muomala va faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillarning eng muhimi tariqasida insonning emotsional hayoti yotishi aksariyat nazariyotchi psixologlar tomonidan ta’kidlab o‘tiladi. Bu talqinning haqqoniyligiga hech qanday e’tirozlar bo‘lishi mumkin emas, chunki mazkur omil eksperimental psixologiyaning mustaqil soha sifatida vujudga kelishidan e’tiboran ustuvor, dalil taqozo qilmaydigan atribut singari tadqiqot predmeti mohiyatiga singib ketgan. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, inson muomalasining, xulq-atvorining kechishi, faoliyatining muvaffaqiyatli, sermahsul yakunlanishi ko‘p jihatdan shaxsning emotsional holatlariga (emotsional ton, kayfiyat, stress, affekt va hokazo), izohlanishi murakkab bo‘lgan ruhiy kechinmalarga, yuksak his-tuyg‘ularga bog‘liq. O‘yin, mehnat, o‘quv, muomala va boshqa faoliyat turlarining muvaffaqiyatli kechishi, shaxslararo munosabatlarda xulq-atvorning namoyon bo‘lishi ijobiy psixologik holat sifatida baholansa, emotsiya va hissiyotning barqaror, maqsadga yo‘nalgan tarzda hukm surish ehtimoli e’tirof etiladi. His-tuyg‘ularning mustahkamligi, barqarorligi, mukammalligi sifatlarining mavjudligi ularning dinamik stereotiplar tipiga aylanganligidan dalolat beradi, faoliyat va xulqning shaxs tomonidan ongli ravishda boshqarish uslubi shakllanganligini bildiradi. Tabiatning tarkibiy qismlari

va jamiyatning a’zolari bilan turli shakldagi, har xil xususiyatli munosabatga kirishishi, ular bilan muomala qilish maromlarining davriy (muvaqqat tarzda) o‘zgarishni vujudga keltiradi. Ana shu o‘zgarish tufayli muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik, omad va omadsizlik, optimizm va pessimizm, romantika va realiya, simpatiya va antipatiya, progress va regress, jo‘shqinlik va tushkunlik, faollik va sustlik kabi birinchisi ijobiy (pozitiv) ikkinchisi esa salbiy (negativ) ruhiy hodisa kelib chiqadi. Faoliyat va xulqning amaliyotda bir tekis kechishini ta’minlovchi emotsional holat barqarorligining buzilishi unga qiyos qilingan muvaffaqiyatning birlamchi omili to‘grisidagi ilmiy ma’lumotlarni shubha ostida qoldiradi. Binobarin, jamiki narsaning boshlang‘ich asosi, manbai emotsiya degan g‘oyani, uning qiymatini umumiy fonda birmuncha qadrsizlantiradi, lekin ikkinchi darajali omilga aylantirib yubormaydi. Omillarning birlamchi va ikkilamchi, ustuvor va yetakchi, umumiy va xususiy, obyektiv va subyektiv, muhim va nomuhim mezonlar, alomatlar, o‘lchamlar yordami bilan baholanishi ushbu psixologik masala mohiyatini oqilona talqin qilish zaruriyatini vujudga keltiradi. Holbuki shunday ekan, ularning mohiyatini, keltirib chiqaruvchi sabablarini, harakatlantiruvchi kuchlarini muayyan dalillarga asoslanib tahlil qilish muammosi maydonga keladi.

Inson faoliyati va xulqini muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshishi ham obyektiv, ham subyektiv shart-sharoitlarga bog‘liq. Tabiiy omillarni keltirib chiqaruvchi obyektiv (tashqi) shart-sharoitlar, ya’ni mikro va makro muhit, moddiy borliq, yordamchi vositalarning mavjudligi, ularning yuksak talablarga javob bera olish imkoniyati, tashqi qo‘zg‘atuvchilarning bezararligi, vaqt va fazoviy o‘lchovlarning muvofiqligi, mutanosibligi kabilardan tarkib topadi.

## Nazorat savollari

1. Individ, shaxs, individuallik tushunchlarni izohlab bering?
2. Shaxsning turli fanlar nuqtai nazaridan o‘rganilishini izohlang?
3. Shaxs muammosi va fanning metodologik darajalari haqida ma`lumot bering?

4. Shaxsga nisbatan evolyutsion tarixiy va tizimli yondashuvlar haqida so’zlab bering?

5. Psixologiyaning turli yo‘nalishlaridagi rivojlanish haqidagi tasavvurlar haqida gapirib bering?

# 18-MAVZU. BILISH JARAYONLARINING QISQACHA TASNIFI.

***Tayanch tushunchalar:*** *bilish jarayonlari, professional faoliyat, professional bilimdonlik, sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol, diqqat, nutq, idrok qilish qonunlari, figura va fon, rubin figurasi, mnemonika yoki mnemotexnika, mnemotexnik usullar.*

## 18.1. Bilish jarayonlari va professional faoliyat.

Professional faoliyat shaxsdan juda ko’p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o’z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o’z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional bilimdonlik shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo’nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo’lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo’lish yo’llari va malakalarning takomillashuvini ta’minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir.

Ma’lumki, odamlar bir-birlaridan ko’p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko’rgan-kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushira oladilar. Ba’zilar ko’zi bilan ko’rgan har qanday obyektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilga o’z his-kechinmalarini ayta olsa, boshqalar – har bir hikoyaga albatta, fantaziya elementlarini qo’shishga moyil bo’ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taasurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatlari har xil bo’larkan. Ikkinchi tomondan, shunday kasb-korlar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammalashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o’z diqqatini har qanday mayda o’zgarishlarga ham qaratishga o’rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob-kitoblarga usta bo’lib boradi. Iqtisodchi-moliyachi pulning har bir tiyinidan foyda olishga o’rgansa, shoir tabiatan barcha hodisa va voqyealarni badiiy bo’yoqlarda, o’ziga xos idrok qilishga moyilligi

oshadi. Demak, odamning tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o'sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog'liq tarzda kechadi. Shuning uchun har ongning muhim aks ettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlari – idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va professional o'sishidagi roliga to'xtalib o'tamiz.

Xo'sh, bilish jarayonlari deganda psixologiyada aynan nimalar nazarda tutiladi? Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o'zini o'rab turgan atrof-muhitning ma'lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular ustida o'ziga zarur xulosalar chiqarib, o'z xulq-atvorini rejalashtirishga imkon beradi. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Chunki har birimiz ongimiz borligini, atrofdagi narsalar va hodisalarning ayrim alohida hamda yaxlit xususiyatlarini bilamiz. Bu narsa va hodisalar bizda har bir alohida sharoitda o'ziga xos hissiy-kechinmalarni keltirib chiqarishini ham bilamiz. Masalan, qorningiz och qolganda, yemishga bo'lgan talabingizni haqiqatan bor yoki yo'qligini birovlardan so'ramaysiz-ku? Yoki kitob mutoala qilayotgan shaxs shu kitobni rost bilan ham o'zi o'qiyotganligini boshqalardan so'ramaydi. Bunday ishlar o'z-o'zidan tabiiy jarayonlarday kechaveradi. Faqat imtihon paytida kechasi bilan mutoaala qilib, o'rganib chiqqan materialni nega hozir domla oldida eslay olmayotganligingiz sizni ko'proq qiziqtiradi va siz “Xotiram ustida ishlashim kerak” degan xulosaga kelasiz. Darhaqiqat, bilish jarayonlari ham ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz o'z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar.

Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan

tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgarigi idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham oddiy oh-vohga o'xshash hissiyotlardan tashqari, o'sha narsaning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi. Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'tardi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffiqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblar yordamida aslida odam ko'rmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida gavdalanadi. Psixologlar shunday eksperiment qilishdi: kunlarning birida o'ziga xos tasvir namoyon etildi. 24 ta kadr o'rniga 25 ta kadr berib, o'sha 25-kadrda "Koka-kola iching" degan yozuv berildi. Tabiiy, oddiy idrok bu bitta kadrni ilg'amaydi. Lekin tomoshadan keyin kinoteatr bufetida ushbu ichimlikni ichish 18% ga oshgan. Demak, aslida ong bu ma'lumotni qabul qilgan, lekin real anglash, oydinlashuv ro'y bermagan ekan.

Analogik holat xotiramizda ham tez-tez ro'y beradi. Kimnidir uchratib qolamizda, o'ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman? hech eslolmaysiz, lekin yuzi, ko'zi va boshqa sifatlari tanishday. Buni ham shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan-kechirganlari aslida miyada saqlanadi, biz ong sohasiga ayrimlarinigina chiqara olamiz. Faqat, kasal bo'lib yoki biror narsadan qattiq tashvishga tushganimizda kallamizga har xil o'y-fikrlar kelaveradi. Ongdagi ma'lumotlarning aslida miyamizdagilardan kamligining asosiy sababi – odam har qanday

ma'lumotni saralab, tanlab qabul qiladi, o'zi uchun "ahamiyatsiz" deb baholagan narsaga diqqat ham qilmaydi, eslab qolmaydi ham. U o'z ongida barcha mavjud ma'lumotni o'ziga xos tarzda qayta ishlaydi, o'zgartiradi. Shuning uchun ham har bir inson o'ziga xos va qaytarilmasdir – individualdir, deyiladi. Bilish jarayonlardagi individuallik sabablarini tushunish uchun eng muhim bilish jarayonlari bilan tanishamiz.

## 18.2. Bilish jarayonlari va ularning qisqacha tasnifi.

Insonning sezgisi, idroki, xotirasi, tafakkuri, nutqi, xayoli, his-tuyg'ulari va irodasi psixik jarayonlar deb ataladi

Sezgi – odamning tegishli sezgi organlariga moddiy olamdagi narsa va hodisalar ta'sir ko'rsatgan paytida ulardagi ayrim xossalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan eng sodda psixik jarayondir.

Sezgi, asosan, eksteroseptorlar, interioseptorlar hamda proprioseptorlardan tashkil topadi. O'z navbatida ularning har bir tarmoqlanish xususiyatiga ega hisoblanadi (11-rasm).

Fanda, asosan, eng ko'p o'rganilgan tarmoq – bu ekstroseptorlar sanalib, ularga ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm-maza bilish hamda teri-tuyish sezgilari kiradi.

Idrok – ayni choqda sezgi organlarga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning aks ettirilishidan iborat bo'lgan psixik jarayondir.

Tasavvur – biz ilgari idrok qilgan narsa va hodisalar obrazini ayni choqda fikran qayta tiklashimizdir.

Tasavvurlar idrok bilan o'xshash bo'lib, idrok asosida maydonga keladi, ammo ular, odatda, idrokka qaraganda birmuncha xiraroq, rangsiz bo'ladi va unchalik to'liq bo'lmaydi.

Xotira – o'tmish tajribalarimizda nimaiki hodisa yuz bergan bo'lsa, shuni esda olib qolish, esda saqlash va keyinchalik esga tushirish yoki tanishdir.

U quyidagi psixik jarayonlardan: esda olib qolish, o'zlashtirilgan materialni esda saqlash, tanish va esga tushirishdan iboratdir.

Xayol – biz ilgari idrok qilmagan predmet va hodisalarni yaratishdan iborat bo’lgan psixik jarayondir.

Iroda – kishining o’z oldiga qo’yilgan maqsadga erishish uchun ichki va tashqi to’siqlarni harakat yordamida yengish vaqtida vujudga keladigan psixik jarayondir.

Tafakkur – fakt va hodisalarni mavhumlashtirgan, umumlashtirgan holda va vositali ravishda aks ettirishdan, ular o’rtasiga aloqa hamda munosabatlarni aniqlashdan iborat bo’lgan bilish jarayonidir. Ongning qaratilishi deganda obyektni tanlab olish nazarda tutiladi, ongning biron-bir narsaga to’planishi esa ana shu obyektga aloqador bo’lmagan barcha narsalarni ong doirasidan tashqarida qoldirish ma’nosini bildiradi. Nutq – kishilarning til vositasida o’zaro munosabatda bo’lish jarayonidir.

### 18.3. Psixik jarayonlar, psixik xususiyat, psixik holatlar tushunchasi.

Psixologiya - inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to‘g‘risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari - psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantik hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo‘lmish ong va o‘zini o‘zi anglashni tadqiq etadi.

Antik davrdan boshlab psixologik bilimlar falsafa va tibbiyot fanlari negizida rivojlanib kelgan. Yunon shifokorlari Gippokrat, Erasistrat psixikaning organi miya ekanligini bilganlar va inson jonini koinotning ashyoviy bo‘lagi sifatida (Demokshyaning moddiy unchiligi asosida) talqin qilganlar. Ularning g‘oyalari

Platonning jon abadiyligi to‘g‘risidagi ta’limotiga qarama-qarshi qo‘yilgan. Aristotel “Jon to‘g‘risida”gi asarida psixologik tushunchalar tizimini ishlab chiqdi.

O‘rta asrlarda psixikaga nisbatan har xil ko‘rinishdagi g‘ayritabiiy qarashlar hukmronlik qildi. Shu tufayli psixologik bilimlar rivojlanmay qoldi. Ammo ba’zi faylasuflar va shifokorlar (Ibn Sino va boshqalar) asarlarida bu sohada olg‘a qadam qo‘yildi. Inson xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qadim qo‘lyozmalar, yodgorliklarda o‘z aksini topa boshladi. Turli mamlakatlarda va shaharlarda tuzilgan akademiyalarda (Xorazm, Samarqand, Kiyev, Moskva va boshqa shaharlarda) psixologiya yuzasidan tinglovchilarga saboq berilgan.

Yevropa Uyg‘onish davrida Leonardo da Vinchi, X.Vives kabilar Psixologiya rivojiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. XVIII asrga kelib M.V.Lomonosov, A.N.Radishchev, G.S.Skovoroda, T.Gobbs, B.Spinoza, G.Leybnits. J.Lokk, K.A.Gelvetsii, A.Golbax, D.Didro psixologiyada bir talay kashfiyot qildilar, uni amaliy ma’lumotlar bilan boyitdilar. Psixologiya XIX asrning 2-yarmiga kelib mustaqil fan sifatida ajralib chikdi. Nemis olimi V. Vundt Leypsigda 1879-yil dastlabki eksperimental lab.ni jihozlashga erishdi.

Psixologiya taraqqiyotida umuman XIX asrdagi eksperimentlar alohida ahamiyat kasb etdi. Bu davrda psixologik real voqelikni o‘rganish uchun metodlar majmuasi qo‘llana boshlandi: kuzatish, laboratoriya eksperimenti, tabiiy eksperiment, faoliyat natijasini tahlil qilish, ruhiy jarayonlarni modellashtirish genetik metodi, test, ekspert baholash, intervyu, anketa, so‘rovnoma, tarjimai hol va h.k. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida qator psixologik ilmiy maktablar, yo‘nalishlar vujudga keldi: bixeviorizm, geshtaltpsixologiya, personalizm, freydizm va h.k. Psixologiyaning rivojiga I.M.Sechenov (psixikaning reflektor tabiati), Pavlov (oliy nerv faoliyati) ta’limotlari muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Rossiyada V.M.Bexterev eksperimental laboratoriya. (Qozon, 1885), Harkov universiteti va N.N.Langening Odessadagi laboratoriya, G.Chelpanovning Kiyevdagi, S.Korsakovning Moskvadagi, keyinchalik V.M.Bexterev, A.Lazurskiy, A.Nechayevlarning Peterburgdagi, V.Chijning Yuryev (Tartu, Estoniya)dagi eksperimental laboratoriyalari psixologiya taraqqiyotiga alohida ta’sir o‘tkazdi.

1912-yil Moskva universitetida Psixologiya instituti ochildi. Shu yilda I.A.Sikorskiy tomonidan Kiyevda jahonda birinchi marta bolalar psixologiyasi instituti tashkil qilindi. XX asrning 1-yarmida Rossiyada K.N.Kornilov, Psixologiya Psixologiya Blonskiy va boshqa dialektikaga asoslangan ilmiy Psixologiyani yaratishga kirishdilar.

Hozirgi zamon psixologiyasi ko‘p tarmoqli psixologik bilimlar tizimidan iborat fan hisoblanib, o‘zining tadqiqot predmetiga ega bo‘lgan ko‘plab sohalardan tashkil topgan: umumiy psixologiya, aviatsiya psixologiyasi, harbiy psixologiya, differensial psixologiya, psixofiziologiya, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, huquq psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi, neyropsixologiya, patopsixologiya, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, sport psixologiyasi, maxsus psixologiya, ijodiyot psixologiyasi, menejment psixologiyasi, marketing psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, yosh psixologiyasi, tashkiliy psixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, psixologiya tarixi, genetik psixologiya, amaliy psixologiya, eksperimental psixologiya, kasb psixologiyasi, psixolingvistika, siyosiy psixologiya va boshqa psixologiyaning tarmoqlarga ajralishining asosiy sababi uning tarkibida tatbiqiy sohalar vujudga kelishidir. Psixologiya sanoatda, jamiyat boshqaruvida, ta’lim tizimida, sog‘liqni saklash, madaniyat, sport, transport, radio, televideniye va boshqa tuzilmalarda muhim masalalarni hal qilishda faol ishtirok qilmoqda. Psixologiya erishgan yutuqlari shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va ularni harakatga keltirishda alohida ahamiyat kasb qilmoqda hamda shu asnoda mehnat samaradorligini oshirishga ta’sir o‘tkazmoqda.

Zamonaviy psixologiyada elektron hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o‘rganish kabilar qo‘llanilmoqda. Psixologiyada o‘zini o‘zi kuzatish (instrospeksiya) metodi atrofida keskin bahslar davom etmoqda. Ba’zi yo‘nalishdagi psixologlar uni tadqiqot o‘tkazishning asosiy metodi deb ta’kidlasalar, boshqalari esa uning cheklanganligini e’tirof qiladilar, buning o‘rniga obyektiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Obyektiv metodlar tufayli psixikaning moddiy negizi aniklangan, inson ichki munosabatlari

bilan subyektiv holatlar sababiy bog‘liqligi yakka shaxsda, jamoada namoyon bo‘lishi dalillangan.

Jahon hamjamiyatida AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Shveytsariya mamlakatlarida institutlari va markazlarida, universitetlarda psixologik izlanishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Inson mavjud ekan, u o’z hayotiy tajribasiga asoslanib, u yoki bu holda idrok etish, olamni anglash, narsa va hodisalarni ajratish kabi xususiyatlarga ega ekanligi haqida o’ziga o’zi hisob beradi. Biz kunda qushlarning sho’x navosini, musiqa asboblarining xonishini, inson nutqini, uchib o’tayotgan samolyot shovqinini eshitamiz, atrofimizni o’rab turgan narsa, daraxt, hayvonlar, mashinalarni ko’ramiz. Ularning rangi va hajmini ajrata olamiz. Mazkur jarayonlar insondagi aks ettirish xususiyati bilan chambarchas bog’liq. Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Jumladan, shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Shunga ko’ra pedagogika shaxsni ta'lim-tarbiya jarayonida kamol topishini tadqiq qilsa, psixologiya shaxsda kechadigan ruhiy jarayonlarni o’rganadi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, psixologiya fanining predmetini shaxsning psixikasi va uning psixologik xususiyatlari tashkil
qiladi.

Psixologiya so’zining lug’aviy ma'nosi grekcha psyuxe - jon, ruh, logos - fan, ta'limot degan ma'noni anglatadi. Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o’rganadi.

Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko’ra psixikaning yuzga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko’rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o’z ichiga oladi:

- bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat;
- bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;
- shaxsning, hissiy, irodaviy sohasi: - hissiyot, iroda;
- shaxsning individual psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Psixikaning paydo bo’lishining asosiy shakllari M.Gamezo va Domashenkolarning “Atlas po psixologii” nomli qo’llanmasida quyidagicha ifodalanadi:

Shunga muvofiq bir qator olimlar tomonidan psixikaga ta'riflar berilib, uning mazmun mohiyati ochib berilgan. Jumladan, professor M.G.Davletshin fikricha, psixika deganda - oliy darajadagi materiyaning (miyaning) xususiyati tushunilib, u obyektiv borliqni aks ettirilishida namoyon bo’ladi, subyekt faoliyatini ma'lum maqsad asosida yo’naltiradi hamda xulq-atvor negizida shakllanadi, professor V.M.Karimova fikricha psixika - inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi.

**Nazorat savollari:**

1. Bilish jarayonlari deganda psixologiyada aynan nimalar nazarda tutiladi?
2. Bilish jarayonlari va ularning umumiy xususiyatlari nima bilan izohlanadi?
3. Psixik jarayonlar haqida izoh bering ?
4. Psixik xususiyat nima ?
5. Psixik holatlar tushunchasi deganda nimani tushunasiz?

# 19-MAVZU. SEZGI VA IDROK PSIXIK JARAYONLARNING BOSHLANGʻICH HOLATI EKANLIGI.

***Tayanch tushunchalar:*** *analizator, persepsiya, retseptor, eksterioretseptiv, sezgi, sezgi turlari, proprioretseptiv sezgi, interioretseptiv sezgi, qo’zg’atuvchi, afferent, efferent, adaptatsiya.*

## 19.1. Muhitning fiziologik xarakteristikasi.

Jahon psixologiyasi fanida to’plangan ma’lumotlarning ko’rsatishicha, sezish oddiy psixik bilish jarayoni hisoblanib, moddiy qo’zg’atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta’sir etishi orqali real olamdagi narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarini va shuning bilan birga, inson organizmining (uning a’zolarining) ichki holatlarini aks ettirishdan iborat bilishning dastlabki bosqichidir. Sezgi biosfera va neosferada harakatlanuvchi jamiki narsalarning, xoh mikro, xoh makro tuzilishidan qat’iy nazar, sezgi organlariga ta’sir qilish mahsulasining sodda obrazlar, timsollarning ayrim tarkibiy xususiyatlar tariqasida aks etishidir. Inson atrof-muhitdagi moddalar shaklini, harakatlar ko’rinishini, ularning xossalarini o’ziga xos xususiyatlarini sezgi organlari yordamida, sezgilar orqali biladi, xolos.

Sezgilar to’g’risidagi ilmiy ta’limotlarga binoan narsalar va ularning xossalari, tarkibiy qismlari, xususiyatlari, shakllari, harakati birlamchi hisoblanib, sezgilarning o’zi esa tashqi va ichki qo’zg’atuvchilarning sezgi a’zolariga ta’sir etishining mahsulidir. Ma’lumotlarning ko’rsatishicha, sezgilar moddiy (obyektiv) borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in’ikos qiladi, binobarin, moddiy olam qanday ko’rinishga, shaklga, xususiyatga ega bo’lsa ular xuddi shundayligicha hech o’zgarishsiz, aynan aks ettirish imkoniyatiga egadir. Psixologiyada sezgilarning fiziologik asosini va mexanizmlarini qo’zg’atuvchilarning o’ziga mutlaq mos (adekvat) bo’lgan analizatorlar ta’siri natijasida yuzaga keluvchi asab (nerv) jarayoni, uning tizimi, tuzilishi tashkil qiladi. Fiziologlar va psixologlarning ta’limotlariga ko’ra analizatorlar uch o’zaro uzviy uyg’unlikka ega bo’lgan tarkibiy qismlardan iboratdir. Sodda qilib talqin qilinganda mazkur tarkiblar quyidagi

ketma-ketlikdagi tuzilishdir: tashqi kuch-quvvatni (energiyani) asab (nerv) jarayoniga aylantirib beruvchi periferiya qismdan, ya'ni retseptordan; analizatorlarning periferiya qismini markaziy qism bilan bog'lovchi afferent (markazga intiluvchi asab tolasi), o'tkazuvchi asab yo'llaridan; periferiya qismlaridan keluvchi nerv impulslari (harakatlari) qayta ishlanuvchi analizatorlarning miya po'stidagi qismlaridan (uchastkalaridan) iboratdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, periferik nervlarning uchlari (ko'z, quloq, teri, burun kabilar), ta'sirotni eltuvchi (afferent), javob qaytaruvchi (efferent) nerv tolalari, analizatorlarning orqa va bosh miya markazlari analizatorni tashkil qiladi.

Jahon psixologiyasi fanining so'nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi (ushbu tasniflanishning dastlabki ko'rinishi ingliz olimi Ch.Sherringtonga taalluqlidir):

tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishga moslashgan hamda retseptorlarga tananing sirtqi qismiga joylashgan sezgilar, ya'ni eksterioretseptiv sezgilar (retseptorlar);

ichki tana a'zolari holatlarini in'ikos etuvchi hamda retseptorlari ichki tana a'zolarida, to'qimalarida joylashgan sezgilar, ya'ni interioretseptiv sezgilar;

tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma'lumot (axborot, xabar) beruvchi, muskullarda, bog'lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilar, ya'ni proprioretseptiv sezgilar.

Birinchi turkum sezgilarni ko'rish, eshitish, hidlash, teri-tuyush, ta'm-maza, kabi turlar tashkil qiladi. Ko'rish 380 dan 770 gacha millimikron diapazondagi elektromagnit nurlardan iborat jarayondir. Eshitish esa tebranish chastotasi 16 dan to 20000 gacha bo'lgan tovush to'lqinlaridan iboratdir. Ko'rish sezgilari bosh miya po'stini tepa burmasining qismida joylashgan bo'ladi. Teri-tuyush, harakat sezgilari miya po'stini markaziy burmasining orqa qismidan o'rin olgandir.

A.R.Luriyaning fikricha, interioretseptiv sezgilar asl, tub ma'nodagi sezgilar emas, balki emotsiyalar bilan sezgilar o'rtasidagi oraliq sezgilar sifatida namoyon bo'ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilarning subyektiv ravishda paydo bo'lishi yetarli darajada chuqur o'rganilmagan, xuddi shu bois ular "noma'lum hislar"

doirasiga kiritilgandir. Ular to’g’risidagi bilimlar bilan tanishish, o’zgarib borishlarini tekshirish “kasalliklarning ichki manzarasi”ni ifodalab berishda muhim rol o’ynashi mumkin. Ichki organlarning xastaligida vujudga keluvchi mazkur holatlar ichki kasalliklarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bunday xususiyatli ixtiyorsiz sezgilar insonda juda erta uyg’onadi, shuning bilan birga ularning ifodalanishi o’ziga xos shakllarga egadir. Chunonchi, ular oldindan his qilish tariqasida paydo bo’lib, hatto inson ularni ta’riflab berish imkoniyatiga qodir emas, ko’pincha ushbu kechinmalar tush ko’rishda qaysidir kasallik xuruj qilayotganligidan darak beruvchanlik vazifasini o’tmaydi, xolos. Ular insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o’zgarishida ko’zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o’zgarishiga sabab bo’ladi. Chunki, bola o’z tana a’zolaridagi ichki holatlarning o’zgarishini anglash, sezish, his qilish uquviga ega emas, xuddi shu tufayli undagi xatti-harakatning umumiy o’zgarishi belgilaridan buni sezish mumkin. Bu hodisalarning yorqin misoli sifatida quyidagi voqelikni tahlil qilamiz: bola o’z ichki interioretseptiv sezgilarini namoyish qilish maqsadida “kasal” bo’lib qolgan qo’g’irchog’ini parvarish qila boshlaydi.

## 19.2. Sezgi tushunchasiga falsafiy yondoshuvlar.

Ma'lumki bizni o’rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko’p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g’adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz. Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo’ladi. Chunonchi, nurlarning ko’zimizga ta'sir qilishi natijasida ko’rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to’lqinlarining quloqimizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo’shlig’iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo’limiz yoki badanimizga tegib ta'sir

etish natijasida teri (taktil - biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo’ladi.

Demak, sezgi deb- atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz. Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo’lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo’zg’atuvchilarning muayyan reseptorlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o’tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo’lgani bilan uning yuzaga kelishi o’z-o’zidan hosil bo’lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo’lishi.
- Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo’lishi. Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog’liq bo’ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to’plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga yetkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o’z ichki holatini adekvat "mos" aks ettirishi hosil bo’ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo’llaridan biridir.

## 19.3. Sezgi borasidagi nazariyalar.

Psixologiya fanida shunday ilmiy dalillar mavjudki, mobodo inson axborotlarning shaxobchasidan mahrum bo’lsa, u holda u uyqu faoliyatiga sho’ng’iydi. Masalan, teri tuyish sezgilari patologiyaga uchrasa, unda odam (ko’pincha vaqtincha muvaqqat) ko’rish, eshitish, hid sezgisidan mahrum bo’lishi mumkin. Mobodo axborotlarni kuzatish shaxobchasi ilk bolalik yoshi davrida buzilsa, kar yoki ko’r bo’lib qolsa, u taqdirda uning aqliy rivojlanishida keskin to’xtalish, vaqtincha orqada qolish yuzaga keladi. Agar bola maxsus usul yoki

uslubga o’rgatilmasa, tabiiy ravishda mavjud kamchiliklarning o’rnini to’ldirib bo’lmaydi.

Nemis faylasufi **Xristian Volf** "Rasional psixologiya" (1732) va "Empirik psixologiya" (1734) kitoblarida ongning ichki holati, aqliy fikr yuritishga qobiliyatning tabiiy moddiy asosi zamiridan kelib chiqib, tashqi olamdan kelib tushadigan axborotlar shaxobchasiga, ya'ni sezgi kanaliga hech qanday bog’liq emas, deb tushuntirishga harakat qildi. Sezgilarga mana bunday yondashish nazariyotchisi "fanga rasionalizm" tushunchasi bilan birga kirib keldi. X.Volf va uning tarafdorlari psixologik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira va boshqalar) murakkab ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli emas, degan g’oyani ilgari surdilar.

Shuning bilan birga "Ong", "Aql" tarixiy evalyusiya natijasi emas, deb inson psixikasiga o’zgacha yondashib, uni izohlab berish mushkul bo’lgan "birlamchi" xususiyat ekanligini tushuntirishga intiladilar. Mazkur nazariyaga asoslangan psixologlar insonning sezgilari uni tashqi olam bilan bog’lab turuvchi birdan bir shaxobcha ekanligini inkor qilishgacha borib yetdilar va voqelikni mana bunday tarzda izohlashga harakat qildilar; sezgilar insonni tashqi olamdan ajratib turadilar, ular atrof-muhit o’rtasidagi bartaraf qilib bo’lmaydigan devor hisoblanadilar.

Berkli, Yung, Myuller, Gelmols singari olimlar sezgi organlarining "Spesifik energiyasi" nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu g’oyaning asoschisi sifatida Iogann Myuller qat'iy pozisiyada turib, uni butun vujudi bilan himoya qilishga intildi. Ushbu nazariyaga binoan har qaysi sezgi a'zosi hoh quloq, hoh til, hoh teri bo’lishidan qat'iy nazar tashqi dunyoning ta'sirini aks ettirmaydi, atrof-muhitda bo’lib turgan real, jarayonlar yuzasidan axborotlar berishga qobil emas, faqat u tashqi ta'sirdan shaxsiy jarayonlarning qo’zg’atuvchisidan turtki oladi, xolos.

Mazkur nazariyaga ko’ra har bir sezgi a'zolari o’zining spesifik energiyasiga ega bo’lib, u har qanday ta'sirdan qo’zg’aladi. Masalan, ko’zni bosib, unga elektr toki bilan ta'sir qilib ko’rilsa, yorug’lik sezgisi hosil qilinadi. Quloqqa elektr qo’zg’atuvchisi bilan ta'sir o’tkazilsa, u holda tovush sezgisi vujudga keladi. Binobarin, sezgi a'zolari tashqi ta'sirni aks ettirmaydi, balki ularning ta'siridan qo’zg’aladi. Inson hech qachon tashqi voqelikni, dunyoni ob'ektiv ta'sirlarini idrok

qilmaydi, balki sezgi a'zolari faoliyatida o'zlarining shaxsiy subyektiv holatlarini aks ettiradi.

Sezgilarning reseptor nazariyasiga ko'ra reseptor sezgi a'zolari ularga ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchilarga nisbatan sust javob qaytaradi, sezgilar harakatga qarama-qarshi turuvchi sust jarayondir. harakatning o'zi esa aksincha faol (aktiv)dir. Hozirgi davrda sezgilarning reseptor nazariyasi mutlaqo sezgi jarayonlarining fiziologik mexanizmini ochib berishga yaroqsiz ekanligi qator tadqiqotchilar tomonidan ishonchli omillarga suyangan holda ta'kidlab o'tilgandir.

Sezgi jarayonining faolligini tan oluvchi nazariya sezgilarning reflektor nazariyasi deb ataladi. Hayvonlar va jonivorlarning sezgilari sust xususiyatga emas, balki tashqi olam ta'sirining biologik ahamiyatga molik jihatlarini faol ravishda ajratgan holda xatti-harakatni amalga oshiradilar. Masalan, asalari bir xil turkumdagi gullarga nisbatan aralash qollardagi gullarga faolroq javob reaksiyasini bildiradi. Mushuk sichqonning qimirlashiga e'tiborini kuchaytiradi, lekin xuddi shunga o'xshash kamerton tovushiga aslo parvo ham qilib qo'ymaydi. Bu omillar shuni ko'rsatib turibdiki, birinchidan, sezgilar faollik xususiyatiga ega, ikkinchidan ularning vujudga kelishida harakat tarkiblari ishtirok etadi.

AQSHlik psixolog Neffning ta'kidlashicha, mikroskop ostiga olib teriga igna sanchilsa, xuddi shu uchastkada reflektor harakat reaksiyalari kuzatilgan: tomirning hisishi, teri galvanik refleks, goho ko'z harakati, bo'yin muskullarining, taranglashuvchi qo'lning harakat reaksiyasi sodir bo'lishi mumkin. Jahon psixologlari tomonidan narsalarning murakkab tomonlarini tanish, farqlash harakatning ishtirokisiz amalga oshmasligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, ko'zni yumib, jismni farqlash uchun qo'l bilan uni paypaslash kerak, aks holda uning holati, shakli, qattiq yoki yumshoqligi g'adir-budurligini bilib, sezib bo'lmaydi.

I.M.Sechenovning fikriga ko'ra jismni ko'z bilan idrok qilish uchun ko'z o'sha narsani "qidirsin", faqat shundagina maqsadga muvofiq harakat yuzaga chiqqan bo'ladi. Hozirgi davrda psixologiya fanida ko'z harakatlari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ular makro va mikro ixtiyoriy va ixtiyorsiz ko'rinishlarga ajratiladi. Ular quyidagi nomlar bilan ifodalanadi:

Konvergent, divergent, gorizontal, vertikal, parsimon va boshqalar. Ko’z harakati yordami bilan fazoda o’rin almashib turgan jismlarni topish, bilib olish va idenfikasiyalash amalga oshiriladi. Ko’z harakatlari uch jufti tashqi muskullari, ya'ni miya bosh suyagining III, IV va VI juft nervlari orqali ro’yobga chiqadi, ko’zning makro va mikro harakatlari sezgining mexanizmi rolini bajarish imkoniyatiga ega.

Jahon psixologiya fani ma'lumotlariga qaraganda sezgilar atrof - muhit to’g’risida va o’zimiz haqimizda yagona bilish manbai sifatida xizmat qiladi. Sezgilar shunday bir axborot kanaliki, ular tashqi olamdan va ichki tana a'zolaridan keladigan barcha holatlar, taassurotlar xuddi shu yo’llar orqali miya po’stiga yetib boradi, insonga ta'sirlarga nisbatan to’g’ri javob reaksiyalari qaytarishga yordam beradi. His etish yoki sezgining filogenetik taraqqiyoti shuni ko’rsatadiki, hayvonlarda ma'lum narsani sezish, his etish ularning biologik jihatdan zaruriyat ehtiyoj ekanligiga qarab rivojlangan. Bu holatlar ko’pincha xorij olimlari tomonidan izchil ravishda o’rganilgan, ularning o’ziga xos omillar mexanizmlari mavjudligi ta'kidlab o’tilgan. Masalan, turli asalari xatti-harakatlari kuzatilganda, gulga o’xshash murakkab geometrik shaklga nisbatan asalarining differensirovkasi oson kechgan. Agarda shu murakkab geometrik shakl gullarga oid bo’lmasa, u holda arida differensirovka juda qiyinchilik bilan vujudga kelgan. Tadqiqotchi Bosning kuzatishicha, jonivorlar qurt-qumursqalarga xos bo’lgan tovushlarga nisbatan xuddi shu turdagi harakatlarga befarqlik bildirmagan, moboda tovushlar qattiq va tez sur'atda kechsa, ularga hech qanday e'tibor bermagan. Ushbu vazifani olim biologik shartlanganlikdan kelib chiqqan tabiiy ehtiyoj, instinkt bilan uzviy bog’lagan.

S.V.Kravkov (1893-1951) ma'lumotlariga ko’ra bir sezgi a'zolarining faoliyati ikkinchisining ta'siri tufayli o’zgaradi, tovush asosan ko’rish sezgisi, yorug’lik sezuvchanligini orttiradi, shunga o’xshash turli hidlar hamda yorug’lik va hid bilishga nisbatan sezgirlikni oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bunday o’zaro ta'sir sababli miya ustuni yuqori qismi va ko’rish bo’rtiqlariga tegishli o’simtalarning yaqin joylashganligi tufayli boshqasiga o’tishi osonroq amalga

oshadi. Bundan tashqari sezgilarning o’zaro qo’zg’alishi va tormozlanishini o’rganish ham alohida ahamiyatga ega, chunki ayrim hollarda avtomatik boshqarish tufayli unga uchishda sun'iy sezgirlikning pasayishi yoki ortishi zarurati tug’iladi. I.P.Pavlov tomonidan analizatorlarning murakkab o’zaro ta'sir shakllari mavjud ekanligi qayd etilgandir. Ular bevosita bosh miya po’stida namoyon bo’lib, bir vaqtning o’zida ko’rayotgan jismni, eshitilayotgan tovushni, kelayotgan hidni sezishimizda o’z ifodasini topadi. Bu bosh miya po’stida kechadigan fiziologik jarayonlarni bosib o’tishi zarur bo’lgan zonalar perekretik zonalar deb nomlanadi. Sezgilarning klassifikasiyasi ularning turli spesifik tavsiflariga, ya'ni moddalligiga qarab emas, balki tashkil etilishining har xil darajalariga qarab ham ajratiladi.

Sezgilarni obyektiv yo’nalishi bo’yicha Ye.N.Sokolov, Vinogradovlar tekshirganlar va ular passiv jarayon emasligi, vegetativ elementlar fiziologik nafas olish tizimida o’zgarishga sabab bo’lishini tushuntirib berilgan. Ushbu vaqt reflektor o’zgarishlarni sezgining ob'ektiv ko’rsatkichi sifatida ishlashga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, sezgini paydo qiluvchi har bir qo’zg’atuvchi, reflektor jihatdan yuzaga keluvchi jarayonlarni chaqiradi, chunonchi tomirlarning torayishini, teri galvanik reflektorlarning paydo bo’lishi, teri qalinligining o’zgarishi miyaning elektr faoliyatining o’zgarishi, ko’zlarning qo’zg’atuvchi tomon burilishi kabilar. Bularning hamma sezgi jarayonlarning paydo bo’lishini o’z ichiga oladi. Xuddi shu sababdan ular sezgilarning obyektiv ko’rsatkichlari tariqasida xizmat qila oladi. Tajribalarda shu narsa qayd etilganki, qo’zg’atuvchilar intensivligi oshgan sari javob reaksiyasi ham intensivroq bo’lib borar ekan. Bu esa sezgilarning intensivligini asos sifatida ishlatishga muhim negiz hozirlaydi. Tomir va elektrofizologik reaksiyalar chegaralarga odatdagi qo’zg’atuvchilarga qaraganda yaqin qo’zg’atuvchilarga nisbatan keskinroq bo’ladi.

### 19.4. Sezgining reseptor va reflektor nazariyasi.

Tashqi olam xususiyatlari to’g’risidagi va shaxsning o’z gavdasini tuta bilish yuzasidan bilimlar, ma’lumotlar, xabarlar va taassurotlar manbai bu sezgilar bo’lib hisoblanadi. Shuning uchun sezgilar inson organizmiga, ya’ni uning tana a’zolariga

tushadigan axborotlarning asosiy kanali (yo'li) sanalib, ular tashqi dunyo hamda ichki tana a'zolari to'g'risidagi xabarni bosh miya katta yarim sharlari va bosh miyaning tarkiblariga yetkazib turadi, xuddi shu boisdan inson o'zini qurshab turgan makro muhitni oriyentirlash (mo'ljallash) imkoniyatiga egadir. Agarda mazkur kanallar berk bo'lib qolgan taqdirda, sezgi organlari zarur axborotlar bilan ta'minlamaydi, binobarin, ongni hukm surish imkoniyati o'z-o'zidan yo'qoladi.

Psixologiya fanida shunday ilmiy dalillar mavjudki, mabodo inson axborotlarning shaxobchasidan mahrum bo'lsa, u holda u uyqu holatiga sho'ng'iydi. Masalan, tasodifan teri-tuyush sezgilari patologiyaga uchrasa, unda odam (ko'pincha vaqtincha, muvaqqat) ko'rish, eshitish, hid sezishdan mahrum bo'lishi mumkin. Mabodo axborotlar tuzatish shaxobchasi ilk bolalik yoshi davrida buzilsa, kar yoki ko'r bo'lib qolsa, u taqdirda uning aqliy rivojlanishida keskin to'xtalish (vaqtincha orqada qolish) yuzaga keladi. Agarda bola maxsus usul yoki uslubga o'rgatilsa tabiiy ravishda mavjud kamchiliklarning o'rnini to'ldirib bo'lmaydi. Sezgini bunday tarzda tushuntirilishiga nisbatan har xil munosabatlar psixologiya tarixida mavjud bo'lib, ularning hech qaysisi asosiy manba ekanligiga shubha bilan qarashga moyildirlar. Hozir ularning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz va haqiqiy mohiyatini ochib berishga intilamiz.

Nemis faylasufi Xristian Volf "Ratsional psixologiya" (1732) va "Empirik psixologiya" (1734) kitoblarida: ongning ichki holati, aqliy fikr yuritishga qobiliyatlilik tabiiy moddiy asos zamiridan kelib chiqib, tashqi olamdan kelib tushadigan axborotlar shoxobchasiga, ya'ni sezgi kanaliga, hech qanday bog'liq emas deb tushuntirishga harakat qildi. Sezgilarga mana bunday yondashish nazariyotchisi fanga "ratsionalizm" tushunchasi bilan birga kirib keldi. X.Volf va uning tarafdorlari psixik jarayonlar (sezgi, idrok, xotira va boshqalar) murakkab ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli emas, degan g'oyani ilgari surdilar. Shuning bilan birga "Ong", "Aql" tarixiy evolyutsiya natijasi emas deb, inson psixikasiga o'zgacha yondashib, uni izohlab berish mushkul bo'lgan "birlamchi" xususiyat ekanligini tushuntirishga intildilar. Mazkur nazariyaga asoslangan psixologlar insonning sezgilari uning tashqi olam bilan bog'lab turuvchi birdan-bir shaxobcha

ekanligini inkor qilishgacha borib yetdilar va voqelikni mana bunday tarzda izohlashga harakat qildilar: go'yoki sezgilar insonni tashqi olamdan ajratib turadilar, ular atrof-muhit o'rtasidagi bartaraf qilib bo'lmaydigan devor hisoblanadilar.

Berkli, Yung, I.Myuller, Gelmgols singari olimlar sezgi organlarining "spesifik energiyasi" nazariyasini ishlab chiqdilar. Bu g'oyaning asoschisi sifatida Iogann Myuller qat'iy pozitsiyada turib, uni butun vujudi bilan himoya qilishga intildi. Ushbu nazariyaga binoan, har qaysi sezgi a'zosi hoh quloq, hoh til, hoh teri bo'lishidan qat'iy nazar, tashqi dunyoning ta'sirini aks ettirmaydi, atrof-muhitda bo'lib turgan real, yaqqol jarayonlar yuzasidan axborotlar berishga qobil emas, faqat u tashqi ta'sirdan shaxsiy jarayonlarning qo'zg'atuvchisidan turtki bo'ladi, xolos. Mazkur nazariyaga ko'ra, har bir sezgi a'zolari o'zining "spesifik energiyasi"ga ega, har qanday ta'sirdan qo'zg'aladi. Masalan, ko'zni bosib, unga elektr toki bilan ta'sir qilib ko'rilsa, unda yorug'lik sezgisi hosil qilinadi; quloqqa elektr qo'zg'atuvchisi bilan ta'sir o'tkazilsa, u holda tovush sezgisi vujudga keladi. Binobarin, sezgi a'zolari tashqi ta'sirni aks ettirmaydi, balki ulardan, ya'ni ularning ta'siridan qo'zg'aladi, xolos. Inson hech qachon tashqi voqelik, yaqqol dunyoning obyektiv ta'sirlarni idrok qilmaydi, balki sezgi a'zolari faoliyatida o'zlarining shaxsiy subyektiv holatlarini aks ettiradi. Mazkur nazariyaga binoan, inson obyektiv dunyoni idrok qila olmaydi, u subyektiv jarayonlarni aks ettiradi, oqibat natija "dunyo element" (mayda qism)larni idrok qilish vujudga keladi. Psixologiya tarixida "subyektiv idealizm" degan yo'nalish ham yuzaga kelgan bo'lib, ungacha, "inson faqat o'zi"nigina biladi, xolos. Undan tashqari hech narsa hukm surishi mumkin emas. Bu nazariya o'ziga xos g'oyaga ega bo'lib, fan tarixida "solipsizm" (yagona "Men") nomini olgan edi. Sezgilarning retseptor va reflektor nazariyalari. Sezgilarning retseptor nazariyasiga ko'ra, retseptor yoinki sezgi a'zolari ularga ta'sir qiluvchi qo'zg'atuvchilarga nisbatan sust (passiv) javob qaytaradi, sezgilar harakatga qarama-qarshi turuvchi sust jarayondir, harakatning o'zi esa aksincha faol (aktiv)dir.

Hozirgi davrda sezgilarning retseptor nazariyasi mutlaqo sezgi jarayonining fiziologik mexanizmini ochib berishga yaroqsiz ekanligini qator tadqiqotchilar tomonidan ishonchli omillarga suyangan holda ta'kidlab o'tilgandir. Sezgi jarayonining faol (aktiv)ligini tan oluvchi nazariya - sezgilarning reflektor nazariyasi deb ataladi. Ushbu fikrni asoslash uchun misollarga murojaat etaylik va hayvonot olamida aks ettirishni tahlil qilib ko'raylik. Hayvonlar va jonivorlarning sezgilari sust (passiv) xususiyatga emas, balki tashqi olam ta'sirining biologik ahamiyatga molik jihatlarini faol (aktiv) ravishda ajratgan holda xatti-harakatni amalga oshiradilar. Masalan, bolari (asalari) bir xil turkumdagi gullarga nisbatan aralash holdagi gullarga faol (aktiv)roq javob reaksiyasini bildiradi; qirg'iy irish-chirish hidlariga, undan ko'ra suv o'tlarining ildizlari hidiga chaqqon harakat qiladi. Mushuk sichqonning qitirlashiga e'tiborini kuchaytiradi, lekin xuddi shunga o'xshash kamerton tovushini keltirsak, aslo unga parvo ham qilib qo'lmaydi.

Bu omillar shuni ko'rsatib turibdiki, birinchidan, sezgilar faollik (aktivlik) xususiyatiga ega, ikkinchidan, ularning vujudga kelishida harakat tarkiblari ishtirok etadi. AQShlik psixolog Neffning ta'kidlashicha, mikroskop ostiga olib teriga igna sanchilsa, xuddi shu uchastkada (maydonda) reflektor harakat reaksiyalari kuzatilgan; tomirning qisilishi, teri galvanik refleks (KGR), goho ko'z harakati, bo'yin muskullarining taranglashuvi, qo'lning harakat reaksiyasi sodir bo'lishi mumkin.

Jahon psixologlari tomonidan narsalarning murakkab tomonlarini tanish, farqlash harakatning ishtirokisiz amalga oshmasligi ta'kidlab o'tilgan. Masalan, ko'zni yumib jismni farqlash uchun qo'l bilan uni paypaslash kerak, aks holda uning holati, shakli, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budurligini bilib, sezib bo'lmaydi. I.M.Sechenovning fikriga ko'ra, jismni ko'z bilan idrok qilish uchun ko'z o'sha narsani "qidirsin", faqat shundagina maqsadga muvofiq harakat yuzaga chiqqan bo'ladi. Hozirgi davrda psixologiya fanida ko'z harakatlari nazariyasi ishlab chiqilgan bo'lib, ular va makro va mikro, ixtiyoriy hamda ixtiyorsiz ko'rinishlarga ajratiladi. Ular quyidagi nomlar bilan ifodalanadi: konvergent, divergent, gorizontal, vertikal, siklofuzion, torsion, version, vergent, sakkadik,

tremor, dreyf, fliki kabilar. Ko'z harakati yordami bilan fazoda o'rin almashib turgan jismlarni tanish, bilib olish va identifikatsiyalash amalga oshiriladi. Ko'z harakatlari uch juft tashqi muskullari, ya'ni miya bosh suyagining III, IV va VI juft nervlari orqali ro'yobga chiqadi. Ko'zning mikro va makro harakatlari sezgining mexanizm rolini bajarish imkoniyatiga ega. Eshitish sezgisi eshitish va tovush apparatlari tarkiblarining yaqin ishtirokida vujudga keladi. Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalarga ko'ra, elementlar (sodda) faol reflektor jarayoni, shuningdek, murakkab faol retseptor faoliyat jarayoni (paypaslash, suratga tikilish kabilar) mavjud bo'lib, sezgilarning vujudga kelishini ta'minlab turadi. Psixologik ma'lumotlarning tahliliga ko'ra, faol harakatning har qaysisi sezgining reflektor nazariyasidan iboratdir.

**Nazorat savollari:**

1. Muhitning fiziologik xarakteristikasi haqida ma'lumot bering?
2. Sezgi tushunchasiga falsafiy yondoshuvlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Sezgi borasidagi nazariyalar haqida?
4. Sezgining reseptor va reflektor nazariyalari haqida tushuntirib bering?

## 20-MAVZU. SEZGILARNI KLASSIFIKASIYASI.

***Tayanch tushunchalar:*** *interoseptiv, eksteroseptiv, proprioseptiv, konkakt, distant, analizator, periferik, ko'rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta'm bilish sezgilari, teri sezgilari, muskul-harakat (kinestetik), statistik sezgilar.*

### 20.1. Interoseptiv, eksteroseptiv va proprioseptiv sezgilar va ularning inson xatti-harakatidagi oʻrni.

Interioretseptiv sezgilarning obyektiv ahamiyati juda yuqori, chunki ular ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish balansini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, ular organizmlardagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishining gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. Ichdan paydo bo'ladigan signallar xatti-harakatni vujudga keltiradi, stress, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish (bartaraf qilish, pasaytirish), tug'ilib kelayotgan mayllarni esa qoniqtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Oqibat natijada, ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqish holati yuz berishi mumkin. Xuddi shu sababdan tibbiyot psixologiyasida interioretseptiv sezgilar ham muhim rol o'ynaydi. Somatik va visperal jarayonlar, ruhiy holatlar (psixosomatika) o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish imkonini yaratadi.

Interioretseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari interioretsepsiya bilan birgalikda K.M.Bikov, V.N.Chernigovskiylar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqqan holda sharhlab berilgan.

Proprioretseptiv sezgilar tana dvigatel apparatining va gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining regulyatorini va afferent asosini tashkil qiladilar. Periferik retseptorlar muskullarda, paylarda va bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalari shakliga egadirlar. Mazkur tanachalar Puchchini tanachalari deb ataladi. Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarining taranglashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zgarishida, nerv tolalari (iplari) yordamida orqa miyaning orqa ustunidagi (stolbasidagi) oq suyuqliklarga yetkaziladi.

Qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga yetib keladi va undan po'stosti tugunlaridan o'tib, bosh miya katta yarim sharining qorong'ilashgan zonasida o'z harakatini yakunlaydi.

Proprioretseptorlar harakatining afferent asosi ekanligi A.A.Orbeli, P.K.Anoxin (hayvonlarda), N.A.Bernshteyn (odamlarda) tomonidan o'rganilgan.

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati sezgirligi statik sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, o'zaro bir-biriga perpendikulyar bo'shliqda tutash holatda yotadi. Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemaga binoan amalga oshadi:

a) o'zgarish endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'alish;

b) eshitish nervi;

v) vestibulyator nerv;

g) bosh miya po'stining chakka bo'lmasi;

d) miya apparatiga o'tadi.

Vestibulyator sezgirlik apparati qurish bilan bevosita aloqada bo'lib, fazoni oriyentirlash jarayonida ishtirok etadi. Masalan, avtomobilning yo'ldan o'tishi (qatnovi), qalin o'rmonni kesib o'tish payti va hokazo. Xuddi shunday holat uchishda ham yuzaga kelishi mumkin. Patologiya holatida ham xuddi shunday jarayonga duch kelinadi. Eksterioretseptiv sezgilar moddalikdan (5 tadan) tashqari intermodal nospesifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi (a'zosi) orqali sekundiga 10-15 tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog'i, tirsak, tizza uchlari orqali) payqash vibratsiya sezgirlik deyiladi. Masalan, karlarning tovushlarning idrok qilishi, pianinoni ushlab turish, pol yoki mebelning harakati kabilar. Odatda, vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Intermodalning boshqa bir ko'rinishi mana bunday holatda namoyon bo'ladi:

a) hid, ta'm va maza sezgilarida;

b) o'ta kuchli tovushda, o'ta yorqin yorug'likda;

v) tricheminal, ya'ni uch xil ta'sirning uyg'unlashgan, integrativ holatida kabilar.

Sezgining nospesifik shakli - terining foto sezgirligi ranglarning nozik jilolarini ajratish, qo'l uchlari bilan sezish orqali ro'yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo'lib, bu narsa ko'pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Ushbu kashfiyot qo'l uchiga yashil va qizil rangli yorug'lik yuborish orqali dunyo yuzini ko'rgan. Rang signallarining og'riq qo'zg'atuvchilar bilan munosabati qiyosiy jihatdan olib borilganda, insonni faol mo'ljallash (oriyentrlash) jarayonida uning qo'l uchi terisiga kelib tushadigan rang nurlarini farqlashga o'rgatish mumkin ekan.

Psixologiya fanida trening foto sezgirligi tabiati hali yetarli darajada o'rganilgani yo'q. Shunga qaramasdan, talamitik tizim va po'st ostining qo'zg'alganida asab tizimi hamda teri ektodermlaridan kelib chiqqan, atrofga yoyilgan (tarqalgan), rudimentlar yorug'lik sezish elementlari maxsus sharoitda muvaffaqiyatli harakat qiladi. Ko'pincha "oltinchi tuyg'u, hissiyot" sharofat bilan inson tomonidan "masofa"ni sezish, ko'r odamlarda to'siqni his qilish ushbu jarayon uchun yorqin misol bo'la oladi. Ehtimol, yuz terisining issiq havo to'lqinlarini idrok qilish, to'siq oralig'ida mavjud bo'lgan tovush to'lqinlarini (tebranishlarini) o'zida aks ettirish terining foto sezgirligini ilmiy jihatdan izohlashga muayyan negiz (asos) bo'lib xizmat qilishi mumkin. Insonning aks ettirish jarayoni o'z mohiyati va xarakteri jihatidan 2-bosqichdan iboratdir. 1) Hissiy (aks ettirish) bilish bo'lib, u sezish, hissiy qabul qilish, xotira va tasavvurlardan iboratdir. 2) Aqliy bilish bosqichi bo'lib, u tafakkurdan iboratdir.

Hissiy bilishning boshlang'ich shakli - sezgidir. Chunki hissiy bilishning boshqa shakllari – hissiy qabul qilish sezgiga nisbatan ancha murakkab bo'lib, u sezish asosida vujudga keladi. Hissiy qabul qilishning sezishdan farqi shundaki, unda predmetlarning ayrim xossalarni emas, balki predmet bir butun holda aks etadi. Hissiy bilishning yana bir shakli tasavvurdir. Tashqi ta'sir natijasida vujudga kelgan nerv va miya qobig'ining ma'lum qismidagi qo'zg'alish – sezish, qabul qilish – ma'lum davrgacha o'z izini qoldiradi, ya'ni tashqi ta'sir to'xtagandan so'ng qo'zg'alishning, sezishning izi saqlanib qoladi. O'sha ta'sir etgan predmetga aloqador bo'lgan, unga qandaydir munosabatda bo'lgan hodisa ta'siri natijasida

izlar yana qayta tiklanishi mumkin. Miya qobig’ida saqlanib qolgan shu fiziologik izlarning tiklanishi, qaytadan qo’zg’alishi tasavvur, xotirani vujudga keltiradi.

Insonning bilish jarayoni hissiy bilish bilangina cheklanmaydi. Hissiy bilish yoki jonli kuzatish inson bilishining pastki bosqichida vujudga keladi, bu bosqich asosida ijtimoiy mehnat jarayonida ikkinchi yuqori bosqich – aqliy bilish, tafakkur paydo bo’ladi. Hissiy bilish orqali obyektiv reallikdan olingan “materiallar”ni qayta ishlash, ularni munosabatlari, ichki xususiyatlarini aniqlash, muhim va asosiy tomonlarini nomuhimlaridan ajratib olish, ularning qonuniyatlarini ochish aqliy bilish va tafakkurda amalga oshiriladi.

Ekstroreseptiv sezgilar intermodal, nospesifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi orqali 10-15 sekundga tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopg’og’i, tirsak, tizza uchlari) payqash - vibrasiya sezgilari deyiladi. Masalan, karlarni tovushlarni idrok qilishi. Odatda vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Uning quyidagi ko’rinishlari ham mavjud:

a) hid, ta'm va maza sezgilarida;

b) o’ta kuchli tovushda, o’ta yorqin yorug’likda;

v) uch xil ta'sirning uyg’unlashgan integrativ holatida;

Sezgining nospesifik shakliga terining foto sezgirligi kirib, u ranglarni, nozik jumlalarni ajratish, qo’l uchlari bilan sezish orqali ro’yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo’lib, bu narsa ko’pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqot asosan qo’l uchiga yashil va qizil ranglarni yuborish orqali amalga oshirilgan. Terining foto sezgirligi tabiati psixologiyada yetarli darajada o’rganilmagan.

## 20.2. Sezgilarning nerv - fiziologik asoslari

Ma'lumki, sezgilar faqatgina tashqi ta'sirlar natijasida hosil bo’lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo’zg’atuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo’ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Sezgilarning nerv - fiziologik

asosini qo’zg’atuvchining o’ziga aynan o’xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo’ladigan nerv jarayoni tashkil qiladi. Shuningdek, sezgilarning nerv fiziologik asosini o’rganishda I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda analizator apparati tashkil etadi.

**Analizator** - tashqi va ichki muhitdan keladigan ta'sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo’lgan qo’zg’alishni psixik jarayonga, ya'ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari tizimi. Analizator apparati 3 qismdan tashkil topgan bo’lib, ular quyidagilardan iborat:

Ψ periferik (reseptor) - tashqi quvvatni nerv jarayoniga o’tkazadigan maxsus transformator qismi;

Ψ analizatorning periferik bo’limining markaziy analizator bilan bog’laydigan yo’llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;

Ψ analizatorning periferik bo’limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo’ladigan qobiq osti va qobiq bo’limlari.

Analizatorning qobiq bo’limida reseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o’zak, ya'ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma'lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo’ladi. Analizatorning o’zak qismida reseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo’lib, ko’plab hujayralardan iborat. Mazkur analizatorning periferik, ya'ni tarqalib ketgan qismlari boshqa analizatorlarning o’zaklari bilan yondosh sohalariga kiradi va alohida narsalarni izlash jarayonida butun bosh miya qobiqining katta qismi ishtirok etishiga erishiladi. Analizatorning o’zagi analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi, *masalan,* tovushlarning balandligi. Tarqoq qismlar dag’al analiz funksiyalarni, masalan musiqiy ohang va tovushlarni farqlash bilan bog’liq bo’ladi. Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo’li manbasi va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi reseptordan ta'sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo’llari va effektordan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarning o’zaro munosabati murakkab organizmning tevarak-atrofdagi

olamda to’g’ri mo’ljal olishning organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzdagi faoliyatining negizini ta'minlaydi.

### 20.3. Sezgilarni klassifikatsiyasiga evolyutsion va genetik yondoshuv.

Psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar (ekstroreseptiv, proprioreseptiv, introreseptiv) o’z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

- Ko’rish sezgilari;
- Eshitish sezgilari;
- Hid bilish sezgilari;
- Ta'm bilish sezgilari;
- Teri sezgilari;
- Muskul - harakat (kinestetik);
- Statistik sezgilar;
- Organik sezgilar;

#### Ko’rish sezgilari

Insonlar tomonidan rang va yoruqlikni sezish ko’rish sezgilari orqali amalga oshadi va seziladigan ranglar xromatik va axromatik turlarga bo’linadi. Psixofiziologik qonunga ko’ra yoruqlik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o’tib singanda hosil bo’ladigan rang xromatik ranglar deb atalib, ularga kamalak ranglar, ya'ni qizil, zarg’aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko’k, binafsha tuslarini qamrab oladi. Odatda oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko’rinishlari axromatik ranglar deb nomlanadi.

Ko’rish sezgilarining organi ko’z hisoblanib, u ko’z soqqasi undan chiqib keladigan ko’ruv nervlaridan tashkil topgan bo’lib, ko’z soqqasini tashqi tomirlari va to’r pardalari o’rab turadi. Tashqi pardaning tiniq bo’lmagan oq qismi sklera yoki qotgan qattiq parda deb nomlanadi. Uning old tomoniga joylashgan bir muncha qavariq qismi tiniq mugus parda bo’lib, uning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan uning tovlanishiga qarab, odamlarda ko’z ko’k, qora kabi jilva beradi. Rangdor pardaning o’rta qismida yumaloq tiniq

modda bo’lib, uni qorachiq deb ataymiz va u orqali ko’z ichiga yoruqlik nurlari kiradi.

Ko’zlarning uchinchi pardasi to’r parda deb nomlanib, u ko’z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism ko’z gavqari joylashgan bo’ladi. Yoruqlik nurlari unda to’planib, so’ng sinadi va to’r pardaga narsa yoki jismning aksi, surati tushadi. Ko’z soqqasining gavhari bilan to’r parda o’rtasidagi butun ichki yuzasi shishasimon jism deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo’ladi. To’r parda rang va yoruqlikni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo’lib, unda ko’ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning chekkadagi uchlarida tayoqcha va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko’zini to’r pardasida 130 millionga yaqin tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko’zining to’r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan xromatik, ya'ni kunduzgi ranglar ko’riladi.

Tayoqchalar yoruqlikni yaxshi sezuvchan bo’lib, xira va qorong’u paytlarda o’z funksiyasini bajaradi, axromatik ranglarni aks ettiradi. To’r pardaning eng sezgir joyi - sariq dog’ning asosan, kolbachalar bilan markaziy chuqurchasi hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan ravshanroq ko’ramiz. Obyektga tik qarash natijasida ko’z muskullari unga qaratiladi va aks ettiruvchining sur'ati sariq dog’ga tushadi. Bunday tarzdagi ko’rish to’g’ri ko’rish deyiladi. Odam ko’zi ranglarning taxminan, 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to’lqinlarning ta'sirini sezadi. Uch rangli sezgi nazariyasining asosiy qoidalari 1756-yilda M.V.Lomonosov tomonidan bayon qilingan bo’lsa, 1856-yildan keyin nemis fizigi G.Gelmgols tomonidan uni to’la isbotlab berilgan. Ushbu nazariyaga binoan to’r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element mavjuddir, ulardan birining qo’zg’alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi qo’zg’alishi yashil rang sezgisi va uchinchi qo’zg’alishi binafsha rang sezgisini hosil qiladi. Nazariyaga ko’ra yoruqlik to’lqinlari birdaniga uchta

elementni bir xilda qo’zg’atsa, oq rang sezgisi vujudga keladi. Lekin yorug’lik to’lqinlari ikki yoki uch elementga ta'sir qilsa-yu, ammo bu bir tekis kechmasa, u holda sezuvchi elementlardan har birining qanchalik qo’zg’aluvchanligiga qarab, har xil rang sezgilari namoyon bo’ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg’iz to’r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po’stida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog’liq ekanligi to’g’risida ma'lumotlar mavjuddir. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan tayoqchalarda ko’rish purpuri degan maxsus modda borligi isbotlangan. Ko’zga yoruqlik ta'siri etganda ko’rish purpuri kimyoviy yo’l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo’linadi va mazkur jarayon ko’rish nervini qo’zg’atib, yorug’lik sezgisini hosil qiladi va qorong’ulikda esa purpur funksional holatini qayta tiklaydi.

## Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilari tovushlarni eshitishdan iborat bo’lib, musiqaviy va shovqinli tovushlarni aks ettiradi. Odatda tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi tonli, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topadi. Tonlardan biri asosiy ton hisoblanib, u tovushning balandigini, kuchini belgilaydi, boshqalari keluvchi tovushlar sanalib, ular obertonlar deyiladi. Musiqa asboblaridan taralayotgan tovushlarning o’ziga xosligi fan tilida tembr deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqinlardan (undosh tovushlar) tashkil topgan bo’ladi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo’lib, tashqi quloqlar suprasi bilan eshituv yo’lidan iborat. O’sha quloqlar nog’ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg’acha, sopdan va uzangidan tashkil topgan. Ichki quloq (quloq labirinti) o’zaro birlashmagan uchta bo’lakdan tuzilgan. Tashqi quloq havo to’lqinlarini yig’uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog’ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to’lqinlarini ichki quloqqa uzatadi. O’rta quloq maxsus yo’l orqali og’iz va burun bo’shlig’i bilan tutashgan bo’ladi. Ichki quloqlarning yuqori qismi uchta yarim doira kanaldan, o’rta qismi kameradan va pastki qismi chig’anoqdan tashkil topgan. Ichki quloqlarning uchchala bo’limi endolimfa nomli suyuqlikdan

iboratdir. Ichki quloqlarning asosiy qismi chiqanoqdan iborat bo’lib, uning ichida kortiy organ mavjud, u gumbaz shakliga ega bo’lib, asosida membrana joylashgan. Membrana uzunligi qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat bo’lib, ular tarang tortilgan to’rlarga o’xshaydi. Uning yuqori qismida maxsus, tayoqchasimon hujayralar mavjud va ular kortiy dugalari deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qo’llari bor maxsus hujayralar yordamida korniy dugalari orqali katta yarim sharlar po’stining bo’lagida joylashgan.

Havo to’lqinlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilari hosil bo’ladi. Agar musiqaviy tovushlar havo to’lqinlarining sekin harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinli tovushlar esa ularning notekis harakatlari natijasida yuzaga keladi. Odamning eshitish organi bir sekundda 16 martadan 20000 martagacha tebranishli tovushlarni qabul qiladi.

**Hid bilish sezgilari** hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi burun kavagining yuqori tomoni hisoblanib, bu yerda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan. Ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo’zg’aydi. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo’li bilan ularni qo’zg’atadi. Oddiy gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun havosiga kirib keladi, natijada aks ettirish holati hosil bo’ladi.

## Ta'm bilish sezgilari

Ta'm bilish sezgilari shirin, achchiq, nordon, sho’r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidan tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so’rg’ichlari mavjud bo’lib, ularning tarkibi tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish "kurtaklari"ga ega. Ta'm bilish so’rg’ichlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun uning orqa qismi achchiqni, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani sezadi. Lekin ularning

o’rtasi bo’lsa mazani aks ettira olmaydi. Ta'm bilish so’rg’ichlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari joylashgan, ular ta'm bilish organidagi qo’zg’alishni bosh miyaga uzatib turadi, uning markazlariga yaqin joylashgan.

### **Teri sezgilari**.

Teri sezgilari tarkibi tuyish va harorat turlaridan iborat bo’lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili bu reseptorlarning tarkibi va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidadir.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo’lib, birinchisi tegish va tarqalishini tuyish sezgilari, ikkinchisi esa silliq yoki g’adir-budurni tuyish bilan tavsiflanadi. Odatda tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo’zg’atuvchi kuchayganda siqiq sezgiga aylanadi, u yanada kuchayganda og’riq sezgisiga aylanadi.

Tuyish sezgilari organi teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyish tanachalari deb nomlanuvchi tanachalardan iborat. Tanachalarning ichida va qisman tashqarisida tuyish nervining chekka tarmoqlari mavjud, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan, barmoqlarning uchlarida til uchida labda zich joylashgan, xuddi shu boisdan sezgirlik darajasi boshqalardan yuksakroqdir.

Psixologiyada tuyish tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari zichligi ekstiziometr asbobi yordami bilan o’lchanadi. Asbob keriladigan ikki oyoqli sirkuldan tashkil topgan, bo’lib, uning o’zagidagi darajalar oyoqlarning uchlari o’rtasidagi masofani o’lchaydi.

Tuyish sezgilarining markazi bosh miya po’stining orqadagi markaziy nuqtasida joylashgan deb taxmin qilinadi. Tuyish sezgilarining tashqi, ya'ni fizik sababi bu biron- bir narsalarning teriga bevosita tegishidir.

### Muskul - harakat sezgilari, statik sezgilar

Muskul-harakat sezgilari motor sezgilar deb nomlanib, ularga og’irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari - gavda muskullari, paylar, bo’g’imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi

nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

**Muskul** - harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlaridir.

**Statik sezgilar -** gavdaning fazodagi holatini sezish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi. Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat reseptor vazifasini bajaradi. Vestibulyar apparat quloq dahlizi yarim doira kanallaridan tashkil topgan bo'ladi, sezuvchi nerv tarmoqlari esa gavdaning fazodagi harakatini va holatini boshqaradi. Gavda muvozanatini saqlashda alohida ahamiyat kasb etib, ular endolimfada suzib yuradigan mayda ohaktosh kristallardan tashkil topgan.

**Organik sezgilar**

Organik sezgilarning reseptorlari ichki organlarda, qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda joylashgan bo'ladi. Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgilar reseptorlarining qo'zg'atuvchilaridir.

Ularga quyidagilar kiradi:

*a) og'riq sezgilar;*

*b) chanqoq sezgilari;*

*v) noxush tuyg'ular;*

*g) ochlikni sezish.*

### 20.3. Sezgilarni klassifikasiyasiga evolyutsion va genetik yondoshuv.

Sezgilarning yuzaga kelishi ma'lum qonuniyatlarning asosida yuz beradi. Sezgilar biror bir sezgi a'zosining qo'zg'alishidan hosil bo'ladi. Qo'zg'atuvchi reseptorga ta'sir etishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi. Qo'zg'atuvchi ta'sir eta boshlagandan bir necha vaqtdan keyin sezgi hosil bo'ladi. Lekin sezgilarning har xil turlari faqat o'ziga xosligi bilan emas, balki ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Sezgilarning sifati, jadalligi uzoq davom etishi va ko'p joylarda yuz berishi ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi. Quyida sezgilarning xususiyatlari yaqqol ifodalangan.

**Sifat** - mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi va ayni shu sezgi turi doirasida o'zgarib turadi. Masalan, eshitish sezgisi past-balandligi, mayinligi, zo'rligi bilan farq qiladi va hokazo.

Sezgining jadalligi uning miqdorini ifoda etadigan xususiyat bo'lib, ta'sir kelayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va reseptorning funksional holati bilan belgilanadi. Sezgining davomiyligi uning vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. U ham sezgi a'zosining funksional holati bilan lekin asosan qo'zg'atuvchining ta'sir qilish vaqti va ta'sirning jadalligi bilan belgilanadi. Qo'zg'atuvchi sezgi a'zosiga ta'sir qilishi bilanoq sezgi hosil bo'lmaydi, balki bir oz vaqt o'tgach hosil bo'ladi. Bu sezgining latent (yashirin) davri deb ataladi. Latent davri har xil sezgi turi uchun turlicha, masalan, taktil sezgilari uchun 130 millisekund bo'lsa, og'riq sezgisi uchun 370 millisekundan iborat.

Bilinar - bilinmas sezgi hosil qiluvchi qo'zg'atuvchining minimal kuchi sezgirlikning **quyi chegarasi** deyiladi. Sezgilarning quyi chegarasi analizatorning absolyut sezgirligi darajasini aniqlaydi. Masalan, 1gramm qandni 1 piyola choydagi mazasi uncha sezilmaydi. 0.1 sm qog'ozni qo'l kaftiga qo'yilsa, uning og'irligi sezilmaydi. Sezgi chegarasining me'yori qanchalik kichik bo'lsa, mazkur analizatorning sezgirligi shunchalik yuksak bo'ladi. Ko'rish va eshitish analizatorining sezuvchanligi juda yuksakdir. S.I.Vavilov (1851-1951)ning tajribalarida ko'rsatilganidek, kishining ko'zlari to'r pardagi bor yo'g'i 28 kvant atrofida nur tushgan taqdirda ham yoruqlikni ko'ra oladi. Tim qorong'ulikda 27 kilometr masofada yonib turgan shamni ko'rish qobiliyatiga egamiz. Ayni paytda badanimizga biror narsa tekkanini sezishimiz uchun ko'rish va eshitish sezgilari hosil bo'lishiga sarflanganiga nisbatan, 100-10000000 barovar zid quvvat talab qilinadi. Analizatorning mutlaq sezuvchanligi sezgining faqat quyi emas, balki yuqori chegarasi bilan kifoyalanadi. Sezgining mutlaqo yuqori sezuvchanligi deb qo'zg'atuvchining kuch bilan ta'sir qilishiga aytiladi. Bunda ta'sir ko'rsatayotgan qo'zg'atuvchiga aynan o'xshaydigan sezgi hosil bo'ladi. Bizning reseptorlarimizga ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchilar kuchining yana ham oshishi og'riq sezgisini hosil qiladi. Sezgi a'zolari yordamida u yoki bu qo'zg'atuvchining faqat bor yo

yo’qligini qayd etmasdan, balki qo’zg’atuvchilarning kuchiga va sifatiga qarab farqlay olishimiz mumkin. Sezgilar o’rtasidagi bilanar-bilinmas farqni hosil qiluvchi ikkita qo’zg’atuvchi o’rtasida mavjud bo’lgan minimal farq ajratish chegarasi yoki ayirma chegarasi deb ataladi.

Nemis fiziologi E.Veber (1795-1878) kishining o’ng va chap qo’llarida ko’tarib turgan ikkita narsaning qaysi biri og’irroq ekanligini aniqlay bilish qobiliyatini tekshirar ekan, farq ajratish sezgirligi mutloq emas, balki nisbiyligini qayd etgan edi. Bundan qo’shimcha qo’zg’atuvchining asosiy qo’zg’atuvchiga nisbatan doimiy o’lcham bo’lishi kerak, degan ma'no kelib chiqadi. Jumladan, qo’lda 100 gramm og’irlikdagi yuk turgan bo’lsa yukning bilinar-bilinmas og’irligini payqash uchun og’irlik 3.4 gramm atrofida oshirilishi kerak. Yukning og’irligi 1000 gramm bo’lgan taqdirda esa sezgi hosil qilishida salgina farq sezishi uchun og’irlik 33.3 gramm chamasi oshirilishi kerak. Shunday qilib, ilk qo’zg’atuvchining o’lchami qanchalik katta bo’lsa, unga qo’shimcha ham shunchalik katta bo’lishi lozim.

Farqlanishning boshlanishi mazkur analizator uchun doimiy bo’lgan nisbiy o’lchash bilan belgilanadi. Ko’rish analizatori uchun bu nisbat taxminan $\frac{1}{100}$ ni, eshitish analizatori uchun $\frac{1}{10}$ ni, taktil analizatori uchun, $\frac{1}{30}$ ni tashkil etadi. Bu holatni tajriba yo’li bilan tekshirish uning faqat o’rtacha kuchga ega bo’lgan qo’zg’atuvchilar uchun urinish ekanligini ko’rsatadi.

Nemis fizigi G.Fexner (1801-1887) Veber o’tkazgan tajribalarda olingan ma'lumotlarga asoslanib, sezgilarning jadalligi qo’zg’atuvchining kuchiga bog’liqligini quyidagicha shaklida ifodalangan edi.

$$S = KLg\ j + C$$

Bunda S - sezgining jadalligini, j - qo’zg’atuvchining kuchini, K va C konstantlar o’zgarmas, doimiyligi va miqdorlarni bildiradi. Asosiy psixofizik qonun nomi bilan yuritiladigan qonun quyidagicha izohlanadi. Sezgining jadalligi qo’zg’atuvchi kuchining logarifmiga proporsionaldir. Boshqacha qilib aytganda,

qo'zg'atuvchining kuchi geometrik progressiya yo'li bilan osha borgan taqdirda sezgilarning jadalligi arifmetik progressiya yo'li bilan oshadi. Bu qonun Veber - Fexner qonuni ham deb ataladi. Ayirma sezuvchanlik yoxud farq ajratish sezuvchanligi ham farqlanish chegarasining o'lchamiga nisbatan teskari bog'lanishda bo'ladi; farqlanish chegarasi qanchalik katta bo'lsa, ayirma sezuvchanlik ham shunchalik kam bo'ladi.

Sezgilar chegarasining absolyut me'yori bilan belgilanadigan analizatorning sezgirligi barqaror bo'lmasdan qator fiziologik va psixologik shart-sharoitlar ta'siri ostida o'zgarib turadi. Ushbu shart-sharoitlar orasida adaptatsiya (moslashish) hodisasi alohida o'rin egallaydi.

Adaptatsiya - yoxud moslashuv - sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir.

Adaptatsiya (yoki moslashish) ikki turga bo'linadi:

a) negativ adaptasiya;

b) pozitiv adaptasiya.

Pozitiv adaptatsiyada kuchsiz qo'zg'atuvchi ta'siri ostida sezgirlik oshadi. Ko'rish analizatorida pozitiv adaptatsiya, qorong'ulik adaptatsiyasi deyiladi.

Negativ adaptasiya ikki xil bo'ladi:

a) qo'zg'atuvchining davomiy ta'siridan sezgirlik yo'qoladi. Masalan, qo'limizga yuk qo'yilsa sezamiz, ammo vaqt o'tishi bilan sezmay qolamiz.

b) kuchli qo'zg'atuvchi ta'siridan sezgirlikning susayishi. Masalan, qorong'u xonadan birdaniga chiqib qolsak, avvaliga hech narsa ko'rmaymiz, vaqt o'tishi bilan sezgirlik pasayib biz normal ko'ramiz.

Adaptatsiya teri reseptorlarida tez yuzaga keladi. I.P.Pavlov fikricha, "Adaptatsiya bosh miya po'stloq qismidagi muhofazalovchi tormozlanishi tufayli hosil bo'ladi". Haroratga, hidlarga nisbatan ham adaptasiya bo'ladi.

Sensibilizatsiya - analizatorlarning o'zaro munosabati va mashq qilishi natijasida sezgirlikning kuchayishidir.

Sensibilizatsiyaning adaptatsiyadan farqi:

1. Adaptatsiyada sezgirlik oshadi yoki kamayadi, sensibilizatsiyada esa faqat oshadi;

2. adaptatsiyada sezgirlikning o'zgarishi tashqi chegaralarga bog'liq bo'lsa, sensibilizasiyada psixologik, fiziologik holatlarga bog'liq bo'ladi.

Sinesteziya qo'zg'atuvchining bir analizatorga ta'siri bilan boshqa analizatorga xos sezgining paydo bo'lishidir. Ko'rish, eshitish sinesteziyasi ko'proq uchraydi. Sinesteziyalar har bir shaxs uchun doimiy bo'ladi. Masalan, kompozitorlardan Skrebin, A.F.Lest, N.Rimskiy Korsakovlarda "rangdor eshitish" qobiliyati bo'lgan. Demak, sinesteziya ikki sezgining bir sezgi bo'lib qo'shilishidir. "Masalan, "shirin so'z", "bag'ri tosh". Sezgilar kontrasti qarama-qarshi sifatga ega bo'lgan bir vaqtdagi qo'zg'alish tufayli sezgirlikning o'zgarishidir. Masalan, tinch joyda tovush kuchliroq seziladi. Oqimtir fonda qora rang qoraroq, qoramtir fonda oq rang yana ham och bo'lib seziladi. Odam charchaganda sezgirlik pasayadi. Harakat oshganda sovuqqa sezgirlik o'tkirlashadi. Sezgirlik kasbga ham bog'liq. Masalan, rassomlarda rang sezish, musiqachilarda tovush sezish va shu kabilar.

**Nazorat savollari:**

1. Sezgi tushunchasining mazmunini izohlang?
2. Sezgilarning nerv fiziologik asoslari tushuntirib bering?
3. Sezgining xususiyatlari va tavsifi haqida nimalarni bilasiz?
4. Sezgining shaxsdagi rivojlanish bosqichlari haqida aytib bering?

## GLOSSARIY

**Attraksiya** – (fran. attraktion – qiziqmoq, intilmoq) - kishini boshqa kishi tomonidan qanday qabul qilinishini belgilovchi tushuncha, ya’ni bir kishini ko’rib qolganda, idrok etganda yuz beradigan tafakkur turi.

**Audometr** - (lot. audire - eshitmoq, yunon. metrio-o’lchayman) eshitish sezgisining kuchini aniqlaydigan asbob.

**Agglyutinatsiya** - (lot. agglutinare - yopishtirmoq) bir necha narsalarning ayrim har xil qismlarini olib birlashtirilib, yangi narsa va hodisalarning obrazlariga yaratilgan iborat xayol faoliyati. Mavjud obraz va tasavvur qismlarini bir-biriga “yopishtirib” qo’shish asosida yuzaga keladi. Masalan: suv parisi obrazi.

**Antipatiya -** (yunon. antipotheia-ko’ngilsizlik, xushlamaslik,yoqtirmaslik) biror narsaga yoki kimsaga nisbatan bo’lgan salbiy munosabatdan kelib chiqadigan va uni ifodalaydigan yoqimsiz hissiyot.

**Adaptatsiya -** (lot. adaptaro – moslashmoq) sezgi a’zolari (analizatorlar) ning ta’sirot kuchiga moslashuvi natijasida muayyan sezgirlikning o’zgarishi adaptatsiya hodisasida sezgirlik ortishi yoki kamayishi mumkin. Kuchli ta’sirdan kuchsiz ta’sirga o’tganda sezgirlik asta-sekin ortib boradi, ta’sir kuchayganda esa, sezgirlik, aksincha, kamayib boradi. Adaptatsiya qonuniyati, organik sezgilardan boshqa, barcha sezgilar sohasiga xosdir. U fiziologik, ijtimoiy – psixologik va kasbiy moslashishga bo’linadi.

**Anesteziya -** (yunon anaisthesia-sezgisizlik, sezmaslik) – nerv tizimining kasallanishi oqibatida sezgirlikning yo’qolishi.

**Asteniya -** (yunon. asthenea-holsizlik) kuchli toliqish, sezgirlikning susayishi, kayfiyatning beqarorligi, uyquning buzilishi bilan ifodalanuvchi ruhan sustlik, ojizlik holati. Unga uzoq muddat spirtli ichimlik ichish natijasida hosil bo’ladigan ruhiy sustlik misol bo’ladi.

**Apatiya** - charchash, og’ir his-tuyg’u yoki kasallik oqibatida qiziqishning so’nishi, atrofdagilarga nisbatan befarq bo’lish, ma’yuslik kabi ruhiy holatlar.

**Affekt** - (lot. affektus-ruhiy hayajon, ehtiros) kuchli, tez va jo’shqin kechuvchi, nisbatan qisqa muddatli, his-hayajonli, irodaviy nazorat yo’qotilgan ruhiy holat.

**Afaziya** - (yunon. yuk. phasia-nutq) eshitish a’zolarining sog’lom bo’lgani holda nutq faoliyatining buzilishi. Bosh miya katta yarim sharlari po’stlog’ining shikastlanishi natijasida paydo bo’ladi.

**Bevosita esga tushirish** - narsa va hodisalar, fikrlar, harakatlarni idrok qilgandan keyinoq, oradan vaqt o’tkazmay,esga tushurishdan iborat xotira prsessi.

**Gallyutsinatsiya** - (lot. hallucinatio-alahash, bosinqirash) sezgi aldanishi yo’q narsani bor deb idrok etish. Odatda muayyan tashqi ta’sirlarsiz vujudga keladi. Asosan ko’rish, eshitish gallyutsinatsiyalari mavjud. U psixik kasallarda uchraydi. Real voqeilikdagi narsa va hodisalarning analizatorlarga bevosita ta’sirisiz ongimizda turli obrazlarning xayoliy ravishda paydo bo’lishi.

**Deduksiya** - (lot. deductio-keltirib chiqarmoq) bilish jarayonida umumiy hukmlardan xususiy hukmlarga o’tish orqali mantiqiy xulosa chiqaruvchi tafakkur turi.

**Diqqat -** individning hissiy, aqliy va harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini taqozo etadigan tarzda ongning yo’naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligi. Diqqat ongning bir nuqtaga to’planib,muayyan bir obyektga faol qaratilishidir. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatlar mavjud,

**Diqqatning barqarorligi –** diqqatni uzoq vaqt bir obyektga muttasil, kuchli qarata olishdan iborat ijobiy xususiyati.

**Diqqatning ko’lami** - bir vaqtning o’zida diqqatning bir qancha obyektga qaratilishi imkoniyati.

**Diqqatning to’planganligi** - diqqatning muayyan obyektlar doirasida tez hamda kuchli to’plana olishdan iborat xususiyati.

**Diqqatning taqsimlanishi** – bir paytning o’zida diqqatning bir necha obyektlarga yoki faoliyatga qarata olish imkoniyati.

**Diqqatning ko’chuvchanligi** - faoliyat protsessida diqqatning ongli ravishda bir obyektdan ikkinchi obyektga ko’chirilishi.

**Ixtiyoriy diqqat** - ongimizning obyektga ixtiyorsiz ravishda yo'naltirilsa-da, uning ustida ma'lum vaqt barqaror holda, to'planib turishidan iborat ixtiyoriy diqqat turi.

**Ixtiyorsiz diqqat** – ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishda muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat diqqat turi.

**Parishonxotirlik** - kishining maqsadga qaratilgan, yo'naltirilgan faoliyatining funksional yoki organik buzulishi, diqqatni ma'lum obyektga qarata olmaslik.

**Zavqlanish** - biror-bir mufaqqiyatli ijodiy ishni ko'rish, eshitish, yoki sezish orqali paydo bo'ladigan ruhiy holat.

**Instinkt** (lot. instinctus-ichki mayl, intilish) - organizmning tashqi yoki ichki ta'sirotlar natijasida paydo bo'ladigan murakkab tug'ma harakatlari majmui, murakkab shartsiz refleks (ovqatlanish, himoyalanish, jinsiy instinkt va b.) Odamda instinkt uning ongi bilan boshqariladi.

**Idrok** - sezgi a'zolariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi narsa va hodisalarning kishi ongida yaxlit holda psixik aks ettirishdan iborat psixik jarayon.

**Idrok aniqligi** - idrok obrazlarini idrok qilinayotgan narsalarga qanchalik muvofiq kelish darajasi.

**Idrokning konstantligi** - (lot. constantis-o'zgarmas, doimiy) idrok qilinayotgan narsalarning o'lchami, shakli va rangi ungacha bo'lgan masofani o'zgartirganda ham nisbatan turg'unlik holatining o'zgarmasligi.

**Idroklilik** - idrokning to'liqligi, aniqligi va tezligi kabi ijobiy xususiyatlardan tashkil topgan aql sifati, zehn tezligi.

**Idrok tezligi** - idrok qilinayotgan narsaning sezgi a'zolariga ta'sir qila boshlagan paytdan , to bu narsaning obrazini anglab olgunimizgacha o'tgan vaqt.

**Illyuziya** - (lot. illusio-aldash) borliqning, voqelikning noto'g'ri idrok etilishi, idrokning chalg'ishi. Sezgi a'zolari takomillashganmaganligi natijasidagi qo'rquv.

**Induksiya** - (lot. industio - keltirib chiqarish) juz'iy yoki yakka hollarda umumiyga, ayrim faktlardan umumlashmalarga qarab boradigan induktiv xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur formasi.

**Iste'dod** - shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma layoqatlari yoki boshqacha aytganda shaxsning tabiiy va muayyan ijtimoiy muhit ta'sirida erishgan noyob xislatlari. Biror sohada yuksak darajadagi qobiliyat.

**Iste'dodli bolalar** - o'zini umumiy yoki maxsus iste'dodini namoyon qilgan bolalar. Iste'dodli bolaning aqliy rivojlanishini tashxis qilinib aniqlanadi.

**Ixtiyoriy esda olib qolish** - maxsus mnemik harakatlar, ya'ni asosiy maqsad esda olib qolishdan iborat bo'lgan harakatlar mahsuli.

**Ixtiyorsiz xotira** - biror narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda esda olib qolish va qayta esga tushirish

**Iroda** – kishining o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishi uchun qiyinchiliklarni yengib o'tishiga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'zini-o'zi boshqarishidir.

**Istak** - intilishning maqsadi aniq bo'lmagan holat. Bu maqsadga erishuvning yo'li va vositalarini to'la anglab yetmaslikdan iborat irodaviy holat.

**Ishonchlilik** - obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarni fikran to'g'ri, shak-shubhasiz aks ettirishdan iborat mantiqiy kategoriya.

**Ishontirish -** shaxsga muayyan ta'sir o'tkazish; buning natijasida kishi irodasi va ongidan qat'iy nazar, unda muayyan holat, hissiyot, munosabat vujudga keltiriladi.

**Individuallik** - muayyan shaxsning boshqa shaxslardan ajratib turuvchi, shaxsning o'ziga xos xislatlari.

**Kayfiyat** - inson his-tuyg'usining yaxlit shakli, kechinmalarining umumiy holati. Kayfiyat doirasi har xil; u insonning umumiy kechinmalaridan to zerikish, qo'rquv, xafalik yoki quvnoqlik, umid va qiziqish kabilargacha bo'lgan barcha shakllarni o'z ichiga oladi.

**Kinestezik sezgi -** (yunon. kineo - harakatga keltirmoq) proprioretseptorlar qo'zg'alishi natijasida o'z tana a'zolari harakati va holatini sezish.

**Ko'ruv sezgisi** – ko'ruv analizatori bevosita ta'sir etib turgan ranglar va yorug'likni aks ettirishdan iborat sezgi turi.

**Kuzatish** - shaxsni qiziqtirgan narsalar va tevarak atrofidagi hodisalarni bilish uchun maqsadli va rejali tarzda idrok etish .

**Kuzatish metodi** - faoliyat mahsulini tahlil etish, erkin tavsifnomalarni umumlashtirish usuli.

**Layoqat** – individning ma'lum faoliyatning bajarishga undovchi saylanma yo'nalganligi. Nerv tizimining ba'zi irsiy determinlashgan anatom-fiziologik xususiyati.

**Longityud –** tadqiqot - (ing. longitude - uzoq muddat) insonning yosh va individual o'zgarishlar ko'lamini o'rganish maqsadida yashash davri fazalari o'zgarmas bo'lgan guruhni uzoq va uzluksiz tekshirish usuli.

**Lyusher testi -** ruhiy holatni aniqlovchi rangli test.

**Metod -** (yunon. methodos - tadqiqot, tekshirish) bilishning nazariy va amaliy o'zlashtirish usullari yig'indisi.

**Mexanik xotira** - (yunon. mechane - qurol, mashina) muayyan material ma'nosini, mazmunini, ichki mohiyatini, ichki mantiqiy bog'lanishlariga tushunmagan holda takrorlashga asoslangan xotira turi.

**Mehnatsevarlik** – insonning mehnat faoliyati jarayoniga ijobiy shaxsiy munosabatidan iborat bo'lgan xarakter xususiyati.

**Melanxoliya** (yunon. melas - qora, chole - o't, safro) - temperament turlaridan psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchilik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

**Melonxolik** - Gippokrat ta'limotiga ko'ra, temperamentning bir turi. Yuksak darajadagi ta'sirchanlik va hissiyotning zoxiran nisbatan sust ifodalanganligi.

**Orzu** - shaxsning o'zi uchun yoqimli bo'lgan istiqbol obrazlarini ongida yaratishdan iborat xayol turi.

**Oltinchi sezgi** - odamdagi asosiy besh sezgidan tashqari har xil holatlarda namoyon bo'ladigan sezgi.

**Obrazli xotira** - tasavvur, tabiat va hayot manzaralarini, shuningdek, tovush, hid, ta'mlarni esda olib qolishdan iborat bo'lgan xotira.

**Operativ xotira** - (lot. operatio - harakat) xotira turi. Kishi tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan zaruriy xatti-harakatlar, shularga xizmat qiluvchi mnemik jarayonlar.

**Proprioretseptiv sezgilar -** (lot. proprius - xususiy, maxsus, recipere - qabul qilmoq) tana turli qismlari, holatlari va ularning harakatlari haqida darak beruvchi sezgilar.

**Proyektiv metod -** (lot. progektus - oldinga tashlangan, yunon. Methodos - tadqiqot) shaxsni tadqiq qilish metodlaridan biri. Bu metodda mas. tajriba vaziyatlarida tasvirlar idrok qilinib, uning talqini beriladi.

**Psixodiagnostika -** (yunon. diagnostikos - bilishga qodir) shaxsning induvidual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va ularni o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

**Psixologik test** - qisqa muddatli, yozma savolli topshiriq bo'lib u orqali kishilar qobiliyati, ko'nikma, bilim va malakalari, kasbga layoqati va shu kabilar aniqlanadi.

**Psixologiya metodlari** - psixik hodisalar va ularning qonuniyatlarini o'rganadi. Masalan: kuzatish, tajriba, laboratoriya tajriba, tabiiy kuzatuv, o'z-o'zini kuzatish, biografiya.

**Psixologik tadqiqot usuli** – u to'rt bosqichga bo'linadi. 1.Tayyorgarlik bosqichi 2.Tajriba-sinov bosqichi 3.Tadqiqotga ishlov berish 4.Olingan natijalarni izohlash bosqichi.

**Psixologik metodikalar** - jamoa yoki alohida kishini psixologik o'rganish maqsadida tuzilgan savollar to'plami.

**Psixologik tahlil -** inson psixik faoliyatining psixologik shart-sharoitlari va tarkibini ochib berishdan iborat ilmiy-tekshirish metodlaridan biri.

**Psixik jarayonlar** - bu faoliyatning hozir ta'sir etadigan (sezgi, idrok) yoki qachonlardir yuz bergan qo'zg'atuvchiga javob tariqasida ro'y beradigan shu ta'sirni umumlashtiradigan, ular pirovardida olib keladigan natijalarni (tafakkur xayol) oldindan ko'ra bilishga yordam beradigan, bir xil ta'sirotlar natijasida faoliyat (his – tuyg'u)ni kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, umuman faollashtirib

yoki sekinlashtiradigan, odamlar xulq-atvoridagi tafovutlarni aniqlaydigan boshqaruvchilaridir.

**Psixik reaksiya** - tashqi yoki ichki ta'sirotga javob sifatida paydo bo'ladigan har qanday psixik jarayon.

**Psixologik test** - psixologik standart mashqlar. Bu mashqlarning bajarish natijalariga ko'ra tekshirilayotgan kishining psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek bilim, malaka va ko'nikmalari to'g'risida xulosa chiqariladi.

**Rang sezish -** ko'zning idrok qilinayotgan narsa va hodisalarning rangini ajrata olish qobiliyati.

**Refleks -** (lot. reflexus - aks etish) organizmning retseptorlar qo'zg'alishiga javob reaksiyasi. Vujudga kelgan qo'zg'alish markaziy nerv sistemasiga uzatilgach, u ham qo'zg'alish bilan javob qaytaradi. Qo'zg'alish efferent nervlar orqali turli a'zolarga uzatiladi.

**Refleksiya (in'ioks, tajalliy) -** (lot. reflexus - aks ettirish) subyektning u bilan muloqotga kirishgan sherigi tomonidan qay tarzda idrok etilishini anglab yetishi.

**Retseptor** (lot. recipere - qabul qilmoq) tashqaridan yoki organizm ichki muhitidan ta'ssurotni qabul qilib va uni nerv impulslariga aylantirib, markaziy nerv sistemasiga o'tkazib beradigan sezuvchi nerv tolalari uchlari yoki maxsus hujayralar (ko'z to'r pardasi, ichki quloq va b.)

**Raddiya -** tafakkurning turli operatsiyalari hamda formalaridan foydalangan holda biror fikrning yolg'on ekanligini isbotlashdan iborat bo'lgan mantiqiy operatsiya.

**Subyekt -** (lot. subgestum - odam, kishi) obyektiv dunyoni biluvchi, uni o'zining ehtiyoj va qiziqishlariga moslab o'zgartiradigan ongli mavjudot.

**Sotsializatsiya** (lot.societas-jamiyat) - o'zaro munosabatlar tizimi bilan psixologik qovushuvchanlikning aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

**Sotsiometriya usuli** – o'zaro munosabatlari va psixologik moslashuvini aniqlash, guruh, jamoani shaxslararo munosabatlarini psixologik tekshirish va tahlil qilish usuli. (J.Moreno).

**Statistik metod** - (lot. status-holat, yunon. methodos - tadqiqot) o'tkazilgan tadqiqot natijalarini miqdoriy hisoblab chiqish usuli.

**Suhbat** - psixologiyaning og'zaki muloqot qilish yo'li bilan to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita ma'lumot olish jarayonidir. Suhbat yordamida shaxsning qiziqishlarini, dunyoqarashini, e'tiqodini, nutqiy xususiyatlarini va boshqa sifatlarini o'rganilishi mumkin.

**Sezgilar** – obyektiv reallik xossalarining ini'kosi, ana shu xossalarning sezgi organlariga ta'siri va bosh miya nerv mexanizmlarini qo'zg'atishi natijasida vujudga keladi. Sezgi - dunyoning bilishning boshlang'ich nuqtasi. Sezgi turlari har xil: tuyish, eshitish, silkinish, hid bilish va b. Sezgining sifat xususiyatlari uning modalligi deyiladi.

**Sezgi a'zolari** – sezuvchi nerv hujayralari va qo'shimcha tuzilmalardan tuzilgan ko'rish, eshitish, gravitatsiya, hid bilish, ta'm bilish a'zolari.

**Sezgi chegarasi -** minimal kuchga ega bo'lgan qo'zg'ovchining bilinar-bilinmas ta'sirini sezishning quyi chegarasi, eng yuqori kuchi ta'sirni sezishi (maksimal) yuqori chegarasi deyiladi.

**Senzitivlik** - (lot. sensus - hissiyot) sezgilarning turli xil ta'sirotlarga nisbatan kuchli va tez qo'zg'alishi.

**Senzitiv yosh davrlari -** bunda ma'lum yosh davri, xos psixik xususiyat va jarayonlar, yuqori darajada yaxshi hisoblanadi.

**Sensibilizatsiya -** (lot. sensibilis - sezuvchan, ta'sirchan) ichki omillar qo'zg'atgich ta'sirida nerv analizatorlari sezgirligining oshishi.

**Sentimentalizm -** (fr. sentimentalisme - sezuvchanlik) sensor sezgirlikdan farq qiluvchi haddan tashqari emotsional sezgirlik, narsa va hodisalarga o'ta emotsional munosabatda bo'lishi.

**Sensor sezgilar -** (lot. sensus - sezgi, his) sezgi a'zolariga tegishli bo'lgan sezgilar.

**Sensor buzilish** – sezgi a'zolari faoliyatining buzilishi.

**Sensorika** – sezgi va idrokning birgalikda umumlashtiruvchi tushuncha.

**Stress** (ing. stress - zo'riqish) – to'satdan va kuchli ta'ssurot natijasida hosil bo'ladigan ruhiy zo'riqish holati.

**Sangvinik** – (yunon. sanguis - qon) ruhan kuchli, faol, harakatchan, tez va yorqin qiyofali, hissiyoti o'zgaruvchan, nutqi tez, ba'zan e'tiborsiz va shoshiluvchan bo'lgan temperament turi. Sangvinik inson dilkash va mehribon bo'ladi.

**Sangvinik temperament - (**lot. sanguis - qon, temperamentum - qismlarning zaruriy nisbati) shaxsning tez, kuchli lekin beqaror emotsional qo'zg'aluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

**Temperament (mijoz) -** (lot. temperamentum - qorishma, aralashma) individning psixik faoliyati (sur'ati, ritmi, psixik jarayon va holatlar jadalligi)dagi dinamik xususiyatlar jihatidan uning tavsifi. Asosiy komponentlari individning umumiy harakatchanligi, motorikasi (harakatlar ko'rinishi) va emotsionalligi.

**Taktil sezgilar -** teri sezgilarining biror narsaning badanga tekkanini, bosilganini, tebranishini aks ettirishdan iborat turi.

**Ta'm -** sezgi turi (shirin, achchiq, chuchuk, tuzli). Analizatorlar til o'zagidagi nerv tugunlari hamda bosh miya po'stloq qismidagi ta'm markazidir.

**Tabiiy eksperiment -** (lot. experimenum - sinov, tajriba) o'yin, mehnat va o'quv faoliyatini tekshiriluvchiga sezdirmasdan psixologik o'rganish usuli.

**Tahlil** - tafakkur qilish usuli, bunda murakkab obyektlar qismlarga bo'lib o'rganiladi.

**Test -** (ing. test - tekshirmoq) psixologik standart sinov. Bu sinov natijalariga ko'ra sinalayotgan shaxsning to'liq yoki ayrim psixofiziologik xususiyatlari, shuningdek, bilim, malaka, ko'nikmalari to'g'risida xulosa chiqariladi.

**Tasavvur** - oldin shakllangan manzaralar asosida tuzilgan obrazlarning psixik akslanish shakli. Tasavvur faqat insonga xos. Tasavvur sezgi va idrok bilan uzviy bog'liq, lekin, ulardan farq qilib, ancha umumlashgan xarakterga egadir.

**Talant** - (yunon. talanton - qimmatbaho, qimmat narsa) qobiliyatlar, ayniqsa maxsus qobiliyatlar rivojlanishining yuqori darajasi. Talantli kishi ishga ijodiy yondashadi. Muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijobiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat, talantli kishilar, odatda, yuksak ijodiy, keng mazmunli, tanqidiy va mahsuldor aql egalari bo'ladilar.

**Tafakkur -** inson aqliy faoliyatining yuksak shakli. Sezgi, idrok va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsalarni ongli ravishda aks etish mumkin. Fikr yuritish, o'ylash, jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga ijtimoiy jihatdan bog'liq, aloqador psixik jarayon. Shuningdek, uning tahlili va sintezida voqelikni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi. Intuitiv, ko'rgazmali - obrazli, amaliy, so'zli-mantiqiy, ijodiy, nazariy tafakkur turlari mavjud.

**Tafakkur** - inson aqliy faoliyatining yuksak bosqichi. Sezgi, idrok, va tasavvurlar orqali bevosita bilib bo'lmaydigan narsa va hodisalar tafakkurda ongli ravishda aks etadi.

**Tush (odam uxlaganida)** - bosh miya yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'ladigan xayolning ixtiyorsiz faoliyati, ong bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqa ma'lum darajada uziladi.

**Unutish** - oldin xotirada bo'lganni qayta tiklanmaslik,ya'ni esga qoldirgan narsa va hodisalarning zarur paytda aytib bera olmaslik jarayoni.

**Fenomenal xotira -** idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanishi munosabatlarini favqulotda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishdan iborat nodir xotira qobiliyati.

**Fazoni idrok qilish** - voqelikdagi narsa va hodisalarning fazoda tutgan o'rnini, shaklini, miqdorini uch o'lchov asosida (balandlik, kenglik, uzunlik) bevosita aks ettirish.

**Flegmatik -** (yunon. flegma – balg'am, shilimshiq modda) yuragi keng, barqaror intilish va kayfiyatga, doimiy va chuqur his-tuyg'ularga, xatti-harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiluvchi temperament turi.

**Flegmatik temperament** - sekin, kuchsiz, va beqaror emotsional qo'zg'aluvchanlik bilan xarakterlanadigan xususiyat.

**Xotira** - o'tmish tajribalarini esga tushirish qobiliyati, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlab ong va xatti-harakatlar sohasiga ko'p martalab joriy eta olishdan iborat nerv tizimining xususiyatlaridan biri. U esda qolish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlariga ajratiladi. U ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira, bevosita va bavosita xotira, qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiralarga ajratiladi. Xotiraning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari qobig'ida muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bo'lishi, mustahkamlanishi va keyinchalik faollashuvidir.

**Xarakter -** (yunon. charakter - nishon, xislat belgi) kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning induvidual birligi. Odamning xatti-harakatlari va atrof-muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan shaxsiy psixik xususiyatlari yig'indisi. Xarakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar xarakter xislatlari deyiladi.

**Xarakter aksentuatsiyasi -** (yunon. charakter - xususiyat, nishon, belgi, akcentus - urg'u) xarakterning alohida xususiyatlariga ortiqcha urg'u berilishi.

**Xarakterning ma'naviy sifatlari -** odamoshavandalik, samimiylik, rostgo'ylik, gumanizm, mehribonlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, o'z qadr qimmatini bilishlik kabilardan iboratdir.

**Xarakter xislatlari -** ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topgan, shaxsning xatti-harakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlari yig'indisi.

**Xolerik -** (yunon. chole - safro, sariq o't) temperament turi, u hissiyotning jo'shqinligini, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

**Xudbinlik -** kishining faqat o'z manfaatini ko'zlovchi salbiy xarakter xislati, boshqalar manfaati bilan hisoblashmaslik.

**Xayol -** mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol va tasavvur xayol turlariga ajraladi.

**Xayolparast -** (yunon. phantasia - tasavvur, xayol) kishining voqea, dalillarini asta-sekin buzib, ularni o'z xohishiga qarab fikr-xayoliga moslab tasvirlab berishi.

**Eksperiment metodi** – yangi psixologik bilimga ega bo'lish uchun obyektiv tarzda ilmiy bilishning asosiy vositasi. U laboratoriya va tabiiy eksperiment metodlarga bo'linadi.

**Empirik metod -** (yunon. emperia - tajriba, methodos - tadqiqot) tekshiriluvchi haqidagi ma'lumotlarni tajribaga asoslanib, amaliy tajribalar bilan aniqlash usuli.

**Eksteroretseptiv sezgilar** – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi, tana sirtida joylashgan retseptorlar, sezgilar. Masalan: ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar.

**Esga olib qolish -** yangi qabul qilingan ma'lumotlarni oldin egallangan bilim va tajribalar bilan bog'langan holda esda saqlashga qaratilgan psixik faoliyat.

**Esga tushirish** – o'tmishda idrok qilinganlarni (narsa, his-tuyg'u, fikr, ish, xatti-harakat) ongimizda qayta tiklashdir. Xotira jarayonlaridan biri.

**Eshitish xotirasi** - tovush qo'zg'ovchilarini sezish, idrok qilish natijasida hosil bo'lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

**Emotsiya** - (lot. emovere - uyg'otish, to'lqinlashtirish) his tuyg'u, kechinma, hayajon (g'azab, qo'rquv, quvonch). Odam yoki hayvonlarning subyektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

**Emotsionallik** – kishining his-tuyg'u va emotsiya dinamikasi, mazmunini xarakterlovchi sifatlari.

**Eshitish sezgisi** – tovush tebranishlarini eshitish a'zolari yordamida sezish turi. Eshituv analizatorlariga bevosita ta'sir etayotgan shovqinli hamda musiqali tovush to'lqinlarining alohida belgi va sifatlarini aks ettirishdan iborat sezgi turi.

**Egotizm -** (lot. ego - men) xudbinlik bo’lib, shaxsning o’z qiziqishlari va ehtiyojlarini boshqa shaxs bilan qiziqmay, uning  ehtiyoj va qiziqishlaridan ustun qo’yish.

**Qobiliyatlar** - u yoki bu unumli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko’nikma va malakalarini egallay olishni ta’minlaydigan shaxsning individual - psixologik xususiyatlari.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 6(766)-son. – 70-modda. – B.25-151.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida” PF-2909-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 18(778)-son. – 313-modda. – B.18-24.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 23(783)-son. – 455-modda.– B.47-69.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz / - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.

6. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi mta’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b. A.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.Usmanova, I.Haydarov. Umumiy psixologiya. T. 2018.

7. Anne Anastasi, Susana Urbina. Psychology Testing. - Prentice-Hall International, Inc. 2000.

8. Bodalev A.A, Stolin V.V. Obshaya psixodiagnostika. SPb.: Rech, 2005.

9. Davletshin M.G., To’ychiyev S.M. Umumiy psixologiya. T.:TDPU, 2012.

10. Umarov B.M. Psixologiya.T., 2012.

11. Solso R. Kognitivnaya psixologiya. - M.: 2002.

12. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

13. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2010.

14. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.: Sharq. 2000.

15. Klimov Y.A. “Obshaya psixologiya”. – Cpb., Piter, 2001

16. V.A.Kruteskiy. "Pedagogik psixologiya asoslari".- T.: O’qituvchi.1986.

17. Radugina A.A. Pedagogika i psixologiya. - M., 2007.

18. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii. - Spb: Piter, 2007.

19. Rasulov A.I. Psixodiagnostika.-Toshkent, “Mumtoz so’z”-2010.

20. Nemov.R.S.Psixologiya. Kniga1, 2,3. Vlados.: 2000.

21. Nemov R.S. Psixologiya. M.: Vlados, 2003. 1-2-t.

22. Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash.- T. Fan.2003.

23. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.

24. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. T., 2006

25. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.

26. M.G.Davletshin va boshqalar "Yosh davrlar va va pedagogik psixologiya" T.TDPU. 2009.

27. Ivanov F.I, Zufarova M.E. Umumiy psixologiya.T., 2018.

28. G’oziyev E.G’. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. - T.: “Universitet”, 2003.

29. G’oziyev E.G’. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2010.

30. G’oziyev E.G’. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent, 2010.

31. G’oziyev E.G’. Sotsial psixologiya. “Noshir” nashriyoti 2012.

32. G’oziyev E.G’. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1997.

33. Shmelev A.G. Osnovi psixodiagnostiki - Uchebnoe posobie dlya studentov pedvuzov. - Moskva, Rostov-na-Donu: “Feniks”, 1996.

## Internet saytlari

34. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi hukumati portal.

35. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari mta’lumotlari milliy bazasi.

36. www.psixologiya.uz

37. www.pedagog.uz

38. www.ziyonet.uz

39. www.edu.uz

40. www.psychology.uz

| MUNDARIJA | |
|---|---|
| **KIRISH……………………………………………………………………..** | **3** |
| **1-MAVZU. YANGI DAVR VA PSIXOLOGIYA……………………........** | **4** |
| 1.1. Psixologiya sohasida XX asrda erishilgan yutuqlar…………………….. | 4 |
| 1.2. Fanda yuzaga kelgan yangi yo‘nalishlar va yangicha yondoshuvlar……. | 5 |
| 1.3. Sinergetik va akmeologik yondashuvlar……………………………… | 9 |
| **2-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING DOLZARBLIGI……………...** | **12** |
| 2.1.Globalizasiya sharoitida psixologiya o‘rganadigan muammolarning dolzarbligi. ……………………………………………………………... | 12 |
| 2.2. Insonni o‘rganishning ahamiyati....................................................... | 13 |
| **3-MAVZU. SPORT PSIXOLOGI FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI………………………………………………………….** | **15** |
| 3.1.Sport psixologining statusi va etikasi. ………………………………... | 15 |
| 3.2.Bo‘lg‘usi psixologda muomala uslubini shakllantirish………………….. | 18 |
| 3.3. Psixolog muomalasining tuzilishi va shakllari. ………………………… | 20 |
| 3.4. Psixolog ixtisosning asosiy qurollari va psixotexnikasi. ……………… | 22 |
| **4-MAVZU. SPORT PSIXOLOGI TADQIQOTCHISINING FAOLIYATI OLDIGA QO‘YILADIGAN ASOSIY TALABLAR………** | **25** |
| 4.1. Psixologning ixtisoslikka o‘z o‘zini-o‘zi tayyorlashning mazmuni va shakli. ………………………………………………………………….. | 25 |
| 4.2.Psixologiya institutlari ilmiy faoliyatining xarakteristikasi (Sport federatsiyalari, olimpiya zahiralar kelejjlari, ilmiy muammoli laboratoriyalari). ……………………………………………………….... | 26 |
| **5-MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI…………………..** | **29** |
| 5.1. Psixologiya fanining predmeti va uning fanda asoslanishi. …………….. | 29 |
| 5.2. Psixikaning zamonaviy va klassik ta’riflari. …………………………… | 30 |
| 5.3. Psixik jarayonlarning namoyon bo‘lish shakllari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik………………………………………………………….. | 33 |
| **6- MAVZU. PSIXOLOGIYANING TARMOQLARI……………………** | **36** |
| 6.1 AQSH va RFdagi mavjud ba’zi psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi…... | 36 |
| 6.2.Bizning sharoitimizda rivoj topayotgan va amaliy tus kasb etayotgan psixologiya tarmoqlarining qisqacha tavsiflari. ……………………………... | 46 |
| **7- MAVZU. PSIXOLOGIYA FANINING METODLARI………………** | **48** |
| 7.1. Psixologiya fanining asosiy metodlari. ………………………………… | 48 |
| 7.2. Kuzatish metodi va uning qisqacha tasnifi. …………………………….. | 53 |
| 7.3.So‘rov metodi va uning klassifikasiyasi. ……………………………….. | 60 |
| 7.4.Psixologik testlar va ularning turlari. …………………………………… | 62 |
| 7.5.Psixologik eksperiment va uni tashkil etish…………………………..... | 63 |
| 7.6.Modellashtirishlarning psixologiyalashtirilishi. ………………………… | 64 |
| **8-MAVZU. NERV SISTEMASINING TUZILISHI**…………………….... | **66** |
| 8.1.Nerv hujayrasi, uning o‘simtalari va ularni qoplovchi pardalar. ………... | 66 |
| 8.2.Diffuz nerv sistemasi. …………………………………………………… | 68 |
| **9- MAVZU. MARKAZIY NERV SISTEMASI…………………………...** | **70** |

| | |
|---|---|
| 9.1.Bosh miya. Orqa miya. Ketingi miya. O‘rta miya. Oraliq miya. Oldingi miya. Uzunchoq miya, Varoliy ko‘prigi va miyacha. To‘rt tepalik, qizil yadro va miyaning boshqa bta’zi bir uchastkalari. ………………………… | 70 |
| 9.2. Vegetativ markazlar. Miya dastasi. Oldingi miyaning o‘ng va chap yarim sharlari. Bosh miya yarim sharlari po‘stining yuza qismlari. ……….. | 73 |
| **10- MAVZU. PSIXIKA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA..................** | **77** |
| 10.1. Psixologiya predmeti haqidagi tasavvurlar rivojlanishining asosiy bosqichlari. ......................................................................................... | 77 |
| 10.2.Psixologiyaning falsafa doirasida rivojlanishi. .................................... | 78 |
| 10.3. Jonli va jonsiz tabiatda aks ettirish shakllari. ....................................... | 79 |
| 10.4. Onglilik va ongsizlik. .................................................................... | 80 |
| **11-MAVZU. INSON PSIXIKASINING IJTIMOIY-TARIXIY TABIATI……………………………………………………………….** | **82** |
| 11.1.Mehnat faoliyat xususiyati: jamoviy va boshqalar. ……………………. | 82 |
| 11.2. Ehtiyojlarning vujudga kelishi. ……………………………………….. | 83 |
| 11.3. Individ, sub‘ekt, shaxs, individuallik tushunchasi. …………………… | 86 |
| **12-MAVZU. PSIXIK JARAYONLARNING VUJUDGA KELISHIDA NUTQNING AHAMIYATI…………………………………………………...** | **89** |
| 12.1. Mehnat faoliyatida nutqning vujudga kelishi va rivojlanishi…………. | 89 |
| 12.2 Nutq funksiyalari. …………………………………………………… | 94 |
| 12.3 Nutqli va nutqsiz muomala……………………………………………... | 96 |
| 12.4 Muomala tuzilishi. ……………………………………………………... | 97 |
| **13-MAVZU. ONTOGENEZDA INSON PSIXIKASINING RIVOJLANISHI..........................................................................................** | **100** |
| 13.1. Ijtimoiy-tarixiy tajribada shaxs va ongning vujudga kelishi. ................ | 100 |
| 13.2. Intereorizatsiya va ekstereorizatsiya tushunchalari…………………… | 102 |
| 13.3. Subyekt ijodiy faoliyat natijalari. ……………………………………... | 103 |
| **14- MAVZU. FAOLIYAT HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA………...** | **107** |
| 14.1.Faoliyat tuzilishi psixologik xususiyatlarini tadqiq etish. ……………... | 107 |
| 14.2.Faoliyat predmetliligi……………………………………………………... | 111 |
| 14.3. Orientirlangan va bajaruvchi faoliyat, individual va hamkor, ijodiy va ijodsiz faoliyat. ……………………………………………………….. | 116 |
| **15-MAVZU. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI…………………………………………………………** | **120** |
| 15.1.Shaxs ijtimoiy ta’sirlar mahsuli sifatida. “Shaxs” tushunchasi. “Homo sapiens” – “aqlli zot” tushunchalari. ……………………………………… | 120 |
| 15.2. Shaxsdagi sog‘lom e‘tiqod va mafkuraviy tasavvurlarning shakllanishi. | 124 |
| 15.3.Shaxs ijtimoiylashuvining asosiy mezonlari. Ijtimoiylashuv yoki sosializasiya jarayoni. Ijtimoiy institutlar. ……………………………….. | 130 |
| 15.4.Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs hayotiy yo‘nalishining shakllanishi. Shaxs yo‘nalganligining eng muhim tarkibiy qismlari. …………………….. | 134 |
| **16-MAVZU. CHET EL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS NAZARIYALARI…………………………………………………….....** | **138** |
| 16.1. Shaxsni o‘rganishga turlicha yondashuvlar. …………………………… | 139 |

| | |
|---|---|
| 16.2. Jahon psixologiyasida shaxs nazariyalari……………………………… | 139 |
| 16.3.Z.Freyd maktabi………………………………………………………… | 143 |
| 16.4. Sobiq sovet psixologiyasida shaxs ta'rifi……………………………. | 146 |
| **17-MAVZU. SHAXS RIVOJLANISHINING INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING ROLI……………………………** | **149** |
| 17.1.Individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifatida. ………………………………………………………………… | 149 |
| 17.2. Insonlar orasida individual farqlarni o‘rganishning evolyusion sohasi. ……………………………………………………………………….. | 151 |
| 17.3 Inson shaxsi va individuallik xususiyatlari. …………………………… | 153 |
| 17.4 Hayot tarzi, inson individual xususiyatlari, hamkorlik faoliyati-shaxs rivojlanishining asoslari………………………………………………… | 156 |
| **18-MAVZU. BILISH JARAYONLARINING QISQACHA TASNIFI………………………………………………………………..** | **159** |
| 18.1. Bilish jarayonlari va professional faoliyat. …………………………… | 159 |
| 18.2. Bilish jarayonlari va ularning qisqacha tasnifi. …………………….. | 162 |
| 18.3. Psixik jarayonlar, psixik xususiyat, psixik holatlar tushunchasi……… | 163 |
| **19-MAVZU. SEZGI VA IDROK PSIXIK JARAYONLARNING BOSHLANG‘ICH HOLATI EKANLIGI………………………………** | **168** |
| 19.1. Muhitning fiziologik xarakteristikasi. ………………………………… | 168 |
| 19.2. Sezgi tushunchasiga falsafiy yondoshuvlar. …………………………... | 170 |
| 19.3. Sezgi borasidagi nazariyalar…………………………………………… | 171 |
| 19.4. Sezgining reseptor va reflektor nazariyasi. ……………………………. | 175 |
| **20-MAVZU. SEZGILARNI KLASSIFIKASIYASI……………………** | **180** |
| 20.1. Interoseptiv, eksteroseptiv va proprioseptiv sezgilar va ularning inson xatti harakatidagi o‘rni…………………………………………………. | 180 |
| 20.2. Sezgilarning nerv - fiziologik asoslari………………………………… | 183 |
| 20.3. Sezgilarni klassifikasiyasiga evolyusion va genetik yondoshuv. ……... | 185 |
| **GLOSSARIY……………………………………………………………** | **201** |
| **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI…………………...** | **214** |

СОДЕРЖАНИЕ


| | |
|---|---|
| **ПРЕДИСЛОВИЕ.........................................................................................** | **3** |
| **ТЕМА 1. НОВАЯ ЭРА И ПСИХОЛОГИЯ………………………………** | **4** |
| 1.1. Достижения в области психологии в XX веке……………………… | 4 |
| 1.2. Новые направления и новые подходы, возникшие в науке………….. | 5 |
| 1.3. Синергетический и акмеологический подходы……………………....... | 9 |
| **ТЕМА 2. АКТУАЛЬНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ………** | **12** |
| 2.1. Актуальность проблем, которые изучает психология в условиях глобализации……………………………………………………………….. | 12 |
| 2.2. Важность изучения человека………………………………………… | 13 |
| **ТЕМА 3. ОСОБЕННОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПОРТИВНОГО ПСИХОЛОГА……………………………………………………………..** | **15** |
| 3.1. Статус и этика спортивного психолога……………………………… | 15 |
| 3.2. Формирование стиля поведения у будущего психолога……………… | 18 |
| 3.3. Структура и формы обращения психолога…………………………… | 20 |
| 3.4. Психолог основное оружие и психотехника специальности………… | 22 |
| **ТЕМА 4. ОСНОВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИССЛЕДОВАТЕЛЯ СПОРТИВНОГО ПСИХОЛОГА………………** | **25** |
| 4.1.Содержание и форма самостоятельной подготовки психолога к специализации…………………………………………………………….. | 25 |
| 4.2. Характеристика научной деятельности институтов психологии (спортивные федерации, колледжи олимпийского резерва, научные проблемные лаборатории)……………………………………………….. | 26 |
| **ТЕМА 5. ПРЕДМЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ……………..** | **29** |
| 5.1.Предмет психологии и ее обоснование в науке…………………… | 29 |
| 5.2. Современные и классические определения психики……………….. | 30 |
| 5.3.Формы проявления психических процессов и взаимосвязь между-ними………………………………………………………………………… | 33 |
| **ТЕМА 6. ОТРАСЛИ ПСИХОЛОГИИ……………………………………** | **36** |
| 6.1.Классификация некоторых психологических сетей, существующих в США и РФ……………………………………………………………………. | 36 |
| 6.2.Краткая характеристика отраслей психологии, которые развиваются и приобретают практический характер в наших условиях………………... | 46 |
| **ТЕМА 7. МЕТОДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ НАУКИ…………………** | **48** |
| 7.1. Основные методы психологической науки……………………....... | 48 |
| 7.2. Метод наблюдения и его краткая классификация…………………… | 53 |
| 7.3. Метод опроса и его классификация…………………………………....... | 60 |
| 7.4. Психологические тесты и их виды……………………………………... | 62 |
| 7.5. Психологический эксперимент и его организация………………….... | 63 |
| 7.6. Психологизация моделирования……………………………………….. | 64 |
| **ТЕМА 8. СТРОЕНИЕ НЕРВНОЙ СИСТЕМЫ…………………….....** | **66** |
| 8.1. Нервная клетка, ее придатки и покрывающие их оболочки……….. | 66 |
| 8.2. Диффузная нервная система…………………………………………… | 68 |

| | |
|---|---|
| **ТЕМА 9. ЦЕНТРАЛЬНАЯ НЕРВНАЯ СИСТЕМА……………………** | **70** |
| 9.1.Головной мозг. Спинной мозг. Иди мозг. Средний мозг. Промежуточный мозг. Передний мозг. Продолговатый мозг, Варолиевый мост и мозжечок. Четыре холма, красное ядро и еще несколько участков мозга……………………………………………….. | 70 |
| 9.2. Вегетативные центры. Ствол мозга. Правое и левое полушария переднего мозга. Поверхностные отделы коры больших полушарий головного мозга…………………………………………………….. | 73 |
| **ТЕМА 10. ОБЩЕЕ ПОНЯТИЕ О ПСИХИКЕ.....................................** | **77** |
| 10.1 Основные этапы развития представлений о предмете психологии.... | 77 |
| 10.2. Развитие психологии в рамках философии...................................... | 78 |
| 10.3.Формы отражения в живой и неживой природе................................ | 79 |
| 10.4.Сознательность и бессознательность................................................ | 80 |
| **ТЕМА 11. СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ПСИХИКИ ЧЕЛОВЕКА…………………………………………………………….** | 82 |
| 11.1. Характер трудовой деятельности: общинный и др………………… | 82 |
| 11.2.Возникновение потребностей………………………………………….. | 83 |
| 11.3. Понятие индивида, субъекта, личности, индивидуальности……… | 86 |
| **ТЕМА 12. ЗНАЧЕНИЕ РЕЧИ В ВОЗНИКНОВЕНИИ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ……………………………………………..** | **89** |
| 12.1. Возникновение и развитие речи в трудовой деятельности………… | 89 |
| 12.2. Речевые функции…………………………………………………....... | 94 |
| 12.3. Речевое и неречевое обращение……………………………………… | 96 |
| 12.4. Структура обращения………………………………………………… | 97 |
| **ТЕМА 13. РАЗВИТИЕ ПСИХИКИ ЧЕЛОВЕКА В ОНТОГЕНЕЗЕ......** | 100 |
| 13.1. Возникновение личности и сознания в социально-историческом опыте........................................................................................................ | 100 |
| 13.2. Понятия интереоризации и экстереоризации……………………… | 102 |
| 13.3. Результаты творческой деятельности субъекта…………………… | 103 |
| **ТЕМА 14. ОБЩЕЕ ПОНЯТИЕ О ДЕЯТЕЛЬНОСТИ…………………** | **107** |
| 14.1. Исследование психологических особенностей структуры деятельности……………………………………………………………. | 107 |
| 14.2. Предметность деятельности……………………………………….. | 111 |
| 14.3. Ориентированная и исполнительная деятельность, индивидуальная и партнерская, творческая и не творческая деятельность………………… | 116 |
| **ТЕМА 15. ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТИ И ОБЩЕСТВА В ПСИХОЛОГИИ………………………………………………………..** | **120** |
| 15.1.Личность как продукт социальных воздействий. Понятие "личность". Понятия” человек разумный “ – ” разумная порода"……….. | 120 |
| 15.2.Формирование у личности здоровых убеждений и идеологических представлений……………………………………………………………….. | 124 |
| 15.4.Основные критерии социализации личности. Социализация, или процесс социализации. Социальные институты………………………… | 130 |
| 15.5.Формирование жизненного курса личности в процессе | 134 |

| | |
|---|---|
| социализации. Важнейшие составляющие ориентации личности……….. | |
| **ТЕМА 16. ТЕОРИИ ЛИЧНОСТИ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПСИХОЛОГИИ……………………………………………………………..** | **138** |
| 16.1. Различные подходы к изучению личности………………………… | 139 |
| 16.2. Теории личности в мировой психологии………………………….. | 139 |
| 16.3. Z.Школа Фрейда……………………………………………………….. | 143 |
| 16.4. Определение личности в постсоветской психологии……………….. | 146 |
| **ТЕМА 17. ОСОБЕННОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ…………………………………………..** | **149** |
| 17.1. Особенности индивидуальности как предмета дифференциальной психологии………………………………………………………………… | 149 |
| 17.2. Эволюционная область изучения индивидуальных различий между людьми………………………………………………………………………... | 151 |
| 17.3. Особенности личности и индивидуальности человека……………… | 153 |
| 17.4. Образ жизни, индивидуальные особенности человека, совместная деятельность-основы развития личности……………………………….. | 156 |
| **ТЕМА 18. КРАТКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПОЗНАНИЯ……………………………………………………………….** | **159** |
| 18.1. Познавательные процессы и профессиональная деятельность…….. | 159 |
| 18.2. Процессы познания и их краткая классификация………………….... | 162 |
| 18.3. Понятие психических процессов, психической особенности, психических состояний…………………………………………………… | 163 |
| **ТЕМА 19. ТО, ЧТО ОЩУЩЕНИЕ И ВОСПРИЯТИЕ ЯВЛЯЮТСЯ ИСХОДНЫМ СОСТОЯНИЕМ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ……** | **168** |
| 19.1. Физиологическая характеристика среды…………………………... | 168 |
| 19.2. Философские подходы к понятию интуиции……………………… | 170 |
| 19.3. Теории о интуиции……………………………………………………... | 171 |
| 19.4. Рецепторная и рефлекторная теория ощущений…………………….. | 175 |
| **ТЕМА 20. КРАТКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПОЗНАНИЯ……………………………………………………………….** | 180 |
| 20.1.Познавательные процессы и профессиональная деятельность……… | 180 |
| 20.2. Процессы познания и их краткая классификация…………………… | 183 |
| 20.3.Понятие о психических процессах, психической особенности, психических состояниях……………………………………………………….. | 185 |
| **ГЛОССАРИЙ.........................................................................................** | 201 |
| **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ...................................** | 214 |

## CONTENTS


| CONTENTS | |
|---|---|
| WORD HEAD........................................................... | 3 |
| **1-SUBJECT. NEW ERA AND PSYCHOLOGY....................................** | **4** |
| 1.1. Achievements in the XX century in the field of psychology................ | 4 |
| 1.2. New directions in science and new comrades...................................... | 5 |
| 1.3. Synergistic and acmeological approaches........................................... | 9 |
| **2-SUBJECT. RELEVANCE OF THE SCIENCE OF PSYCHOLOGY** | **12** |
| 2.1. Relevance of the problems that psychology studies in the conditions of globalization................................................................................... | 12 |
| 2.2.The importance of human learning...................................................... | 13 |
| **3-SUBJECT. FEATURES OF THE ACTIVITY OF A SPORTS PSYCHOLOGIST...........................................................................** | **15** |
| 3.1.Status and ethics of a sports psychologist............................................. | 15 |
| 3.2.Formation of the method of treatment in the future psychologist.......... | 18 |
| 3.3.Structure and forms of psychologist treatment. .................................... | 20 |
| 3.4.The psychologist is the main weapon and psychotechnics of the specialty...................................................................................... | 22 |
| **4-SUBJECT. BASIC REQUIREMENTS TO THE ACTIVITIES OF A SPORTS PSYCHOLOGIST RESEARCHER...................................** | **25** |
| 4.1. The meaning and form of self-preparation for the specialty of a psychologist. ............................................................................... | 25 |
| 4.2. Characteristic of scientific activity of Institutes of psychology (sports federations, kelegzhes of Olympic reserves, laboratories of scientific problematic)................................................................................... | 26 |
| **5-subject. SUBJECT OF PSYCHOLOGY.............................................** | **29** |
| 5.1.Subject of psychology and its justification in science. .......................... | 29 |
| 5.2. Modern and classic definitions of psychics. ........................................ | 30 |
| 5.3. Forms of manifestation of psychic processes and interrelation between them........................................................................................... | 33 |
| **6-SUBJECT. NETWORKS OF PSYCHOLOGY...................................** | **36** |
| 6.2. Classification of some existing psychological networks in the US and the RF.............................................................................................. | 36 |
| 6.3. Brief descriptions of the branches of psychology, which are developing in our conditions and gaining a practical touch......................... | 46 |
| **7-SUBJECT. METHODS OF PSYCHOLOGY**..................................... | **48** |
| 7.1. Basic techniques of psychology. .......................................................... | 48 |
| 7.2. The observation method and its brief classification. ............................ | 53 |
| 7.3. Survey method and its classification. ................................................... | 59 |
| 7.4. Psychological tests and their types. ..................................................... | 61 |
| 7.5. Psychological experiment and its organization...................................... | 62 |
| 7.6. Psychologization of modeling. ............................................................ | 64 |
| **8-SUBJECT. STRUCTURE OF THE NERVOUS SYSTEM................** | **66** |
| 8.1. Nerve cell, its tumors and the membranes that cover them. | 66 |

| | |
|---|---|
| Neuron........................................................................................... | |
| 8.2. Diffuse nervous system. ..................................................................... | 68 |
| **9-SUBJECT. CENTRAL NERVOUS SYSTEM....................................** | **70** |
| 9.1. The head brain. The spinal cord. Consecutive brain. Middle brain. Intermediate brain. Previous brain. Oblong brain, varietal Bridge and brain. Four Peaks, a red core and a plot of the other BTA of the brain. ...... | 70 |
| 9.2. Vegetative centers. Brain handle. The right and left hemispheres of the anterior brain. Surface parts of the Cerebral Hemispheres.................... | 73 |
| **10-SUBJECT. GENERAL UNDERSTANDING OF PSYCHICS..........** | 77 |
| 10.1. The main stages of the development of imagination about the subject of psychology. ........................................................................................ | 77 |
| 10.2. Development of psychology within the framework of philosophy. ..................................................................................................... | 78 |
| 10.3. Forms of reflection in living and inanimate nature. ........................... | 79 |
| 10.4. Unconsciousness and unconsciousness. ............................................ | 80 |
| **11-SUBJECT. THE SOCIO-HISTORICAL NATURE OF THE HUMAN PSYCHE...........................................................................** | 82 |
| 11.1. Labor is a feature of activity: sociological, etc. .................................. | 82 |
| 11.2. The occurrence of needs. ................................................................... | 83 |
| 11.3. The concept of Individ, subject, person, individuality. ....................... | 86 |
| **12-SUBJECT. THE IMPORTANCE OF SPEECH IN THE OCCURRENCE OF PSYCHOLOGICAL PROCESSES......................** | 89 |
| 12.1. The occurrence and development of speech in labor activity............. | 89 |
| 12.2. Speech functions. ............................................................................. | 94 |
| 12.3. Speechless and non-speech treatment................................................ | 96 |
| 12.4. Treatment structure............................................................................ | 97 |
| **13-SUBJECT. DEVELOPMENT OF HUMAN PSYCHE IN ONTOGENESIS.......................................................................** | **100** |
| 13.1. The emergence of personality and consciousness in socio-historical experience. .......................................................................................... | 100 |
| 13.2. Concepts of interreorization and exteriorization................................. | 102 |
| 13.3. Results of the subject creative activity. .............................................. | 103 |
| **14-SUBJECT. GENERAL UNDERSTANDING OF ACTIVITY..........** | **107** |
| 14.1. Research the psychological characteristics of the structure of activity. ........................................................................................... | 107 |
| 14.2. Activity predictability.......................................................................... | 111 |
| 14.3. Orientated and acting activity, individual and partner, creative and non-creative activity. ........................................................................... | 116 |
| **15-SUBJECT. THE PROBLEM OF PERSONALITY AND SOCIETY IN PSYCHOLOGY.................................................................** | **120** |
| 15.1. Personality as a product of social influences. The concept of" person". "Homo sapiens" - the concepts of "intelligent breed". ................ | 120 |
| 15.2. Formation of a healthy e'tiqod and ideological imagination in a person. ............................................................................................... | 124 |

| | |
|---|---|
| 15.3. The main criteria for the socialization of a person. Socialization or the process of socialization. Social institutions. ......................................... | 130 |
| 15.4. Formation of the vital direction of the individual in the process of socialization. The most important components of personality orientation.......................................................................................... | 134 |
| **16-SUBJECT. THEORIES OF PERSONALITY IN FOREIGN PSYCHOLOGY.........................................................................................** | **138** |
| 16.1. Different approaches to the study of the individual. .......................... | 139 |
| 16.2. Theories of personality in World psychology.................................... | 139 |
| 16.3. Z.Freud school............................................................................... | 143 |
| 16.4. Definition of personality in the former Soviet psychology................. | 146 |
| **17-SUBJECT. INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF PERSONALITY DEVELOPMENT AND THEIR ROLE……………..** | **149** |
| 17.1. Characteristics of individuality as a subject of differential psychology. .......................................................................................... | 149 |
| 17.2. Evolution field of study of individual differences between humans… | 151 |
| 17.3. Characteristics of human personality and individuality……………… | 153 |
| 17.4. Lifestyle, individual characteristics of a person, cooperation activities-the basis of Personality Development......................................... | 156 |
| **18-SUBJECT. A BRIEF CLASSIFICATION OF COGNITION PROCESSES. ..........................................................................................** | **159** |
| 18.1. Cognition processes and professional activity. .................................. | 159 |
| 18.2. Cognition processes and their brief classification. ............................ | 162 |
| 18.3. Psychic processes, psychic property, the concept of psychic States.............................................................................................. | 163 |
| **19-SUBJECT. THE FACT THAT INTUITION AND PERCEPTION ARE THE INITIAL STATE OF PSYCHIC PROCESSES...........................................................................................** | **168** |
| 19.1. Physiological characteristic of the environment. ................................ | 168 |
| 19.2. Philosophical sympathies to the concept of intuition. ......................... | 170 |
| 19.3. Theories about intuition..................................................................... | 171 |
| 19.4. Receptor and reflex theory of intuition. ............................................. | 175 |
| **20-SUBJECT. CLASSIFICATION OF SENSATIONS..........................** | **180** |
| 20.1. Interoceptive, ecsteroceptive and proprioceptive senses and their role in human behavior.............................................................................. | 180 |
| 20.2. Neuro-physiologic basis of senses...................................................... | 183 |
| 20.3. Evolution and genetic predisposition to the classification of senses.............................................................................................. | 185 |
| **GLOSSARIY..........................................................................................** | **201** |
| **LIST OF USED LITERATURE............................................................** | **214** |